

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT  
TEXNOLOGIYALARI VA KOMMUNIKATSIYALARINI  
RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI  
FARG’ONA FILIALI

“KOMPYUTER INJINIRINGI” FAKULTETI  
“GUMANITAR VA IJTIMOY FANLAR” KAFEDRASI



**“HUQUQSHUNOSLIK, O‘ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI  
KONSTITUTSIYASI”  
FANIDAN**

**TAYANCH KONSPEKT**

## **1-Mavzu: Davlat va huquq nazariyasi asoslari.**

**Ma'ruza 2-soat**

### **Reja**

1. Davlat va huquq nazariyasi asoslari fanining predmeti va vazifalari. Davlat tushunchasi. Davlatning kelib chiqishi, uning mohiyati, belgilari, shakllari va davlat mehanizmi.
2. Huquq uning belgilari, vazifalari, manbalari. Normativ huquqiy hujjatlar tushunchasi va turlari.
3. Huquqbuzarlik, uning belgilari va turlari. Huquqni muhofaza etuvchi organlar.
4. Ma'muriy huquq tushunchasi. Ma'muriy huquq tizimi, manbalari, me'yorlari, turlari va munosabatlari.
5. Ma'muriy huquq sub'ektlari, davlat boshqaruv organlari va munosabatlari. Ma'muriy huquqbuzarlik va ma'muriy jazo turlari.

### **1. Davlat va huquq nazariyasi asoslari fanining predmeti va vazifalari. Davlat tushunchasi.**

#### **Davlatning kelib chiqishi, uning mohiyati, belgilari, shakllari va davlat mehanizmi**

Istiqlol sharofati bilan biz mustaqil davlatda, tinchlik va osoyishtalikda umumbashariy qadriyatlarning eng birinchi asosi bo'lgan halq insonparvarligi chashmalaridan bahramand bo'lmoqdamiz. Ayni shu hol taraqqiyot yo'lidan dadil borishimiz va butun insoniyat bilan birdamligimizning, hamjihatligimizning eng mustahkam kafolatidir. Zotan, milliy istiqlol bois davlatchilik tajribamizni, uning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy asoslarini ilmiy tadqiq etish, uni har tomonlama o'rganish istiqbolli vazifaga aylandi. Ayniqsa, o'zbek davlatchiligi rivojining tarihiy tajribasiga tayanish, halqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olgan holda, insonparvar demokratik davlat barpo etish konstitusiyaviy prinsipi sifatida O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining Muqaddimasida belgilab qo'yilganligi masalaning naqadar dolzarbligidan dalolat beradi.

Ma'lumki, yurtimizda qariyb bir yarim asr hukmronlik qilgan chor hukumati va sobiq sho'ro davlati mahalliy aholining huquqiy-siyosiy bilimi va ongi o'sishiga tish-tirnog'i bilan qarshilik qildi. Mustamlakachilikning hamma davrlarida tub aholi vakillarining davlat ishlarida ishtirok etishiga deyarli yo'l berilmadi. Barcha huquq va imtiyozlar kelgindilar izmida bo'ldi. O'zbeklar o'z yurtida begonaday bo'lib yashadi. Bu, shubhasiz, huquqsizlikning o'ta jirkanch ko'rinishlaridan biri edi. SHuning uchun ham mustaqillik bois, endilikda «halqimizning huquqiy madaniyatini yuksaltirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi lozim. Zero, mustaqillik so'zining zamirida ham katta, ulug' huquqqa ega bo'lish degan tushuncha yotadi. YA'ni mustaqillik nafaqat o'zini erkin sezish, o'z hayotini qurish, balki o'z hayot-mamotini hal etishda katta huquqqa egalik ham demakdir»<sup>1</sup>. Avvalambor, ichki va tashqi siyosatni milliy manfaatlar ustuvorligini ta'minlagan holda yurgizish huquqiga ega bo'ldik. SHuningdek, yurtimizning bebaho boyliklariga chinakam egalik huquqini qo'lga kiritish, undan halq farovonligi yo'lida foydalanishdek iqtisodiy erkinlikka erishdik. Qolaversa, istiqloлга, ozodlikka, milliy davlatchilikka ega bo'lishga, adolatli jamiyat qurishga bo'lgan asriy orzu-umidlarimizni ro'yobga chiqarishdek ma'naviy huquq sohibiga aylandik.

Shu munosabat bilan: «Davlatning o'zi nima?» «Huquq nima degani?» «Ularning jamiyatdagi vazifasi va imkoniyatlari nimalardan iborat?» degan savollar ko'ndalang bo'lishi tabiiy.

Avvalambor, hozirgi sharoitda O'zbekistonning yangi davlatchiligini mustahkamlash uchun jamiyatning siyosiy institutlari tizimida davlatning o'rni va ahamiyatini aniq belgilab olish lozim. Ayni paytda milliy taraqqiyotning XXI asr boshlari asosiy strategik ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lgan davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish «Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari» siyosiy qurilish dasturining mohiyatini belgilashi hamda fuqarolik jamiyatining mustahkam asoslarini barpo etish yo'lidagi ishlarimizning mazmunini ifoda etishi

<sup>1</sup> Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. 6-том. Т., «Ўзбекистон», 1998, 29-30-бетлар.

darkor. Bizning sharoitimizda shu kabi jihatlarni to'g'ri idrok etish davlat va huquqning mazmun-mohiyatini teranroq anglash imkonini beradi.

Aslida ***davlat va huquq nazariyasi*** o'z ilmiy maqomi hamda mohiyatiga ko'ra ***umumnazariy hususiyatga va ahamiyatga ega bo'lgan fundamental yuridik fan*** hisoblanadi. SHuni alohida ta'kidlash kerakki, davlat va huquqning umumiy nazariyasi eng muhim yuridik fan sifatida o'zining vazifalari, funksiyalari, predmeti va metodi bo'yicha huquqshunoslik (yurisprudensiiya) uchun umumilmiy mazmunga ega, shu bilan birga, davlat va huquqning aynan umumiy, ya'ni yuridik fanlarning muayyan konsiepsiyalari va tizimlarining umumiy nazariyasini o'zida ifoda etadi. Unda davlat va huquq to'g'risidagi ilmiy-nazariy g'oyalarning barcha eng muhim ahamiyatga molik yutuqlari o'z ifodasini topadi<sup>2</sup>.

Shunga ko'ra aytish mumkinki, ***yuridik fanning predmeti – bu huquq tushunchasidir*** – yanada boshqacharoq ifodalaydigan bo'lsak, – ***bu huquq tushunchasi va davlatning huquqiy tushunchasidir.***

Binobarin, davlat va huquq umumiy nazariyasi mahsus va tarmoq yuridik fanlariga nisbatan umumiy asos, demakki, dasturiy, yo'naltiruvchi metodologik ahamiyatga molik fan sifatida maydonga chiqadi.

Shunday qilib, ***davlat va huquq, ularning mohiyati, bir-biriga bog'liq holda paydo bo'lishi va rivoj topishining asosiy qonuniyatlari, jamiyatdagi maqsad va vazifasini ifodalovchi ijtimoiy hayot hodisalari, shuningdek, siyosiy va huquqiy ong hamda huquqiy tartibga solishning o'ziga hos hususiyatlari davlat va huquq nazariyasi fanining predmeti sifatida namoyon bo'ladi.***

Kishilik jamiyati rivojlanib borgan sari «jamiyat» tushunchasi faollashib bormoqda. Davlat jamiyatning bir qismidir. «Jamiyat» tushunchasi «davlat» tushunchasidan kengroq. Davlat jamiyatda siyosiy boshqaruv funksiyasini bajaradi. Hozirda rivojlangan mamlakatlar halqlari fuqarolik jamiyatini shakllantirishga intilmoqdalar. Davlat va jamiyat o'zaro aloqador, ammo bir hil vazifani bajarmaydi. Davlat va jamiyat uyg'unlikda faoliyat yuritadilar.

Bugungi demokratik tushunchalar rivojlangan jamiyat hayotida ham davlat o'z o'rni va ahamiyatini yo'qotgani yo'q. CHunki, davlat paydo bo'lib, rivojlanib borar ekan, ulkan tarixiy tajribani o'zida mujassamlashtirgan. YUridik adabiyotlarda davlatning paydo bo'lishini, avvalo jamiyatda (ibtidoiy) hususiy mulkni paydo bo'lishi, shu asosida kishilarning mulkiy tabaqalanishuvini vujudga kelishi bilan bog'laydilar<sup>3</sup>.

Davlatning kelib chiqishi haqida bir qancha nazariyalar mavjud bo'lib, bu nazariyalar kishilik jamiyatining rivojlanishini turli davrlarida shakllangan va o'z mazmun - mohiyatiga ko'ra quyidagicha nomlangan:

1. Teologik nazariya;
2. Patriarhal nazariya;
3. Shartnoma nazariyasi,
4. Zo'rlik nazariyasi;
5. Irrigasiya nazariyasi,
6. Sinfy nazariya.

**Davlat** — suverenitetga, boshqaruvning hamda fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qilishning mahsus apparatiga ega bo'lgan, shuningdek, huquq normalari (koidalarini) yaratishga qodir bo'lgan ommaviy hokimiyatning siyosiy-hududiy tashkiloti.

**Davlatning asosiy belgilari quyidagilar**

- A) aholining muayyan hudud bo'yicha joylashuvi;
- B) aholining hududlar bo'yicha uyushganligi;
- V) davlat suvereniteti;
- G) huquq ijodkorligi;
- D) soliq tizimining mavjudligi va hokazo.

<sup>2</sup> Бу ҳақда батафсилроқ қаранг: Проблемы общей теории права и государства. М., «НОРМА», 2002, 1, 19-бетлар.

<sup>3</sup> Ўқинг: А. Саидов, У. Таджиханов, Х. Одилқориев. Давлат ва ҳуқуқ асослари. Тошкент, 2002, 9 б.

**Davlat shakli** deganda, davlat tuzilishi va boshqaruv usulini belgilaydigan tashki xususiyatlari tushuniladi.

<b>Davlat shakllari</b>		
<b>Boshqarish shakli</b>	<b>Tuzilish shakli</b>	<b>Siyosiy tuzum</b>

**1. Boshqaruv shakli** — deganda, oliy davlat hokimiyati, uning idoralari, aholi bilan o'zaro munosabati, aholining ushbu idoralarni shakllantirishda ishtirok etish darajasi tushuniladi. Boshqaruv shakliga ko'ra davlatlar quyidagicha bo'linadi:

- a) monarhiya, (monarhiya mutloq va cheklangan shakllarda uchraydi);
- b) respublika, (respublikalar prezidentlik respublikasi va parlamentar respublikalarga bo'linadi).

**2. Davlat tuzilishi shakli** — uning ma'muriy-hududiy tashkil etilishidir. Tuzilishi bo'yicha davlatlar quyidagi turlarga bo'linadi:

- Unitar;
- Federativ;
- Konfederativ;

**Unitar davlat** — oddiy, yahlit davlat. Bunday davlat oddiy ma'muriy hududiy birliklarga bo'linadi. Davlatda bitta parlament, bitta hukumat, bitta prezident, yagona konstitusiiya, yagona qonunchilik tizimi va yagona fuqarolik bo'ladi.

**Federativ davlat** — ittifoqdosh davlat. Bir necha davlatning shartnoma asosida o'z ihtiyoriga ko'ra birlashuvi. Federasiyada federal darajada ham, federasiya sub'ektlari darajasida ham prezident, parlament, hukumat bo'lishi mumkin.

**Konfederativ davlat** — o'z suverenitetini va mustaqilligini saqlab qolgan holda u yoki bu maqsadga erishish uchun birlashgan davlatlar ittifoqidir. Konfederasiyada yagona hudud, yagona fuqarolik bo'lmaydi. Konfederasiya a'zolari halqaro huquqning teng huquqli sub'ekti bo'la oladilar.

**3. Siyosiy rejim** — davlat hokimiyatini amalga oshirish usul va yo'llarining majmuasi bo'lib, mamlakatdagi siyosiy vaziyatni, ya'ni jamiyatdagi siyosiy erkinlik darajasini va shahsning huquqiy holatini bildiradi. U demokratik va aksildemokratik rejimlar bilan farqlanadi.

Davlat shaklida uyushgan har qanday jamiyatda uning bir maromdagi hayotiy faoliyatini ta'minlash, jamiyat va davlat oldidagi qo'yilgan vazifalarni uddalash, ko'zlangan maqsadga erishish uchun turli hil davlat tashkilotlari faoliyat yuritishi kerak.

**Davlat mehanizmi** davlat tashkilotlari tizimidan iborat bo'lib, uning yordamida davlat hokimiyati amalga oshiriladi, jamiyatda davlat rahbarligi ta'minlanadi, ya'ni davlat mehanizmi — jamiyatni boshqarish va halq manfaatlarini himoya qilishni amalga oshiradigan davlat idoralari va muassasalari tizimidir.

Davlat mehanizmining tuzilishi va uning faoliyati muayyan ob'ektiv tamoyillarga asoslanadi. Eng muhim tamoyillardan biri hokimiyatning bo'linish tamoyilidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 11-moddasida hokimiyatning bo'linish tamoyili o'z ifodasini topgan.

Hokimiyatlarning bo'linishsiz huquqiy davlatning bo'lishi mumkin emasligini ta'kidlash o'rinlidir.

**Davlat hokimiyati quyidagilardan iborat:**

1. Qonun chiqaruvchi
2. Ijro etuvchi
3. Sud hokimiyati

Davlat mahkamasi (apparati) davlat mehanizmining bir qismi bo'lib, davlat hokimiyatini amalga oshirish uchun hukmronlik vakolatlariga ega bo'lgan davlat organlari majmuidan iborat.

Davlat mehanizmi davlat mahkamasidan tashqari davlat muassasalari va davlat korhonalari ham o'z ichiga oladi.

Davlat mahkamasi organlari quyidagi ko'rinishda namoyon bo'ladi.

1. Qonun chiqaruvchi hokimiyat organlari.
2. Ijroya hokimiyat organlari.

### 3. Sud hokimiyati organlari.

**Huquqiy davlat** – huquqning hukmronligi, qonunning ustuvorligi, barchaning qonun va mustaqil sud oldida tengligi ta'minlanadigan, inson huquqlari va erkinliklari kafolatlanadigan, hokimiyat vakolatlarining bo'linishi prinsipi asosida tashkil etilgan demokratik davlatdir.

Huquqiy davlatning asosiy belgilariga quyidagilar kiradi:

1. Huquqning hukmronligi
2. Konstitusiyaya va qonunlarning ustunligi
3. Inson huquq va erkinliklariga rioya etish, ularni himoya qilish va ta'minlash
4. Davlat va fuqarolarning o'zaro mas'uliyati
5. Hokimiyat vakolatlarini bo'linishi
6. Sudning mustaqilligi
7. Huquqiy muhofaza qiluvchi idoralarning samarali ishlashi
8. Huquqiy madaniyatni yuksak darajada ekanligi
9. Demokratiyani rivojlanishi va takomillashuvi.

**Demokratiya**-inson siyosiy va fuqarolik huquqlarining kengligini, fuqarolarning davlat hokimiyati idoralari tuzishda va ularning faoliyatida faol ishtirok etishini, halq irodasini demokratik hokimiyatning yagona manbai deb bilishni anglatadi.

#### **Demokratiyaning ikki shakli mavjud:**

1. Vakillik demokratiyasi.
2. Bevosita demokratiya.

**Aksildemokratik rejim** - davlat idoralari hokimiyatni amalga oshirish chogida demokratik prinsiplar va qoidalarga rioya etmaydilar, yohud tez-tez buzadilar. Natijada fuqarolarning huquq va erkinliklari poymol etiladi.

Aksildemokratik rejim quyidagi ko'rinishlarda bo'ladi:

- Despotik (yunoncha — cheklanmagan hokimiyat);
- Totalitar rejim;
- Fashistik rejim;
- Avtoritar rejim;
- Teokratik rejim;

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikdan so'nggi rivojlanishida fuqarolik jamiyati va demokratik huquqiy davlat qurishni e'tirof etdi. SHu ma'noda o'tgan yillar ichida davlatchilik asosiy institutlarining siyosiy-huquqiy mazmuni o'zgardi. Bir so'z bilan aytganda davlatimizda amalga oshirilayotgan islohatlar huquqiy davlat poydevorini yaratishga qaratilgandir.

### **2. Huquq uning belgilari, vazifalari, manbalari. Normativ huquqiy hujjatlar tushunchasi va turlari.**

**Huquq** - davlat tomonidan o'rnatilgan yoki ma'qullangan va uning kuchi bilan himoya kilinadigan umummajburiy hulq-atvor qoidalarining yig'indisi.

#### **Huquqning belgilari:**

- 1) huquq davlat yo'li bilan o'rnatiladi;

- 2) barcha uchun majburiy;
- 2) huquq normalari qonunlar va boshqa manbalarda ifodalanadi;
- 3) sub'ektiv huquqlar orqali harakat qiladi;
- 4) davlat tomonidan ta'minlanadi.

**«Huquq» ikki ma'noda qo'llaniladi.**

<i>Ob'ektiv huquq</i>	<i>Sub'ektiv huquq</i>
Umummajburiy hulk-atvor koidalarining yigindisi. Bu normalar u yoki bu insonning, sub'ektning irodasi hamda hohish-istagidan kat'i nazar mavjud buladi.	<b>Muayyan jismoniy yoki yuridik shahsga</b> tegishli bo'lgan huquq.

**Masalan,** O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 36-moddasida fuqarolarning mulk huquqi mustahkamlangan. Davlat tomonidan ushbu qoidani mustahkamlab kuyilishi **ob'ektiv huquq**, aytaylik qaysidir bir fuqaroning o'z uy-joyiga nisbatan mulk huquqi **sub'ektiv huquq**.

**YODDA TUTING!** Sub'ektiv huquq ob'ektiv huquqqa asoslanadi, ob'ektiv huquq bo'lmasa, sub'ektiv huquq ham bo'lmaydi.

***Huquqning kelib chiqishiga doir nazariyalar:***

- Tabiiy huquq nazariyasi;
- Huquqning tarixiy nazariyasi;
- Huquqning psixologik nazariyasi;
- Huquqning sinfiy nazariyasi.

**Huquqning funksiyalari**

<i>Tartibga solish funksiyasi</i>	<i>Qo'riqlash funksiyasi</i>	<i>Tarbiyaviy funksiyasi</i>
<b>Jamiyatdagi u yoki bu turdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi.</b>	<b>Huquqiy muhofaza va yuridik javobgarlik choralarini belgilaydi.</b>	<b>Nimalarni qilish mumkin, nimalar ta'qiqlanadi</b>

**Huquq** – ichki yahlitligi va o'zaro muvofiqligi bilan ajralib turadigan muayyan tizim. Lekin boshqa tizimlar kabi huquq ham tarmoqlaridan iborat kichik tizimlarga bo'linadi.

O'zbekiston huquq tizimi quyidagi asosiy tarmoqlarni o'z ichiga oladi.

1. Konstitusiyaviy huquq
2. Ma'muriy huquq
3. Fuqarolik huquqi
4. Jinoyat huquqi
5. Er huquqi
6. Agrar huquq
7. Mehnat huquqi
8. Ijtimoiy ta'minot huquqi
9. Ekologiya huquqi
10. Moliyaviy huquq
11. Fuqarolik- prosessual huquq
12. Jinoyat –prosessual huquq
13. Ho'jalik-prosessual huquq.

Konstitusiyaviy, ma'muriy, fuqarolik va jinoiyat huquqi **asosiy huquq tarmoqlari** deb hisoblanadi.

Yuqoridagilarning dastlabki 10 tasi moddiy huquq tarmog'i bo'lsa, keyingi 3 tasi prosessual huquq tarmog'idir.

**Huquq deganda**, uni ob'ektiv ifodalash usullari tushuniladi.

Huquq manbalarini quyidagi uch asosiy turga bo'lish qabul qilingan.

1. Huquqiy odat
2. Yuridik president
3. Normativ-huquqiy hujjat

**Ahloq va huquq.**

**Ahloq** – kishining jamiyatdagi hulqini normativ tartibga soluvchi usullardan biri. U ijtimoiy hayotning barcha sohalari – mehnat, maishiy turmush, oila, siyosat, halqaro munosabatlar va shu kabilar kiradi. Ahloqning alohida hususiyati shundaki, *ahloq normalariga amal qilish jamoatchilik fikri orqali ta'minlanadi.*

Ahloqdan farqli ravishda, huquq qoidalari umummajburiy hususiyatga ega. Ularni bajarish davlatning majburlash kuchi orqali ta'minlanadi.

Ahloq ham, huquq ham, umuman olganda, butun jamiyatning, demak, aholi aksariyat qismining qarashlari va tushunchalarini aks ettirishi kerak.

**Huquq normalari** – davlat tomonidan belgilangan, kafolatlangan va muhofaza qilinadigan umummajburiy hulq-atvor qoidalari.

**BUNI ESLAB QOLING!** “Norma” so'zi lotinchadan tarjima qilinganda “**qoida**”, “**namuna**” ma'nosini bildiradi.

HUQUQ NORMASINING TUZILISHI		
Gipoteza	Dispozisiya	Sanksiya
Normaning amal qilish shart-sharoitlari, ushbu huquq normasini taqozo etadigan real hayot faktlarini ko'rsatadi	Sub'ektlarning ushbu huquq normalari bilan tartibga solinadigan hulq-atvor qoidalari	Dispozisiyadagi qonunbuzarlik hollari kelib chiqqanida qo'llanadigan davlat majburlov choralari

**SHunday qilib, huquqiy norma quyidagilarni belgilab beradi:**

1. Kim nimani va qachon qilishi kerakligini (**gipoteza**).
2. Huquqiy normani ma'no-mazmunini (**dispozisiya**).
3. Huquq normasini bajarmaslik oqibatlarini qandayligini (**sanksiya**)

**HUQUQ NORMALARINING TURLARI:**

Vakolat beruvchi normalar	Majburiy at yuklovchi normalar	Taqiqlovchi normalar	Imperativ (buyruq beruvchi) normalar	Dispozitiv (to'ldiruvchi) norma

**Huquqiy normalar vakolatli davlat organlari tomonidan qabul kilingan normativ-huquqiy hujjatlarda aks etadi.**

**Normativ-huquqiy hujjatlarning turlari:**

- **Qonun** - parlament yoki referendum orqali qabul qilinadi.
- **Farmon** - davlat boshlig'i, Prezident chikaradigan normativ-huquqiy hujjat.
- **Qaror va farmoyishlar** - davlatning ijro etuvchi hokimiyat organi (Prezident, Vazirlar Mahkamasi) chiqaradigan normativ-huquqiy hujjat.
- **Buyruq va yuriqnomalari** - davlat boshqaruv organlarining ( Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralari) normativ-huquqiy hujjatlari.
- **Qarorlar** - davlat hokimiyati mahalliy ijroiya organlarining normativ-huquqiy hujjatlari.

### 3. Huquqbuzarlik, uning belgilari va turlari. Huquqni muhofaza etuvchi organlar.

*Huquq normalarini buzilishi ya'ni qonunga zid bo'lgan harakat (harakatsizlik) huquqbuzarlik deyiladi.*

**Huquqbuzarlikning asosiy belgilari:**

1) ijtimoiy havflilik; 2) huquqqa zidlik; 3) ayblilik; 4) jazoning muqarrarligi.

**Huquqbuzarlikning turlari:**

a) fuqaroviy-huquqiy; b) ma'muriy; v) intizomiy; g) jinoiy-qilmish.

Huquqbuzarlikning oqibati **yuridik javobgarlikni** keltirib chiqaradi.

<b>YURIDIK JAVOBGARLIK</b>		
<b>Belgilari</b>	<b>Prinsiplari</b>	<b>Turlari (huquq tarmoqlari bo'yicha)</b>
davlat majburlovida namoyon bo'ladi	qonuniylik	fuqaroviy javobgarlik
faqat mahsus vakolatli davlat organlarining aktlari (hukmlar, qarorlar va sh.k.) asosidagina yuzaga keladi	adolat	intizomiy javobgarlik
huquq normalari asosida yuzaga keladi	maqsadga muvofiqlik	ma'muriy javobgarlik
huquqbuzarlikning muayyan mahrumliklarga yo'liqishini taqozo etadi	jazoning muqarraligi	jinoiy javobgarlik
faqat aybli huquqbuzarlik uchun yuzaga keladi.	faqat aybi uchun javobgarlik	moddiy nomulkiy

**Fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza etuvchi organlar:**

Prokuratura, Ichki ishlar vazirligi va uning organlari, Adliya vazirligi, Milliy havfsizlik xizmati davlat mehanizmi tarkibini tashkil etadi.

#### 4. Ma'muriy huquq tushunchasi. Ma'muriy huquq tizimi, manbalari, me'yorlari, turlari va munosabatlari.

**Ma'muriy huquq tushunchasi.** O'zbekistonda jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni isloh qilish va modernizatsiyalash, sud-huquq tizimi, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining hamda ma'muriy islohatlarning qonunchilik asoslarini yanada takomillashtirish ma'muriy huquq asoslari o'rganishning dolzarbligini taqozo etmoqda.

«Ma'muriyat» so'zi lotincha «administratio» so'zidan olingan bo'lib, «boshqarish» ma'nosini bildiradi. SHu bois ma'muriy huquq ko'pincha boshqaruv huquqi yoki boshqarishga oid huquq deb ta'riflanadi.

Davlat boshqaruvini tashkil etish tartibi va boshqaruvini amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan turli-tuman ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi normalarni o'z ichiga olgan huquqning alohida tarmog'i **ma'muriy huquq** deb ataladi.

SHuning uchun ham ko'p hollarda ma'muriy huquq boshqaruv munosabatlariga doir huquq ham deb yuritiladi.

Ma'muriy huquq O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy munosabatlarning mahsus qismini tartibga keltirish bilan huquq tizimining boshqa tarmoqlaridan ajralib turadi.

Ma'muriy huquqning predmeti deganda, ijro etuvchi va farmoyish beruvchi hokimiyatning tashkil etilishi, amal qilishi, kengroq ma'noda davlat boshqaruvi jarayoni rivojlanishi va to'htatilishi bilan yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalarni tushunamiz.

**Davlat boshqaruvi va uning tamoyillari.** **Davlat boshqaruvi** – bu hokimiyatli kuchga tayangan holda insonlarning ijtimoiy hayot faoliyatini tartibga solish, saqlash yoki qayta qurish maqsadida davlatning amaliy, tashkiliy va tartibga solib turuvchi ta'siridir. **Davlat boshqaruvi** - qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida davlat - hokimiyatli huquqlarga ega bo'lgan davlat organlari, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari, jamoatchilik va boshqa nodavlat tuzilmalarining tashkil qiluvchi, ijro etuvchi va taqsimlovchi faoliyatidir.

**Maqsad** – jamiyatda yoki ongli ijtimoiy ehtiyojlar va manfaatlarni ifodalash (aks ettirish), ob'ektiv holatni sub'ektiv ifodasidir. **Boshqaruv maqsadi** – u, boshqaruv sub'ekti erishishining lozim bo'lgan, boshqaruvchilik faoliyatini yakuniy natijasidir.

**Davlat boshqaruvi maqsadlarining ierarhiya (pog'ona)lari** (ehtiyotlar va jamiyat rivojlanishida manfaatlar ustuvorligi tamoyillari asosida qurilishi kerak):

- **ijtimoiy-siyosiy** - jamiyatning kompleks, maqsadli va muvofiqlashgan va samarali rivojlanishi qamrab olishi;
- **sosial** – ijtimoiy-siyosiy maqsadlarning jamiyat sosial tuzilishi, insonlar hayoti holati va darajasiga ta'sirini aks ettiradi;
- **ma'naviy** – ma'naviy va madaniy qadriyatlarni tiklanishi;
- **iqtisodiy** – iqtisodiyot insonlarga xizmat qilishi;
- **tashkiliy** – tashkiliy muammolarni hal etish, ma'lum muvofiq bo'lgan va tashkiliy tuzilmalarni barpo etish;
- **faoliyatli-prakseologik** – faoliyatni aniq tuzilma, xizmat va ish joylari bo'yicha taqsimlash va boshqarishni ko'zda tutadi;
- **ahborotli** – zarur ahborot bilan ta'minlash;
- **anglatuvchi** – maqsadlar majmasini amalga bajarishga ko'maklashuvchi bilimlar, sabablar va rag'batlarni qayta ishlash.

Jamiyatni holati, uni saqlash va qayta qurish bilan bog'liq bo'lgan **strategik maqsadlar**, ular quyidagilarga bo'linadi: **operativ** - harakatning yirik bloklarini ifoda etadi; **taktik** – kundalik aniq harakatlarni belgilaydi.

Maqsadlarning boshqa qirralari: **Ko'lami bo'yicha**: umumiy va hususiy. **Natijalari bo'yicha**: yakuniy va oraliq. **Vahti (muddati) bo'yicha**: uzoqroqdagi, yaqindagi va bugungi kundagi.

Maqsadlar o'zida boshqaruv ob'ektining unga erishish yoki intilish istagining kelajakdagi holatini ifoda etadi. Maqsadlar bir necha mezonlar bo'yicha klassifikatsiyalanadi:

- belgilangan maqsadi bo'yicha (bosh, ikkinchi darajali),
- qamrab olish sohasi bo'yicha (umumiy va hususiy maqsadlar),
- maqsad ierarhiyalari joyi bo'yicha (yuqori, oraliq va quyi),
- mablag' ifodasi bo'yicha (mablag' yoki mablag'siz),
- maqsaddagi o'zgarishlar miqdori bo'yicha (bitta va ko'p o'zgaruvchanlik),
- maqsad predmetlari bo'yicha (umumiy natija uchun maqsad, ishlab chiqarish natijasi uchun maqsad),
- maqsadni o'zaro aloqadorligi bo'yicha (bir-birini to'ldiruvchi, indifirent, raqobatli).

**Boshqaruv vaziflari** – boshqaruv faoliyatining oraliq, bosqichli maqsadlari. Davlat boshqaruvining maqsadlari:

- bozor iqtisodiyoti mehanizmlarini samarali faoliyatini ta'minlash;
- bozor iqtisodiyoti munosabatlarini qo'llash maqsadga muvofiq bo'lmagan sotsial, tabiatni muhofaza qilish va boshqa sohalar rivojlanishini boshqarish;
- mamlakat nufuzini mustahkamlash.

Bozor munosabatlariga o'tish davrida Respublikada quyidagi bosh va ikkinchi darajali vazifalarni hal etish:

1. Respublika iqtisodiyotini strukturali qayta qurish davlat kompleks dasturini ishlab chiqishni tugallash.

2. Ijroiya hokimiyatining barcha darajalarida hozirda harakatdagi iqtisodiyotni boshqarish tuzilmalarini qayta qurish.

3. Halq ho'jaligining barcha sohalarida tadbirlar samaradorligini oshirish bo'yicha kompleks tadbirlar ishlab chiqish.

4. Moliya bozorini qat'iy tartibga solishni ta'minlash.

5. Davlat mulki salmog'ini kamaytirish va hususiy lashtirish tadbirlarini faollashtirish.

**Davlat boshqaruvi tamoyillari** o'zida davlat boshqaruvining ijtimoiy-siyosiy tabiati va boshqa elementlar guruhi munosabatlari va o'zaro aloqasi, ma'lum ilmiy qoida sifatida ifodalangan, ko'pincha o'zining huquqi bilan mustahkamlangan va boshqaruv bo'yicha insonlarning nazariy va amaliy faoliyatida qo'llaniladigan qonuniyatlarini ifoda etadi.

1. Davlat boshqaruvining **ob'ektivlik tamoyili** barcha boshqaruvchilik jarayonlarida ob'ektivlik qonuniyatlari talablariga (tabiiy-tabii va ijtimoiy-tarixiy) va ijtimoiy kuchlarning aniq imkoniyatlari bo'yicha borishi zarurligini belgilaydi.

2. **Demokratizm tamoyili** – davlat boshqaruvida halq hokimiyatini aks ettiradi. Davlat boshqaruvining barcha elementlari insonning ehtiyojlari, manfaatlari va maqsadlari singib ketishini ko'zda tutadi.

3. Davlat boshqaruvining **huquqiy tartibli tamoyili**. Davlat boshqaruvining o'zini tamoyillari, maqsadlari, vazifasi, tuzilmasi, jarayonlari asosiy yo'nalishlarini qonunchilikda aniq bo'lishi zarurligini belgilaydi.

4. Davlat boshqaruvini **qonuniyligi tamoyili**: davlat boshqaruvi rejimida huquqiy aktlarni har tomonlama va to'la ijro etilishini o'rnatish.

5. Davlat boshqaruvida **hududiy tamoyili** – mahalliy boshqaruvni rivojlantirish va mustahkamlash, boshqaruvchilik jarayoniga ko'pchilik fuqarolarni jalb etish imkonini beradi.

6. Davlat boshqaruvini **ochiqligi tamoyili**.

**Tuzilmali tamoyillar quyidagilarga ajratiladi:**

1. Tuzilmali - maqsadli; 2. Tuzilmali – funksional (vazifasiga oid); 3. Tuzilmali - tashkiliy; 4. Tuzilmali - prosiessual.

**Ihtisoslashgan tamoyillar:** davlat hizmati tamoyili, maqsad tamoyili, boshqaruv hodimlari bilan ishlash tamoyili, davlat boshqaruvini ahborot ta'minoti tamoyili, boshqaruv qarorlari himoyalanganligining huquqiy tamoyili, boshqaruvni optimallashtirish tamoyili, vakolatlarni taqsimlash tamoyili, muvofiqlik tamoyili, hodim yo'q paytida uni almashtirish tamoyili, yangi vazifalar tamoyili, malaka oshirish tamoyili va boshqalar.

### **Ma'muriy huquq tizimi 2 qismga bo'linadi.**

**1. Umumiy qism** – umumiy tushunchalar, davlat boshqaruvi tushunchasi va tamoyillari, ma'muriy huquq predmeti, tizimi va manbalari, ma'muriy huquq sub'ektlari (davlat boshqaruv organlari, davlat hizmatchilari, jamoat birlashmalari, fuqarolar).

**2. Mahsus qism** - 4 yo'nalish bo'yicha qo'llaniladigan huquq normalari.

1. Iqtisodiy.
2. Ijtimoiy-madaniy.
3. Ma'muriy siyosiy faoliyat.
4. Tarmoqlararo (soha).

**Ma'muriy huquq manbalari** O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, Qorakalpogiston Konstitusiyasi, Konstitusiyaviy qonunlar, ma'muriy huquqiy normalariga doir qonunlar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ma'muriy boshqarishga taalluqli farmonlari va qarorlari O'zbekiston Respublikasining 1994 yil 22 sentyabrda qabul qilingan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi (yangi o'zgartirish va qo'shimchalar bilan) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining davlat boshqaruvida doir qarorlari, Vazirliklar, idoralar va Qorakalpogiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, mahalliy boshqaruv organlarining farmonlari va qarorlari.

Qonunlar va ularni ijro etish jarayonida davlat organlarining ijro etish va farmoyish berish faoliyati yig'indisi O'zbekiston Respublikasining davlat boshqaruvi degan ma'noni anglatadi. Davlat boshqaruvi tushunchasi haqida gap ketganda uning ikki tomoniga alohida e'tibor qaratish kerakligini ta'kidlash kerak.

1. Ijro etish faoliyati qonunlar va ularni ijro etish asosida.

2. Farmoyish berish – davlat organlari o'zlariga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishda o'zlariga bo'ysunuvchi organlarga rahbarlik qilishda ular uchun majburiy ravishda amalga oshishi zarur bo'lgan hujjatlar (qarorlar, buyruqlar, nizolar, yo'riqnomalar va b.) qabul qiladi. Davlat boshqaruvi – qonun osti ahamiyatga molik faoliyatni anglatadi.

**Ma'muriy huquq manbalari** bo'lib, o'zida ma'muriy huquq normalarni ifoda etgan davlat hokimiyati va davlat boshqaruvi organlarining (ayrim hollarda boshqa davlat organlarining) aktlari hisoblanadi. Bu normal qonunlarda, vakillik organlarining normativ hujjatlarida Prezident farmonlarida, Vazirlar Mahkamasi qarorlarida, vazirlik va davlat qo'mitalari, hokimlarning normativ aktlarda namoyon bo'ladi.

Boshqa huquq sohalari singari ma'muriy huquqning ham asosiy manbasi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi hisoblanadi. Hususan, Konstitusiyaga binoan davlat boshqaruvi organlari tizimiga rahbarlik qiluvchi organ bu - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasidir. Konstitusiyaning 89-moddasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti O'zbekiston Respublikasida davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig'idir, deb belgilangan.

Ma'muriy huquq manbalariga O'zbekiston Respublikasi Havo Kodeksi, Bojhona Kodeksi, Soliq Kodeksi va boshqa huquqiy normativ aktlarni kiritishimiz mumkin.

Ma'muriy huquq manbalariga Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan qator qonunlarni kiritishimiz mumkin. Hususan, O'zbekiston Respublikasining 1992 yil 4-yanvarda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyat organlarini qayta tashkil etish

to'g'risida» gi<sup>10</sup>, O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 2-sentyabrdagi «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida» gi<sup>11</sup>, O'zbekiston Respublikasining 2002 yil 12-dekabrda «Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida» gi<sup>12</sup> qonun hujjatlari va boshqalarni kiritishimiz mumkin.

Ma'muriy huquq manbalariga shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar, davlat qo'mitalari, mahalliy hokimiyat organlari tomonidan chiqarilgan aktlar ham ma'muriy huquqning manbalari qatoriga kiradi.

**Ma'muriy-huquqiy normalar**-davlat boshqaruvi sohasida davlat boshqaruvi organlari, davlat hizmatchilari, shuningdek, korhona, muassasa, tashkilotlar, mehnat jamoalari va fuqarolarning qonunchilik bilan ruhsat etilgan yurish-turish chegarasini belgilab beradi.

**Ma'muriy – huquqiy normalarining turlari:**

1. Boshqaruv organlarining tashkil etilishi, qayta tashkil etilishi va tugatilishi bilan bog'liq normalar.

2. Boshqaruv organlarining faoliyati va vakolatlarini aniqlovchi normalar.

3. Davlat boshqaruvining metodlari va shaklini tartibga soluvchi normalar.

4. Ijro – farmoyish faoliyatda fuqarolarning huquqlari va majburiyatlarini aniqlash.

5. Ijro – farmoyishi berish organi bilan jamoat tashkilotlarining munosabatlari.

6. Ma'muriy jarayonlar ishtirokchilarning huquq va majburiyatlarini ko'rsatib beruvchi normalar.

Ijroya hokimiyati organi majburiy ravishda ushbu munosabatlarning bir tomoni sifatida maydonga chiqadi va o'ziga yuklangan vazifalarga muvofiq o'zining huquqiy vakolatlarini amalga oshiradi.

Tomonlardan birida huquqiy vakolatlarining mavjudligi (ijroiya –farmoyish funksiyasi) ma'muriy munosabatlar yuzaga kelishining zarur shartidir.

**Ma'muriy-huquqiy munosabatlar va ularning turlari.** Ma'muriy huquqiy munosabat deganda, ma'muriy-huquqiy normalar vositasida o'rnatilgan hamda kafolatlangan o'zaro majburiyatlar va huquqlar egasi bo'lib maydonga chiqadigan boshqaruv sohasidagi ijtimoiy munosabatlar tushuniladi.

Yuridik hususiyatiga ko'ra, ma'muriy-huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining o'zaro munosabatlari vertikal va gorizontal huquqiy munosabatlarga ajratiladi.

Vertikal huquqiy munosabatlar ma'muriy-huquqiy boshqaruvning hamda sub'ekt va ob'ekt o'rtasida yuzaga keladigan davlat boshqaruv faoliyati uchun hos bo'lgan subordinatsiya aloqalarining mohiyatini eng ko'p darajada aks ettiradi. Odatda hokimiyat munosabatlari deb, ataladigan munosabatlar aynan shu munosabatlardir.

Gorizontaly huquqiy munosabatlar deganda, taraflar amalda va yuridik jihatdan teng huquqli bo'ladigan munosabatlar tushuniladi. Binobarin, ularda bir tarafning boshqa taraf uchun bajarilishi majburiy bo'lgan yuridik hokimiyat ko'rsatmalari bo'lmaydi.

Davlat boshqaruvini tashkil etish va amalga oshirish jarayoni bilan bog'liq holda yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlar ma'muriy huquq predmetini ifodalaydi. Ma'muriy huquq quyidagi ko'rinishlarga ega:

1. Tashkiliy jihatdan biri ikkinchisiga bo'ysunadigan davlat organlari o'rtasida, yuqori va quyi organlar.

2. Bir-biriga bo'ysunmaydigan davlat organlari o'rtasida.

3. Davlat organlari bilan unga bo'ysunadigan korhona, muassasa va tashkilotlar o'rtasida.

4. Davlat organlari bilan jamoat tashkilotlari o'rtasida.

**5. Ma'muriy huquq sub'ektlari, davlat boshqaruv organlari va munosabatlari.**

**Ma'muriy huquqbuzarlik va ma'muriy jazo turlari**

**Ma'muriy hukuk sub'ekti:**

1. Davlat organlari.

2. Davlat hizmatchilari.

3. Jamoat birlashmalari.

4. Fuqarolar.

**Davlat boshqaruvining turlari va tizimi.**

**O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-21 boblari. O'zbekiston Respublikasining 2003 yil 29 avgustda qabul qilgan yangi tahrirdagi «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida»gi qonunda va Prezident I.Karimovning 2001 yil 7 fevralda Vazirlar Mahkamasining yangi tarkibi bilan uchrashuvidagi nutqida to'la-to'kis belgilab berilgan.**

**Davlat boshqaruvini tashkil etish va amalga oshirish jarayonini tartibga soluvchi qoidalar ma'muriy huquqiy normalar degan tushunchani bildiradi. Ma'muriy-huquqiy normalar davlat tomonidan o'rnatiladi. Ma'muriy-huquqiy normalar ma'muriy-huquqiy munosabatlar ishtirokchilarning huquq va majburiyatlarini tartibga soladi.**

***Fuqarolar va ijro etuvchi hokimiyat organlari.*** Ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarni alohida guruhga ajratish mumkin.

***O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi.*** Vazirlar Mahkamasi, ya'ni O'zbekiston Respublikasi hukumati ijro etuvchi hokimiyat vakolatlarini amalga oshiradi, ijro organlari tizimiga boshchilik qiladi va ularning faoliyatiga rahbarlik qiladi.

***Markaziy ijro etuvchi organlar.*** Ijro etuvchi hokimiyat organlari tarkibiga hukumat bilan bir qatorda mahsus vakolatli davlat organlari-tarmoq yoki tarmoqlararo funksiyalarni bajaruvchi organlar kiradi. Ularning tuzilishini Respublika Prezidenti belgilaydi.

**Hozirgi vaqtda O'zbekistonda ijro etuvchi hokimiyat markaziy organlarining tashkiliy-huquqiy shakllariga quyidagilar kiradi:**

- \* Vazirliklar;
- \* Davlat organlari;
- \* qo'mitalar, departamentlar, agentliklar, shuningdek, respublika vazirliklari, davlat qo'mitalari qoshidagi boshqa davlat boshqaruv organlari (umumlashtirilgan holda ular idoralar deb ataladi);
- \* Qo'mita, bosh boshqarma, komissiya, agentlik va hukumat tarkibiga kirmaydigan boshqa respublika davlat boshqaruv organlari.

Ijro etuvchi hokimiyatning markaziy organlari o'z funksiyalari va vakolatlarining tabiatiga ko'ra, muayyan hususiyatlarga ega.

**Vazirlik**-respublikaning markaziy ijro etuvchi organi bo'lib, davlat boshqaruvining tegishli tarmog'i (sohasi)ga rahbarlik qiladi, shuningdek, qonunda belgilangan doirada tarmoqlararo muvofiqlashtirishni amalga oshiradi.

**Davlat qo'mitasi**-respublikaning markaziy ijro etuvchi organi bo'lib, davlat boshqaruvining tegishli tarmoqlari (sohalari) da yagona davlat siyosatini o'tkazadi va ushbu maqsadda qonunga ko'ra tarmoqlararo muvofiqlashtirishni amalga oshiradi.

Vazir yoki davlat qo'mitasining raisi huzurida maslahat beruvchi va kengashuvchi organ-vazirlik, davlat qo'mitasining hay'ati tashkil etiladi.

Vazirlik yoki davlat qo'mitasi chiqaradigan qaror vazirning buyrug'i bilan hamda davlat qo'mitasining raisi imzolaydigan qaror bilan rasmiylashtiriladi.

**Ma'muriy huquqiy munosabatlar 2 guruhga bo'linadi:**

1. Vertikal – biri ikkinchisiga bo'ysunadigan Vazirlar Mahkamasi – vazirliklar, idoralar.
2. Gorizontal bir-biriga bo'ysunmaydigan: ikki vazirlik, ikki viloyat hokimligi, tuman va shahar hokimliklari.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 10-moddasiga binoan **ma'muriy huquqbuzarlik** deganda qonun hujjatlariga muvofik ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan, fuqarolarning huquq va erkin mulkchilikka, davlat va jamoat tartibiga, tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi, g'ayri huquqiy, aybli (qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasidan) sodir etilgan harakat va harakatsizlik tushuniladi.

#### **Ma'muriy huquqbuzarlik asosiy belgilari:**

1. Jamiyatga karshi hususiyati.
2. G'ayriqonuniyligi.
3. Aybliligi.
4. Qilmishning jazoga loyiqligi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga muvofiq ma'muriy javobgarlik 16 yoshga to'lgan va muomala layoqatiga ega bo'lgan shahslarga nisbatan qo'llanishi belgilab ko'yilgan. (Jinoiy jazolarning ayrimlari uchun 13-14 yoshdan boshlab jazo qo'llanishi belgilangan).

Ma'muriy javobgarlik ijro etuvchi va sud hokimiyatining mahsus vakolatli organlari va mansabdor shahslari aybdorga belgilaydigan ma'muriy jazolar tizimini belgilaydi.

Ma'muriy huquqbuzarliklar ma'muriy javobgarlikni qo'llash uchun asos bulib hizmat kiladi. Ma'muriy javobgarlik uchun ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilishi asos bo'lib hizmat qiladi. O'z tabiatiga ko'ra amaldagi qonunlarga muvofiq jinoiy javobgarlikka olib kelmaydigan huquqbuzarliklarga nisbatan ma'muriy javobgarlik ko'llaniladi. Ma'muriy – huquqiy munosabatlar doirasida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga keltiradigan huquq tarmog'i Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks deb atalishini ham ta'kidlab o'tishimiz lozim. Ma'muriy javobgarlikning jinoiy javobgarlikdan o'ziga hos alohida tafovutlari A.Saidov, U.Odilqorievlarning darsligida ko'rsatib berilgan.

#### **Ma'muriy jazo turlari**

Ma'muriy jazo ma'muriy huquqbuzarlik uchun javobgarlik mezoni chorasi bo'lib, qo'yidagi maqsadlarda ko'llaniladi.

1. Ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan shahsni qonunlarga rioya etish va huquq-tartibotni hurmat qilish ruhida tarbiyalash.

2. Boshqa shahslar tomonidan yangi huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish.

Ma'muriy huquqbuzarliklar sodir etgan shahslarga ma'muriy jazo turlari 1994 yil 22 sentyabrda qabul qilingan Uzbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi bilan belgilab kuyilgan.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 23-moddasiga muvofik ma'muriy jazoning quyidagi turlari belgilab qo'yilgan:

1. jarima;

2. ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita predmeti bo'lgan narsani haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish;

3. ma'muriy huquqbuzarlik sodir etish quroli yoki bevosita predmeti bo'lgan narsani musodara qilish;

4. shahsni unga berilgan mahsus huquqdan (transport vositasini muayyan boshqarish, ov qilish) huquqidan mahrum qilish;

5. Ma'muriy qamoq.

Jinoyat qonunchiligini ijtimoiy adolat va insonparvarlik tamoyillariga moslashtirib demokratlashtirilishi va erkinlashtirilishi munosabati bilan ma'muriy huquqbuzarlik sodir etganlik uchun jazolarni belgilashga doir o'zgartirishlar va ko'shimchalar kiritiladi. SHu jumladan, 61-moddaning tahririda bayon etildi. 167, 174, 176 –moddalarga muayyan o'zgartirishlar kiritildi. Oz mikdorda talon-taroj qilish degan 61-moddaning 3-qismi talon-taroj qilingan mulkning qiymati eng kam ish haqining besh barobaridan oshmasa O'zbekiston Respublikasining 2001 yil 27 avgustdagi eng kam ish haqidan oshmasa, bunday talon-taroj oz miqdordagi talon-taroj qilish deb hisoblanadi.

1. Jarimaning miqdori ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgan vaktdagi, davom etayotgan ma'muriy huquqbuzarlik uchun esa bu huquqbuzarlik aniklangan vaqtdagi belgilab qo'yilgan

eng kam oylik ish hakidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Jarima ma'muriy jazoning eng ko'p qo'llaniladigan turi bo'lib, ma'muriy huquqbuzarlik sodir etishda aybdor shahsga belgilanadigan va davlat foydasiga olinadigan pul undirish, jarimaning eng kam miqdori eng kam oylik ish haqining 50 dan bir qismidan — 79 590:50=1591,8 so'm, mansabdor shahslarga esa 10 dan 79 590:10=7959 bir qismidan oshmasligi, eng ko'p miqdori esa fuqarolarning 79 590h5-397950 eng kam oylik ish haqining 5 barobaridan, mansabdor shahslarga 79 590h10=3979500 nisbatan 10 barobar bo'lishi kerak. (MJK 25-moddasi). 2012 yil 1 dekabdagi eng kam ish haqi 79 590 so'mni tashkil qiladi.

2. Ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli bo'lgan ashyoni ma'muriy ravishda haqini to'lash sharti bilan olib ko'yish. Olib ko'yilgan ashyo sotilib, undan tushgan pul sotish uchun ketgan harajatlarni chiqarib tashlagan holda egasiga qaytariladi (MJK 26-moddasi).

3. Musodara qilish – ma'muriy huquqbuzarlik sodir etish quroli bo'lgan ashyoni haqini to'lamasdan majburiy tarzda davlat mulkiga o'tkazish (MJK 27-moddasi). SHu o'rinda musodara qilish O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 53-moddasi O'zbekistonda mulkchilik to'g'risidagi qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablariga moslashtirib amalga oshirilishi kerakligini ta'kidlash lozim.

4. Mahsus huquqdan mahrum qilish muayyan shahsni unga berilgan mahsus huquqdan mahrum qilish chorasi bo'lib, tuman (shahar) sudining ma'muriy ishlar bo'yicha sudyasi tomonidan (uch yilgacha bo'lgan muddatga) ko'llaniladi (MJK 28-moddasi).

5. Ma'muriy qamoq kamdan-kam hollarda jinoyatlarga yaqin huquqbuzarlik yoki ma'muriy huquqbuzarliklar ko'pol ravishda takrorlangan holda ko'llaniladi. 3 sutkadan 15 sutkagacha bo'lgan muddatda ko'llaniladi (MJK 29-moddasi).

Ma'muriy qamok homilador ayollarga 3 yoshgacha bo'lgan bolalari bor ayollarga, 14 yoshgacha bo'lgan bolalarni yakka o'zi tarbiyalayotgan shahslarga 1 va 2 guruh nogironlariga nisbatan qo'llanilishi mumkin emas.

MJKning 37-moddasiga muvofiq ma'muriy jazoga tortilgan shahs shu jazoni o'tash muddati tugagan kundan boshlab 1 yil mobaynida ma'muriy huquqbuzarlik sodir etmagan bo'lsa, mazkur shahs ma'muriy jazoga tortilmagan deb hisoblanadi. Qonunda nazarda tutilgan ayrim mahsus hollarda (mayda bezorilik, oz miqdorda talon-taroj qilish) va boshqalar uchun ma'muriy jazo ko'llash huquqi tuman (shahar) sudlari tomonidan beriladi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 11-moddasiga binoan ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan shahs o'z harakati yoki harakatsizligining qonunga hilof ekanligini bilgan, uning zararli oqibatlariga ilgaridan ko'zi etgan va ularni ongli ravishda istagan, ushbu oqibatlarining yuzaga kelishi ehtimolligini bilgan bo'lsa, bunday ma'muriy huquqbuzarlikni qasddan sodir etilgan huquqbuzarlik deb ataladi.

Ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shahs o'z harakati va harakatsizligi natijasida zararli oqibatlar yuz berishi mumkinligiga ilgaridan engiltaklik bilan ularning oldini olaman, deb ko'zi etgan, ammo umid qilgan yohud bunday oqibatlar bo'lishi mumkinligiga ko'zi etishi kerak bo'lgan holda ilgaridan ko'zi etmagan bo'lsa, bunday huquqbuzarlik ehtiyotsizlik orqasidan sodir etilgan, deb hisoblanadi. (MJK 12-moddasi).

MJKning 13-moddasiga ko'ra, ma'muriy javobgarlikka ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgan paytdan 16 yoshga to'lgan shahslar tortiladilar.

Qonunga hilof harakat yoki harakatsizlik sodir etilgan vaqtda muomalaga layoqatsiz holatda bo'lgan, ya'ni o'z harakatlari uchun javob bera olmaydigan yoki surunkali ruhiy kasallik, ruhiy faoliyatining vaqtinchalik ishdan chiqishi, aqliy ojizlik yohud boshqa kasallik oqibatida o'z harakatlarini idora qila olmaydigan shahs ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

**Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda ma'muriy huquqbuzarlikning quyidagi tavsifi berilgan:**

1. Fuqarolarning huquq va erkinliklariga tajovuz qiladigan.
2. Aholi sog'ligini saqlash sohasidagi.
3. Mulkka tajovuz qiluvchi.
4. Tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish.

5. Sanoatdagi, qurilishdagi, issiqlik hamda elektr energiyasidan foydalanish sohasidagi.
6. Qishloq ho'jaligi, veterinariya, sanitariya sohasida.
7. Transport yo'l ho'jaligi va aloqa sohasida.
8. Fuqarolarning turar joy huquqlari, kommunal hizmat va obodonlashtirish sohasidagi.
9. Savdo tadbirkorlik va moliya sohasidagi.
10. Odil sudlovga tajovuz qiluvchi.
11. Jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi.
12. Boshqaruvning belgilangan tartibiga tajovuz qiluvchi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning Oliy Majlisning oltinchi sessiyasidagi «Adolat – qonun ustuvorligida» nomli ma'ruzasida va O'zbekiston Respublikasining 2001 yil 29 avgustda qabul qilingan «Jinoiy jazolarning liberallashtirish munosabati bilan jinoyat, jinoyat – prosiessual kodekslari hamda ma'muriy javobgarlik kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi qonuniga muvofiq savdo va hizmat ko'rsatish qoidalarini, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish tartibini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik qo'llanilayapti. Ilgari bunday qilmishlar uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan edi. Mustaqillik yillarida hususiy sektorning o'rni mustahkamlanishi, tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash, hususiy mulkning dahlsizligi, uning hilma-hil mulklar kabi teng huquqliligi to'g'risidagi konstitusiyaviy qoidaning davlat tomonidan muhofaza etilishi, davlat tuzilmalarining kichik biznes va hususiy tadbirkorlik faoliyatiga noqonuniy yo'llar bilan aralashishini kamaytirib borish munosabatlari bilan ma'muriy choralar qo'llash tizimini to'liq qayta ko'rib chiqish vaqti keldi. Jinoiy yo'l bilan orttirilgan mol-mulknii musodara qilish haqidagi qonun normalari o'z kuchida qoladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasida ta'kidlaganidek, dunyoning rivojlangan demokratik mamlakatlarda bo'lgani kabi tekshirishlar bo'yicha ma'muriy jazolarni (ho'jalik sub'ekti faoliyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan katta miqdorda jarima solish) ham sud tomonidan tayinlash tizimiga o'tish hayot taqozosiga aylanmoqa.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning 2005 yil 14 iyundagi tadbirkorlik sub'ektlarining huquqiy himoya qilish tizimi, ularning faoliyatini tekshirishlar soni qisqartirilganligi hamda moliyaviy javobgarligining erkinlashtirilganligi to'g'risidagi farmoni munosabati bilan ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qonunga muvofiq Ma'muriy Kodeksning 174-moddasi qimmatli kog'ozlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish, 277-moddalari «Bojhona nazorati zonasi rejimining buzilishi» yangi tahriri qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasining 2005 yil 28 dekabrda qabul qilingan Jinoyat kodeksini hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishi haqidagi qonuniga muvofiq (202<sup>1</sup>-moddasi) yangi tahrirda berildi, yangi 239<sup>1</sup>-moddalar («Nodavlat tijorat tashkilotlarining faoliyatini amalga oshirish tartibini buzishi jamoat fondining harajatlarining belgilangan eng yuqori miqdordan oshirib yubormasligi haqida»gi modda 184<sup>1</sup> va 184<sup>1</sup>moddalar) («Diniy mazmundagi materiallarni qonunga hilof ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatish; Milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovatni targ'ib qiluvchi materiallarni tayyorlash, saqlash va tarqatish») bilan to'ldirilgan.

Ma'ruzaning hulosa qismida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksini tayyorlash rejalashtirilganligini ham ta'kidlab o'tish o'rinli bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunlarni rivojlangan demokratik mamlakatlar tajribasiga ma'muriy huquqbuzarliklarning oldini olishni, tobora yaqinlashtirish, aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ularni Konstitusiiya va qonunlarni hurmat qilish va ularga itoat qilish ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratish lozim.

#### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yhati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiiyasi. -T.: O'zbekiston, 2014.
2. Karimov I.A. YUksak ma'naviyat – engilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.

3. Karimov I. A. [«Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsiepsiyasi»](#) mavzusida 2010 yil 12 noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza.
4. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -T.: O'zbekiston, 2011.
5. Karimov I.A. Ona yurtimiz bahtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida hizmat qilish – eng oliy saodatdir. –T.: O'zbekiston, 2015.
6. Karimov I.A. Betakrorimsan, yagonasan, ona Vatanim – O'zbekistonim! // halq so'zi, 2015, 1 sentyabr.
7. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. -T.: Adolat, 2001.
8. O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida»gi 1993 yil 6 may qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining ahborotnomasi. 1993. 5-son.
9. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi qonun. 1999 yil 14 apreль Halq so'zi. 1999. 11 may.
10. O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonuni 1993 yil 2 sentyabr // Halq so'zi, 1993, 3 sentyabr.
11. O'z. Respublikasi Konstitusiyasiga sharhlar. -T.: O'zbekiston, 2001.
12. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga sharhlar. -T.: O'zbekiston, 2000.
13. Alimov H.R. Ma'muriy huquq. Darslik. -T.: O'zbekiston, 1995.
14. Islamov 3., Mirhamidov M. Huquqshunoslik. –T.: A.Qodiriy nomidagi halq merosi, 2002.
15. Islamov 3., Husanov O., Mirhamidov M. Huquqshunoslik. Ma'ruzalar matni. -T.: O'zbekiston, 2000.
16. Saidov A., Tadjihanov U., Odilqoriev X. Davlat va huquq asoslari. -T.: SHarq, 2002.
17. Hojiev E.T. Ma'muriy huquq. –T.:Ilm-ziyo, 2006.
18. Nazarov K. Ma'muriy huquq. O'quv qo'llanma. —T.: SamDU, 2004. - 214 b.
19. Hakimov G. Ma'muriy huquq (mahsus qism). – T.: TDYUI, 2005. - 331 b.
20. Davlat va huquq nazariyasi (darslik). H.B.Boboev, H.T.Odilqoriev. –T.: O'z. Res.II Akademiyasi, 2009. -568 b.

**Mavzu bo'yicha mustaqil tayyorgarlik uchun savollar:**

1. Davlat nima?
2. Davlatning paydo bo'lish sabablari qanday?
3. Davlatning kelib chiqishi haqida qanday nazariyalar mavjud?
4. Davlatning belgilari?
5. Davlat va jamiyatning o'zaro munosabatlari qanday?
6. Davlat funksiyasi deganda nima tushuniladi?
7. Davlat shakli deganda qanday elementlar haqida gap boradi?
8. Demokratiya nima va uni davlatga nima aloqasi bor?
9. Huquqiy davlat qanday davlat va uning belgilari?
10. O'zbekistonda huquqiy davlat qurishning asosiy yo'nalishlarini aytib bering?
11. Huquqning paydo bo'lishiga nima sabab bo'ldi?
12. Huquq nima?
13. Huquqning kelib chiqishiga doir qanday nazariyalarni bilasiz?
14. Ob'ektiv va sub'ektiv huquqning farqi?
15. Huquq normalari nima?
16. Huquq va huquq normasini farqlab bering?
17. Sanksiya nimani anglatadi?
18. Normativ-huquqiy hujjat nima?
19. Huquq tizimi va tarmog'i nimani anglatadi?
20. Ma'muriy huquq tushunchasi va unin mohiyati?
21. Ma'muriy – huquqiy munosabatlar tushunchasi?
22. Ma'muriy huquqbuzarlik tushunchasi va ma'muriy jazo tushunchasi va turlari?

## 2-mavzu.Moliya huquqi asoslari. Fuqarolik huquqi asoslari. Tadbirkorlik huquqi asoslari

Ma'ruza - 2 soat

### Reja

1. Moliya huquqi predmeti va tizimi. Moliyaviy-huquqiy munosabatlar.
2. O'zbekiston Respublikasida moliyaviy nazorat. Bank huquqi tushunchasi va tizimi.
3. O'zbekiston Respublikasida byudjet huquqi asoslari. Soliq huquqi tushunchasi.
4. Fuqarolik huquqi tushunchasi va manbalari. Fuqaroviy huquqiy munosabatlar ishtirokchilari
5. Mulk huquqi. Majburiyat huquqi. Fuqaroviy huquqiy javobgarlik
- 6.Tadbirkorlik huquqi tushunchasi, tamoyillari va manbalari. Tadbirkorlik faoliyatining sub'ektlari va turlari. SHartnomalar. Javobgarlik.

### **1. Moliya huquqi predmeti va tizimi. Moliyaviy-huquqiy munosabatlar.**

**Moliya** (arab tilidan olingan) pul mablag'lari jamg'armalarini tashkil etish va ulardan foydalanish jarayonidagi ijtimoiy munosabatlarni aks ettiruvchi iqtisodiy kategoriyadir.

**Moliya** – *umumdavlat ehtiyojlarini moliyalashtirish uchun zarur bo'lgan pul mablag'lari jamg'armalarini tashkil etish, taqsimlash va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy munosabatlar tizimidir.*

Moliya huquqi davlat moliyaviy faoliyati sohasida yuzaga keladigan, o'zgaradigan va tugallanadigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan. Bu shuni anglatadiki, moliya huquqi davlatning markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul jamg'armalarini tashkil etish, taqsimlash va ulardan foydalanish jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlarning barcha turlariga o'zining tartibga solish ta'sirini ko'rsatadi.

**Moliya huquqi predmeti** *davlat faoliyati turlaridan biri, ya'ni moliyaviy faoliyat doirasidagi cheklangan ijtimoiy munosabatlardir. Ushbu munosabatlar davlatning markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul jamg'armalarini rejali asosda tashkil etish, taqsimlash va ulardan foydalanish bo'yicha davlat faoliyatini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladi, o'zgaradi va tugallanadi.*

Davlat moliyaviy faoliyati amaliyoti shundan dalolat beradiki, moliya huquqi predmetini tashkil etuvchi ijtimoiy munosabatlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- O'zbekiston Respublikasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar o'rtasidagi tegishli davlat organlari nomidan byudjet jarayonini amalga oshirish va O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti mablag'larini taqsimlash bilan bog'liq munosabatlar;
- bir tomondan, moliya va soliq organlari o'rtasidagi, ikkinchi tomondan, yuridik va jismoniy shahslar o'rtasida davlat oldidagi majburiyatlarini bajarish (soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash), shuningdek, amaldagi qonunchilikda belgilangan hisobot shakllari va boshqa hujjatlar (soliqlar va yig'imlar bo'yicha hisob-kitoblar, daromadlar to'g'risidagi deklarasiyalar)ni topshirish bo'yicha munosabatlar;
- moliya organlari va boshqa davlat organlari o'rtasida mablag'larni sarflash yo'nalishlari bo'yicha byudjet mablag'lari miqdorini belgilash masalalari bo'yicha munosabatlar;
- moliya va soliq organlari (Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi, ularning yuqori va quyi tashkilotlari va muassasalari) o'rtasida soliq va boshqa majburiy to'lovlarni undirib olish tartibi va muddatlarini aniqlashtirish, valyuta nazoratini amalga oshirish bilan bog'liq munosabatlar;
- bir tomondan, Markaziy bank va uning tasarrufidagi korhona va tashkilotlar, ikkinchi tomondan, tijorat banklari va ho'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida bank faoliyatini amalga oshirish uchun lisieziyalar berish, hisob-kitoblarni amalga oshirish va uni buzganlik uchun choralar qo'llashda belgilangan tartibga rioya etish masalalari bo'yicha munosabatlar;
- moliyaviy faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari va ho'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida mazkur sub'ektlar tomonidan davlat moliya intizomiga rioya etilishi bo'yicha munosabatlar va h.k.

**Moliyaviy munosabatlarni tartibga soluvchi huquq me'yorlariga** ularning o'zaro uzviy bog'liqligi hos bo'lib, bu bog'liqlik nafaqat ularni chiqargan hokimiyat va boshqaruv organlarining holati va nafaqat ushbu me'yorlarning qo'llanish sohasi, balki huquqiy tartibga solish predmetining ichki tuzilmasi qonuniyatlari bilan ham belgilanadi. **Demak, moliya huquqi** o'zining ichki tuzilmasi yoki tizimiga, ya'ni ko'plab bir-biri bilan o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan butun bir elementlarga ega bo'lib, ularda moliyaviy-huquqiy me'yorlar muayyan izchillikda birlashadi va joylashadi.

Mahsus adabiyotlarda to'g'ri qayd etilganidek, ***moliya huquqi tizimi deganda, uning moliyaviy munosabatlar bilan ob'ektiv belgilangan ichki tuzilishi, moliyaviy-huquqiy me'yorlarning muayyan izchillikda birikuvi va joylashishini*** tushunmoq kerak.

***Moliya huquqining eng asosiy manbasi*** O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasidir. Konstitusiyon huquqning tadbirkorlikning erkinligi, hususiy mulkchilik huquqini kafolatlaydigan me'yorlari moliyaviy-huquqiy munosabatlarning hususan tabiatini ham belgilaydigan asosiy me'yorlar bo'lib hisoblanadi. Ular byudjet tuzilishi, moliya va pul-kredit tizimi asoslari, belgilangan soliqlar va yig'implarni to'lash majburiyati, davlat moliyaviy faoliyatining tamoyillarini mustahkamlab beradi (Konstitusiyaya, 51, 122-moddalari).

***Moliya huquqining mustaqil manbalari*** bo'lib byudjet tizimi to'g'risida, banklar va bank faoliyati to'g'risida, valyutani tartibga solish to'g'risida, qimmatli qog'ozlar va fond birjasi to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari hisoblanadi.

***Moliya huquqi manbalari qatoriga*** ijroiya hokimiyati organlarining **qonunosti hujjatlari ham kiradi**. Demak, moliyaviy-huquqiy me'yorlar Prezident farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, joylardagi davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining qarorlarida mavjud.

#### **Moliyaviy-huquqiy munosabatlar.**

Moliyaviy-huquqiy munosabat huquqiy munosabatlarning muayyan bir turini tashkil etadi. SHu munosabat bilan har qanday huquqiy munosabatga hos bo'lgan umumiy hususiyatlar unga ham hosdir. **Ma'lumki, huquqiy munosabat unga yuridik shakl beradigan huquq me'yorining mazkur ijtimoiy munosabatni tartibga solish ta'siri natijasidir.** SHu sababli huquqiy munosabatlarda tomonlar, o'z ihtiyori bo'yicha to'la harakat qilishi mumkin bo'lgan huquq me'yorlari bilan tartibga solinmagan ijtimoiy munosabatlar, masalan, ahloq me'yorlari bilan bog'liq bo'lgan munosabatlardan farqli ravishda, o'zaro yuridik majburiyatlar va huquqlar egalari bo'lib qoladi, ularning aloqasi esa, yuridik hususiyatga ega bo'lib, davlat majburiy kuchi bilan muhofaza etiladi.

Moliya huquqiga oid mahsus adabiyotlarda moliyaviy-huquqiy munosabatlarning o'ziga hos turli hususiyatlari ajratiladi. Ammo, ko'pchilik mualliflar tomonidan haqqoniy ravishda ko'rsatilgan predmetning o'ziga hosligi va moliya huquqi usulini hisobga olgan holda, mazkur munosabatlarning asosiy hususiyatlari quyidagilardan iboratdir:

***Birinchi***dan, moliyaviy-huquqiy munosabatlar faqat davlat pul jamg'armalarini rejali tashkil etish, taqsimlash va ulardan foydalanish jarayonida yuzaga keladi. Demak, moliyaviy-huquqiy munosabatlarning belgilovchi hususiyati shundan iboratki, ular asosan davlat va ijtimoiy hayotning mahsus sohasida, ya'ni davlatning aynan moliyaviy faoliyati sohasida tarkib topadi.

***Ikkinchi***dan, moliyaviy-huquqiy munosabatlar ko'pincha mulkiy munosabatlarning turlaridan hisoblanadi, chunki ushbu munosabatlar ob'ekti sifatida pul mablag'lari qatnashadi. Demak, pul munosabatlari markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul mablag'lari jamg'armalarini tashkil etish va ulardan foydalanish bilan bog'liq holda yuzaga keladi.

***Uchinchi***dan, moliyaviy-huquqiy munosabatlar tomonlaridan biri sifatida hamma vaqt davlat yoki uning vakolatli organi qatnashadi. Moliyaviy-huquqiy munosabatlarning mazkur hususiyati shu bilan izohlanadiki, moliyaviy-huquqiy munosabatlarning asosiy ob'ekti hisoblangan moliyaviy faoliyat to'g'ridan-to'g'ri va bevosita davlatning hohish-irodasi va manfaatlarini ifodalaydi. Ayni shu davlat butun jamiyat manfaatlari yo'lida markazlashtirilgan pul mablag'lari jamg'armalarini yaratadi va tasarruf etadi, iqtisodiyot va ijtimoiy sohani moliyalashtirishni tashkil etadi.

Moliyaviy-huquqiy munosabatlar davlat-hokimiyat hususiyatisiz mavjud bo'lishi mumkin emasligi va ularning mulkiy, pul munosabatlari bilan chambarchas uzviy bog'liqligi sababli moliya huquqiga oid adabiyotlarda ular ***hokimiyat-mulkiy munosabatlar*** sifatida ta'riflanadi.

Moliyaviy-huquqiy munosabatlarni huquqiy munosabatlarning mustaqil turiga ajratish uchun qayd etilgan barcha hususiyatlarning birgalikdagi majmuiga ega bo'lish lozim. Ko'rsatilgan hususiyatlardan hech bo'lmasa bittasining yo'q bo'lishi shundan dalolat beradiki, mazkur holda gap huquqiy munosabatlarning boshqa turlari haqida ketishi mumkin. Masalan, huquqning boshqa tarmoqlari, hususan fuqarolik huquqi me'yorlari (qarz shartnomasi, kredit shartnomasi) bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar mulkiy hususiyatga ega bo'ladi. Ammo bu erda faqat moliyaviy-huquqiy munosabatlarning o'zigagina hos bo'lgan boshqa hususiyatlar yo'q. Fuqarolik-huquqiy munosabatlari, bir tomondan, davlat moliyaviy faoliyati bilan bog'lanmagan, ikkinchi tomondan esa, ushbu munosabatlar sub'ektlari turli huquqlarga ega bo'lib, o'zlarining o'zaro munosabatlarini shartnoma asosida quradilar, ya'ni ularda hokimiyat hususiyati yo'q. Boshqa misol sifatida ma'muriy huquqiy munosabatlarni havola qilish mumkin, ular ham, moliyaviy-huquqiy munosabatlar kabi, hokimiyat-mulkiy hususiyatga ega bo'lib, tomonlardan biri sifatida hamma vaqt ijroiya hokimiyat organi qatnashadi.

YUqorida bayon etilgan dastlabki qarashlar ***moliyaviy-huquqiy munosabatni davlat moliyaviy faoliyatida yuzaga keladigan, hukmronlik-mulkiy hususiyatga ega bo'lgan moliyaviy-huquqiy me'yor bilan tartibga solingan ijtimoiy munosabat bo'lib, uning qatnashchilari moliyaviy-huquqiy me'yor bilan bel-gilangan va kafolatlangan yuridik majburiyatlar va huquqlar egalari bo'ladi*** deb ta'riflash uchun asos bo'ladi.

## **2. O'zbekiston Respublikasida moliyaviy nazorat. Bank huquqi tushunchasi va tizimi.**

**Moliyaviy nazorat** moliyaning mahsus funksiyasi bo'lib, uning maqsadi moliyaviy resurslarni boshqarish qonuniyligi va samaradorligi bo'yicha qabul qilingan andozalardan chetga chiqish hollarini aniqlash, bunday chetga chiqishlar mavjud bo'lganida esa, ularni tuzatish va oldini olish bo'yicha tegishli choralarni o'z vaqtida qabul qilishdan iborat. U nazoratning boshqa turlaridan farqli o'laroq, ijtimoiy ishlab chiqarishning barcha sohalarida mavjud bo'lgan holda, pul jamg'armalari harakatining butun jarayonida kuzatiladi. SHu sababli moliyaviy nazorat har qanday ishlab chiqarishda ho'jalik yuritish mehanizmining ob'ektiv ravishda zaruriy bo'lgan tarkibiy qismidir, deb tasdiqlash mumkin.

Moliyaviy nazorat tushunchasi, uning mazmun-mohiyati va shakllari to'g'risidagi masala iqtisodiy va yuridik adabiyotlarda hamon munozarali bo'lib qolmoqda.

Lekin ushbu holatni tan olish ilgaritdan beri tarkib topgan «moliyaviy nazorat» atamasini, adabiyotlarda taklif etilganidek, «moliyaviy-ho'jalik nazorati» deb o'zgartirish uchun asos bo'la olmasa kerak. Moliyaviy nazorat ho'jalik faoliyatini nazorat etishning boshqa turlarini ham amalga oshirish zaruratini inkor etmaydi, balki uni ham nazarda tutadi.

Moliyaviy nazoratning mohiyati uning vazifalarida o'z ifodasini topib, ulardan biri «moliyaviy resurslarning ahvolini nazorat etishdan iboratdir. Ushbu nazorat davlat byudjeti oldidagi majburiyatlarning o'z vaqtida va to'liq ijro etilishini, markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul jamg'armalaridan foydalanishga doir operatsiyalarning to'g'ri amalga oshirilishini tekshirishni nazarda tutadi».

Ushbu sharoitlarda moliyaviy nazoratning eng muhim vazifalari moliyaviy munosabatlarning barcha sub'ektlari tomonidan bank, soliq, valyuta qonunchiligi, qimmatli qog'ozlar, sug'urta va auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonunlarga rioya etilishi samaradorligini oshirishdan iborat bo'lib qolmoqda. Moliyaviy nazoratning nihoyatda muhim vazifalaridan biri, shuningdek, to'lov aylanmasini normallashtirish, noto'lovlar, debitorlik va kreditorlik qarzlari bo'yicha salbiy oqibatlarni tugatishdir.

Moliyaviy nazorat vazifalarini amalga oshirish natijasida moliyaviy faoliyatda qonuniylik tamoyili tomonlaridan birini ifodalaydigan ***moliya intizomi*** mustahkamlanadi. *Moliya intizomi* deganda, *davlat va ho'jalik yurituvchi sub'ektlar pul jamg'armalarini tashkil etish, taqsimlash va ulardan foydalanish vaqtida belgilangan ko'rsatmalar va tartibga qat'iy rioya etilishi*

tushuniladi. Moliya intizomi talablari yuridik va jismoniy shahslar hamda davlat organlari uchun amal qiladi.

Moliyaviy nazorat yalpi ijtimoiy va milliy daromadni tashkil etish, taqsimlash va ulardan foydalanish kabi moliyaga hos bo'lgan sifatlarni nazorat etish vositasi bo'lib hizmat qiladi. Boshqacha aytganda, moliyaning nazorat funksiyasi moliyaviy nazoratning asosiy qismi bo'lib, moliyaga bo'lgan ehtiyoj va moliya resurslari majudligi o'rtasida muvozanat bo'lishiga yor-dam beradi.

YUqorida bayon etilgan holatlarni hisobga olib, aytish mumkinki, **moliyaviy nazorat huquq me'yorlari bilan tartibga solingan, davlat va nodavlat organlari hamda ho'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliya resurslarini boshqarish qonuniyligi va samaradorligini belgilash, moliya intizomini ta'minlash hamda aniqlangan tartibbuzarliklarni tugatish va ogohlantirish bo'yicha o'z vaqtida chora-tadbirlar qabul qilishga doir faoliyatidir.**

Davlat moliyaviy nazorati davlat moliya siyosatini amalga oshirish, moliyaviy barqarorlik uchun shart-sharoitlar tashkil etish uchun mo'ljallangandir. Barcha davlatlarda, ular qurilishining o'ziga hosligiga qarab, moliyaviy nazoratning o'z tizimi tarkib topgan. SHunga qaramasdan, chet davlatlarda nazorat-taftish tarmog'ining tashkil etilishi va ishfaoliyati u yoki bu jihatdan ko'p yillik halqaro tajribada ifodalangan umumiy tamoyillarga asoslanadi. Masalan, har qanday yirik dasturni amalga oshirish albatta kichik nazorat tizimini o'z ichiga qamrab oladi. Bu maqsadlarga, odatda, qandaydir muhim davlat dasturi uchun ajratilgan mablag'lar umumiy hajmidan bir-ikki foiz ajratiladi.

**O'zbekistonda davlat moliyaviy nazoratini** Prezident, hukumat organlari (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, barcha darajadagi Halq deputatlari Kengashlari) hamda ijroiya hokimiyatning tegishli organlari amalga oshiradi.

Davlat moliyaviy nazorati tizimida **Hisob palatasiga** katta rol ajratiladi. U mustaqil va ob'ektiv organ bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga hisob beradi.

O'zbekiston Respublikasining auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonunida (2000 yil 26 may, yangi tahriri) **audit deganda, auditorlik tashkilotlarining auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish va boshqa kasbiy hizmatlarni ko'rsatish bo'yicha tadbirkorlik faoliyati tushuniladi.** Auditning ushbu ta'rifi uning mazmun-mohiyati va maqsadini to'liq ochib bera olmaydi. Bizning fikrimizcha, **audit deganda, iqtisodiy sub'ektlarning auditorlar (auditorlik tashkilotlari)ning buhgalteriya hisoboti, to'lov hisob-kitob hujjatlari, soliq deklarasiyalari va boshqa moliyaviy majburiyatlar va talablarini ularning buhgalteriya hisobotiga to'g'riligi va ular tomonidan amalga oshirilgan moliyaviy va ho'jalik operasiyalari O'zbekistonda amal qilayotgan normativ hujjatlarga muvofiqligini aniqlash maqsadida mustaqil ravishda tekshiruv o'tkazish bo'yicha tadbirkorlik faoliyatini tushunmoq kerak.**

Audit ***majburiy va tashabbusli*** bo'lishi mumkin. Agar ***tashabbusli*** tekshiruv iqtisodiy sub'ektning qarori bo'yicha amalga oshiriladigan bo'lsa, ***majburiy audit*** uning hohish-irodasi va istagiga bog'liq bo'lmagan va qonunchilikda belgilangan hollarda majburiy tartibda o'tkaziladi.

#### **Bank huquqi tushunchasi va tizimi.**

Bankning nima ekanligi to'g'risidagi masala, birinchi qarashda tuyulganidek, unchalik oddiy emas ekan. Odatda, bank deganda, ko'pincha pul saqlanadigan joy nazarda tutiladi. Ammo bankni bunday oddiy yoki kundalik turmushdagidek talqin etish uning mohiyatini ochib bermaydi. Bankning mohiyatini italyanacha «ban-ko» so'zidan olingan “bank” atamasining mazmuni ham ochib bera olmaydi. U dastlab o'rta asrlarda Italiyada o'z hizmatlarini ko'rsatgan mol ayirboshlovchilarning do'koni, o'tiradigan kursisi ma'nolarini anglatgan.

**Banklar har qanday davlat moliya-kredit tizimining tarkibiy qismidir.** Ularning faoliyati shu qadar turli-tumanki, banklarning haqiqiy mazmun-mohiyatini aniqlash nihoyatda qiyin. Hozirgi zamon shart-sharoitlarida banklar operasiyalarning nihoyatda turli-tuman bo'lgan hillari bilan shug'ullanadi. Ular nafaqat pul muomalasi va kredit munosabatlarini tashkil etadi, balki investisiyalash, qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi, mulk egasi yoki mablag'larni taqsimlovchilar

bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha pul mablag'larini boshqarishni ham amalga oshiradi. Banklar maslahatchilar sifatida, iqtisodiy dasturlarni muhokama etishda qatnashadi va h.k.

**Bank mohiyatining turlicha tavsiflari mavjud. Ammo bank to'g'risida eng ko'p tarqalgan tasavvurlar quyidagi ta'riflarda berilgan:**

- **bank - korhona sifatida.** Bank korhona hos bo'lgan barcha asosiy hususiyatlarga ega, chunki u mustaqil ho'jalik yurituvchi sub'ekt bo'lib, yuridik shahs huquqlariga ega, mahsulot ishlab chiqaradi va realizatsiya qiladi, xizmatlar ko'rsatadi hamda uning asosiy maqsadi foyda olish hisoblanadi;

- **savdo korxonasi sifatida.** Bunday o'hshatish tasodifiy emas, chunki banklar moddiy ishlab chiqarish tarmoqlaridan farqli ravishda muomala sohasida harakat qiladi, ularning faoliyati ko'p jihatdan tovar aylanishiga bog'liq bo'lib, ushbu holda mahsulotning alohida ko'rinishidagi mahsus shaklda namoyon bo'ladi;

- **vositachi korhona sifatida.** Bank ikki sub'ekt o'rtasida vositachi sifatida qatnashadi, bir tomondan – vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'lariga ega bo'lib, ularni foizlar shaklida daromad olish uchun joylashtirishni istagan kreditorlar bo'lsa, ikkinchi tomondan – ushbu resurslarga muhtoj bo'lib, ssuda foizlarini to'lashga tayyor bo'lgan qarz oluvchi turadi. Bu erda bank kreditor bilan qarz oluvchi o'rtasida talab va taklifni hisobga olgan holda bitimni amalga oshirish imkoniyatini ta'minlovchi muhim bo'g'in sifatida ishtirok etadi;

- **birja agenti sifatida.** Bank to'g'risidagi bunday tasavvur o'tgan yuz yillikning 20-yillaridayoq tarkib topgan edi. Bu shunday shart-sharoit bilan bog'liq ediki, banklar birjaning muqarrar qatnashchilari bo'lib, mustaqil ravishda birja operatsiyalarini tashkil etadi, qimmatli qog'ozlar bilan savdo bo'yicha operatsiyalarni bajaradi;

- **kredit korxonasi sifatida.** Bank to'g'risidagi bunday tasavvur shu bilan izohlanadiki, bank asta-sekin kreditor bilan qarz oluvchi o'rtasida foyda olish maqsadida pul ssudalarini olish va qaytarish bo'yicha o'zaro munosabatlarga xizmat qiluvchi asosiy kredit markazi bo'lib qoldi. Tashkiliy tuzilma sifatidagi bank bilan alohida iqtisodiy munosabatlar tizimi sifatidagi kredit o'rtasida bir-biri bilan juda yaqin bo'lgan o'zaro aloqa mavjud. Hal qiluvchi darajadagi bankning paydo bo'lishi ayni mana shu kredit munosabatlarining rivojlanishiga yordam berdi.

SHu boisdan ham bank mohiyatining ayni ko'rsatilgan tavsiflari O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonuni 1-moddasida o'z ifodasini topib, mustahkamlab berilgani bejiz emas. Unga muvofiq **bank – tijorat tashkiloti bo'lib, bank faoliyati deb hisoblanadigan quyidagi faoliyat turlari majmuini amalga oshiradigan yuridik shahsdir:**

-yuridik va jismoniy shahslardan omonatlar qabul qilish hamda qabul qilingan mablag'lardan tavakkal qilib kredit berish yoki investitsiyalash uchun foydalanish;

-to'lovlarni amalga oshirish.

SHunday qilib, **bank mohiyati to'g'risida umuman gapiriladigan bo'lsa, uning asosini pul-kredit siyosatini tashkil etish va pul belgilarini imitatsiya qilish deb hisoblash mumkin.**

**O'zbekiston Respublikasi bank tizimi:**

Bank tizimi har qanday davlat moliya tizimining eng muhim elementlaridan biri hisoblanadi. U iqtisodiy o'sishni ta'minlash, inflyatsiya (pul qadrsizlanishi) va to'lov balansini tartibga solish kabi joriy va ustivor vazifalarni hal etish uchun foydalaniladi. Jahon amaliyotida moliya-kredit muassasalari tomonidan o'z mijozlariga ko'rsatiladigan xizmatlar hususiyati bo'yicha **kredit tizimining uch muhim elementi ajratiladi:**

- 1) markaziy bank (emissiya banki);
- 2) tijorat banklari;
- 3) ixtisoslashtirilgan moliya muassasalari (sug'urta, jamg'arma va boshqalar muassasalar).

An'anaviy ravishda **bank tizimi** deganda, **u yoki bu davlatda muayyan bir tarihiy davrda mavjud bo'lgan turli shakldagi banklar va bank institutlarining o'zaro bog'liq bo'lgan majmui** tushuniladi.

«Bank tizimi» tushunchasi bilan birga, nisbatan keng ma'nodagi «bank-kredit tizimi» tushunchasi ham mavjud bo'lib, u ilmiy va o'quv adabiyotlarida tez-tez uchraydi. Qayd etilgan ushbu tushunchalar o'rtasidagi farq shundan iboratki, gap bank-kredit tizimi haqida ketayotgan bo'lsa, unga banklardan tashqari, ixtisoslashtirilgan moliya muassasalari, masalan: sug'urta, investisiya va boshqa institutlar ham kiritiladi, lekin ular ayrim bank operatsiyalarini amalga oshirsa ham, bank maqomiga ega emas.

Banklar va boshqa turli investisiya institutlari (jamg'armalar, kompaniyalar) bilan birga, O'zbekiston bank-kredit tizimiga kirgan moliya muassasalari qatoriga kredit uyushmalari ham kiradi. O'zbekiston Respublikasining «**Kredit uyushmalari to'g'risida**» 2002 yil 4 apreldagi qonuniga muvofiq ular yuridik va jismoniy shahslar tomonidan teng huquqli ixtiyoriy a'zolik asosida kreditlar berish maqsadida tuziladi. Biroq banklardan farqli ravishda kredit uyushmasi kredit operatsiyalarini faqat shunday uyushma doirasidagina amalga oshirishi mumkin. Ko'rsatilgan qonunchi hujjatining 10-moddasiga muvofiq kredit uyushmasi: o'z a'zolaridan depozitlarga pul mablag'larini jalb qilish; o'z a'zolariga kredit berish huquqiga ega.

Bank tizimining *segmentlangan* modeli operatsiya faoliyati bilan ayrim turdagi moliya tashkilotlarining funksiyalarini qonunchilik bilan qat'iy ajratilishiga asoslanadi. Bunday model, masalan, AQSH va Yaponiya bank tizimi uchun hosdir.

*Universal* modelda banklar va boshqa kredit tashkilotlari har qanday turdagi bank operatsiyalarini amalga oshirishi va mijozlarga barcha turdagi xizmat turlarini ko'rsatishi mumkin. Ushbu holda qonun operatsiyalarning ayrim turlarini amalga oshirishda qandaydir cheklashlarni nazarda tutmaydi. Bank tizimining bunday modeli, masalan, Buyuk Britaniya uchun hos.

O'zbekiston bank tizimida yuz bergan o'zgarishlar bank qonunchiligida mustahkamlangan bo'lib, ular bozor munosabatlari tizimida banklarning mohiyati va vazifalari to'g'risida chet el tajribasi va hozirgi zamon tasavvurlariga asosan ishlab chiqildi.

**Bank qonunchiligi** deganda, vakolatli davlat organlari tomonidan o'z vakolati doirasida qabul qilingan va bank tizimi va bank faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar majmui tushuniladi.

**Birinchi daraja** - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bo'lib, u mamlakat butun bank tizimiga boshchilik qilib, unga rahbarlikni amalga oshiradi. Uning funksiyalari o'zining asosiy ko'rinishlari bilan bozor iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda bunday banklar bajaradigan vazifalarga o'xshashdir.

**Ikkinchi daraja** - tijorat banklari tizimi bo'lib, unga aksiyadorlik, hususiy, aralash turdagi banklar, chet el kapitali ishtirokidagi banklar va boshqalar kiradi. Tijorat banklari mamlakat bank tizimining negizini tashkil etadi. Ularning asosiy vazifasi omonatlarni jalb etish, ularni qarz oluvchilar o'rtasida taqsimlash, hisob-kitob operatsiyalarini amalga oshirishdan iborat.

Bank faoliyatini huquqiy tartibga solishda moliya huquqi me'yorlari katta rol o'ynaydi. O'zbekiston huquq tizimining ushbu tarmog'i uning o'ziga hos bo'lgan davlat-hokimiyat ko'rsatmalariga asoslangan moliyaviy munosabatlarni tartibga solish usullaridan foydalanib, bank tizimi faoliyatining barqaror-ligi va havfsizligini hamda bozor qayta qurishlari sharoitlarida mamlakatni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirishning asosiy vazifalariga javob bera oladigan davlat pulkredit va valyuta siyosatining samarali olib borilishini ta'minlaydi.

Bank tizimini moliyaviy-huquqiy tartibga solishga qaratilgan eng muhim sub'ekt O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidir.

**Markaziy bank o'zining huquqiy maqomi bo'yicha bank tizimini davlat tomonidan boshqarish** organi hisoblanadi. Bunday maqom asoslari O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 124-moddasida belgilab berilgan bo'lib, unga asosan Markaziy bank mamlakatimiz bank tizimini boshqaradi.

Markaziy bankning bank faoliyatini tartibga solish bo'yicha eng muhim funksiyalari quyidagilardan iborat:

- 1) banklarni lisenziyalash;
- 2) majburiy zahira talablarini belgilash;

- 3) iqtisodiy normativlarni belgilash;
- 4) banklar faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish.

Belgilangan tartibda banklarni lisenziyalash jarayoni ikki bosqichdan tarkib topgan:

- 1) *Markaziy bank tomonidan bank ochish uchun tahminiy ruhsat olish;*
- 2) *bank operasiiyalarini amalga oshirish uchun lisenziya berish bilan bir vaqtda bankni ro'yhatdan o'tkazish.*

### **3. O'zbekiston Respublikasida byudjet huquqi asoslari. Soliq huquqi tushunchasi.**

O'zbekiston mustaqillikka erishib, bozor munosabatlariga o'tganidan keyin mamlakat moliya siyosatining mazmuni tubdan o'zgarib, byudjet tizimini mustahkamlash uning tarkibiy qismi bo'lib qoldi. Hozirgi zamon sharoitlarida byudjet davlat iqtisodiy siyosatining eng muhim vositasi bo'lib bormoqda.

Butun byudjet tizimining markazi O'zbekiston Respublikasining (har qanday suveren davlatning ajralmas qismi hisoblangan) Davlat byudjetidir. Ayrim boshqa davlatlardan farqli ravishda, bizning Respublikamiz Davlat byudjeti qolgan barcha byudjetlarni o'zida birlashtiruvchi davlatning yagona markaz-lashtirilgan pul jamg'armasidir. Amaldagi qonunchilikka muvo-fiq O'zbekistonning Davlat byudjeti Respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlarni o'z ichiga qamrab oladi (Konstitusiiyaning 122-moddasi, Byudjet tizimi to'g'risidagi qonunning 9-moddasi).

Byudjetni bir necha jabhalarda ko'rib chiqish mumkin: a) *byudjet - iqtisodiy kategoriya sifatida;* b) *byudjet - moddiy ma'noda;* v) *byudjet - huquqiy kategoriya sifatida..*

Byudjet ***iqtisodiy kategoriya*** sifatida davlat tomonidan iqtisodiyotni va ijtimoiy sohani rivojlantirish, mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, moliya resurslarini tashkil etish va ijtimoiy ehtiyojlarga yo'naltiriladigan markazlashtirilgan pul mablag'lari jamg'armasini yaratish va undan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan jamiyat iqtisodiy munosabatlarini ifodalaydi.

O'zining moddiy tarkibi (***moddiy ma'nosi***) bo'yicha byudjet tegishli iqtisodiy dastaklar yordamida shakllantirilgan markazlashtirilgan pul mablag'lari jamg'armasidan iboratdir. Moddiy ma'nodagi byudjet shunchaki oddiy pul mablag'lari jamg'armasi emas, balki davlatning moliyaviy rejasidir. Bu shu bilan bog'liqki, qabul qilingan byudjetning mavjudligi hali moliya yili boshida uning daromad qismida nazarda tutilgan mablag'lar yo'naltirib bo'lingan va ular uning harajat qismida nazarda tutilgan maqsadlar uchun yo'naltirilishi mumkin degan gap emas. Byudjet ko'rsatkichlari moliya yili ohirida erishilishi lozim bo'lgan mo'ljaldir.

***Huquqiy kategoriya*** sifatida davlat byudjeti davlat funksiiyalarini bajarish uchun zarur bo'lgan, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari tomonidan har yili tuziladigan va tasdiqlanadigan markazlashtirilgan pul mablag'lari jamg'armasini tashkil etish va undan foydalanish bo'yicha asosiy moliyaviy rejadan iboratdir. Asosiy moliyaviy reja sifatidagi davlat byudjetining ahamiyati va maqsadi shu bilan belgilanadiki, u barcha moliyaviy rejalarni muvofiqlashtiradi, markazlashtirilgan pul mablag'larining asosiy qismi u orqali o'tadi, uning daromadlar va harajatlar qismi jamiyatning barcha tarmoqlari va sohalari bilan bog'liqdir.

Yuqorida bayon etilganlarni hisobga olgan holda, aytish mumkinki, ***O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti*** – *davlat oliy vakillik organi tomonidan qabul qilinadigan markazlashtirilgan pul mablag'lari jamg'armasini tashkil etish va undan foydalanishning asosiy moliyaviy rejasi bo'lib, u jamiyatning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini samarali hal qilish bo'yicha davlat funksiiyalarini bajarish uchun yo'naltiriladi.*

O'zbekiston Respublikasi **Davlat byudjeti ikki qismdan: daromadlar va harajatlar** qismlaridan iborat. Uning daromadlar qismida qonunchilikda nazarda tutilgan barcha manbalar bo'yicha tushumlarning hajmlari aks ettirilib, ularga avvalambor belgilangan soliqlar va yig'implarning barcha turlari hamda boshqa daromadlar kiradi. Harajatlar qismi byudjet mablag'laridan foydalanishning aniq miqdori va yo'nalishlarini nazarda tutadi.

**Byudjet mablag'larini to'plashning asosiy usuli** - bu to'g'ri va egri soliqlar, resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i, infratuzilmani rivojlantirish uchun olinadigan soliqlardir. Masalan, bu to'lovlar O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti umumiy daromadlarining 97

foizini tashkil etadi (davlat maqsadli jamg'armalari daromadlari bunga kirmaydi). Boshqa daromadlarga faqat 3 foiz to'g'ri keladi. Huddi shunga o'hshash holatni mamlakatning bundan oldingi yillarga mo'ljallangan davlat byudjetlarida ham ko'rish mumkin.

Davlat byudjetining asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati davlat pul mablag'larining markazlashtirilgan jamg'armalarini tashkil etish, taqsimlash va ulardan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan munosabatlarni huquqiy tartibga solish zarurligini belgilaydi. Bu munosabatlar moliyaviy-huquqiy me'yorlarning mahsus guruhi bilan tartibga solinib, ular moliya huquqi bo'limlaridan biri - byudjet huquqini tashkil etadi. Demak, ***O'zbekiston Respublikasi byudjet huquqini davlat byudjeti mablag'larini tashkil etish, taqsimlash va ulardan foydalanish bo'yicha yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi moliyaviy-huquqiy me'yorlar majmui*** sifatida belgilash mumkin.

Moliya huquqiga oid adabiyotlarda byudjet huquqi predmetini tashkil etuvchi, o'zining mazmuni va maqsad yo'nalishlari bilan yagona bo'lgan ijtimoiy munosabatlar, ya'ni quyidagilarni belgilash yoki tartibga solish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar yoki me'yorlar blokining aniq turlariga birlashadi:

- byudjet qurilishi va davlat byudjet tizimi;
- byudjet tizimi daromadlar va harajatlar tuzilmasi, ularni byudjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida taqsimlash tartibi;
- davlat va uning sub'ektlari (ma'muriy-hududiy tuzilmalar) vakolatlari (byudjet huquqlari);
- byudjet jarayonini tashkil etish, ya'ni byudjetni shakllantirish tartibi hamda uning ijrosi to'g'risidagi hisobot;
- byudjet nazorati.

Qayd etilgan holatlarni hisobga olib, ***O'zbekiston Respublikasi byudjet huquqi davlat byudjet qurilishi va byudjet tizimi, byudjet tizimi daromadlari va harajatlari tuzilmasi, ularning turli darajadagi byudjetlar o'rtasi-da taqsimlanishi, davlat va uning ma'muriy-hududiy tuzilmalari vakolati, byudjet jarayoni va byudjet nazoratini belgilovchi moliyaviy-huquqiy me'yorlar majmuidan*** iborat deyish mumkin.

**Byudjet huquqi** O'zbekiston Respublikasi moliya huquqining asosiy bo'limi bo'lib, bu Davlat byudjetining mamlakat moliya tizimining markaziy bo'g'ini sifatidagi o'rni bilan belgilanadi.

Byudjet huquqi me'yorlari bilan tartibga solingan ijtimoiy munosabatlar *byudjet huquqiy munosabatlaridir*. Ular moliyaviy-huquqiy munosabatlarning bir turi hisoblanadi va shu sababli ularga tegishli bo'lgan barcha o'ziga hos hususiyatlarga ega. SHu bilan birga, byudjet huquqiy munosabatlari boshqa moliyaviy-huquqiy munosabatlardan farq qiladigan ayrim hususiyatlarga ham ega.

Byudjet tuzilishining mazmuni masalasi bo'yicha adabiyotlarda turli fikrlar aytilgan edi. Bunda ayrim hollarda byudjet tuzilishi tushunchasi noto'g'ri ravishda toraytirilib, byudjet tizimi tushunchasiga tenglashtiriladi. Aslida esa, ushbu tushunchalar o'rtasida katta farq bor. ***Byudjet tizimi*** deganda, *mamlakat hududida amal qiluvchi barcha byudjetlar majmui* tushuniladi, ***byudjet tuzilishi*** esa, *byudjet tizimining tashkil etilishi, uni tuzish tamoyillari, bu tizim ayrim bo'g'inlari o'rtasidagi o'zaro aloqadan* iborat.

Davlatning byudjet tuzilishi byudjetlarning turlari, ularning har biri yo'nalishi (byudjet tizimi), byudjetlar ayrim turlari o'rtasida daromadlar va harajatlar taqsimlanishi, ular funksiyalarining tamoyillari, vakolatli va ijroiya hokimiyati markaziy va mahalliy organlarining vakolatlarini belgilab beradigan yuridik me'yorlarga asoslanadi. Demak, o'z mazmuniga ko'ra **byudjet tuzilishi tushunchasi** byudjet tizimi tushunchasiga nisbatan ancha keng ekan. Bizning Respublikamiz byud-jet qonunchiligida esa, ushbu teng bo'lmagan tushunchalar o'rtasida tenglik belgisi qo'yilgan bo'lib, Byudjet tizimi to'g'risidagi qonun 4-moddasidagi ta'rif bunga dalil bo'la oladi. Unga muvofiq «Byudjet tizimi turli darajalardagi byudjetlar majmui bo'lib, byudjetlarni tuzishni tashkil etish va tamoyillari, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlardan iborat». O'zbekiston Respublikasining hozir shakllanish bosqichida turgan byudjet qonunchiligini yanada takomillashtirish jarayonida ko'rsatilgan qarama-qarshilikni ko'rib chiqilayotgan ikki noteng

tushunchalarni aniq ajratib olish yo'li bilan bartaraf etish zarur. Bu nafaqat nazariy, balki nihoyatda muhim bo'lgan amaliy ahamiyatga ham egadir, chunki byudjet tuzilishi tushunchasi davlat byudjet siyosatining asosiy elementlarini ko'p jihatdan belgilab beruvchi dastlabki nuqtadir.

**Byudjet tizimi** bir necha darajalardan iborat bo'lishi mumkin, ushbu darajalar soni u yoki bu mamlakatning byudjet tuzilishi bilan belgilanadi. **Unitar (yagona) davlatlarda byudjet tizimi ikki darajadan** iborat. Ularga markaziy byudjet (davlat byudjeti) va mahalliy byudjetlar kiradi (Fransiya, Italiya, Yaponiya va h.k.). **Federativ (ittifoq) davlatlarda byudjet tizimi uch darajaga ega bo'lib**, federal byudjet, federatsiya sub'ektlari byudjetlari va mahalliy byudjetlarni o'z ichiga oladi (Rossiya, AQSH, Germaniya va boshqalar).

**Bizning mamlakatimizda byudjet tizimi ikki darajadan iborat:**

- 1) respublika byudjeti (markaziy byudjet);
- 2) Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar.

**Soliq huquqi tushunchasi**

Bozor munosabatlarining rivojlanishi sharoitlarida davlat iqtisodiy siyosatini amalga oshirishning bosh tartibga soluvchi dastagi soliqlar bo'lib bormoqda, ular «davlat byudjeti daromad qismini eng muhim umumdavlat halq ho'jalik vazifalarini hal etish uchun zarur bo'lgan miqdorlarda shakllantirishni ta'minlash uchun qaratilgan».

Soliqlar tovar ishlab chiqarishi va davlatning paydo bo'lishi bilan birga vujudga kelgan bo'lib, ushbu davlatga ommaviy hokimiyatning asosiy ajralmas qismlari bo'lgan armiya, sud, amaldorlarni saqlash hamda davlatning boshqa ehtiyojlari uchun pul mablag'lari talab qilingan.

Soliqlarning yuridik mohiyatini tashkil etuvchi eng muhim hususiyatlar soliq to'lovlarining beg'arazligi, bu to'lovlarning majburiyligi, ularni joriy etish va undirib olish tartibi, soliqning aniq miqdorini hamda uni amalga kiritishning aniq muddatini belgilashdan iborat.

Soliq to'lovlarining beg'arazligi shuni anglatadiki, soliqlar shaklida byudjetga kiritiladigan pul mablag'lari maqsadli yo'nalishga ega emas. Ular yuridik va jismoniy shahslardan davlat mulkiga beg'araz o'tkaziladi hamda davlat tomonidan iqtisodiyot, ijtimoiy-madaniy tadbirlar, mudofaani moliyalashtirish, davlat apparatini saqlash uchun yo'naltiriladi.

Soliq yuridik mohiyatining majburiylik hususiyati shundan iboratki, soliq to'lovchilar qonun kuchi bilan muayyan shart-sharoitlarda soliqlarni to'lashi shart. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 51-moddasiga muvofiq soliqlarni to'lash bo'yicha majburiyat konstitusiyaviydir. Ko'pgina rivojlangan mamlakatlar konstitusiyalarida ham fuqarolar va raiyalarning soliq to'lash majburiyati konstitusiyaviy hususiyatga ega bo'lib, bu – soliqlarning davlat uchun alohida muhim ekanligi va ularning ahamiyatini namoyon etadi.

Soliqlar majburiyati hokimiyat vakolatlariga ega bo'lgan tegishli organlar orqali davlat kuchi bilan ta'minlanadi va shu sababli soliqlarni to'lash ihthyoriy emas, balki **majburiylik hususiyatiga** ega. Soliqlarning muhim yuridik belgisi ularni belgilash va joriy etish tartibi hisoblanadi. Soliqlarni belgilash hamda ularni undirib olish qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartib va shartlarda amalga oshiriladi. SHu munosabat bilan qonunchilikda nazarda tutilmagan har qanday majburiy to'lov-lar soliq hisoblanishi mumkin emas.

SHunday qilib, **soliqlar - davlat byudjetining daromad qismiga o'tkaziladigan, yuqori qonunchilik hokimiyat organlarining hujjatlariga asosan yuridik shahslar va fuqarolar tomonidan beg'araz, muayyan miqdorda va belgilangan muddatlarda umumdavlat ehtiyojlarini qondirish uchun to'lanadigan majburiy to'lovlardir.**

Amaldagi soliq qonunchiligida «soliq» kategoriyasining normativ ta'rifi berilmagan, zeroki bunday ta'rif katta amaliy ahamiyatga ega bo'lib, ko'rsatilgan qonunchilik me'yorlarini to'g'ri va bir hil qo'llashga yordam beradi. Bundan tashqari, soliq tushunchasi soliqlarni belgilash va undirib olishni tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarini tayyorlashda dastlabki boshlang'ich nuqtalardan biri bo'lib qolishi lozim.

Qayd etish kerakki, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida soliqlarning nafaqat bu so'zning o'z ma'nosidagi emas, balki davlat byudjet tizimiga kiritilishi lozim bo'lgan boshqa

majburiy to'lovlarni ham o'z ichiga olgan ro'yhati mavjud bo'lib, ular «soliqlar tizimi» deb atalgan umumiy tushuncha bilan bir-lashtirilgan. Ushbu ro'yhatga, soliqlardan tashqari, turli yig'imlar ham kiritilgan bo'lib, u o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: a) savdo huquqi uchun yig'im hamda tovarlarning alohida turlarini sotish huquqini beradigan lisenzion yig'imlar; b) yuridik shahslar, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati bilan shu-g'ullanuvchi jismoniy shahslarni ro'yhatdan o'tkazish uchun yig'im (Soliq kodeksining 5- va 7-moddalari). Davlat byudjetining daromad qismida tegishli moliya yili uchun egri soliqlar qatorida boj-hona boji kabi majburiy to'lov turi ham nazarda tutiladi.

Har qanday davlatda soliqlarning roli ular bajaradigan funksiyalar bilan belgilanadi. Soliq funksiyasi deganda, uning mohiyatining harakatda namoyon bo'lishi, uning hususiyatlarini ifodalash usuli tushuniladi. Funksiya ushbu iqtisodiy kategoriyaning qiymatni taqsimlash va daromadlarni qayta taqsimlash vositasi sifatidagi ijtimoiy vazifasi qay tarzda amalga oshirilishini ko'rsatadi. Soliqlarga fiskal, tartibga solish va qayta taqsimlash funksiyalari hosdir.

Soliqlarning fiskal funksiyasi ular tabiatining o'zi bilan belgilanadi, ular majburiy tartibda va beg'araz davlat daromadiga kelib tushadi hamda davlat tomonidan o'z harajatlarini qoplash uchun ishlatiladi. Fiskal funksiya vositasida soliqlarning bosh ijtimoiy vazifasi amalga oshiriladi byudjet tizimi va byudjetdan tashqari jamg'armalarda to'planadigan davlat moliyaviy resurslari shakllantiriladi hamda ular davlat o'z funksiyalarini bajarishi uchun foydalaniladi. Soliqlarning fiskal funksiyasi davlatga moliyaviy mablag'larning asosiy qismini yo'naltirish uchun imkon beradi.

Soliqlarning tartibga solish funksiyasi shundan iboratki, ular ijtimoiy ishlab chiqarish, uning tuzilmasi va dinamikasiga, fan-tehnika taraqqiyotini tezlashtirishga iqtisodiy ta'sir ko'rsatuvchi muhim vosita bo'lib hizmat qiladi. Soliqlar vositasida ishchanlik faolligini rag'batlantirish yoki, aksincha, uni cheklash mumkin. Soliqlar yordamida proteksiionistik iqtisodiy siyosatni olib borish yoki tovar bozoriga erkinlikni ta'minlash mumkin.

#### **4. Fuqarolik huquqi tushunchasi va manbalari. Fuqaroviy huquqiy munosabatlar.**

**Fuqarolik huquqi** — huquqning mustaqil tarmog'i bo'lib, tomonlarning yuridik tengligiga asoslangan mulkiy va shahsiy nomulkiy hamda tovar-pul munosabatlarini tartibga soladi.

**Fuqarolik huquqi** – insonning kundalik hayoti va faoliyati bilan chambarchas bog'liq bo'lgan huquq sohasidan biridir. U fuqaroga mulkiy va shahsiy nomulkiy munosabatlar sohasida katta huquqlar beradi va bu huquqlarni boshqa kishilar tomonidan buzilishidan muhofaza qiladi. Har bir fuqaro qonunga binoan shahsiy va hususiy mulkka ega bulish, mulkni meros qilib olish va vasiyat qilib qoldirish huquqiga egadirlar. Inson sog'ligi va hayotini, uning sha'ni va qadr-qimmatini saqlash ishida fuqarolik huquqi muhim ahamiyatga egadir.

SHu bilan birga Fuqarolik huquqi fuqarolarning maishiy, savdo-sotik, kommunal, transport hizmati ko'rsatish sohasidagi munosabatlarini tartibga solib turadi.

Birok Fuqarolik huquqi faqat fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solib qolmasdan, balki korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va davlat ishtiroki bilan bo'ladigan munosabatlarni ham tartibga solib turadi.

Fuqarolik huquqining eng muhim masalalari O'zbekiston Respublikasining 1997 y. 1 martdan kuchga kirgan Fuqarolik kodeksiga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining birinchi qismi 1995 y. 21 dekabr, ikkinchi qismi esa 1996 y. 29 avgustda tasdiqlanib 1997 y. 1 martdan kuchga kiritilgan. Bu kodeks 1199 moddadan iborat. Fuqarolik kodeksi mulkchilik, korhona tadbirkorlik faoliyatining erkinligini kafolatlash, birjalar, qimmatli qog'ozlar, aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish, iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish, munosabat ishtirokchilarini tengligini e'tirof etish, mulkning dahlsizligiga, shartnoma erkinligiga, fuqarolar huquqlari to'sqinliksiz amalga oshirilishini, ularni sud tomonidan himoya qilinishini ta'minlash zarurligiga asoslanadi.

Fuqarolik huquqi mulkchilik munosabatlarini, iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining shartnomaviy aloqalarini (oldi-sotdi, pudrat, sugurta va h.k.), etkazilgan zararni qoplash,

intelektual mulk, merosga oid munosabatlarni tartibga soladi. Ushbu munosabatlar fuqarolik huquqining *predmetini* tashkil etadi.

Fuqarolik huquqi bilan tartibga solinadigan mulkiy munosabat nima? Bu mol-mulkni muayyan shahslarga tegishli ekanligi, mol-mulkni bir shahsdan ikkinchi shahsga o'tishi bilan bog'liq bo'ladi.

#### **Mulkiy munosabatlarning birinchi guruhiga:**

- a) mulkka egalik kilish
- b) mulkdan foydalanish
- v) mulkni tasarruf etish sohasidagi munosabatlar kiradi.

**Mulkiy munosabatlarning ikkinchi guruhiga** ko'pdan-ko'p shartnoma munosabatlari (mol etkazib berish, pudrat shartnomasi, yuklarni tashish shartnomasi) kiradi. Bulardan tashqari mulkiy munosabatlar asossiz qo'lga kiritilgan va saqlangan mol-mulkni qaytarib berish, meros mulkni merosho'rga o'tishi bilan ham vujudga kelishi mumkin.

Fuqarolik huquqining manbalari:

- O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va taalukli qonunlar.

- Qonun osti hujjatlari.

- Ish muomalasi odatlari, mahalliy odat va an'analar.

Fuqarolik huquqida munosabatlar *ishtirokchilari* bo'lib, *jismoniy* va *yuridik* shahslar hisoblanadilar.

Jismoniy va yuridik shahslarning fuqaroviy-huquqiy munosabatda ishtirok etishlarining zaruriy shartlari bo'lib ularning **huquq** va **muomala layokatiga** ega bo'lishlari hisoblanadi.

#### **Buni bilib kuying!**

Huquq layokati insonning tug'ilishi bilan vujudga keladi va o'limi (vafoti) bilan tugaydi.

Muomala layoqati to'laligicha insonning 18 yoshga to'lishi bilan vujudga keladi.

Muomalaga layoqatsizlik masalasi sud tartibida aniqlanadi va muomalaga layoqatsiz deb topilgan shahslarga *vasiy* yoki *homi*y tayinlanadi.

Fuqarolik qonunchiligida ba'zi hollarda voyaga etmaganlarning **emansipasiyasiga**, ya'ni ularni to'laligicha muomalaga layoqatli deb hisoblashga yul kuyiladi.

**Emansipasiya**-lotincha Emancipatio so'zidan olingan bulib, huquqlarda tenglashish ma'nosini bildiradi.

#### **Yuridik shahs tushunchasi.**

O'z mulkida, ho'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shahsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shahs** hisoblanadi.

#### **Yodda tuting!**

**Yuridik shahslarning huquq va muomala layoqati, ular davlat ro'yhatiga olingandan vaqtdan boshlanadi hamda u tugatilgan vaqtda tugaydi.**

#### **Yuridik shahslar kuyidagi turlarga bulinadi:**

1. Tijoratchi tashkilotlar.

2. Tijoratchi tashkilot bo'lmagan yuridik shahslar.

Yuridik shahslarni yuridik salohiyati konun va ta'sis hujjatlariga binoan ish olib boradigan idoralari yoki vakillari orqali ruyobga chikariladi.

**Bitim** fuqarolik-hukukiy munosabatlarning paydo bo'lishida eng ko'p tarqalgan asosdir.

**Bitim deb** – fuqarolar va yuridik shahslarning fuqarolik huquq va burchlarini belgilash, o'zgartirish va bekor kilishga qaratilgan harakatlarga bitimlar deb ataladi.

**Bitimlar:**

- a) bir tomonlama
- b) ikki yoki ko'p tomonlama bitimlarga bo'linadi.

**Bir tomonlama bitimlarda** bitta shahsning hatti-harakati boshqa shahslar uchun huquq va vazifalar vujudga keltiradi. Masalan, vasiyat, ishonchnoma berish, hadya.

**Ikki yoki kup tomonlama bitimlar** shartnomalar deb yuritiladi. Masalan, oldi-sotdi, pudrat, yollanish shartnomasi va h.k.

Bitim qonunda belgilangan muayyan ko'rinishda bo'lib:

- a) og'zaki;
- b) yozma shaklda bo'lishi mumkin.

**Yozma bitim:**

- 1. Oddiy yozma bitimlarga
- 2. Notarial guvohlantiriladigan bitimlarga bo'linadi.

Oddiy yozma bitim istak bildirgan shahslar tomonidan yoki ularni vakillari tomonidan imzolanishi shart.

Notarial bitim qonunda ko'zda tutilgan hollarda, ya'ni uyni sotish yoki olishda, vasiyatnoma yozishda, mashina sotish va olishda va h.k. tuziladi. Bitimlar bitim tuzuvchilar tomonidan imzolanishi lozim. Agar jismonan zaifligi tomonidan imzo qo'ya olmasa uning vasiysi tomonidan imzolanganligi albatta bitimda qayd etiladi. Aks holda bitim haqiqiy sanalmaydi.

SHartnoma tuzishda FK ning 353 – 385 – moddalari qo'llaniladi.

**Mulk huquqi. Majburiyat huquqi, fuqaroviy huquqiy javobgarlik**

**MULK HUQUQI** – bu o'z egasiga unga tegishli mulkka nisbagan egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish bo'yicha vakolatlar beruvchi ashyoviy huquqdir.

O'zbekiston Respublikasining Mulkchilik to'g'risidagi qonuniga asosan mulkning shakllari mavjud:

- 1. Hususiy mulk.
- 2. Jamoa mulki.
- 3. Davlat mulki.
- 4. Aralash mulk.
- 5. Boshqa davlatlar hamda halqaro tashkilotlar yuridik va jismoniy shahslarining mulki.

<b>Mulk huquqini himoya qilish usullari.</b>	
<i>Vindikasiion da'vo</i>	<i>Negator da'vo</i>
Mulkdorning o'z mol-mulkini boshqa har qanday shahsning noqonuniy egaligidan qaytarishni sud orqali talab qilib olish huquqi. (FK. 228-m).	Mulkiga egalik qilayotgan mulkdorning shu mulkdan foydalanishi va tasarruf etishdagi qonuniy huquqlarini amalga oshirishidagi to'sqinliklarni bartaraf etish talabidir. (FK 231-m).

**Da'vo muddati** – deyilganda huquqi buzilayotgan shahsning da'vosi buyicha uning huquqini himoya qilish muddati tushuniladi.

Da'vo muddatini fuqarolik qonuni ikki hilini belgilaydi:

- 1. Umumiy muddat.
  - 2. Qisqartirilgan muddati.
- Umumiy muddati 3 yil qilib belgilangan.  
Qisqartirilgan muddati 6 oy.

Da'vo bildirish muddatini o'tib ketishi sudga murojaat qilish huquqini yo'qqa chiqarmaydi. Demak, shahslarni fuqarolik huquqiy munosabatlari buzilganda norozi tomon sudga murojaat qilishi belgilangan.

Sud da'vo muddati o'tgan deb ishni to'htatishga haqli emas. U ish yuzasidan o'z qarorini chiqarishi shart.

#### **Shartnoma tuzishda FK ning 353 – 385 – moddalari qo'llaniladi.**

**Shartnoma** – ikki yoki bir necha shahsning fuqarolik huquq va burchlarini vujudga keltirish, o'zgartirish va bekor qilishga qaratilgan harakatlariga aytiladi. (FK 353 modda).

Fuqarolar ham yuridik shahslar ham shartnoma tuzishda erkindirlar. SHartnoma tuzilgan paytdan boshlab kuchga kiradi va tomonlar uchun majburiydir. SHartnoma tomonlarni kelishuviga ko'ra o'zgartirilishi va bekor kilinishi mumkin.

**Vakillik** – bir shahsning boshqa shahs nomidan ish ko'rishiga aytiladi. Vakillikdan jismoniy shahslar ham yuridik shahslar keng foydalanadilar. Harakat shahsning o'zi tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lganda, masalan vasiyat kilish, nikohdan o'tishda vakillik qo'llanilmaydi.

Vakillikning mohiyati shundaki, vakil ish yuritadi, ququq va vazifalar vakil yuborgan kishida bo'ladi. Vakilga berilgan topshiriq mahsus hujjat ishonchnomada qayd etiladi.

#### **Ishonchnoma:**

a) umumiy

b) mahsus bo'lishi mumkin.

Umumiy ishonchnoma turli sa'i-harakatlarni amalga oshirish (shahsiy mol-mulkni boshqarish) uchun vakolatni nazarda tutadi.

Mahsus ishonchnoma ayrim sohadagi bitimlarni – hom-ashyo harid qilish, mahsulotlar sotish va boshqalarni nazarda tutadi.

Ishonchnoma yozma shaklda bo'lib unda kim kimga va nima qilish topshirilgani ko'rsatiladi.

Ayrim ishonchnomalar notarial tasdiqlanadi.

Fuqarolarga ish haqini, pensiyalarni, posilkalarni, stipendiyalarni, nafaqalarni olishga berilgan ishonchnomalar oddiy ravishda tegishli ma'muriyat tomonidan tasdiqlanadi. YUridik shahs nomidan ishonchnoma rahbarning imzosi muhri qo'yilgan holda ham beriladi.

Ishonchnoma berilganda belgilangan muddati 3 yildan ortiq bo'lmagan muddati ko'rsatilgan bo'lishi lozim. Agar muddat ko'rsatilmagan bo'lsa 1 yil muddatda amal qiladi.

Vakil bulish uchun fuqarolar huquqiy salohiyatga ega bo'lishlari kerak.

#### **Demak mulk huquqi tizimi quyidagilardan iborat:**

1. Respublika fuqarolarining hususiy mulk huquqi va horijiy fuqarolarning mulk huquqi.
2. Oilaviy mulk huquqi, mahalla mulki huquqi va yuridik shahslarning mulkchilik ququqi.
3. O'zbekiston Respublikasi davlat mulkchilik huquqi
4. Ajnabiy davlatlar va halqaro tashkilotlarning mulkchilik huquqi, ajnabiy davlatlar yuridik tashkilotlarining mulkchilik huquqi.

Mulk to'g'risidagi qonunning 1-moddasida mulk egasi o'z ihtiyori bilan o'z mol-mulkiga nisbatan qonunga zid kelmaydigan har qanday hatti-harakatni amalga oshirishga haqlidir. SHu bilan birga mulk egasi mulkchilik huquqini amalga oshirishda yollanma mehnatdan foydalanish huquqiga ega.

Yuqoridagi mulklardan tashqari shahsiy mulk ham mavjud bo'lib, bu mulkning asosiy manbasi fuqarolarning mehnati uchun oladigan daromadlaridir. SHahsiy mulkni kelib chiqishida turli hil bitimlar (oldi-sotdi, hadya) qonun va vasiyat bo'yicha meros olish va boshqa asoslar ham muhim rolb o'ynaydi. Shahsiy mulkdan mehnatsiz daromad olish maqsadida foydalanish ta'qiqlanadi.

**Vorilik huquqi** – deyilganda vafot etgan fuqaro mulkini boshqa shahslarga, ya'ni merosho'rlarga o'tishiga tushuniladi. Vafot etgan fuqaro mulkini merosho'rlarga o'tishiga qonun va vasiyat asos bo'ladi.

Meros olish huquqi mulk egasi vafot etishi bilan vujudga keladi.

### **Vorilik asoslariga ko'ra vorislar:**

- a) qonun bo'yicha vorislarga;
- b) vasiyat bo'yicha vorislarga bo'linadi.

#### **Qonuniy vorislar meros olishda ikki navbatga bo'linadilar.**

**Birinchi navbatdagi** merosho'rlariga marhumning eri yoki hotini, farzandlari yoki farzandlikka olgan farzandlari, ota-onasi kiradi.

**Ikkinchi navbatdagi** merosho'rlariga esa marhumning aka-ukalari, opa-singillari, buvilari, buvalari, nabiralari, amakilari, tog'alari, amma va holalari kiradilar.

Har ikki navbatdagi merosho'rlari bo'lmasa qonuniy merosho'ri **davlat hisoblanadi**.

Vasiyat bo'yicha merosho'rlarni mulk egasini o'zi tanlaydi. Buning uchun mulk egasi vasiyatnomani yozgan bo'lishi lozim.

**Vasiyatnoma** – mulk egasining o'z o'limini nazarga olib mulki ustidan bergan buyrug'idir.

Vasiyatnoma yozma ravishda tuzilib vasiyat qilgan kishi tomonidan imzolangan va notarial jihatdan tasdiqlangan bo'lishi shart. Agar vasiyat qiluvchi o'zi imzo qo'ya olmasa nima sababdan imzoni boshqa odam qo'yayotganligini yozib ko'rsatilishi lozim.

Mazkur joyda notarius bo'lmagan taqdirda vasiyatni hokimiyat, boshqa tashkilotlar (kasalhona, sanatoriya, kemalarda, geologiya ekspeditsiya, qamoqhona) rahbarlari tasdiqlashi mumkin.

Mulk egasi o'z vasiyatiga ko'ra qonun bo'yicha merosho'rlarini mulkidan mahrum etishi mumkin. Lekin, birinchi navbatdagi merosho'rlar, balog'atga etmaganlar yoki mehnat qilishga layoqatsizlar vasiyatni mazmunidan qat'iy nazar, konun bo'yicha meros olishda merosni qancha qismini olishi lozim bo'lsa, uning 2/3 qismini olishga haqlidirlar.

Fuqarolik konunida fuqaro yoki tashkilot sha'ni va qadr-qimmatini huquqiy jihatdan muhofaza etish ko'rsatilgan. Ko'p yillar davomida fuqarolar sha'ni va qadriyati faqat jinoiy huquqiy ruhdagi tadbirlar bilan muhofaza qilib kelindi. Ammo bu tadbirlar etarli bo'lmay qoldi.

CHunki jinoiy javobgarlik faqat jinoyatchini jazolash vazifasini hal qilar edi. Jabrlanuvchi nomini tiklash hal qilinmay qolar edi. SHu munosabat bilan fuqarolik qonunida fuqaro yoki tashkilot sha'ni va kadriyatini kamsituvchi ma'lumotlarni agar u haqiqatga to'g'ri kelmasa rad qilishni suddan talab qilish huquqi ko'zda tutilgan qoida kiritildi.

Qonun odam nomini kamsitish qanday usulda bo'lgan bo'lsa huddi shu usulda tiklanishini talab etadi. Agar inson qadri majlisda erga urilgan bo'lsa uning raddiyasi ham shu majlisda amalga oshirilishi kerak. Inson va yuridik shahsning qadri erga urilishi bilan etkazilgan zarar va ma'naviy zarar etkazgan shahs tomonidan qoplanishi shart.

Inson qadri va sha'nini tiklash uchun sudga murojaat etiladi.

**Fuqaroviy – huquqiy javobgarlik** - fuqarolik huquqlarini buzgan shahslarga majburiy ta'sir etish chorasi bo'lib, u jabrlanuvchiga etkazilgan mulkiy zararni qoplash bilan bog'liq, majburiyatdan iborat bo'ladi. Mazkur majburiyatning ikki turi mavjud:

- fuqarolik huquqiga oid u yoki bu shartnomani bajarmaslik yoki undagi shartlarga rioya etmaslik sababli yuzaga keladi (masalan, to'lovni kechiktirish yoki tovarlarga haq to'lamaslik kabi shartnomaviy majburiyat)

- fuqaroning hayot, sog'ligi yoki mol-mulki yohud davlat mol-mulkiga zarar etkazish (masalan, yo'l transport hodisasi natijasida zarar etkazish kabi shartnomadan tashqari majburiyat sababli yuzaga keladiganlar).

Shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarmaganlik uchun fuqarolik ahloqiga oid javobgarlik quyidagilardan iborat:

**a) ziyonni qoplash:** birinchidan, kreditorning buzilgan huquqi, buzilgan yoki yo'qotilgan mulkni (bu ham, o'z navbatida, real ziyonni tashkil etadi) tiklash bo'yicha harajatlar; ikkinchidan, basharti huquqlari buzilmagan bo'lsada, kreditor olishi mumkin bo'lgan daromadni ololmaganlik (qo'ldan ketgan foyda).

**b) neyustoyka (aybona, jarima, penya)** – shartnomada anik, ko'rsatilgan pul miqdoridan iborat bo'lib, uni qarzdor shartnomani bajarmaganlik yoki ohirigacha bajarmaganlik uchun kreditorga to'lashi kerak. Mazkur qarz qat'iy pul summasida yoki foizlarda ifodalanishi mumkin.

Shartnomadan tashqari majburiyatda, masalan, kishining hayoti, sog'ligi yoki mulkiga ziyon etkazilganda, fuqarolik huquqiga oid javobgarlik etkazilgan zararni qoplash tarzida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, jabrlanuvchining sog'ligiga zarar etkazilishi bois, yuzaga kelgan qo'shimcha harajatlar (davolanish, qarov, to'yimli ovqatlanish va h.k.) ham qoplanadi. Biroq, mazkur harajatlarning so'ralishi qonunga muvofiq ravishda isbotlanishi shart.

Jismoniy va ma'naviy jabr ko'rgan fuqaro, mulkiy zararni qoplash bilan birga, ma'naviy zararining ham qoplanishini talab qilish huquqiga ega bo'lib, buni sud pul shaklida belgilaydi.

Fuqaroviy-huquqiy majburiyatni tavsiflash bilan bir qatorda uni qo'llashning quyidagi tartibini aytib o'tish kerak. CHunonchi, huquqi buzilgan shahs sud, ho'jalik sudiga zararining qoplanishi, neustoykani to'lash talabi bilan murojaat etishi mumkin. Umumiy da'vo muddati 3 yilga teng bo'lib, shahs majburiyatlarining buzilganligini bilgan yoki bilishi kerak bo'lgan vaqtdan boshlab hisoblanadi.

## **5. Tadbirkorlik huquqi tushunchasi, tamoyillari va manbalari. Tadbirkorlik faoliyatining sub'ektlari va turlari. Shartnomalar. Javobgarlik**

**Tadbirkorlik huquqiga ta'rif berishdan avval uning huquq tizimida tutgan o'rniga to'htalib o'taylik. Ho'jalik (tadbirkorlik) huquqiga bir tomondan huquqning mustaqil sohasi sifatida, ikkinchi tomondan qonunchilik tarmog'i, uchinchidan fan, to'rtinchidan o'quv predmeti (fani) sifatida qaraladi.**

Tadbirkorlik huquqi huquq tarmog'i sifatida ho'jalik va iqtisodiyot sohasidagi faoliyatni tartibga soluvchi normalar yig'indisidan iborat. "Iqtisodiy faoliyat" termini O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 53-moddasida belgilangan. "Iqtisod" so'zi "ekonomika" grekcha "ekonomos"-so'zidan olingan bo'lib, "ho'jalik" degan ma'noni anglatadi. Ushbu termin qonun chiqaruvchi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining "Ho'jalik faoliyati sohasidagi jinoyatlar" deb nomlangan HSH bobida qo'llanilgan. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 69-moddasida "ho'jalik faoliyati" O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunning 18-moddasida "iqtisodiy faoliyat" iboralari qo'llanilganligini misol tariqasida ko'rsatib o'tish mumkin.

Ho'jalik faoliyati jarayonidagi manfaatlar hudud va milliy sifatlari bo'yicha quyidagicha tasniflanadi:

- Milliy va horijiy
- Regional va mahalliy
- Iqtisodiyot sohalari bo'yicha.

SHunga ko'ra ho'jalik (tadbirkorlik) huquqi, huquq tizimi sohalaridan biri bo'lib, mamlakatimizda bozor iqtisodiy munosabatlariga bosqichma-bosqich borishda davlat va jamiyat manfaatlarini hisobga olgan, ho'jalik sub'ektlari o'rtasidagi yuqoridan quyiga (vertikal) va yon atrofga (gorizontal) bo'ladigan ho'jalik (tadbirkorlik) munosabatlarini tartibga soluvchi va bozor sharoitida davlatning iqtisodga rahbarlik qilish chora-tadbirlarini belgilovchi huquqiy qoidalar yig'indisidan iboratdir.

### **Tadbirkorlik huquqining asosiy tamoyillari**

1. Huquq sohasining barcha tarmoqlari singari tadbirkorlik huquqining ham **asosiy va eng muhim tamoyillari** mustaqil O'zbekiston Respublikasi qonunlarida mujassamlashgan **asosiy qoidalardir.** Ushbu ho'jalik huquqiga oid tamoyillar respublikamizda bozor munosabatlarini tashkil etishda barcha ho'jalik sub'ektlarining iqtisodiy faoliyatini ma'lum bir maqsad sari yo'naltirib, huquqiy tartibga solib turadi.

2. Tadbirkorlik huquqining asosiy tamoyillaridan biri ho'jalik (tadbirkorlik) sub'ektlarining **iqtisodiy faollik erkinligidir.** U Konstitusiyamizning 53-moddasida o'z ifodasini topgan. Bu tamoyilning bozor iqtisodiy munosabatlarini tashkil etishdagi ahamiyati

shundan iboratki, muqaddam iqtisodiy munosabatlar faqat yuqori turuvchi davlat organlarining direktiv ko'rsatmalari asosida belgilangan edi.

**3. Ho'jalik (tadbirkorlik) sub'ektlarining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish tamoyili.** Bu tamoyilning mohiyati har bir moddiy tovar ishlab chiqaruvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi ho'jalik sub'ektining iqtisodiy manfaati qonunlarda belgilangan tartibda tegishli organlar orqali himoya qilinadi. Eng avvalo iqtisodiy manfaatlarining himoyasi soliq munosabatlarida yorqin ko'zga tashlanadi.

**4. Ho'jalik munosabatlariga iqtisodiy uslublarni qo'llash asosida davlatning ta'sir etish tamoyili.** Bu tamoyil mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishiga direktiva, buyruq orqali ta'sir etish usulining iqtisodiy usuliga, ya'ni mehnat jamoasining, yakka shahsning tovar ishlab chiqarish, ish va xizmat ko'rsatish, uning assortimentini kengaytirish va sifatini oshirishda manfaatlarini hisobga olishga qaratilgani bilan izohlanadi.

**5. Respublikamizning mustaqil taraqqiyotini belgilovchi asosiy tamoyillaridan biri narhlarni erkinlashtirish va bozor infrastrukturasi shakllantirishdir.** Bu, eng avvalo, bozorni tovarlar va xizmatlar bilan to'ldirishga qaratilgan iqtisodiy omillardan biridir. SHu sababli davlatimiz narhlarni birdaniga o'z holicha qo'yib yubormasdan asta-sekinlik bilan erkin narhga o'tib borishni ta'minladi.

**6. Tadbirkorlik huquqining asosiy tamoyillaridan yana biri tovar ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchi sub'ektlarning o'zaro raqobatidir.** Bu tamoyilning asosiy mazmuni va mohiyati shundan iboratki, bozor iqtisodiyoti sharoitida kim kam mehnat va harajat sarf qilib, ko'p va yuqori sifatli mahsulot (ish va xizmat) ishlab chiqara olsa, u ijtimoiy hamda iqtisodiy taraqqiyotda imtiyozga ega bo'la oladi.

**7. Qonuniylik tamoyili barcha fanlarga doir bo'lgan umumiy tamoyil** bo'lsa ham, ho'jalik huquqida u bozor munosabatlariga o'tish sharoitida o'ziga hos xususiyatga ega bo'lib, bu tamoyil mazmunida ho'jalik sub'ektlarining qonun man etmagan har qanday faoliyat bilan shug'ullanishlari mumkinligi qoidasi yotadi.

*Tadbirkorlik huquqi manbalari:*

**Ho'jalik huquqi manbalari turlari bo'lib Konstitusiyaga muvofiq qabul qilingan qonunlar va belgilangan tartibda chiqarilgan boshqa huquqiy hujjatlar hisoblanadi.**

**O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan bir qator qonunlar ho'jalik huquqining manbai hisoblanadi.** Jumladan, «Mulknii davlat tasarrufidan chiqarish va hususiyashtirish to'g'risida», «Ijara to'g'risida», «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida», «Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida», «Bank va banklar faoliyati to'g'risida», «Dehqon ho'jaligi to'g'risida», «Fermer ho'jaligi to'g'risida», «Birja va birjalar faoliyati to'g'risida», «Tovar bozorlarida faoliyatni cheklash to'g'risida»gi, «Tovar belgilari, tovar kelib chiqish joy nomi to'g'risida»gi, «Standartlashtirish to'g'risida»gi, «Meterologiya to'g'risida»gi, «Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlash to'g'risida»gi, «Ho'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi qonunlari va «Ayrim korxonalar va mol-mulknii davlat tasarrufidan chiqarish va hususiyashtirishning ba'zi masalalari haqida»gi Qarorini ko'rsatib o'tish mumkin.

**Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan Farmonlar ham muhim ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi.** Bunga misol 1999 yil 28 iyundagi «Moliya ho'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan va qonunchilikda belgilangan muddatlarda o'zlarining ustav jamg'armalarini shakllantirmagan korxonalarni tugatish tartibini soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 1999 yil 23 iyuldagi «Korxonalar bankrotligi va sanasiya mehanizmini takomillashtirish to'g'risida», 2005 yil 30 aprel «O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida»gi Farmonlarni ko'rsatib o'tish mumkin.

**Ho'jalik huquqining manbalaridan yana biri O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi chiqaradigan normativ hujjatlardir.** 2000 yil 2 avgust «O'zbekiston Respublikasi monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi

faoliyatini tashkil etish to'g'risida», 2000 yil 14 avgust «Ijtimoiy muhim oziq-ovqat tovarlarini import qilish va sotishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida», 2002 yil 20 avgustdagi «Lisienziyalashni bekor qilish hamda iste'mol tovarlarni olib kelish va ularni ichki bozorda sotishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi vazirliklari va davlat qo'mitalari o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan huquqiy hujjatlari ham ho'jalik huquqi manbasi sifatida ko'riladi. Ayniqsa, mahalliy hokimiyat va idora etish organlari o'z hududi doirasida kuchda bo'ladigan huquqiy hujjatlar ham bu borada muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

#### Tadbirkorlik huquqi sub'ektlari

Tadbirkorlik huquqining sub'ektlari - bu ho'jalik (tadbirkorlik) faoliyatini amalga oshirishga vakolatli bo'lgan shahslardir.

Tadbirkorlik huquqi sub'ektlari to'g'risida so'z ketar ekan, avvalo, shuni aytish joizki, ularni bir necha turlarga ajratish mumkin. Sub'ektlarni turkumlash ularning mulkchilik shakliga, vakolatlariga, faoliyat turiga qarab belgilanadi.

Mulk shakllarining hilma-hilligidan kelib chiqib, ho'jalik huquqining sub'ektlarini quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

1. Fuqarolarning hususiy mulkiga asoslangan ho'jalik yurituvchi sub'ektlar;
2. Jamoa mulki ko'rinishidagi hususiy mulkka asoslangan ho'jalik yurituvchi sub'ektlar (jamoalar, oilalar, mahallalar, ishlab chiqarish kooperativlari, aksiyadorlik jamiyatlari, ma'suliyati cheklangan jamiyatlar, shirkatlar) va boshqalar;
3. Davlat mulkiga asoslangan ho'jalik yurituvchi sub'ektlar (respublika mulkiga, ma'muriy-territorial tuzilmalarning mulkiga asoslangan);
4. To'la yoki ulush qo'shib ishtirok etishga asoslangan (qo'shma korxonalar) ho'jalik yurituvchi sub'ektlar;
5. Mulchilikning aralash shakliga asoslangan ho'jalik yurituvchi sub'ektlar.

Ho'jalik (tadbirkorlik) huquqi sub'ektlari vakolatlariga ko'ra ham quyidagi turlarga:

1. faqat ho'jalik faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar (fermer ho'jaliklari, hususiy korxonalar va boshqalar);

2. boshqaruvni amalga oshiruvchi sub'ektlar (hokimiyat, vazirliklar, davlat organlari);

3. har ikkalasini qo'shib olib boruvchi sub'ektlar (konsiern, korporatsiya)ga bo'lish mumkin.

Ho'jalik yurituvchi sub'ektlarni faoliyat maqsadiga (turiga) qarab ikki turga:

1. tijoratchi tashkilot;

2. tijoratchi bo'lmagan tashkilotga bo'lish mumkin.

**Tijoratchi tashkilot** bu foyda olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib qo'ygan sub'ekt bo'lib, (hususiy korxonalar, ho'jalik jamiyatlari) tijoratchi tashkilotlarning huquqiy holatlari O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi va boshqa qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan. **Tijoratchi bo'lmagan** ho'jalik yurituvchi sub'ektlar o'z oldiga muayyan maqsadni ko'zlagan holda harakat qilib, foyda ko'rishni ko'zlamaydi.

#### **Tadbirkorlik faoliyatining turlari.**

A) Aksiyadorlik jamiyatlari

**Aksiyadorlik jamiyati to'g'risidagi umumiy qoidalar, aksiyadorlik jamiyati tuzish, Ustav fondi, jamiyatning aksiyalari, obligatsiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlari, jamiyatning sof aktivlari, aksiyalar va qimmatli qog'ozlarni tarqatish hamda joylashtirish, aksiyadorlar reestri va aksiyalarni saqlash, dividendlar, aksiyadorlik jamiyatini boshqaruvchi organlari, jamiyatning yirik bitimlar tuzishi, uni qayta tashkil etish va tugatish, hisob-kitob va jamiyat faoliyatini nazorat qilish masalalari O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 26 aprelda qabul qilingan «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonuni va boshqa qonun hujjatlarida o'z aksini topgan. Ustav fondi jamiyatning aksiyadorlarga nisbatan majburiyatlarini tasdiqlovchi muayyan miqdordagi aksiyalarga taqsimlangan ho'jalik yurituvchi sub'ekt aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi.**

Ochiq aksiyadorlik jamiyatida kapital to'planishini oddiy mehanizmi mavjud, ya'ni investorlarning mablag'lari aksiyalarni chiqarish yo'li bilan jalb etiladi va eng muhimi jamiyat ishtirokchilarining soni cheklanmagandir. Ochiq aksiyadorlik jamiyati aksiyalarning egalari ularni erkin ravishda sotishlari yoki sotib olishlari mumkin, bu jamiyatning faoliyatiga aslo ta'sir etmaydi hamda bu uchun jamiyatning boshqa ishtirokchilarining roziligi talab qilinmaydi. Bunda kapital tadbirkorlikning bir faoliyati sohasidan boshqasiga hech qanday qiyinchiliksiz o'tishi mumkin, boshqa tijoratchi tashki-lotlarda esa kapitalni erkin aylanishi muayyan darajada cheklangan.

YOpiq aksiyadorlik jamiyatida aksiyalar oldindan belgilangan doiradagi shahslar orasida taqsimlanadi. Bunda jamiyat o'zi chiqarayotgan aksiyalarga ochiq obuna o'tkazishga yohud ularni cheklanmagan doiradagi shahslarga sotib olish uchun boshqacha tarzda taklif etishga haqli emas. YOpiq jamiyat aksiyadorlarining soni ellik nafardan ziyod bo'lishi mumkin emas.

#### **b) Ishlab chiqarish kooperativlari**

Ishlab chiqarish kooperativi ho'jalik shirkati kabi shahslarning hamda ularning mulk bilan qo'shiladigan pay badallarini ixtiyoriy birlashmasi bo'lib, unda uning a'zolarini kooperativ faoliyatida shahsan ishtirok etishi talab etiladi. Ishlab chiqarish kooperativida a'zolarining shahsiy mehnati bilan ishtirok etishi kooperativning asosiy belgisi bo'lib hisoblanadi. Agarda kooperativning ustavida boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, daromad ham aynan a'zolarining qilgan mehnatiga muvofiq taqsimlanadi. CHunki, ho'jalik jamiyatidan farqli ravishda ishlab chiqarish kooperativida birinchi o'rinda kapital emas, balki mehnat turadi.

#### **v) Ho'jalik shirkati**

Ho'jalik shirkatining ho'jalik jamiyatlaridan farqi shundaki, shirkat shahslarning birlashuvini hamda ularni shirkat faoliyatida faol ishtirokini talab qilsa, ho'jalik jamiyatlarida mablag' (kapital) birlashtiriladi va unda ishtirokchilarning jamiyat faoliyatida shahsan ishtiroki talab qilinmaydi. Ularning huquqiy mavqelarini belgilab berishda qonun chiqaruvchi aynan mana shu tamoyilga asoslangan.

To'liq shirkat Fuqarolik kodeksi hamda "Ho'jalik shirkatlari to'g'risida"gi Qonunga muvofiq yuridik shahs hisoblanadi. Ho'jalik shirkati to'liq shirkat bo'lishligi uchun, uning ishtirokchilari o'z o'rtalarida tuzilgan shartnomaga muvofiq shirkat nomidan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari hamda uning majburiyatlari bo'yicha o'zlariga qarashli butun mol-mulki bilan javob berishlari lozim. To'liq shirkatning holati ishtirokchilarning soni uncha ko'p bo'lmagan tijorat tashkilotlariga ko'proq mos keladi.

SHirkat nomidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradigan hamda shirkatning majburiyatlari bo'yicha o'zlarining butun mol-mulkleri bilan javob beradigan ishtirokchilar (to'liq sheriklar) bilan bir qatorda shirkat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlari qo'shgan hissalar doirasida javobgar bo'ladigan hamda shirkat tomonidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda qatnashmaydigan bir yoki bir necha ishtirokchilar (hissa qo'shuvchi, kommanditchi) mavjud bo'lsa, bunday shirkat kommandit shirkat hisoblanadi.

#### **g) Mas'uliyati cheklangan jamiyat**

**Mas'uliyati cheklangan jamiyat deb, bir yoki bir necha shahs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilab qo'yilgan miq-dorlardagi ulushlarga bo'lingan jamiyat tan olinadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning maj-buriyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning firma nomi jamiyatning nomini, shuningdek "mas'uliyati cheklangan" degan so'zlarni o'z ichiga olishi kerak. Mas'uliyati cheklangan jamiyatda:**

**Ma'suliyati cheklangan jamiyat bilan bir qatorda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat ham mavjud. Qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatning faoliyati asosan mas'uliyati cheklangan jamiyatga oid huquq normalari bilan tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining 63-moddasiga muvofiq, qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatning firma**

nomi jamiyatning nomini, shuningdek “qo’shimcha mas’uliyatli” degan so’zlarni o’z ichiga olishi kerak.

**Qo’shimcha mas’uliyatli jamiyatning o’ziga hos xususiyati uning ishtirokchilarini jamiyat majburiyatlari bo’yicha javobgarligi ularning ustav kapitaliga qo’shgan ulushlari bilan cheklanmaganligidadir, ya’ni jamiyatining ishtirokchilari uning majburiyatlari bo’yicha o’z mol-mulklari bilan qo’shgan hissalarini qiymatiga nisbatan hamma uchun bir hil bo’lgan, jamiyatning ta’sis hujjatlarida belgilanadigan, karrali miqdorda solidar tarzda subsidiar javobgar bo’ladilar**

#### **Tadbirkorlar ishtirokida tuziladigan shartnomalar.**

SHartnoma nima? **SHartnoma** – bu fuqarolik huquqida ikki yoki undan ortiq (jismoniy yoki yuridik) shahslarning huquq va burchlarini vujudga keltirish, belgilash, o’zgartirish yoki bekor qilish haqidagi o’zaro kelishuvdir. Bunday kelishuvning mazmuni yozma tarzda aks ettirilgan hujjat ham «shartnoma» deb ataladi. SHartnoma bitimning bir turi (O’zR FK, 102-modda) bo’lib, uning ma’nodoshi (sinonimi) sifatida «kontrakt» so’zi ham qo’llaniladi<sup>4</sup>.

Bozor munosabatlari sharoitida esa **shartnomalar** barcha mulk shaklidagi korxonalar, shuningdek tadbirkorlar, hamda boshqaruv organlari o’rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni o’rnatuvchi asosiy huquqiy hujjat bo’lib hisoblanadi.

**SHartnoma deb ikki yoki bir necha (jismoniy yoki yuridik) shahsning huquqlari va burchlarini vujudga keltirish, o’zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuvga aytiladi.**

SHartnoma taraflarning bitimi (kelishuvi) sifatida quyidagi belgilar bilan harakterlanadi:

- taraflarning erkini erkin ifodalanishi;
- uning mazmunini tashkil etuvchi barcha muhim shartlar bo’yicha taraflarning kelishganligi;
- taraflarning o’z majburiyatlari bo’yicha harakatlarini (qoida tariqasida) haq evaziga bajarishi;
- shartnoma munosabatlarida taraflarning tengligi;
- shartnomani ijro qilishning yuridik kafolati;
- shartnoma majburiyatlarini buzganlik uchun javobgarlik.

Ho’jalik yurituvchi sub’ektlar o’rtasidagi ho’jalik shartnomalarini tuzish, bajarish, o’zgartirish va bekor qilish vaqtida yuzaga keladigan munosabatlar O’zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va “Ho’jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to’g’risida”gi Qonuni va boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Ho’jalik shartnomasi deb taraflardan biri shartlashilgan muddatda tadbirkorlik faoliyati sohasida tovarlarni berish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko’rsatish majburiyatini oladigan, ikkinchi taraf esa tovarlarni, ishlarni, xizmatlarni qabul qilib olish va ularning haqini to’lash majburiyatini oladigan kelishuvga aytiladi.

Yuridik shahslar, shuningdek yuridik shahs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan jismoniy shahslar ho’jalik shartnomalarining sub’ektlari (taraflari) bo’ladi.

Ho’jalik shartnomasi - fuqarolik-huquqiy shartnoma hisoblanib, unga nisbatan Fuqarolik kodeksining bitimlar va shartnomalarga tegishli barcha normalari tadbir qilinadi.

SHu bilan bir qatorda ho’jalik shartnomasi o’ziga hos xususiyatlar ega bo’lib, ular quyidagilardir:

birinchidan – shartnoma faqat tadbirkorlik faoliyati sohasida - ya’ni foyda olish maqsadida;

<sup>4</sup> Юридик энциклопедия. Юридик фанлари доктори, профессор У.Таджихановнинг умумий тахрири остида. – Т.: «Шарк», 2001, 542-бет.

ikkinchidan – shartnoma yuridik shahslar va yakka tartibda faoliyat yurituvchi tadbirkorlar o'rtasida;

uchinchidan – shartnoma tovarlar berish, ishlarni bajarish yoki hizmatlar ko'rsatish to'g'risida;

to'rtinchidan – shartnoma faqat yozma tarzda tuziladi.

Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi shartnomaviy munosabatlarning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat: ho'jalik shartnomalarini tuzishning erkinligi; taraflarning o'zaro manfaatdorligi; shartnoma intizomiga rioya etish; taraflarning o'zaro mulkiy javobgarligi.

Ho'jalik shartnomalari fuqarolik-huquqiy shartnomaning bir ko'rinishi bo'lganligi sababli shartnoma tuzish erkinligi tamoyili ham Fuqarolik kodeksida belgilangan qoidalarga asoslanadi.

SHunday qilib, barcha ho'jalik yurituvchi sub'ektlar shartnoma tuzishda erkindirlar, ya'ni ular nima haqda, kim bilan shartnoma tuzishni tanlashlari, majburiyatlarni, o'zaro ho'jalik munosabatlarining amaldagi qonunlarga zid bo'lmagan boshqa har qanday shartlarini mustaqil aniqlashlari mumkin.

Demak, **ho'jalik shartnomasi:** – taraflar o'rtasidagi majburiyatlarni kelib chiqishining asosi hisoblanadi; ho'jalik yurituvchi sub'ektning iqtisodiy faoliyatini rejalashtirishga asos bo'ladi; taraflar o'rtasidagi mulkiy munosabatlarni huquqiy shakli hisoblanadi.

#### **Tadbirkorlik qoidalarni buzganlik uchun javobgarlik.**

Majburiyatlar shartnoma shartlariga va qonun hujjatlari talablariga muvofiq, bunday shartlar va talablar bo'lmaganida esa ish muomalasi odatlari yoki odatda qo'yiladigan boshqa talablarga muvofiq lozim darajada bajarilishi kerak. Majburiyatlarni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan shahs fuqarolik-huquqiy javobgarlikka tortilishi mumkin.

Fuqarolik-huquqiy javobgarlik vujudga kelish asosiga ko'ra, shartnomaviy va shartnomadan tashqari javobgarlikka bo'linadi.

**SHartnomaviy javobgarlik** deb shartnomaviy majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgarlikka aytiladi.

Taraflardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, bu taraf boshqa tarafga etkazilgan zararni to'laydi; qonun hujjatlarida va shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshqacha tarzda javobgar bo'ladi.

**Zarar** deganda, shartnoma majburiyatlari bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi munosabati bilan taraf qilgan harajatlar, uning mol-mulki yo'qolishi yoki shikastlanishi (**haqiqiy zarar**), shuningdek, agar ikkinchi taraf shartnoma majburiyatlarini bajarganida taraf olishi mumkin bo'lgan, lekin ololmay qolgan daromadlari (**boy berilgan foyda**) tushuniladi (FKning 14-moddasi).

**Neustoykani qo'llash** shartnomaviy javobgarlikning asosiy shakllaridan biridir. Neustoyka faqat majburiyatning bajarilishini ta'minlovchi vosita bo'lib qolmay, balki u majburiyat bajarilmay qolganida yoki lozim darajada bajarilmaganida qarzdorga nisbatan qo'llanishi lozim bo'lgan yuridik chora hamdir.

**Bank krediti bo'yicha olingan kredit o'z vaqtida qaytarilmaganligi uchun oshirilgan miqdorda foiz haq to'lash nazarda tutilishi mumkin**

**Soliqqa oid munosabatlarda javobgarlik deganda, soliq to'lovchi yuridik yoki jismoniy shahsning soliq qonunchiligi talablarini o'zlarining aybli, huquqqa hilof hatti-harakatlari (harakat yoki harakatsizlik) tufayli buzganliklari uchun qo'llaniladigan davlat majburlov choralari nazarda tutiladi.**

Soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlik asosi bu huquqbuzarlik tarkibidir. Bu tarkib o'z ichiga huquqbuzarlik ob'ekti, ob'ektiv tomoni, sub'ekti, sub'ektiv tomonlarini oladi.

**Bitim tuzish natijasida davlatning iqtisodiy manfaatlariga katta zarar etkazadigan har qanday bitim naf keltirmaydigan bitim deb hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi manfaatlariga hilof ravishda bitim tuzish natijasida ko'p miqdorda zarar etkazish jinoyatning zaruriy belgisi hisoblanadi.**

**Sohta tadbirkorlik jinoyati qasddan qonuniy tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanmaslik va qarz-kredit olish foydani (daromadni) soliqlardan ozod qilish**

(pasaytirish) yoki boshqa mulkiy naf ko'rish jinoyat maqsadining zaruriy alomati hisoblanadi. Ushbu jinoyat yuzasidan 16 yoshga to'lgan va sohta tadbirkorlik bilan shug'ullangan har qanday shahs javobgarlikka tortilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 179-moddasiga ko'ra, sohta tadbirkorlik jinoyatini sodir etgan shahslar eng kam oylik ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoki uch yilgacha ahloq tuzatish ishlari yohud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan jazolanadi.

Bankrotlikni yashirganlik uchun jinoiy javobgarlik. Tahlil etilayotgan jinoyat bozor iqtisodiyoti sharoitida bankrotlikni amalga oshirishning belgilab qo'yilgan tartibini, belgilovchi hamda ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlarda namoyon bo'ladi.

Monopoliyaga qarshi qonun hujjatlarini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik.

1996 yil 27 dekabrda qabul qilingan "Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni ho'jalik yurituvchi sub'ektlarning bozorda raqobatlanishi bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarni tartibga soladi, monopoliya faoliyati, ya'ni monopoliyaga qarshi qonunga zid bo'lgan faoliyatning oldini olish va uni bartaraf qilishning huquqiy asoslarini belgilaydi.

Soliq va boshqa to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlaganlik uchun jinoiy javobgarlik.

O'zbekiston Respublikasi JKning 184-moddasi 1-qismiga ko'ra, foyda (daromad) yoki soliq to'lanadigan boshqa ob'ektlarni qasddan yashirish, kamaytirib ko'rsatish, shuningdek, davlat tomonidan belgilangan soliqlarni, yig'implarni, boj yoki boshqa to'lovlarni to'lashdan qasddan bo'yin tovlash, basharti ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa va to'lanmagan summa ancha miqdorni tashkil qilsa, eng kam oylik ish haqining yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha ahloq tuzatish ishlari, olti oygacha qamoq bilan jazolanadi.

Ushbu qilmishning takroran, ko'p miqdorda (JK 184-moddasi 2 qismi), juda ko'p miqdorda (JK 184-moddasi 3-qismi) sodir etilishi javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlar hisoblanadi.

Sifatsiz mahsulot chiqarish yoki sotish qasddan sodir etiladi, kelib chiqqan oqibatlar (sog'liqqa zarar etkazilishi, odamlar o'limi) borasida esa shahsning aybi ehtiyotsizlikda ifodalanadi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 186-moddasi 1-qismiga ko'ra, tovar bozoriga sifatsiz mahsulot chiqarish yoki uni sotish badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast etkazilishiga sabab bo'lsa, eng kam oylik ish haqining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha ahloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi. Ushbu moddaning 2-qismida odamning o'limiga sabab bo'lgan sifatsiz mahsulotni chiqarganlik yoki sotganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan. Unga ko'ra shahs uch yildan etti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Savdo yoki vositachilik faoliyati bilan qonunga hilof ravishda shug'ullanganlik uchun jinoiy javobgarlik.

Savdo yoki vositachilik faoliyati bilan qonunga hilof ravishda shug'ullangan, 16 yoshga to'lgan har qanday shahs javobgarlikka tortilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi JKning 188-moddasi 1-qismiga ko'ra, nazorat qilinmaydigan ancha miqdorda foyda (daromad) olish maqsadida belgilangan tartibda ro'yhatdan o'tishdan bo'yin tovlab, savdo yoki vositachilik faoliyati bilan shug'ullanish, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilib, eng kam oylik ish haqining bir yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha ahloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Savdo yoki vositachilik faoliyati bilan qonunga hilof ravishda ro'yhatdan o'tishning belgilangan tartibini buzgan holda shug'ullanish, havfli resiivist tomonidan, ko'p miqdorda yoki bir guruh shahslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo'lsa aybdor JK 188-moddasi 2-qismi bilan javobgar qilinadi. Unga ko'ra shahs uch yilgacha muayyan huquqdan

mahrum qilinib, eng kam oylik ish haqining bir yuz ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki olti oygacha qamoq bilan jazolanadi.

Mazkur moddaning 3-qismida juda ko'p miqdorda yoki uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan savdo yoki vositachilik faoliyati bilan shug'ullanganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan. Bunday jinoyat uchun aybdor uch yilgacha muddatga muayyan huquqdan mahrum qilinib, eng kam oylik ish haqining uch yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 190-moddasi 1-qismiga ko'ra, shahs lisienziya olishi shart bo'lgan faoliyat bilan ruhsatnoma olmasdan shug'ullanish, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etgan bo'lsa, eng kam oylik ish haqining yigirma besh baravaridan etmish besh baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yohud uch yilgacha muddatga ahloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi. Ushbu qilmishni havfli resiivist yohud bir guruh shahslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etishi faoliyat bilan lisienziyasiz shug'ullanish uchun javobgarlikni og'irlashtiruvchi holat hisoblanadi. Unga ko'ra shahs Jinoyat kodeksining 190-moddasining 2-qismiga ko'ra eng kam oylik ish haqining etmish besh baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki olti oygacha qamoq bilan jazolanadi

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar ruyhati.**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, Toshkent "O'zbekiston". 2014 yil.
2. Karimov I.A. "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish ustuvor maqsadimizdir"/Prezident I.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi // T.: "O'zbekiston". 2010 B-14.
3. Karimov I. A. [«Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsiepsiyasi»](#) mavzuida 2010 yil 12 noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlis ma'ruza.
4. Karimov I.A. ona yurtimiz bahtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida hizmat qilish – eng oliy saodatdir. –T. O'zbekiston. 2015.
- 5.O'zbekiston Respublikasining kodekslari. T., "Adolat", 2010 yil.
- 6.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharhlar. -T.: "O'zbekiston", 2010.- 496
- 7 O'zbekistan Respublikasining Soliq kodeksi./ O'zbekiston Respublikasining Kodekslari. – T.: Adolat, 2014.
- 8. O'zRning 2000 yilning 25 mayida qabul qilingan «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining**

**kafolatlari to'g'risida»gi Qonun**

**9. O'zR Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 14 fevraldagi qarori bilan tasdiqlangan «O'zRda hususiy tadbirkorlik to'g'risida Nizom».**

- 10.Ibratov B. Tadbirkorlik huquqi. – T.: Moliya, 2001.
- 11.Martemyanov V.S. Hozyaystvennoe pravo. Tom 1. Obshie polojeniya. – M.: BEK, 1994.
- 12.Do'stov U.N. «Ho'jalik (tadbirkorlik) huquqi» fanidan uslubiy qo'llanma. – T.: TDYUI, 2003.

### **3-mavzu.Mehnat huquqi asoslari.**

#### **Reja**

1.Mehnat huquqi tushunchasi, vazifasi, mehnat huquqi sub'ektlari, ularning huquq va majburiyatlari.

2.Mehnat shartnomasi, uni tuzish va bekor qilinish tartibi, ish vaqti, dam olish vaqti, ish haqi, uning turlari hamda berilish tartibi.

3.Mehnat intizomi tushunchasi, intizomiy jazo,uning turlari va qo'llanilish tartibi.

4.Mehnat muhofazasi, mehnat shartnomasi asosida taraflarning moddiy javobgarligi, mehnat nizolari, ularni ko'rish tartibi, davlat ijtimoiy sug'urtasi tushunchasi.

### **1.Mehnat huquqi tushunchasi, vazifasi, mehnat huquqi sub'ektlari, ularning huquq va majburiyatlari.**

**Mehnat huquqi** - O'zbekiston Respublikasining huquq sohalaridan biri bo'lib, u xodimlar va ish beruvchilar mehnat munosabatlarini muvofiqlashtirishda asosiy rol o'ynaydi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 37-moddasida «har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalanih huquqiga egadir»<sup>5</sup> deb qayd etilgan.

**Mehnat huquqining predmeti**-aholini ish bilan ta'minlashga oid, xodim bilan ish beruvchi o'rtasidagi turli, mehnat jamoasi manfaatlarini ifodalovchi kasaba uyushmasi organi xodimlarning mehnat sharoitlari, turmushi, dam olishini sixshilash yuzasidan korxonada ro'yobga keladigan tashkiliy-boshqaruv kabi munosabatlarda yuzaga keladi.

**Mehnat huquqining manbalari** O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasidan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi qonunlar, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan qabul qilingan farmonlar, Vazirlar Maxkamasining farmoyish va qarorlari, Mahalliy davlat hokimiyati organlarining farmoyish va qarorlari hamda mehnat munosabatlarini tartibga solishga doir tegishli organlarning me'yoriy hujjatlari hisoblanadi.

**Mehnat huquqining vazifalari** - O'zbekiston Respublikasi mehnat kodeksida nazarda tutilgan bo'lib, unga ko'ra: "Mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlari xodimlar, ish beruvchilar, davlat manfaatlarini e'tiborga olgan holda, mehnat bozorining samarali amal qilishini haqqoniy va havfsiz mehnat shart-sharoitlarini, xodimlarning mehnat huquqlari va sog'lig'i himoya qilinishini ta'minlaydi, mehnat unimdorligining o'sishiga, ish sifati sixshilanishiga, shu asosida barcha axolining moddiy va madaniy turmush darajasini yuksalishiga ko'maklashadi"<sup>6</sup> deb aniq ko'rsatib berilgan.

**Mehnat huquqi ham boshqa huquq tarmoqlari singari o'z tamoyillariga ega bo'lib, ular quyidagilar:**

\*fuqarolarning o'z mehnat layoqatlarini o'zlari erkin tasarruf etishlari tamoyili;

\*hech qanday kamsitish-tahqirlariz baravar mehnatni baravar rag'batlantirish tamoyili;

\*xodimlar ahvolining mehnat haqidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan pasayib ketishiga yo'l qo'yib bo'lmasligi tamoyili.

#### **1.Ish beruvchining asosiy huquqlari:**

\*korxonani boshqarish va o'z vakolatlari doirasida mustaqil qarorlar qabul qilish;

\*qonun hujjatlariga muvofiq sikka tartibdagi mehnat shartnomalarini tuzish va bekor qilish;

\*mehnat shartnomasida shart qilib ko'rsatilgan ishni lozim darajada bajarishni xodimdan talab qilish;

\*o'z manfaatlarini himoyalash uchun boshqa ish beruvchilar bilan birga jamoat birlashmalari tuzish va bunday birlashmalarga a'zo bo'lishi huquqiga egadir<sup>7</sup>.

#### **2.Xodimning asosiy mehnat huquqlari esa:**

\*o'z mehnati uchun qonun hujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish haqidan oz bo'lmagan miqdorda haq olish;

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi T..O'zbekiston. 2009.

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasi mehnat kodeksi sharxlar T. Adolat. 2008й. 2-модда.

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasining mehnat kodeksi 17-модда 9-бет. T. Adolat 1999.

\*muddatlari chegarasi belgilangan ish vaqtini o'rnatish, bir qator kasblar va ishlar uchun ish kunini qisqartirish, har haftalik dam olish kunlari, bayram kunlari, shuningdek haq to'lanadigan yillik ta'tillar berish orqali ta'minlanadigan dam olish;

\*havfsizlik va gigiena talablariga javob beradigan sharoitlarda mehnat qilish;

\*kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish ;

\*ish bilan bog'liq holda sog'liqqa yoki mol-mulkka etkazilgan zararining o'rnini qoplash;

\*kasaba uyushmalariga hamda xodimlar va mehnat jamoalarining manfaatlarini ifoda etuvchi boshqa tashkilotlariga birlashish;

\*qariganda, mehnat qobiliyatini yo'qotganda, boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish;

\*o'zining mehnat huquqlarini himoya qilish, shu jumladan, sud orqali himoya qilish va malakali yuridik yordam olish;

\*jamoalarga doir mehnat nizolarida o'z manfaatlarini quvvatlash huquqiga egadir;<sup>8</sup>

**Jamoa shartnomasi**- bu ish beruvchi va xodimlar jamoasi o'rtasidagi mehnatga oid ijtimoiy - iqtisodiy va kasbga oid munosabatlarni tartibga soluvchi kelishuvga ega bo'lgan ichki hujjatdir.

**Jamoa kelishuvi esa** - muasin kasb, tarmoq, xudud xodimlari uchun mehnat shartnomalari, ish bilan ta'minlash va ijtimoiy kafolatlar belgilash borasidagi majburiyatlarni o'z ichiga oluvchi xodimlar vakillik organlari bilan ish beruvchi vakillari o'rtasidagi bitim, yani ichki me'yoriy hujjatdir.

Jamoa kelishuvining bosh kelishuv, tarmoqlararo kelishuv, xududiy kelishuv turlari mavjud.

## **2.Mehnat shartnomasi, uni tuzish va bekor qilinish tartibi, ish vaqti, dam olish vaqti, ish haqi, uning turlari hamda berilish tartibi.**

**Mehnat shartnomasi**-xodim bilan ish beruvchi o'rtasida muayyan mutaxassizlik, malaka, lavozim bo'yicha ishni ichki mehnat tartibiga bo'ysingan holda taraflarning kelishuvi, shuningdek mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlar bilan belgilangan shartlar asosida haq evaziga bajarish haqidagi kelishuvdir.<sup>9</sup>

Mehnat shartnomasida taraflarning kelishuvi bilan quyidagilar belgilanadi:

\*ish joyi (korxonasi yoki uning bo'linmasi);

\*xodimning mehnat vazifasi - mutaxassizligi, malakasi, u ishlaydigan lavozim;

\*ishning boshlanish kuni;

\*mehnat shartnomasi muayyan muddatga tuzilganda uning amal qilish muddati;

\*mehnat haqi miqdori va mehnatning boshqa shartlari.

Mehnat shartnomasini tuzish paytida xodimning qonunlar va boshqa normativ hujjatlar bilan belgilangan mehnat huquq va erkinliklarining kafolatlari darajasi pasaytirilishi mumkin emas<sup>10</sup>.

**Mehnat shartnomasi yozma shaklda**, quyidagi muddatlarga tuzilishi mumkin:

Nomuayyan muddatga; besh yildan ortiq bo'lmagan muayyan muddatga; muayyan ishni bajarish vaqtiga.

Mehnat shartnomasi tuzilishi jarayonida ish beruvchi xodimga sinov muddati belgilash huquqiga ega. Bu muddat O'zRMKning 85-moddasiga ko'ra uch oydan oshmasligi kerak. Dastlabki sinov natijalari bo'yicha taraflar bir-birlarini sinov muddati tugagunga qadar uch kun oldin yozma ravishda ogohlantirishlari talab etiladi.

Mehnat huquqida xodimni ishga qabul qilish o'n olti yoshdan yo'l qo'yiladi.

**Mehnat daftarchasi** xodimning mehnat stajini tasdiqlovchi asosiy hujjatdir. Ish beruvchi besh kundan ortiq ishlagan, shu davrgacha hech qayerda ishlagan, mehnat stajiga ega

<sup>8</sup> Mazkur kodeksning 16-moddasi. 8-bet.

<sup>9</sup> O'zbekiston Respublikasi mehnat kodeksiga sharh T. Adolat 2008 й 72-моддаси.

<sup>10</sup> O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi 73-моддаси. 2008 (kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalari bilan)

bo'lmagan xodimlariga mehnat daftarchasi ochishi lozim, o'rindoshlik asosida ishlovchilar bundan mustasno.

O'zbekiston Respublikasi MK-ning 97-113-moddalari aynan mehnat shartnomasini bekor qilishga oid qoidalarni o'zida ifodalaydi. Jumladan: O'zbekiston Respublikasi MK-ning **97-moddasida** mehnat shartnomasini bekor qilishning quyidagi asoslari nazarda tutiladi:

\*tarablarning o'zaro kelishuviga ko'ra. Ushbu asosga binoan mehnat shartnomasining barcha turlari istalgan vaqtda bekor qilinishi mumkin;

\*tarablardan birining tashabbusi bilan;

\*muddatning tugashi bilan;

\*tarablarning ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra;

\*mehnat shartnomasida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra. Mehnatga oid munosabatlarni bekor qilish to'g'risidagi shart qonunda yo'l qo'yilgan hollardagina tarafklar tomonidan mehnat shartnomasida ko'rsatib qo'yilishi mumkin;

\*yangi muddatga saylanmaganligi (tanlov bo'yicha o'tmaganligi) yoxud saylanishda (tanlovda) qatnashishni rad etganligi munosabati bilan.

Mehnat shartnomasi xodimning tashabbusi bilan istalgan paytda, bekor qilinishi mumkin. Bunda mehnat shartnomasining muddatli yoki nomuayyan muddatga tuzilganligining axamiyati yo'q.

O'zbekiston Respublikasi MK-ning **99-moddasi** birinchi qismida nazarda tutilgan yoki tarafklar kelishuvi bo'yicha belgilangan ogohlantirish muddati davomida xodim bergan arizani qaytarib olishga haqlidir. Agar ogohlantirish muddati tugagandan keyin xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilinmagan va mehnat munosabatlari davom etayotgan bo'lsa, xodimning tashabbusi bilan mehnat shartnomasini bekor qilish haqidagi ariza o'z kuchini yo'qotadi, bunday holda mehnat shartnomasini shu arizaga muvofiq bekor qilishga esa yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksining **100 – moddasiga** binoan quyidagi sabablardan birining mavjudligi mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusiga ko'ra bekor bo'lishiga asos bo'ladi:

\*Texnologiasidagi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi o'zgarishlar, xodimlar soni (shtati) yoki ish xususiyatining o'zgarishiga olib kelgan ishlar hajmining qisqarganligi yoxud korxonaning tugatilganligi;

\*xodimning malakasi etarli bo'lmaganligi yoki sog'lig'i holatiga ko'ra bajarayotgan ishga noloyiq bo'lib qolishi;

\*xodimning o'z mehnat vazifalarini muntazam ravishda buzganligi. Avval mehnat vazifalarni buzganligi uchun xodim intizomiy yoki moddiy javobgarlikka tortilgan yoxud unga nisbatan mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan ta'sir choralari qo'llanganiga qaramay, yani qayta-qayta mehnat intizomini buzishi;

\*xodimning bir marotaba bo'lsada o'z mehnat vazifalarini qo'pol ravishda buzganligi;

\*o'rindoshlik asosida ishlaydigan boshqa xodimning ishga qabul qilinishi yoki o'rindoshlik bo'yicha ishni mehnat shartnomalariga ko'ra cheklanishi;

\*mulkdorning almashishi sababli korxonalar rahbari bilan tuzilgan shartnomaning bekor qilinishi.

**Ish vaqti**-bu xodim ish tartibi yoki jadvaliga yoxud mehnat shartnomasi shartlariga muvofiq o'z mehnat vazifalarini bajarishi lozim bo'lgan vaqtdir.

Xodim uchun ish vaqtining normal muddati haftasiga qirq soatdan ortiq bo'lishi mumkin emasligi O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi va BMTning Bosh Assamblesiasining «Ish vaqtini haftada qirq soatgacha qisqartirish to'g'risida»gi 48-kinvensiasida ko'rsatilgan.

**Ular quyidagi toifadagi xodimlar uchun:**

\*o'n sakkiz yoshga to'lmagan xodimlar ( MKning 242-moddasi)

\*1 va 11-guruh nogironi bo'lgan xodimlar (MKning 220-moddasi)

\*noqulay mehnat sharoitlaridagi ishlarda band bo'lgan xodimlar (MKning 117-modda)

\*alohida tusga ega bo'lgan ishlardagi xodimlar (118-modda)

\*uch yoshga to'lmagan bolalari bor, byudjet hisobidan molisiviy jihatdan ta'minlanadigan muassasalar va tashkilotlarda ishlayotgan ayollar (MKning 228-prim modda).

O'zbekiston Respublikasining «Xotin-qizlarga qo'shimcha imtiyozlar to'g'risida»gi qonuniga ko'ra: Bolalarni tarbiyalash uchun shart-sharoit yaratish hamda xotin-qizlarni mehnatdan manfaatdorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarori bilan «uch yoshga to'lmagan bolalari bor byudjet hisobidan ta'minlanadigan davlat muassasalari va korxonalari hamda tashkilotlarida ishlayotgan ayollarga mehnatga to'lanadigan haqni kamaytirmagan holda ish vaqtini haftasiga o'ttiz besh soatdan oshmaydigan qisqartirilgan muddati belgilangan.<sup>11</sup>

**Dam olish vaqti** - xodim mehnat majburiyatlarini bajarishdan ozod qilingan vaqt bo'lib, bu faqat xodim uchun axamiyatga ega bo'lgan hodisa bo'lmay, balki ijtimoiy axamiyatga ega bo'lgan voqelikdir.

Mehnatga oid qonun hujjatlarida dam olish vaqtining quyidagi turlari qayd qilingan:

ish kuni davomidagi dam olish vaqti; ish kunlari orasidagi dam olish vaqti; ish haftalari orasidagi dam olish vaqti; bayram kunlaridagi dam olish vaqti; yillik mehnat ta'tillari. Xodimlarni dam olish vaqtida ishga jalb etishga qonun yo'l qo'ymaydi. Xodimning molisiviy yil davomida foydalanilmagan ta'til davri uchun kompensatsiya to'lanadi.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksining 164-moddasida mehnat haqidan ushlab qolish holatlari va qoidalari qayd etilgan. Unga ko'ra xodim roziligidan qat'iy nazar, mehnat haqidan O'zbekiston Respublikasida belgilangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni ushlab qolish uchun; sudning qarori va boshqa ijro hujjatlarini ijro etish uchun; ish haqi hisobiga berilgan avansni ushlab qolish uchun; hisobidan xodim ta'til olib bo'lgan ish yili tugamasdan turib mehnat shartnomasini bekor qilganda-ta'tilning ishlanmagan davrga tegishli kunlari uchun; xodim tomonidan ish beruvchiga etkazilgan zararni qoplash uchun, agar etkazilgan zararining miqdori xodimning o'rtacha oylik ish haqidan ortiq bo'lmasa; mehnat kodeksining 181-moddasi birinchi qismining 2-bandida nazarda tutilgan jarimani undirish uchun.

### **3.Mehnat intizomi tushunchasi, intizomiy jazo,uning turlari va qo'llanilish tartibi.**

Mehnat intizomi qoidalari va mazmuni ikki xususiyatni o'zida ifodalaydi:

1.Obyektiv tomondan: mehnat qonunlari, intizom ustavleri, ichki tartib qoidalarda mustahkamlangan ishlab chiqarishning zarur shartlari.

2.Subyektiv tomondan: xodim va ish beruvchi tomonidan mehnat intizomiga oid o'z majburiyatlarini bajarish huquqlaridan foydalanish.

Ish beruvchi esa xodimlar mehnatini tashkil qilishi, qonunlar va boshqa normativ hujjatlarda, mehnat shartnomalarida nazarda tutilgan mehnat sharoitlarini siratib berishi, mehnat va ishlab chiqarish intizomini ta'minlashi, mehnat muhofazasi qoidalarga riosiy etishi, xodimlarning ehtiyoj va talablariga e'tibor bilan qarashi, ularning turmush va mehnat sharoitlarini sixshilab borishi, jamoa shartnomalari va jamoa kelishuvi tuzishi lozim bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi MK-ning 181-moddasida xodimga mehnat intizomini buzganligi uchun ish beruvchi quyidagi intizomiy jazo choralarini qo'llashga haqliligi ko'rsatilgan:

\*Xayfsan;

\*O'rtacha oylik ish haqining o'ttiz foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda jarima; (ba'zi hollarda qonun hujjatlari asosida o'rtacha oylik ish haqining ellik foizidan ortiq bo'lmagan jarima solinishi mumkin)

\*Mehnat shartnomasining bekor qilinishi. (MK-ning 100-modda ikkinchi qismining 3 va 4-bandlari).

Intizomiy jazo vakolatli shaxslar tomonidan qo'llaniladi, uni qo'llashdan oldin ish beruvchi xodimdan tushuntirish xati olishi lozim. Har bir nojo'si harakat uchun bitta jazo qo'llaniladi. Bu jazo bir oy muddat ichida qo'llanilishi kerak.

**4.Mehnat muhofazasi, mehnat shartnomasi asosida taraflarning moddiy javobgarligi, mehnat nizolari, ularni ko'rish tartibi, davlat ijtimoiy sug'urtasi tushunchasi.**

---

<sup>11</sup> «Xotin-qizlarga qo'shimcha imtiyozlar to'g'risidagi qonun «O'zbekistonning sinfi qonunlari T., Adolat, 21-son.

Mehnat to'g'risidagi barcha qonun hujjatlari xodimlarning mehnat qilish huquqlarini muhofaza qiladi. Lekin bevosita mehnatni muhofaza qilishga – havfsiz va sog'lom mehnat sharoitlarini yaratish va ta'minlashga, mehnatni muhofaza qilish qoidalari va me'yorlariga riosi etilishini nazorat qilishga, bu qoida va me'yorlarni buzgani uchun javobgar bo'lish masalalariga bag'ishlangan qonunchilik me'yorlari mavjuddir.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 185-207-moddalariga muvofiq mehnat munosabatlari davomida uning ishtirokchilari bir-birlarining moddiy manfaatlariga riosi qilishlari va zarar etishiga yo'l qo'ymasliklari lozim.

Ushbu yuridik tartib o'z ichiga quyidagilarni oladi:

qasd va ehtiyotsizlik shaklidagi aybli hatti-harakat; harakat yoki harakatsi zlikning qonunga hilofligi; aybli, huquqqa hilof hatti-harakat natijasida zarar yuz berganligi; aybli hatti-harakat bilan zararli oqibat o'rtasida sababiy bog'lanish mavjudligi.

Uning to'liq moddiy javobgarligi faqat Mehnat kodeksiga muvofiq quyidagi hollarda:

\*maxsus yozma shartnoma asosida unga ishonib topshirilgan qimmatliklarning saqlanishini ta'minlamaganlik uchun; (203-modda)

\*bir gallik hujjat asosida olingan qimmatliklarning saqlanishini ta'minlamaganlik uchun;

\*qasddan zarar etkazilganda;

\*alkogolli ichimlikdan, giyohvandlik yoki toksik modda ta'siridan mastlik holatida zarar etkazilganda;

\*xodimning sud hukmi bilan aniqlangan jinoiy harakatlari natijasida zarar etkazilganda;

\*tijorat sirlari oshkor etilganda;

\*qonunlarda, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlarida nazarda tutilgan hollarda.<sup>12</sup>

Ish beruvchi muayyan xodimlardan undirish to'g'risida qaror qabul qilishdan oldin etkazilgan zarar miqdorini belgilash va uning kelib chiqish sababini aniqlash maqsadida tekshirishlar o'tkazishi shart.

Ish beruvchi zararining kelib chiqish sabablarini aniqlash uchun xodimdan tushuntirish xati olishi lozim, xodimning tushuntirish xati yozishdan bosh tortishi uni etkazilgan zarar uchun moddiy javobgarlikdan ozod etmaydi yani ish beruvchiga etkazilgan zararni undirishi uchun to'siq bo'la olmaydi. Xodim ish beruvchiga etkazgan zararini ixtiyoriy ravishda qisman yoki to'liq to'lashga haqli. Zarar o'rtacha oylik ish haqidani ortiq bo'lmagan miqdorda etkazilgan bo'lsa ish beruvchining farmoyishi orqali undiriladi.

Ish beruvchi o'ziga etkazilgan moddiy zararni undirish yoki qoplash yuzasidan bir yil davomida sudga murojaat qilish huquqiga ega. Ma'naviy va sog'liqqa etkazilgan zarar uchun muddat belgilanmagan

#### **Mehnat nizolari, ularni hal etish tartibi.**

Mehnat nizolarini ko'rish hal etilish usuliga ko'ra umumiy va maxsus mehnat nizolariga, mohiyatiga ko'ra mehnat shartlarini belgilash, o'zgartirish, bekor qilishga oid mehnat nizolari hamda mehnat shartlarini qo'llash bilan bog'liq mehnat nizolariga bo'linadi.

**Sikka mehnat nizolari**-bu ish beruvchi va xodim o'rtasida mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlarni, mehnat shartnomasida nazarda tutilgan mehnat shartlarini qo'llanish yuzasidan kelib chiqqan kelishmovchiliklari tushuniladi. Bunday hollarda nizing xodim manfaatini ifoda etuvchi tarafi bo'lib xodimlarning vakillik organi ishtirok etishi mumkin.

Sikka mehnat nizolari mehnat qonunlariga muvofiq:

-mehnat nizolari komissiyalari tomonidan;

-tuman (shahar) sudlari tomonidan ko'ra chiqiladi. SHuning uchun xodim o'z hohishidan kelib chiqqan holda mehnat nizolari komissiyasiga yoki tegishli tumanlararo fuqarolik ishlari bo'yicha sudga o'zining buzilgan huquqlari himoya qilinishini so'rab murojaat etishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodesining 268-moddasiga ko'ra quyidagilar mehnat nizosini ko'rish haqidagi ariza bilan sudga murojaat qilish huquqiga egadir:

---

<sup>12</sup> O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi(kiritilgan o'zgartirish va o'qshimchalari bilan) 202-moddasi. T., Adolat 2008.

xodim, kasaba uyushmasi yoki xodimlarning boshqa vakillari; mehnatning huquq bo'yicha naziri; ish beruvchi, mehnat nizolari komissiyasining qaroriga rozi bo'lmagan taqdirda, shuningdek, uning xodim tomonidan etkazilgan zararni qoplash haqidagi nizolari bo'yicha; prokuror.

Mehnat nizosi yuzasidan sudga murojaat qilish muddatlari:

ishga tiklash nizolari bo'yicha xodimga ishdan bo'shatish to'g'risidagi buyruq nusxasi berilgan kundan boshlab bir oy davomida; xodim tomonidan etkazilgan zararni undirish yuzasidan zarar aniqlangan kundan boshlab bir yil davomida; boshqa mehnat nizolari bo'yicha xodim o'z huquqlari buzilganligini bilgan kundan boshlab uch oy ichida; xodim hayoti sog'lig'iga etkazilgan zarar, shuningdek, ma'naviy zarar yuzasidan da'vo muddati qo'llanilmaydi va ushbu masalalarda istagan vaqtdan.

Ushbu muddatlar uzrli sabablarga ko'ra o'tkazib yuborilgan bo'lsa, bu muddatlar sud yoki mehnat nizolarini ko'rish komissiyasi tomonidan qayta tiklanishi mumkin.

Xodimlar mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan talablar bo'yicha sudga murojaat qilganlarida sud harajatlaridan ozod etiladilar.<sup>13</sup>

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yhati.**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, Toshkent "O'zbekiston". 2010 yil.
2. Karimov I.A. "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish ustuvor maqsadimizdir"/Prezident I.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi // T.: "O'zbekiston". 2010 B-14.
3. Karimov I. A. [«Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsiepsiyasi»](#) mavzuida 2010 yil 12 noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlis ma'ruza.
4. Karimov I.A. ona yurtimiz bahtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida hizmat qilish – eng oliy saodatdir. –T. O'zbekiston. 2015.
5. O'zbekiston Respublikasining kodekslari. T., "Adolat", 2010 yil.
6. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga sharhlar. -T.: "O'zbekiston", 2010.- 496
7. O'zbekiston Respublikasining «Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida» gi 1993 y. 6 may qonuni
8. Tursunov Y. «Mehnat huquqi» o'quv qo'llanmasi. T. «Moliya» 1999 y.
9. Tursunov Y.T. , Usmonova M.A. «Mehnat huquqi» o'quv qo'llanma. T. «Moliya» 2001
10. Tursunov Y.T. «Mehnat huquqi». Darslik. T. «Moliya» 2002 y.
11. O'zbekiston Respublikasi mehnat Qonunchiligi bo'yicha me'yoriy huquqiy hujjatlar to'plami. Toshkent, «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 2005 y.
12. Usmanova M.A., Tursunov Y. Mehnat huquqi. T.: TDYUI, 2006 y. 250 b.
13. Gasanov M., Sokolov E. O'zbekiston Respublikasida mehnat shartnomasi (kontrakt). 1- va 2-kitob. Toshkent., 1996 yil. 5-52 bet.

### **4-mavzu. Oila huquqi asoslari.**

**Ma'ruza -2 soat**

#### **Reja**

1. Oila huquqi tushunchasi, tamoyillari, tizimi, manbalari. Nikoh tushunchasi, uni tuzish tartibi va shartlari. Nikoh shartnomasini tuzish, uning bekor qilinishi va oqibatlari.
2. Er va hotin, ota-ona va bolalarning huquq va majburiyatlari. Ota-onalik huquqidan mahrum qilish va farzandlikka olish tushunchasi.

---

<sup>13</sup> O'zbekiston Respublikasining mehnat kodeksi 277-moddasi T. Adolat 2008. (kiritilgan o'zgartirish va o'qshimchalari bilan)

## **1. Oila huquqi tushunchasi, tamoyillari, tizimi, manbalari. Nikoh tushunchasi, uni tuzish tartibi va shartlari. Nikoh shartnomasini tuzish, uning bekor qilinishi va oqibatlari.**

Bugun biz o'tadigan ma'ruza – "Oila huquqi asoslari" mavzusining asosiy maqsadi **Siz bo'lajak muhandis-tehnologlarga** oilaviy munosabatlarga taalluqli qonun hujjatlarini o'rganish, oilaning jamiyatdagi o'rnini, oila asosi nikoh ekanligini, nikoh tuzish tartib va shartlarini, haqiqiy bo'lmagan nikoh tushunchasini, oiladagi munosabatlarni yuzaga kelish qoidalarini, merosho'rlik huquqlarini o'rgatishdan iborat.

Respublikamiz mustaqillikka erishgan dastlabki yillardan boshlab oilani mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish uchun bir qator tadbirlarni amalga oshirdi. **2012 yilni "Mustahkam Oila yili", 2013 yilni "Obod turmush yili", 2014 yilni "Sog'lom bola yili"** deb, e'lon qilinganligi muhim isbotdir.

Respublikamizda **30 milliondan** ortiq aholi yashasa, shulardan **52%** ortig'ini hotin-qizlar tashkil etadi. Bugungi kunda aholining **48 % ortig'ini ni 18 yoshga** to'lgan yigit-qizlar tashkil etadi. **2014 yil birinchi yarmida** tug'ilganlar soni esa **296,8mingni**, vafot etganlar **72 ming** nafarni tashkil qilgan.

**Har yili o'rtacha 170 mingdan ortiq nikohni rasmiylashtiruvchilar mavjud. 2014 yilning yanvar-iyunida FHDYO organlarida 107,8 mingta nikoh va 14,4 mingta ajralish ro'yhatga olingan.**

Respublikamizda 16 va undan katta yoshdagi ayollar 65,7%dan ko'prog'i nikohda, 50 yoshgacha bo'lgan ayollarning 1,04 va erkaklarning 0,75% nikohda bo'lmaganlarni tashkil etadi. 2004 yilda 91% bolalar nikohdan o'tgan er-hotinlardan tug'ilganlar.

Respublikamiz Konstitusiyasining alohida **XIV bobi 4 ta moddasi (63-66 m.) oilaviy munosabatlarga** bag'ishlangan. Chunki Prezidentimiz I.A.Karimovning oilaning jamiyatdagi o'rniga baho berib shunday deydilar: «Oila – jamiyatning negizi. Bizning mamlakatimizni ham katta oila deb tushunish mumkin va lozim. Bunda o'zaro hurmat va qattiq tartib bo'lmasa oilaning barcha a'zolari o'z burchlarini ado etmasa, bir-biriga nisbatan ezgulik bilan mehr-oqibat ko'rsatmasa, yahshi va munosib yashash mumkin emas. Oila turmush va vijdon qonunlari asosida quriladi. O'zining ko'p asrlik mustahkam va ma'naviy tayanchlariga ega bo'lgan oilada, demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab ehtiyojlari va qadriyatlarini shakllanadi. O'zbekistonning aksariyati o'zining shahsiy farovonligi to'g'risida emas, balki oilasining, qarindosh-urug'lari va yaqin odamlarining, qo'shnilarining omon-esonligi to'g'risida g'amho'rlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa oliy darajada ma'naviy qadriyat, inson qadriyatining gavharidir». (O'zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1993 yil 47-bet.)

Oila huquqining asosiy vazifalari – yoshlarga oila huquqi to'g'risida bilim berish, olingan bilimlarni hayotga kerak bo'lganida ishlata bilishni o'rganish va qo'llay olish qobiliyatini tarbiyalash, olgan bilimlari bilan o'zining kelajakdagi hayoti va ma'lum jamoada ishlash davomida, mazkur masalada zaruriy bilim asoslariga ega bo'lishiga e'tibor qaratiladi.

**Oila huquqi huquq tarmog'ining alohida bir bo'limi bo'lib, u oilada kelib chiqadigan mulkiy shahsiy munosabatlarni tartibga soluvchi sohadir.**

Nikoh va oila munosabatlarining ko'pchiligi odob-ahloq normalari bilan tartibga solinadi. Oilaning haqiqiy baht makoni bo'lishining ta'minlashda muhabbat, burch, vijdon, halollik, o'zaro hurmat, bir-birga ko'maklashish kabilar alohida ahamiyat kasb etadi.

Oilaning muhim ijtimoiy vazifalarini bajarishni hisobga olib, davlat nikoh va oila munosabatlarini ayrimlarini qonun bilan tartibga soladi.

Bu qonunlar Respublika Konstitusiyasi va O'zbekiston Respublikasining **1998 yil 30-aprelda qabul qilingan Oila kodeksidir.**

Bu Kodeksda mahalliy sharoitlar, millatlarning urf-odatlarini hisobga olinib, fuqarolarning oila va nikoh munosabatlaridan kelib chiqadigan huquq va majburiyatlari batafsil bayon etilgan.

**Nikoh va oila qonunining asosiy vazifasi** ahloq qoidasi asosida oilani yanada mustahkamlash, bola tarbiyasi, ona va bola manfaatlarini muhofaza qilish, fuqarolarning oila oldidagi o'z mas'uliyatini to'g'ri his qilish ruhida tarbiyalashdan iboratdir.

**Oila qonuni** nikohlanish tartibi shart-sharoitlarini belgilaydi, er-hotin, ota-onalar va bolalar hamda oilaning boshqa a'zolari o'rtasida kelib chiqadigan shahsiy va mulkiy munosabatlarni, farzandlikka olish, vasiylik va homiylik, bolalarni tarbiyaga olish, nikohni bekor bo'lishi, fuqarolik holati aktlarini qayd qilish masalalarini tartibga soladi.

Demak, Oila huquqi er-hotinlar, ota-onalar va bolalar hamda qarindosh-urug'lar o'rtasidagi shahsiy va mulkiy munosabatlarni tartibga solishga hizmat qiladi.

Oila huquqining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- oilada kelib chiqadigan barcha munosabatlarda er va hotin teng huquqli ekanligi;
- millati, irqi, dinga munosabatidan qat'i nazar er-hotin va oila a'zolarining teng huquqliligi;
- bir nikohlilik;
- nikoh ittifoqini erkinligi va ixtiyoriyligi;
- ota-onalar va ota-onalik huquqlarini bolalar manfaatini ko'zlab amalga oshirishlaridan iboratdir.

Oilaning asosi nikoh bo'lib, nikoh qanchalik puhta, beg'araz, sof muhabbat asosida tuzilgan bo'lsa shunchalik mustahkam bo'ladi.

Oila huquqiga ko'ra nikoh deb – erkak bilan ayol o'rtasidagi ixtiyoriy, teng huquqli va yakka nikohlikka asoslanib tuzilgan ittifoqqa aytiladi. Nikohlanish FHDYO fuqarolik holati dalolatnomasini yozish organlarida ro'yhatdan o'tkaziladi. SHunday nikohgina haqiqiy er va hotinlik huquq va burchlarini vujudga keltiradi va davlat tomonidan oila deb topilinadi va qo'riqlanadi.

**Nikohlanish uchun quyidagi shartlarni bajarish lozim.**

1. Nikohlanuvchilar erkinlik bilan rozilik bildirishlari.
2. Nikohlanuvchilar qonunda belgilangan yoshga, ya'ni ayollar 17 yoshga, erkaklar 18 yoshga to'lgan bo'lishlari.
3. Nikohlanish paytida boshqa ro'yhatdan o'tkazilgan nikohda bo'lmasliklari.
4. Nikohlanuvchilar nasl-nasab shajarasi bo'yicha to'g'ri chiziqli qarindoshlar, ya'ni tug'ishgan va o'gay aka-ukalar bilan opa-singillar o'rtasida, shuningdek farzandlikka olinganlar o'rtasida nikoh man etiladi.
5. Nikohlanuvchilar aqli raso, ruhiy kasallikka uchramagan bo'lishlari shart.
6. Nikohlanuvchilar o'z roziliklari bilan tibbiy ko'rikdan o'tishlari lozim.

Bu shartlardan birortasi buzilgan taqdirda tomonlardan birini fuqarolik ishlarini ko'ruvchi sudga bergan arizalariga ko'ra nikoh bekor qilinishiga asos bo'ladi.

Nikohdan o'tuvchilar FHDYOga **ariza berganlaridan so'ng oradan bir oy o'tgandan keyin nikohdan o'tish** belgilanadi. Uzrli sabablarga ko'ra bu muddat qisqartirilish yoki uzaytirilishi (3 oyga) mumkin.

SHunday qilib davlat organlari tomonidan qayd etilgan nikohgina haqiqiy er-hotinlik huquq va burchlarini keltirib chiqaradi va davlatni qonuni bilan himoya qilinadi. CHunki nikoh davlatning manfaatlarini ko'zlab, shuningdek er va hotinning va farzandlarning shahsiy va mulkiy huquqlarini muhofaza etish maqsadida qayd qilinadi.

Er-hotinning qonun bilan belgilangan huquq va majburiyatlari (Oila kodeksining 23-moddasidan 28-moddalarigacha) nikoh qayd qilingan vaqtdan boshlab vujudga keladi.

**Er-hotinning: a) shahsiy; b) mulkiy huquq va majburiyatlari bo'ladi.**

Er-hotinning **shahsiy huquqiga** er-hotinning familiyasi, kasb tanlash, yashash joy tanlash, oila masalalarini birgalikda hal etish va boshqa huquqlari kiradi.

Er-hotinning **mulkiy munosabatlari ikki guruhga:**

**a) shahsiy mulkiy; b) umumiy mulkiyga** bo'linadi.

**SHahsiy mulkiga (25-modda) nikohga qadar** o'zlariga tegishli bo'lgan mol-mulkni, shuningdek, ularning har birining **nikoh davomida** hadya, meros tariqasida yoki boshqa bepul bitimlar asosida olgan mol-mulki ularning har birining o'z mulki hisoblanadi. Bu mulklardan shahsan o'zlari foydalanish huquqlariga egadir va bu mulklar bo'linmas mulklar hisoblanadi.

**Er-hotinning umumiy mulkiga (27-modda)** nikoh davomida orttirgan mulklari birini nomida bo'lgan avtomashinalar, omonat kassasiga qo'yilgan mol-mulklar (pullari) kirib, ulardan teng huquqda foydalanishlari va bu mulklarni bo'lish qonun asosida amalga oshiriladi.

Er-hotin o'rtasidagi nikoh oilaviy munosabatlar qonunda ko'zda tutilgan asoslar bo'lgan taqdirdagina to'htatilishi mumkin **(37-modda)**.

**Nikohni bekor qilishni ikki yo'l bilan amalga oshiriladi.**

1. Ish sudda ko'riladi
2. FHDYO organlarida ko'rib chiqiladi

Er-hotinning alohida yashashi qancha vaqt davom etsa ham, yuridik jihatdan ular o'rtasidagi nikoh to'htab qolmaydi.

**Nikohdan ajratish (38-modda) sud tartibida** amalga oshirilishida tomonlardan **birini arizasiga** ko'ra mol-mulk nizosi bo'lgan taqdirda, voyaga etmagan bolalari bo'lgan taqdirda qo'llaniladi.

Agar er va hotin o'zaro rozilik bildirsalar, voyaga etmagan bolalari bo'lmasa (42-modda), er yoki hotin sud tomonidan bedarak yo'qolgan deb topilsa, ruhiy kasalligi va aqli zaifligi sababli sud tomonidan muomilaga layoqatsiz deb topilsa, FDHYO tomonidan nikohlar bekor qilinadi.

Oila qonuniga ko'ra yosh avlodni jismonan sog'lom o'sishlari va foydali faoliyatga tayyorlanishlari to'g'risida g'amho'rlik qilish qonun bilan, avvalo, oila zimmasiga yuklatilgan. Demak, farzand birinchi tarbiyani o'z oilasidan oladi. SHunday ekan oila o'zi nima?

**Oila – nikohlanish, bolalarni tarbiyaga va farzandlikka olish, aka-ukalar, opa-singillar va boshqa oila a'zolari o'rtasida vujudga keladi.** Bu munosabatlar eng ulug' insoniy fazilatlar hisoblangan mehr-oqibat, sevgi-muhabbat, do'stlik, o'zaro yordam, birodarlik va h.k. ahloqiy qoidalar bilan tartibga solinadi.

## **2. Er va hotin, ota-ona va bolalarning huquq va majburiyatlari. Ota-onalik huquqidan mahrum qilish va farzandlikka olish tushunchasi.**

Oiladagi munosabatlar ichida eng asosiysi ota-ona bilan farzand o'rtasidagi munosabatdir. Bu munosabat farzand tug'ilishi bilan vujudga keladi. Lekin buning uchun farzandning nasabi Qonunda belgilangan tartibda rasmiylashtirilishi lozim. YA'ni bolani tug'ilganligidagi guvohnomada bolaning otasi va onasi belgilangandan so'ng ota-ona va bolalar o'rtasidagi huquqiy munosabatlar kelib chiqadi.

Demak, bolaning tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomasi unda nomlari ko'rsatilgan ota-onadan u tug'ilganligi to'g'risidagi dalildir. Bolaning tug'ilishi **qonunga muvofiq tasdiqlanmagan bo'lsa, bu narsa bola bilan ota-ona o'rtasidagi huquqiy munosabatlarning yuzaga kelishiga asos bo'la olmaydi.**

Bolaning otasi bilan huquqiy munosabat vujudga kelishi uchun bolaning otasi belgilanishi lozim. Buni uchun bola tug'ilgungacha ota-ona qonuniy nikohda bo'lgan, bo'lmaganligi ahamiyatlidir.

Agar bolaning ota-onasi bola tug'ilgungacha qonuniy nikohdan o'tgan bo'lsalar, otani tasdiqlash uchun nikoh guvohnomasi kifoya kiladi. (Oila kodeksi 60-modda).

Agar ota-ona bola tug'ilgungacha qonuniy nikohdan o'tmagan bo'lsalar ota va onaning FHDYoga bergan arizasiga ko'ra bolani otasi belgilanadi.

**Ayrim hollarda bolani otasi tan olmagan taqdirda Qonun ona bolaning otasini tasdiqlatish uchun sudga murojaat etish huquqini beradi.** Otalikni tan olish fakti sud tomonidan alohida yo'llar bilan aniqlanadi. Bunda otalikni aniqlashda quyidagi holatlar mavjud bo'lgan hollardagina yo'l qo'yiladi.

1. Ota bola tug'ilgungacha ona bilan yashagan, buyumlar sotib olib bergan bo'lishi.
2. Otalikni ishonchli tarzda tasdiqlovchi dalillar (hatlar, bolaning hujjatiga yozdirib quyish)ning mavjudligi.

Agar sudga murojaat etish uchun bunday dalillar, ashyolar bo'lmasa, ota o'z ihtiyori bilan bolani tan olmasa, sud tibbiy ekspertizasini o'tkazishni tayinlashi mumkin. Sud otalikni tasdiqlab qaror chiqargan taqdirda shu qarorga ko'ra ota belgilanadi.

Sud ham otani tasdiqlay olmasa yoki ona otani tasdiqlatish uchun sudga murojaat qilmasa tug'ilishni qayd etish daftarida bolani otasini familiyasi yoziladigan joyga onaning familiyasi yozib qo'yiladi. Bolaning ismi, familiyasi va ota-onasining ko'rgazmasiga asosan yoziladi.

**Bolaning onasi bilan huquqiy munosabati** onaning qonuniy nikohda bo'lgan, bo'lmaganligidan qat'i nazar tug'riqhonaning bergan ma'lumotnomasiga ko'ra vujudga keladi. YA'ni bolani onasi tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomada belgilanadi.

**Ota-ona bilan bolalar o'rtasidagi shahsiy huquqiy munosabatlarga quyidagilar kiradi:**

1. Ism, ota ismi va familiyasini tanlash huquqi.
2. Ota-onaning o'z bolalarini tarbiyalashga doir huquq va burchlari.
3. Bolalarni ota-onadan tarbiya olish huquqi.
4. Ota-onani bolalari nomidan vakillik qilish huquqi va burchlari.
5. Bolalarning o'z huquq va manfaatlarini himoya qilish huquqi.

**Ota-onalar nikohi bekor qilingandan keyin ham bolalarga doir huquq va burchlarda tengdirlar.**

Bolaga ota-onaning rozilgi bilan ism qo'yiladi. Bolaning familiyasi ota-onaning familiyasidan olinadi. Ular turli familiyada bo'lsalar ikkovini roziligi bilan familiya tanlanadi. Nikoh bekor qilinganda bolaning familiyasi o'zgartilmaydi. Agar, bola familiyasini o'zgartirib olgan ota yoki ona bilan qolgan bo'lsa shu familiyani o'zgartirgan ota-ona bolasini familiyasini o'zgartirish uchun, ya'ni o'zini familiyasiga o'tkazib olish uchun vasiylik organlariga murojaat qilishi mumkin. Buni ikkinchi tomonga ma'lum qilinsada, uning roziligi talab etilmaydi.

**Ota-onalar bolalarini voyaga etguncha shahsan o'zlari tarbiya etishga va moddiy ta'minot bilan ta'minlab turishga majburdirlar.**

Agar ota-ona alohida-alohida yashayotgan bo'lsa bola kim bilan yashashini aniqlay olmasalar suddga murojaat etadilar. Sud bu masalani hal etar ekan, ota-onadan qaysi biri bola to'g'risida ko'proq g'amho'rlik qilayotganligini bolani qaysi biri bilan yashashga moyilligini bolaga sharoit yaratib berish imkoniyatlarini hisobga oladi. Agar **bola 10 yoshga to'lgan bo'lsa, sud uning ham fikrini inobatga** oladi. (Oila kodeksi 68-modda).

**Ota-ona o'z farzandlarini vakillari hisoblanadi.** Ota-ona qonuniy vakil bo'lish bilan birga bolalarni voyaga etguncha tarbiyalamasa, moddiy ta'minot bilan ta'minlamasa o'zining jamiyatga zid hulqi bilan bola tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatsa, alkogollik va giyohvandlik bilan shug'ullanib, bola tarbiyasiga sovuqqonlik bilan qarasa ular ota-onalik huquqlaridan mahrum etiladilar. Bunda ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota-ona bola bilan qarindoshlik rishtalariga asoslangan barcha huquqlarini yo'qotadi. **Jumladan, ota-onalik huquqidan mahrum bo'lgan ota-onalar bolalariga mulkini meros qilib qoldira olmaydilar, bolalaridan ta'minot talab qilish huquqidan mahrum bo'ladilar.** Lekin ota-onalikdan mahrum bo'lish bolalarni moddiy ta'minot bilan ta'minlashdek burchini bajarishdan mahrum etmaydi.

Ota-onalik huuqidan mahrum etishlik muddatsizdir. Agar ota-ona o'z hulqini tuzatsa to'g'ri yo'lga tushib olgan bo'lsa **ota-onalik huquqi tiklanishi** mumkin. Lekin voyaga etgan farzandlar va boshqalarga farzandlikka berib yuborilgan bolalar bundan mustasnodir. (Oila kodeksi 79-82-moddalar).

**Oila kodeksining 96-moddasiga ko'ra** har bir ota-ona voyaga etmagan bolalarini va voyaga etgan bo'lsada mehnatga yaroqsiz, moddiy ta'minotga muhtoj bolalarini **boqishi** shart. Bu majburiyatini ular ixtiyoriy bajarishlari lozim. Aks holda ota yoki onaning sudga bergan arizasiga ko'ra sud tomonidan majburiy ta'minot aliment undiriladi.

Aliment – oila a'zolaridan birining mehnatga yaroqsiz voyaga etmagan oila a'zolariga beradigan ta'minotidir.

**Aliment voyaga etmagan bolalar uchun bir oylik ish haqi va qo'shimcha daromadlaridan bitta bola uchun 25% , ikkita bola uchun 33%, uchta va undan ortiq bolalar uchun 50% miqdorida belgilanadi.**

Agar ota-ona aliment to'lashdan uch oy mobaynida qasddan bosh tortsalar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 122-moddasi bilan jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

**Bolalar ham voyaga etganlaridan so'ng ota-onalari haqida g'amho'rlik qilishlari, qariganda mehnatga layoqatsiz bo'lganlarida ham moddiy, ham ma'naviy oziq va ozuqa berishlari lozim.** Bu majburiyatlarni farzandlar ixtiyoriy amalga oshirishlari kerak. Farzandlar bu majburiyatlarni bajarmasalar ota yoki onaning sudga bergan arizasiga ko'ra qat'iy summada aliment undiriladi. Agar farzandlar **ota-onalarini boqishdan**, ya'ni sud tomonidan belgilangan alimentni to'lashdan **qasddan bo'yin tovasalar** O'zbekiston Respublikasi **Jinoyat kodeksining 123-moddasi bilan jinoiy javobgarlikka** tortiladilar.

O'zbekiston fuqarolarining chet el fuqarolari bilan nikohlari O'zbekistonda umumiy asoslarda tuziladi. Buning uchun O'zbekiston Respublikasi bilan **fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam berish kelishuviga imzo chekkan mamlakatlarning fuqarolari nikoh tuzishga huquqiy layoqati borligini tasdiqlovchi hujjatni** (albatta, bu hujjatni o'sha chet el davlatining tegishli organi bergan bo'lishi kerak) **taqdim etishlari** kerak.

O'zbekiston fuqarolari va O'zbekiston hududidan tashqarida yashovchilar **o'rtasidagi nikoh** O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolathonalarida yoki konsullik muassasalarida tuziladi.

O'zbekiston fuqarolari bilan chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lmagan shahslar o'rtasidagi hamda O'zbekiston hududidagi chet el fuqarolari o'rtasidagi nikoh O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan tugatiladi. O'zbekiston hududidan tashqarida tugatilgan nikoh nikohni tugatish haqidagi qarorni qabul qiluvchi organlarning vakolati tegishli chet davlatning qonunchiligiga rioya etilgan holda rasmiylashtirilgan bo'lsagina haqiqiy deb tan olinadi.

Er-hotinning mulkiy va shahsiy nomulkiy huquq va majburiyatlari, ota-ona va bolaning huquq va majburiyatlari, voyaga etmagan bolalar va oilaning boshqa a'zolarining aliment majburiyatlari, ular birgalikda yashayotgan davlat hududida amalda bo'lgan qonunlarda belgilanadi.

Bola tug'ilishiga ko'ra qaysi davlatning fuqarosi bo'lsa, o'sha davlatning qonunlari otalikni belgilaydi. Farzandlikka olish hamda farzandlikka olishni bekor qilishni farzandlikka olinayotgan bola fuqarosi bo'lgan davlatning qonunlariga binoan amalga oshiriladi.

Horijiy davlat oila huquqining normalari O'zbekiston Respublikasining huquq tizimi asoslariga zid keluvchi hollarda qo'llanilmaydi. Bu hollarda O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari qo'llaniladi.

#### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yhati**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, Toshkent "O'zbekiston". 2014 yil.
2. Karimov I.A. "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish ustuvor maqsadimizdir"/Prezident I.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi // T.: "O'zbekiston". 2010 B-14.
3. Karimov I. A. «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsiepsiyasi» mavzuida 2010 yil 12 noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlis ma'ruza.
4. Karimov I.A. Ona yurtimiz bahtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida hizmat qilish – eng oliy saodatdir. –T. O'zbekiston. 2015.
5. O'zbekiston Respublikasining kodekslari. T., "Adolat", 2010 yil.
6. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga sharhlar. -T.: "O'zbekiston", 2010.- 496
7. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushunchalar va tamoyillar. Toshkent., 2001 yil.
8. O'zbekiston Respublikasining Oila Kodeksi. Toshkent., 1998 yil.
9. F.Otaxo'jaev. Nikoh va uning huquqiy tartibga solinishi. Toshkent., 1995 yil.

10. G.Abdumajidov. Fuqarolik va Oila munosabatlari.
11. Huquqshunoslik. O`quv qo`llanmasi. Toshkent., 2002 y.

## 5-mavzu. Ekologiya va qishloq ho'jalik huquqi asoslari

### Reja

1. Ekologiya huquqining tushunchasi, mohiyati, tamoyillari, funksiyalari va ob'ektlari.
2. O'zbekistonning ekologik siyosati. Ekologiya nazorati.
3. Ekologiyada yuridik javobgarlik tushunchasi.
4. Qishloq ho'jaligi va qishloq ho'jaligi korxonalari tushunchasi. Qishloq ho'jaligida shartnomalar turlari. Qishloq ho'jaligida davlat boshqaruvi tushunchasi.
5. Qishloq ho'jaligida mehnat munosabatlarini tartibga solish.

### Ekologiya huquqi tushunchasi, mohiyati, tamoyillari, funksiyalari va ob'ektlari.

#### O'zbekistonning ekologik siyosati.

Inson ona tabiat farzandidir. Dunyoga kelibdiki, tabiat bag'rida yashaydi, u zamindan ham moddiy, ham ruhiy kuch-quvvat oladi. Tabiat bag'ri inson uchun hamisha ochiq, u sahovatini noz-ne'matini insondan aslo ayamaydi. Tabiatni sevish, suv, tuproq, olov va havoni e'zozlash, dunyodagi jamiki ezgu amallarni pok va bus-butun saqlashga da'vat etish, inson o'zi o'sib ulg'aygan zaminni, atrof-muhitni muhofaza qilishi darkor. Ma'lumki so'nggi yillarda «Ekologiya» so'zi juda ommalashib ketdi. Ekologiya biologiya fanlari turkumiga mansub bo'lib, hozirgi vaqtda mustaqil fan sifatida shakllandi. Ekologiya yunoncha so'z bo'lib, «oykos»–uy, «logos»–fan ma'nolarini bildiradi. Bu fan «tabiiy uyda» yashayotgan va shu «uyda» hayot uchun kerakli funksional jarayonlarni o'tayotgan hamma tirik organizmlarni o'rganadi. SHuning uchun ham ekologiya organizmlarni «o'z uyida o'rganadigan fan» deb ataladi. «Ekologiya» atamasi fanga birinchi marta 1866 yilda, nemis olimi, biolog Ernst Gekkel kiritgan. Ekologiya faqat XX asrda mustaqil fan sifatida shakllandi. CHunki ekologiyani tushunish, er yuzida aholi sonining o'sib borishi va tabiiy muhitga bo'lgan ta'sirining kuchayishi inson oldiga qo'ygan hayotiy zarurlarni keltirib chiqardi. Agarda ekologiya fani yuzaga kelgan davrda faqatgina biologiya fanining tarkibiy qismi hisoblansa, hozirgi zamon ekologiyasi esa bir qator fanlar bilan uzviy bog'liqdir. Ular quyidagilardir: Biologiya (botanika va zoologiya), geografiya, geologiya, fizika, kimyo, genetika, matematika, tibbiyot, agronomiya va arhitekturadir. Ekologiyaning barcha yo'nalishlari asosida tirik organizmlar, ularni o'rab turgan muhit bilan munosabatlarida biologik g'oyalar yotadi. Ekologiya – tirik jonzotlarning yashash sharoiti va ularning o'zlari yashab turgan muhit bilan o'zaro murakkab munosabatlari asosida tug'ilgan qonunlarni o'rganadi.

**Ekologiya huquqi** — tabiat, insoniyat va inson o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasi huquq tizimining mustaqil sohasidir. Bu o'zaro bog'liqlikning bir tomoni, ya'ni insoniyat tomonidan tabiiy muhit (tabiiy rusurs)ning alohida tarkibiy qismlaridan foydalanish boshqa tomoni esa ularni bu faoliyatini zararli oqibatlardan muhofaza qilishda namoyon bo'ladi.

**Ekologiya huquqining predmeti, ekologik munosabatlar** — tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof tabiiy muhitni saqlash, tiklash va yaxshilash maqsadida va tabiatni o'zaro bog'liqligi doirasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar tizimi sifatida ta'riflash mumkin.

**Ekologiyaning asosiy ob'ektlariga** tabiiy resurslar-erlar, hayvonot va o'simliklar dunyosi, atmosfera havosi, tabiiy komplekslar, qo'riqxonalar, milliy parklar, tabiat landshaftlari va boshqalar, shuningdek insonni o'rab turgan atrof tabiiy muhit shaharchalar va qishloqlarning ishlab chiqarish, qishloq ho'jalik, rekreasiion hududlar va boshqalarning tabiiy muhiti kiradi. Tabiat ob'ektlarining o'ziga hosligi ularni muhofaza qilishni ro'yobga chiqaruvchi aniq shakllarnig shartlari bilan bog'liq. Ho'jalik yoki boshqa faoliyatlar jarayonida, ham atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish mumkin bo'ladi, ya'ni erlar, o'rmonlar, suvlar va boshqa tabiat resurslaridan foydalanish nazarda tutiladi. Ekologiya huquqining alohida ob'ekti sifatida inson yashab turgan atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishdir.

Ekologiya huquqining tizimi – ekologik qonuniyatlarga binoan ma'lum bir ketma-ketlik asosida ekologiya huquqi qismlari va institutlarining joylanish majmuidir. O'zbekiston

Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq, ekologiya sohasida davlat boshqaruvini amalga oshiradigan organlar umumiy va mahsus vakolatga ega bo'lgan davlat organlariga bo'linadi.

Ekologiya huquqining umumiy qismi umumiy ahamiyatga ega bo'lgan asosiy, tushunchalar va vazifalari, ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solishning tushunchasi, predmeti prinsiplari, manbalari va ob'ektlari tabiatdan oqilona foydalanishning iqtisodiy mexanizmi amal qilishi va atrof muhitni muhofaza qiluvchi tabiiy resurslarga bo'lgan mulkchilik huquqi va tabiatdan foydalanish huquqi; ekologik huquqbuzarliklar va ular uchun yuridik javobgarlikni nazarda tutuvchi huquqiy normalar va institutlardan iborat bo'ladi.

**Umumiy vakolatga ega bo'lgan organlar qatoriga** Prezident va uning devoni, Oliy Majlis, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Jo'qorg'i Kengesi, hokimiyatlar kiradi. Ular iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda davlat boshqaruvini amalga oshirish bilan bir vaqtda ekologiyaga oid masalalarni ham hal etadi.

**Mahsus vakolatli davlat organlariga** ekologiya sohasida davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar kiradi, ya'ni kompleks, tarmoq-funksional idoralar kiradi. Kompleks idoralarga - Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Davlat sanitariya nazorati, Uzgidromet, Favqulodda hodisalar bo'yicha vazirlik, Fanlar Akademiyasi kiradi.

**Tarmoq idoralariga** esa, Qishloq va suv ho'jaligi vazirligi, O'rmon ho'jaligi davlat qo'mitasi, Geologiya va mineralogiya resurslar davlat qo'mitasi, IIV, Er resurslari davlat qo'mitasi kiradi.

**Funksional idoralarga** esa IIV, Veterinariya nazorati, Bojhona, Tog'-kon nazorat qo'mitasi, standartlashtirish, metrologiya, Qurilish vazirligi, Soliq inspeksiyasi kiradi.

Ekologiya sohasida davlat boshqaruvining mahsus vakolatlari organlari ichida **markaziy o'rinni** O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi egallaydi. Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1996 yil 26 apreldagi qarori bilan tasdiqlangan Nizomiga muvofiq tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanish sohasida davlat idoralaridan ustun turuvchi mahsus organdir.

**Ekologik javobgarlik** – tabiiy muhitga keltirgan zararning oldini olish va ularni qoplash yuzasidan kelib chiqadigan huquqiy me'yorlar va ularga monand keluvchi huquqiy munosabatlarning iqtisodiy huquqiy kompleksidir.

**Ekologik huquqbuzarlikning ob'ekti** tabiat resurslaridan oqilona foydalanish va atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, ekologik huquqiy tartibot aholining havfsizligini ta'minlash bo'yicha ijtimoiy munosabatlar hisolanadi. Ekologik huquqbuzarlikning predmeti tabiiy muhit yoki uning alohida ob'ektlari, shuningdek inson salomatligidir. Bunda shuni ta'kidlash joizki, inson salomatligiga qilingan tajovuz qandaydir vositalar yordamida insonlar yashaydigan atrof – tabiiy muhitni yomonlashtirish yoki buzilishidir.

**Ekologik huquqbuzarlikning o'ziga hos belgisi** ekologik zarar etkazishdir. Ekologik zararlar atrof muhitni ifloslantirish, tabiat resurslarini haddan ziyod kamaytirish, tabiat ob'ektlarini shikastlantirish, buzish, yo'q qilish, tabiiy bog'liqlikni izdan chiqarish kabilardir.

Ekologik huquqbuzarlikning sodir qilingan qilmishning va qo'llanilgan sanksiyalarning turlari bo'yicha tavsiflanadi, ya'ni tabiat resurslarining turlariga bog'liq holda er, er osti boyliklari, hayvonot va o'simlik dunyosi, atmosfera havosi, o'rmon, suv va boshqa turlaridir.

**Ekologik zararining hususiyati uning pul ekvivalenti asosida to'ldirib bo'lmasligi va kelib chiqqan oqibatlarni orqaga qaytarib bo'lmasligida ko'rinadi.** SHuning bilan qoplash shaklining o'ziga hosligi kelib chiqadi. Atrof tabiiy muhitga etkazilgan ziyon har doim ham natura holda qoplanmasligi mumkin; masalan, tabiiy yodgorliklarning nobud qilinishi, noyob hayvonlarning o'ldirilishi, undiriladigan zararning pul shaklida miqdori esa taksa deb nomlanadigan (yovvoyi hayvonlarni noqonuniy ovlash, daraxtlarni noqonuniy kesish) shakl bo'yicha yoki mahsus normativ aktlarda nazarda tutilib, uni hisoblab aniqlashadi.

**Ekologik hilof harakatlar** – kishilarning o'z iqtisodiy va boshqa ehtiyojlarni qondirish natijasida kelib chiqadigan, atrof, tabiiy muhit muhofazasiga zid bo'lgan harakatlari.

**Ekologik iqtisodiy javobgarlik** – ijtimoiy javobgarlik turi bo'lib u atrof tabiiy muhitga etkazilgan va qonun bilan belgilangan me'yordan oshmagan zarari bilan belgilanadi va keltirilgan zararni pul miqdorida so'zsiz qondirish bilan ifodalanadi.

**Ekologik huquqiy javobgarlik** – ekologik qonun me'yorlarini buzganligi oqibatidagi noqulay sharoitlarning majburiy kechikmasi yoki sub'ektlarning yuridik javobgarlikka tortilishi.

Tabiatni muhofaza qilish hozirgi davrning eng muhim vazifalardan biridir. Inson tabiatdan foydalana borib yangi sharoit hosil kiladi, geografik muhitni o'zgartiradi, tabiatda kehadigan tabiiy aylanish va modda almashinuvi jarayoniga ta'sir ko'rsatadi. Bunday ta'sirning salbiy oqibatlari tabiatdagi tenglikka zarar etkazadi, inson va biosfera muvozanatining buzilishiga olib kelishi mumkin. SHuning uchun ham tabiatdan foydalanishda uning muhofazasiga e'tibor berish ob'ektiv zaruriyat bo'lib qoladi.

Tabiatni muhofaza qilish fuqarolarning muhim vazifasidir. Bu O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 50-moddasida ko'rsatilganidek, Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar. Bu vazifa faqat hozirgi avlod manfaatlaridan kelib chiqib emas, balki kelgusi avlod manfaatlarini inobatga olgan holda hal etilishi zarur. Inson faqat o'zi haqida qayg'urmaydi, balki o'zidan keyingi yashaydiganlar to'g'risida ham o'ylashi kerak. Qadimgi SHarq hikmatlarida shunday deyiladi: «Agar har bir inson biror bolani tarbiya qilmagan, biror uy qurmagan, biror darah t o'stirmagan bo'lsa uning umri zoe ketgan hisoblanadi».

Tabiatni muhofaza qilish huquqiy javobgarligi – bu huquqiy javobgarlikning tarkibiy qismi hisoblanadi. Huquqiy javobgarlik uchun mansub barcha shakllar, usullar va shartlar ham unga hosdir, ammo uning o'ziga hos alohida tomonlari ham bor.

Tabiat resurslari va atrof muhitni noqonuniy foydalanganlik uchun fuqarolar qonun oldida javobgardirlar. O'zbekiston Respublikasi jinoiyat kodeksining 4-bo'limida alohida tabiat muhofazasi qonunining buzilishi bilan bog'liq bir nechta jinoiyat tarkibi nazarda tutilgan.

Aybdor hulqida noo'rin hatti-harakatlar mavjud bo'lganda belgilangan tartibga ko'ra qo'llaniladigan nizomiy javobgarlik ham mavjud.

Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunni buzganlik uchun intizomiy, ma'muriy, jinoiy, moddiy javobgarliklar quyidagi holatlarda sodir bo'ladi: davlatning tabiat manbalariga nisbatan egalik huquqi buzilganda; tabiiy boyliklardan o'zboshimchalik bilan foydalanilganda; davlat ekologiya ekspertizasi talablari bajarilmaganda; tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun; atrof muhitga zararli moddalar chiqarganligi uchun; qattiq chiqindilar to'kkanligi, bular tabiiy muhitni ifloslantirganligi va unga zararli ta'sir ko'rsatishni boshqa turlari uchun belgilangan haqni to'lashdan bosh tortganda; tabiatni muhofaza qilishga doir boshqa tadbirlar bajarilmaganda; atrof-muhitni tiklash, unga bo'ladigan zararli ta'sir oqibatlarini bartaraf etish va tabiiy resurslardan takror ishlab chiqarish choralari ko'rilmaganda; tabiatni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshirayotgan idoralarning ko'rsatmalari bajarilmaganda; alohida muhofaza qilinadigan hududlar va ob'ektlarning huquqiy tartiboti buzilganda va hakoza.

Tabiatning halqaro huquqiy muhofazasi Ma'lumki, insoniyat tomonidan tabiatga ko'rsatiladigan antropogen ta'sirlar oqibatida atrof-muhit ifloslanib bormoqda. Jumladan, samarasiz ravishda o'rmonlarning vayron qilinishi, hamda hisobsiz darajada quruq erlarni o'zlashtirilishi shamolli eroziya o'choqlarining yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa tuproqlarning yuza qismidagi unumdor qatlamlarning uchirib ketilishiga va hosildorlikning kamayishiga sabab bo'lmoqda. YOki sanoat tarmoqlaridan suv havzalariga, atmosferaga va quruqlikka chiqarilayotgan zaharli chiqindilar ham atrof-muhitni ifloslanishiga sabab bo'lmoqda. Natijada, dunyo miqyosidagi ekologik muammolar ko'payib bormoqda. Bu muammolarni hal etish turli halqaro tashkilotlar zimmasiga tushmoqda.

O'zbekiston Respublikasi ekologik muammolarni hal etishda dunyoda peshqadam davlatlardan hisoblanadi. Jahon miqyosidagi ekologik muammolarni hal etish borasida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tadbirlar chet mamlakatlarda amalga oshirilayotgan tadbirlar chet mamlakatlarda ham qo'llab quvvatlanmoqda. Prezident I.A. Karimovning BMT

Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida Orol muammosi o'zini ekologik va ijtimoiy oqibatlarini jihatidan XX asrning eng katta ofatlaridan biri bo'lib qoldi, Orol dengizining halokati butun dunyo uchun oldindan aytib bo'lmaydigan oqibatlar keltirib chiqarmoqda, degan ogohlantirishlari insoniyatni ogohlikka da'vat etadi.

O'zbekiston Respublikasida ham atrof-muhitning ifloslanishini oldini olish borasida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi bir qator halqaro konvensiyalar va paktlarni imzoladi. Jumladan, **Atmosfera havosini muhofaza qilish bo'yicha Vena konvensiyasi va Monreal protokoli** mavjud bo'lib, unga O'zbekiston ham qo'shilgan. 1995 yildan boshlab har yili 16 sentyabrni atmosferaning azon qatlamini muhofaza qilish halqaro kuni sifatida jahon halqlari keng nishonlab kelmoqda. Respublikamizda atrof-muhitni tehnogen ifloslanishida muhofaza etish bo'yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda: Er, suv, o'rmon, er osti boyliklari haqida kodekslar, shuningdek atmosfera havosi, er osti va usti suvlari, tuproq, o'simlik va hayvonot olamini muhofaza etish bo'yicha bir qator qonunlar qabul qilingan.

Vazirlar Mahkamasi tabiatni muhofaza qilishga doir yagona siyosat yuritadi; tabiiy resurslarning zahiralarni tasdiqlaydi. Ekologiya jihatdan tang, vaziyatlar oldini olish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqadi, resurslardan foydalanganlik uchun haq to'lash tartibini belgilaydi.

Halqaro bitimga muvofiq vazirliklar va idoralar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, hususiy shahslar azon qatlamiga zararli ta'sir etuvchi kimyoviy moddalar ishlab chiqarib hamda bunday moddalardan foydalanishni qisqartirishlari va kelgusida batamom to'htatilishi shart. Tabiiy resurslardan foydalanish talablarini muttasil buzadigan foydalanuvchi tabiiy resurslardan foydalanish huquqidan mahrum etilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi fan va texnika Davlat qo'mitasi huzuridagi Davlat ilmiy-texnika axboroti fondida ekologiya bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Quyidagi sohalar texnologiyasini alohida ko'rsatib o'tish mumkin.

Bular:

- issiqlik-energetik majmui;
- metallurgiya;
- mineral hom-ashyo majmui;
- kimyo va engil sanoat;
- qishloq va suv ho'jaligi, agrosanoat majmui.

Yaratilgan baza ma'lumotlari bo'yicha vaziyatlarni o'rganish, atrof-muhitni tehnogen ifloslanishdan muhofaza etish bo'yicha qator muammolarni hal etishga va respublikamizda ekologik vaziyatni sezilarli darajada yaxshilashga imkon beruvchi texnik jarayonlarni innovatsion asosda tarmoq va tarmoqlararo miqyosda tadbir etish borasida tavsiyalar berish imkoniyatini tug'diradi.

1994 yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi atrof muhit bo'yicha Halqaro axborot tizimida mustaqil ishtirokchidir.

1995 yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi (MAM tomonidan) tabiatni muhofaza etish faoliyatining alohida yo'nalishlari bo'yicha ma'lumotlarning mahalliy bazasini shakllantirishga kirishildi.

**Qishloq ho'jaligi va qishloq ho'jaligi korxonalarini tushunchasi.**

**Qishloq ho'jaligida shartnomalar turlari. Qishloq ho'jaligida davlat boshqaruvi tushunchasi. Qishloq ho'jaligida mehnat munosabatlarini tartibga solish.**

**Qishloq ho'jalik huquqi mamlakatimiz huquq tizimida mustaqil huquq sohalaridan biri hisoblanadi.** Qishloq ho'jalik huquqining *umumiy tushunchasi* haqida fikr yuritganda, uning uchta tavsiflarda tushunchasi borligini ta'kidlash o'rinlidir. SHulardan **birinchisi**, qishloq ho'jalik huquqi O'zbekiston huquq tizimining mustaqil huquq sohasidir. Qishloq ho'jalik huquqida har bir huquq sohasi uchun kerak bo'lgan belgilar mavjud. Bular **birinchidan**, qishloq ho'jalik huquqi o'z mahsus predmetiga ega; **ikkinchidan**, u o'z mahsus huquqiy tartibga solish uslubiga ega; **uchinchidan**, davlat shu sohadagi ijtimoiy

munosabatlarni alohida tartibga soladi; to'rtinchidan, u alohida guruhlangan me'yoriy-huquqiy hujjatlar yig'indisiga ega.

Ikkinchidan, qishloq ho'jalik huquqi O'zbekiston huquq fanining mustaqil sohasidir. SHu o'rinda unga huquq fanlariga tegishli bo'lgan barcha hususiyatlar hos bo'ladi.

Uchinchidan, qishloq ho'jalik huquqi mahsus o'quv kursi hisoblanadi. Uning o'quv kursi sifatidagi hajmi, mazmuni va maqsadlari turli o'quv yurtlarida uchun har hil bo'lishi mumkin.

Yuqorida sanab o'tilgan asoslar, qishloq ho'jalik huquqi o'zi tartibga solish predmetiga ega ekanligidan dalolat beradi Bunda qishloq ho'jalik huquqi normalari tartibga solishi kerak bo'lgan barcha ijtimoiy munosabatlarning markazida qishloq ho'jalik ishlab chiqarishi bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar yotadi.

Huquq tizimining alohida sohasi sifatida qishloq ho'jalik huquqi mahsus tartibga solish uslubi mavjud. Bu uslubning qo'llanilishi qishloq ho'jalik ishlab chiqarishini rivojlantirish, qishloq ho'jaligida tuproq unumdorligini tiklash va oshirish, mulkchilik va ho'jalik yuritishning barcha shakllarini teng huquqlilik asosida rivojlantirish uchun sharoit yaratish, qishloq ho'jalik hodimlarining huquqlarini himoya qilishni ta'minlashga qaratilgan bo'ladi.

Qishloq ho'jalik huquqi qishloq ho'jalik ishlab chiqarish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishi uchun xizmat qiladigan me'yoriy-huquqiy asosga ega bo'ladi. Ushbu asos Konstitutsiya, Er kodeksi, Qishloq ho'jalik kooperativlari (shirkat ho'jaliklari) to'g'risida, Fermer ho'jaligi to'g'risida, Dehqon ho'jaligi to'g'risida va qishloq ho'jalik ishlab chiqarish munosabatlarini tartibga soluvchi boshqa qonun hujjatlaridan iborat. Ushbu asoslar asosan shakllangan bo'lib, u borgan sari takomillashib va rivojlanib bormoqda.

Ma'lumki, huquq predmeti deganda, ijtimoiy faoliyat jarayonida vujudga keladigan, qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan erkin munosabatlar tushuniladi. Umume'tirof etilgan ushbu qoidaga asoslanib aytish mumkinki, qishloq ho'jalik huquqining predmeti, ya'ni u tomonidan tartibga solish doirasiga qishloq ho'jalik ishlab chiqarishi tufayli vujudga keladigan erkin ijtimoiy munosabatlar kiradi.

Qishloq ho'jalik huquqi mustaqil huquq sohasi sifatida o'zaro bog'liq, bir-biriga yaqin bo'lgan bir maqsadga xizmat qiladigan, bir-biri bilan uzviy bog'langan, qishloq ho'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishga qaratilgan er, mulkiy, mehnat va tashkiliy – boshqaruv sohalaridagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Aytish mumkinki, qishloq ho'jalik huquqi tartibga soladigan ijtimoiy munosabatlar o'ziga hosligi, turli tumanligi, keng doirada ekanligi bilan tavsiflanib, qishloq ho'jalik ishlab chiqarishi jarayonida vujudga keladigan er, mulkiy, mehnat, tashkiliy - boshqaruv bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarni qamrab oladi. Demak, qishloq ho'jalik huquqi kompleks agrar munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida esa qishloq ho'jalik ishlab chiqarishi bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarni tartibga soluvchi bitta qonunga jamlangan me'yoriy hujjat (kodeks, qonun) yo'q. Qishloq ho'jalik ishlab chiqarishi bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarning juda kengligi, turli-tumanligi, ushbu munosabatlarning har biri (er, mulkiy, mehnat, boshqaruv) murakkab, o'ziga hos, mustaqil munosabatlar ekanligini, bu munosabatlarni bitta qonunga jamlash qiyinligini e'tiborga oladigan bo'lsak, bu munosabatlarni bitta kodeks yoki qonun bilan tartibga solish ancha mushkul. SHu sababdan, er munosabatlari er qonunchiligi bilan, mehnat munosabatlari mehnat qonunchiligi bilan, ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi sub'ektlar faoliyati ular

to'g'risidagi qonunlar (masalan, "Fermer ho'jaligi to'g'risida"gi, "Dehqon ho'jaligi to'g'risida"gi qonun) bilan tartibga solinishi maqsadga muvofiqdir.

Qishloq ho'jaligi ishlab chiqarishi bilan bog'liq munosabatlarni yagona qonun bilan tartibga solmaslik, ular to'g'risidagi bitta qonunlar majmuasining yo'qligi qishloq ho'jalik huquqini mustaqil huquq tarmog'i sifatida tan olmaslik uchun asos bo'lmaydi.

Qishloq ho'jalik huquqini majmualashgan huquq sohasi bo'lib, o'zida er, suv, o'rmon, mehnat, ma'muriy, fuqarolik va boshqa huquq sohaslarining institutlarini mujassamlashtirishida; ikkinchidan, qishloq ho'jalik huquqi qishloq ho'jalik ishlab chiqarishi bilan bog'liq bo'lgan er, mulkiy, mehnat, tashkiliy-boshqaruv munosabatlarini tartibga solishida; uchinchidan, qishloq ho'jalik huquqi ho'jalik yuritish va mulk shaklidan qat'i nazar barcha turdagi ho'jalik tuzilmalarining teng huquqliligini ta'minlashida; to'rtinchidan, barcha turdagi mulk shakllarini teng huquqliligini, qishloq ho'jaligi ishlab chiqarishiga bir hilda joriy etishga keng imkoniyatlar yaratib berishida; beshinchidan, qishloq ho'jalik huquqi qishloq ho'jalik tashkilotlarining erkin ho'jalik yuritish, etishtirilgan mahsulotlarni mustaqil ayirboshlash huquqini mustahkamlashida; oltinchidan, qishloq ho'jalik huquqi qishloq sharoitining tabiiy-iqlimiy sharoitlarini e'tiborga olib tartibga solishida; ettinchidan, qishloq ho'jalik huquqi demokratiya mezonlarining barcha tamoyillarini mustahkamlashida ko'rishimiz mumkin.

YUqorida bildirilgan fikr va mulohazalardan hamda o'ziga hos hususiyatlardan kelib chiqib qishloq ho'jalik huquqiga quyidagicha ta'rif berish mumkin. Qishloq ho'jalik huquqi - qishloq ho'jalik ishlab chiqarish jarayonida kelib chikadigan agrar munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar yig'indisidir.

Qishloq ho'jaligi korxonalarining turlari va ularning huquqiy holati. O'zbekiston Respublikasidagi korxonalarining huquqiy holatidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Ammo qishloq ho'jaligi korxonalarida mehnatni tashkil qilish, mehnatga haq to'lash, ish vaqti va dam olish vaqtini belgilash, ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishda o'ziga hos hususiyatlar mavjud. Ushbu hususiyatlar qishloq ho'jaligi korxonalarining huquqiy holatini belgilashda o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Qishloq ho'jaligi korxonalarining huquqiy holati O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 39-72-moddalarida yuridik shahslarni huquqiy maqomiga taalluqli qoidalarga muvofiq belgilanadi. Bundan tashqari korxonalarining huquqiy holatiga oid normalar O'zbekiston Respublikasida "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi, "Aksiiyadorlik jamiyatlari va aksiiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi, "Mas'uliyati cheklangan hamda ko'shimcha ma'suliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi "Qishloq ho'jaligi kooperativi (shirkat ho'jaligi) to'g'risida"gi, "Fermer ho'jaligi to'g'risida"gi, "Dehqon ho'jaligi to'g'risida"gi Qonunlari va boshqa qonun ho'jjatlari bilan belgilanadi.

Qishloq ho'jaligi ishlab chiqarish tadbirkorlik sub'ektlari tarkibida fermer ho'jaliklari salmoqli o'rinni egallaydi. O'zbekiston Respublikasining "Fermer ho'jaligi to'g'risida"gi qonun (Mazkur qonunning yangi tahriri O'zR 26.08.2004 y. 692-II-son qonuni bilan tasdiqlangan) uning huquqiy holatini belgilashda asosiy hujjat hisoblanadi. Ushbu qonunning 3-moddasiga asosan, fermer ho'jaligi ijaraga berilgan er uchastkalaridan foydalangan holda qishloq ho'jaligi tovar ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi, mustaqil ho'jalik yurituvchi sub'ektdir.

Fermer ho'jaligi tashkil etish shartlari qonunda aniq ko'rsatib berilgan. Qonunning 5-moddasiga ko'ra, fermer ho'jaligi aksariyat hollarda ortiqcha mehnat resurslari bo'lmagan erlarda va hududlarda tashkil etiladi.

Fermer ho'jaligi ho'jalik boshlig'i tomonidan, ho'jalikka alohida mol-mulk ajratib berish va ustavini tasdiqlash yo'li bilan tashkil etilishi qonunning 6-moddasida bayon etilgan. Qonunning 4-moddasida esa, o'n sakkizga to'lgan, qishloq ho'jaligida tegishli malaka va ish tajribaga ega bo'lgan shahslar fermer bo'lishi mumkinligi mustahkamlangan.

CHorvachilik mahsulotlari etishtirishga ihtisoslashgan fermer ho'jaligi kamida 30 shartli bosh chorva moli bo'lgan taqdirda tashkil etiladi.

SHuningdek, dehqonchilik mahsulotlari etishtirishga ihtisoslashtirilgan fermer ho'jaliklariga ijaraga beriladigan er uchastkalarining eng kam o'lchami pahtachilik va g'allachilik uchun kamida 10 gektarni, bog'dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik va boshqa ekinlar etishtirish uchun kamida 1 gektarni tashkil etishi ko'rsatib o'tilgan.

Dehqon ho'jaligining huquqiy maqomi **1998 yilning 30 aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Dehqon ho'jaligi to'g'risida"gi qonun** bilan belgilanadi. Bundan tashqari, uning huquqiy holatini belgilashda O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, Er kodeksi, mulkchilik, tadbirkorlik va boshqa qonunlar ham alohida ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasining "Dehqon ho'jaligi to'g'risida"gi qonunning 1-moddasiga asosan dehqon ho'jaligi - oilaviy mayda tovar ho'jaligi bo'lib, oila a'zolarining shahsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig'iga berilgan tomorqa er uchastkasida qishloq ho'jaligi mahsuloti etishtiradi va realizatsiya qiladi.

Dehqon ho'jaligi huquqiy maqomining harakterli xususiyatlaridan biri shundan iboratki, bunday ho'jalikdagi faoliyat tadbirkorlik faoliyati jumlasiga kiradi hamda dehqon ho'jaligi a'zolarining istagiga ko'ra yuridik shahs tashkil etgan holda va yuridik shahs tashkil etmasdan amalga oshiriladi. Qonunda ko'rsatilishicha, dehqon ho'jaligi a'zolari jumlasiga birgalikda yashayotgan va dehqon ho'jaligini birgalikda yuritayotgan oila boshlig'i, uning hotini (eri), bolalari, shu jumladan farzandlikka olingan bolalari, tarbiyaga olgan bolalari, ota-onalari, mehnat qobiliyati yoshiga etgan boshqa qarindoshlari kiradi.

Yuridik va jismoniy shahslar bilan o'zaro munosabatlarda dehqon ho'jaligi nomidan shu ho'jalik boshlig'i ish ko'radi. Dehqon ho'jaligi boshlig'i bo'lib qonun hujjatlarida belgilangan tartibda er uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi berilgan oila boshlig'i yoki oilaning muomalaga layoqatli a'zolaridan biri bo'lib hisoblanadi. Dehqon ho'jaligining boshlig'i vaqtincha mehnat qobiliyatini yo'qotgan taqdirda yoki o'zoq vaqt bo'lmaganda u o'z majburiyatlarini bajarish vakolatini shu ho'jalik a'zolaridan biriga, dehqon ho'jaligining a'zosi bir kishidan iborat bo'lganda esa, shartnoma asosida belgilangan talablarga javob beradigan har qanday shahsga berishga haqlidir. dehqon ho'jaligi boshlig'i uning nomidan ishonchnomasiz ish ko'rish, yuridik va jismoniy shahslar bilan shartnomalar tuzish, ishonchnomalar berish va hisob varaqlar ochish huquqlariga ega. Dehqon ho'jaligi boshlig'i dehqon ho'jaligining hamda uning a'zolarining manfaatlari himoya qilinishi va huquqlari amalga oshirilishini ta'minlashlari shart, o'z navbatida dehqon ho'jaligi a'zolari ho'jalik a'zolari o'rtasidagi shartnoma shartlariga ko'ra birgalikda yoki yakka tartibda foydalanadigan daromaddan o'z ulushini olish, qonun hujjatlariga muvofiq davlat ijtimoiy sug'urtasidan o'tkazilish va ijtimoiy ta'minlanish, shuningdek tovar qishloq ho'jaligi mahsuloti etishtirish uchun dehqon ho'jaligida sarflangan ish vaqti O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy ta'minot vazirligi huzuridagi Pensiya jamg'armasiga badallar to'lab berilgan taqdirda mehnat stajiga kiritilish huquqiga ega.

Qishloq ho'jaligida shartnoma munosabatlari. Qishloq ho'jaligiga aloqador shartnomalarning turlarini bilish, ularning har birini mohiyatini, mazmunini va qaysi maqsadda qo'llanishini bilish ulardan faol foydalanish va ularni bekami-ko'st bajarilishini ta'minlash ishlab chiqarishda yuksak natijalarga erishish va jamoa ho'jaligini iqtisodiy sharoitini mustahkamlash uchun albatta ijobiy rol o'ynaydi.

SHartnoma bozor munosabatlarini yanada keng ko'lamda amal qilishi uchun va tadbirkorlik sohasida turli majburiyatlarning vujudga kelishi uchun tegishli bo'lgan asosiy

hujjat deb hisoblanadi. Bozor iqtisodiyotiga hos shartnomalar bilan tartibga solinuvchi mulkiy munosabatlarni mohiyatini belgilab beruvchi eng muhim hususiyat, ushbu munosabatlarni haq evaziga amalga oshirilishdan iborat. Ushbu belgilab beruvchi ijtimoiy-iqtisodiy mezon deyarli barcha shartnomalarga bag'ishlangan qonun hujjatlarida o'z aksini topdi.

Haq evaziga amalga oshiriladigan munosabatlarda iqtisodiy jihatdan mustaqil, huquqiy jihatdan teng taraflar qatnashishi mumkin. SHartnomaning asosiy belgisi va hususiyati ham ushbu tamoyil asosida o'z ifodasini topadi. SHunday ekan shartnomalarga bag'ishlangan qoidalar imperativ (qat'iy) emas, balki dispozitiv (tanlashga yul kuyuvchi) hususiyatga ega bo'lishi inobatga olinadi. Bu demak, dehqon ho'jaliklarga, fermerlarga, shirkatlarga va qishloq ho'jaligidagi boshqa yuridik shahslarga faoliyatning turini tanlashda, boshqarishda, shartnomalarning mazmunini belgilashda va majburiyatlarini bajarishda keng erkinlik berish nazarda tutiladi. SHartnoma taraflarining hatti-harakatlari qonun bilan batafsil belgilanmasligi, ya'ni tartibga solinmasligi yoki boshqacha qilib aytganda faqat qonunda nazarda tutilgan harakatlar emas balki qonun bilan taqiqlanmagan har qanday harakatlarni bajarishlari mumkin degan tamoyilga asoslanadi.

Shartnomaning uchinchi ahamiyati tobora oshib bormokda. Bunga sabab uning taraflariga yangi Fuqarolik Kodeksida berilgan huquqiy layoqatdan iborat. Kodeksning 354-moddasiga "SHartnoma tuzish erkinligi" deb nom berilgan va ushbu nom uning mazmunida o'z aksini topgan. Moddada, masalan quyidagi qoidalar nazarda tutiladi: "Fuqarolar va yuridik shahslar shartnoma tuzishda erkindirlar. SHartnoma tuzishda majbur qilishga yul kuyilmaydi... Taraflar qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan shartnomani ham tuzishlari mumkin. Shartnomaning shartlari taraflarning hohishi bilan belgilanadi, tegishli shartning mazmuni qonun hujjatlarida ko'rsatib qo'yilgan holatlar bundan mustasno".

Iqtisodiy va ho'jalik munosabatlar turli shartnomalar tuzish vo'li bilan amalga oshiriladi. SHartnomalar esa, o'z navbatida tartibga solinadigan munosabatlarning hususiyatlari, ahamiyati va vazifalari hisobga olingan holda tasniflanadi. Buning natijasida shartnomalar muayyan iqtisodiy munosabatlarning harakatga keltiruvchi yuridik shakli sifatida tegishli guruhlariga bo'linadi va ma'lum tizimni tashkil qiladi, chunonchi:

a) mol-mulkka nisbatan egalik qilish huquqini o'tkazish bo'yicha vujudga kelgan munosabatlar bilan bog'liq shartnomalar.

b) mol-mulkka nisbatan foydalanish huquqini topshirish bo'yicha vujudga kelgan munosabatlar bilan bog'liq shartnomalar:

v) muayyan ishni bajarish bo'yicha vujudga keladigan munosabatlar bilan bog'liq shartnomalar:

g) hizmat ko'rsatish bo'yicha vujudga keladigan munosabatlar bilan bog'liq shartnomalar.

SHartnomalar tizimini va ushbu tizim qanday guruhlardan tashkil topishini bilish shartnomalar yordamida tartibga solinadigan munosabatlarga hos hususiyatlar haqida to'g'ri tasavvurga ega bo'lishga va tadbirkorlikning turli sohalarida shartnomalardan faol va malakali foydalanishga yordam beradi.

a) guruhdagi shartnomalar tarkibiy qismi quyidagilardan iborat: olish - sotish shartnomasi; (tovarni etkazib berish) shartnomasi; qishloq ho'jalik mahsulotlarini kontraksiya qilish shartnomasi; ayrboshlash (barter) shartnomasi; hadya shartnomasi; tarmoqqa ulash orqali energetika va boshqa resurslar bilan ta'minlash; umrbod asrash sharti bilan uy-joyini (kvartirani) topshirish.

b) guruhdagi shartnomalar tarkibiy qismi quyidagilardan iborat: mulk ijarasi; prokat; qarz; mulkdan to'liq foydalanish; uy joy ijarasi; lizing shartnomasi.

v) guruhdagi shartnomalar tarkibiy qismi quyidagilardan iborat: pudrat; qurilishga oid pudrat; ilmiy-tadqiqot; tajriba – konstruktorlik ishlarni bajarishga oid pudrat; maishiy pudrat.

g) guruhdagi shartnomalar tarkibiy qismi quyidagilardan iborat; **hizmat ko'rsatish; yuk va yulovchi tashish; ekspeditsiya; topshiriq; komissiya; vositachilik; omonat; pul mablag'larini saqlash va hisob-kitob qilish.**

**Kontraktasiya shartnomasi respublikamizning qishloq ho'jaligi mahsulotlari etishtiruvchi ho'jaliklari bilan bu mahsulotlarni harid qiluvchilar, tanlovchilar o'rtasida tuziladi. SHunga ko'ra Kontraktasiya shartnomasi ta'rifi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 465-moddasida ifoda etilgan. Kontraktasiya shartnomasiga muvofiq qishloq ho'jaligi mahsulotini qayta ishlash yoki sotish uchun bunday mahsulotni harid qiladigan shahsga-tayyorlovchiga shartlashilgan muddatda topshirish (topshirib turish) majburiyatini oladi, tayyorlovchi esa bu mahsulotni qabul qilish (qabul qilib turish) uning haqini shartlashilgan muddatda muayyan bahoda to'lash (to'lab turish) majburiyatini oladi.**

**Mana shu ta'rifdan ma'lumki, Kontraktasiya shartnomasi sub'ektlari bo'lib bir tomon mahsulot etishtiruvchi ho'jalik, jamoa ho'jaligi, fermer dehqon ho'jaliklari va boshqa ho'jaliklar ishtirok etsa, ikkinchi tomondan mahsulot tayyorlovchi tashkilotlar qatnashadi.**

Ho'jaliklar bilan tayyorlov va hizmat ko'rsatish tashkilotlari o'rtasida qishloq ho'jaligi mahsulotlari sotish, moddiy-tehnika resurslari etkazib berish va hizmatlar ko'rsatish (ishlarni bajarish) yuzasidan tuzilgan barcha turdagi shartnomalar tuman qishloq va suv ho'jaligi bo'limlarida ro'yhatdan o'tkazilgandan keyin bajarilishi kerak.

Qurilishda tomonlarning o'zaro munosabatlariga va javobgarligi taksimotiga ko'ra shartnomaning quyidagi turlaridan foydalanish mumkin. **Birinchi**dan, to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar, asbob-uskunalar va materiallarni etkazib bergan yoki bermagan holda kompleksning tarkibiy qismi bo'lgan alohida ob'ektlarda qurilish, montaj yoki mahsus ishlar hajmlarini bajarish yuzasidan tuziladi. To'g'ridan-to'g'ri shartnoma bo'yicha pudratchi faqat o'zining to'g'ridan-to'g'ri majburiyatlari o'z ishlari va hizmatlari uchun javob beradi, (umuman kompleks) qurilishini tugallash uchun hamda barcha ishlarni muvofiqlashtirish uchun javobgarlik buyurtmachi zimmasida qoladi. **Ikkinchi**dan, loyiha-qurilish shartnomai ob'ektni loyihalash va qurish bo'yicha majburiyatlarni bosh pudratchi zimmasiga yuklashni nazarda tutadi. Ob'ektni loyihalash loyihalash institutlarining kuchi bilan ham va pudratchining lisienziyaga ega bo'lgan loyihalash bo'linmalari kuchi bilan ham va uning rahbarligida bajarilishi mumkin. **Uchinchi**dan, "tayyor holda foydalanishga topshirish" shartnomai loyiha-qurilish shartnomaining rivojlantirilishi hisoblanadi. Bunda bosh pudratchi buyurtmachining barcha an'anaviy funksiyalarini, shu jumladan ishga tushirish - sozlash va ishga tushirish ishlarini o'z zimmasiga oladi. Ob'ekt buyurtmachiga doimiy foydalanishga to'liq tayyor holda topshiriladi.

**Qishloq ho'jaligini davlat boshqaruvi. Mamlakatimizning bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich, evolyusiion islohotlar asosida o'tish va tub islohotlarni amalga oshirishda davlat bosh islohotchi, tashkilotchi bo'lishi tamoyilining amalda bo'lishi bugungi kunda har tomonlama o'zini oqlamoqda.**

*Qishloq ho'jaligini davlat tomonidan tartibga solish deganda iqtisodiyotning agrar sektorida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish yuzasidan davlat boshqaruv organlari faoliyati tushuniladi.*

Qishloq ho'jaligini davlat tomonidan tartibga solishning **asosiy maqsadi** aholini sifatli qishloq ho'jalik mahsulotlari bilan ta'minlash, mamlakatimiz iqtisodiy kudratini mustahkamlash va aholining ijtimoiy holatini yaxshilashdan iboratdir.

Ushbu maqsadni amalga oshirishda davlat boshqaruv organlari oldida ma'suliyatli vazifa va yo'nalishlarni belgilashni taqozo etadi.

SHuni ta'kidlash kerakki, bugungi kundagi qishloq ho'jaligini davlat tomonidan tartibga solish yuzasidan olib borilayotgan faoliyat yo'nalishining hilma-hilligi, murakkabligi va mazmun-mohiyati bilan sobiq sotsialistik qishloq ho'jalik ishlab chiqarish jarayonini tartibga solish yuzasidan davlat boshqaruvidan tubdan farq qiladi.

Bugungi kunda amalga oshirilayotgan agrar islohotlarning mazmun-mohiyati davlat boshqaruv organlarining iqtisodiyotning agrar sektorini tartibga solish chora-tadbirlari bilan bir qatorda asosan iqtisodiy chora va usullarni qo'llanishini talab etadi.

Qishloq ho'jaligini davlat tomonidan tartibga solish birinchidan, qishloq ho'jalik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi sub'ektlarga qulay shart-sharoitlar yaratib berish, ularning iqtisodiy va ho'jalik mustaqilligini ta'minlash, mulkdorlarning huquqlarini himoya qilish asosida ta'sir ko'rsatish, **ikkinchidan**, ma'muriy-huquqiy usullardan iqtisodiy usullarning ustuvorligini ta'minlash nazarda tutiladi.

**Qishloq ho'jaligini isloh qilishga qonunchilik hujjatlarida davlat boshqaruv organlarining quyidagi yo'nalishlardagi faoliyati belgilangan:**

- Agrosanoat majmuining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy sohalaridagi ijtimoiy munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan qonunchilik hujjatlarini qabul qilish;
- Qishloq ho'jaligida mulkchilik shakllarini takomillashtirish, hususiy mulk manfaatlarini himoya qilish, tadbirkorlik faoliyatni qo'llab-quvvatlash;
- qishloq ho'jalik infrastrukturasi yaratish va rivojlantirish;
- erlarni muhofaza qilish, ulardan oqilona foydalanish, dehqonlarga erga egalik hissini uyg'otish, dehqonlarni o'z mehnati natijalaridan foydalanish huquqiga to'la ega bo'lishni ta'minlash, qishloq ho'jaligida mulkiy paylarni joriy etishni yo'lga qo'yish;
- qishloq ho'jalik korxonalarining huquqini va iqtisodiy mustaqilligini kengaytirish, turli qishloq ho'jalik ishlab chiqarish shakllarini qishloq ho'jalik shirkati, fermer ho'jaligi va dehqon ho'jaligini tashkil qilish va rivojlantirish;
- qishloq ho'jaligi tarmoqlarida ishlab chiqarish uchun zarur moddiy-tehnika ta'minotini yo'lga qo'yish;
- pahtachilik, don va boshqa qishloq ho'jalik ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi tizimini rivojlantirish, mahalliy tuproq iqlim sharoitiga mos navlarni tanlashda ko'maklashish;
- qishloq ho'jalik mahsulotlarini qayta ishlash, ayirboshlash va horijiy davlatlarga eksport qilishda zarur shart-sharoitlar yaratish va boshqalar.

SHuni alohida ta'kidlash joizki, agrosanoat majmuini davlat tomonidan tartibga solish iqtisodiyotimizning boshqa sohalaridagi davlat boshqaruv jarayoni bilan umumiy jihatlari mavjud bo'lishi bilan bir qatorda o'ziga hos hususiyatlariga ega. Ushbu o'ziga hos hususiyatlar qishloq ho'jaligidagi murakkab turli ijtimoiy munosabatlarning mohiyatidan kelib chiqadi.

**Qishloq ho'jaligida davlat boshqaruvining hususiyatlari quyidagi omillar bilan bog'liqdir:**

1. Qishloq ho'jalik ishlab chiqarish jarayonining tabiiy omillarga bog'liqligi, ya'ni er, suv, o'simlik, hayvonot dunyosi va atmosfera havosining holatiga bog'liqligi;
2. Qishloq ho'jalik ishlab chiqarishning ya'ni, ekinlarni ekish va mahsulotni yig'ib terib olishda mavsumiylikining qo'llanishi;
3. Agrosanoat majmui yirik, murakkab tuzilmalarni o'z ichiga olib, nafaqat qishloq ho'jalik tarmoqlari faoliyati, balki halq ho'jaligining mashinasozlik, kimyo sanoati bilan chambarchas bog'liqligi va boshqalar.

Yuqorida sanab o'tilgan omillar qishloq ho'jaligini davlat tomonidan tartibga solishga qaratilgan faoliyatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi hamda davlat boshqaruv organlari oldiga yangidan yangi vazifa va yo'nalishlarni belgilaydi. Chunki, qishloq ho'jaligi tabiat bag'rida joylashgan, tabiiy resurslardan foydalanish asosida ishlab chiqarish jarayoni olib boriladi. Ushbu holat esa o'z navbatida ushbu sohada boshqaruvni amalga oshirayotgan davlat organlari o'z faoliyatini atrof tabiiy muhit holati bilan uyg'unlashtirilgan holda olib borishni ko'zda tutadi.

SHunday qilib, qishloq ho'jaligi iqtisodiyotimizning muhim sohalaridan biri bo'lib, bosqichma-bosqich olib borilayotgan islohotlarni ta'minlashda davlat organlarining islohotchi, tashkilotchi bo'lishini belgilaydi.

**Qishloq ho'jaligida mehnat munosabatlarini tartibga solish.** Qishloq ho'jaligi qonunchiligini buzish qishloq ho'jalik huquqi hususiyatidan, uning o'ziga hos jihatlardan kelib chiqadi, ya'ni qishloq ho'jalik huquqi o'zida turli huquq sohalariga tegishli

bo'lgan munosabatlarni tartibga soluvchi, turli qonunchilik sohalariga ta'luqli bo'lgan normalarni jamlaydi.

Yuridik javobgarlik keng ma'noda bu huquqiy institutdir. U o'zida qonun bilan yuklatilgan majburiyatlar yoki shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlar ixtiyoriy bajarishdan bo'yin tovlayotgan yohud o'rnatilgan huquqiy tartibotni buzayotgan shahslarga davlat tomonidan ruhsat etilgan va qo'llab quvvatlangan majburiy va salbiy ta'sir ko'rsatish uslub va chora tadbirlari to'g'risidagi yuridik qoidalar (normalar) majmuini ifodalaydi<sup>14</sup>.

**Qishloq ho'jalik qonunchiligini buzganlik uchun yuridik javobgarlik haqida gapirganda avvalambor, yuridik javobgarlik tushunchasining o'ziga to'htalib o'tishimiz joizdir. Yuridik javobgarlik – ijtimoiy javobgarlikning bir turi bo'lib, huquqbuzarlik sodir etgan shahsga nisbatan, u buzgan huquq normasi sanksiyasida ko'zda tutilgan davlat majburlov chorasini qo'llash va muayyan salbiy oqibatlarni qo'llash zaruriyatini ifodalab, shahs muayyan shahsiy, mulkiy, tashkiliy va boshqa ne'matlardan mahrum etilishida namoyon bo'ladi.**

**Yuridik javobgarlik mohiyatini ochib berishda uning hususiyatlari ahamiyatli bo'lib, ular quyidagicha: 1) davlat majburlovi bilan uzviy bog'liqlik; 2) yuridik javobgarlikning faktik asosi faqat huquqbuzarlik bo'lishi mumkin; 3) yuridik javobgarlik davlat ayblovi bilan bog'liq bo'lib, huquqbuzar hulqiga ta'sir etishida namoyon bo'ladi; 4) yuridik javobgarlik doimo huquqbuzarga muayyan salbiy oqibatlar keltirib chiqaradi.**

Qishloq ho'jalik qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik yuridik javobgarlik ko'rinishlaridan biri bo'lib, quyidagi o'ziga hos hususiyatlarga ega: 1) barcha huquqbuzarliklar qishloq ho'jaligi sohasida sodir etiladi; 2) huquqbuzarlik ob'ekti – qishloq ho'jaligining u yoki bu unsuri, aniqrog'i – qishloq ho'jaligi sohasidagi ijtimoiy munosabatlar bo'ladi; 3) qishloq ho'jaligi sohasidagi huquqbuzarliklar odatda, bir necha ob'ektga (er, atrof tabiiy muhit, qishloq ho'jaligi ishlab chiqarishi, inson salomatligi va h.k.) zarar etkazadi; 4) qishloq ho'jaligiga oid huquqbuzarliklar sodir etgan shahslarga quyidagi javobgarlik choralari qo'laniladi: jinoiy, ma'muriy, intizomiy, fuqarolik-huquqiy, er-huquqiy javobgarlik.

Qonunchilikda va huquq nazariyasida javobgarlikning jinoiy, ma'muriy, intizomiy, mulkiy, moddiy va boshqa turlari keng qo'llaniladi.

Qishloq ho'jalik qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlikka tortish uchun asos bulib, qishloq ho'jalik tizimida sodir etilgan huquqbuzarlik hisoblanadi.

Qishloq ho'jaligiga oid huquqbuzarliklarni tasniflash bir necha belgilariga ko'ra amalga oshiriladi. Bular:

- huquqbuzarlik predmetiga ko'ra;
- muhofaza qilish ob'ektiga ko'ra;
- sanksiyalariga ko'ra;
- zarar etkazish usuliga ko'ra;
- ijtimoiy havfligiga ko'ra.

<sup>14</sup> Аграрное право. Учебник. Отв. редакторы: Г.Е. Быстров., М.И. Козырь. - М: Юрид. лит., 1996. - 493 с.

Predmetiga ko'ra qishloq ho'jaligiga oid huquqbuzarliklar qishloq ho'jalik ishlab chiqarish tizimini muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan huquqbuzarliklardan iborat. Masalan, tabiiy resurslarga egalik qilish, ulardan foydalanish va mulkchilik huquqini buzuvchi huquqbuzarliklar.

Muhofaza qilish ob'ektiga ko'ra qishloq ho'jaligiga oid huquqbuzarliklar soha belgilariga muvofiq bo'linadi. Bular jumlasiga iqtisodiyot sohasidagi; ho'jalik faoliyati sohasidagi; atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi; hokimiyat, boshqaruv va jamoat birlashmalari organlarining faoliyat tartibiga qarshi huquqbuzarliklar kiradi.

Sanksiyalariga ko'ra qishloq ho'jaligiga oid huquqbuzarliklar intizomiy, fuqarolik, ma'muriy va jinoiy huquqbuzarliklardan iborat.

Zarar etkazish usuliga ko'ra qishloq ho'jaligiga oid huquqbuzarliklar shartnoma shartlarini tegishli ravishda bajarmaslik, tabiiy resurslardan oqilona foydalanmaslik, tabiat ob'ektlariga zarar etkazish va boshqalar bilan ifodalanadi.

Qishloq ho'jalik sohasidagi huquqbuzarlik – bu aybdorning qonunga hilof hattiharakati yoki harakatsizligi oqibatida O'zbekiston Respublikasining qishloq ho'jalik tizimiga etkazilgan zarar, uni rivojlantirishga tajovuz qilish hamda qishloq ho'jalik tizimida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga putur etkazish, shuningdek, qishloq ho'jalik sohasidagi qonun va talablarni buzishda namoyon bo'ladi.

Qishloq ho'jalik sohasidagi huquqbuzarliklarning o'ziga hos belgilari bo'lib – uni qishloq ho'jalik qonunlariga hilofligi, ya'ni huquqqa hilofligi, aybning mavjudligi, jamoat uchun hamda qishloq ho'jalik tizimini rivojlantirish uchun havfliligi hisoblanadi hamda ular etkazilgan zararining oqibati bilan belgilanadi.

#### Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yhati.

1. Karimov I. A. [«Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsiepsiyasi»](#) mavzuida 2010 yil 12 noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlis ma'ruza.
2. Karimov I.A. Ona yurtimiz bahtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida hizmat qilish – eng oliy saodatdir. –T. O'zbekiston. 2015.
3. O'zbekiston Respublikasining kodekslari. T., "Adolat", 2010 yil.
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga sharhlar. -T.: "O'zbekiston", 2010.- 496
5. O'zbekiston Respublikasi "Havo kodeksi". O'zbekistonning yangi qonunlari. 9-son. –T.: 1993.
6. O'zbekiston Respublikasi "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida" gi qonuni. -T.:Adolat, 1992, 9 dekabr.
7. O'zbekiston Respublikasi "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida" gi qonuni. -T.:Adolat, 1993, 6 may.
8. O'zbekiston Respublikasi "O'rmon to'g'risida"gi qonuni. -T.: Adolat, 1999, 15 aprel.
9. Usmonov M.B. Er va qonun. –T.: Adolat, 1994.
10. Hayitboev E.R. Ekologiya huquqi. O'kuv qo'llanma. -T.: 2001.
11. Holmo'minov J. T. Ekologiya va qonun. –T.: Adolat, 2000.

#### 6-mavzu. Jinoyat huquqi asoslari. Halqaro huquq asoslari.

Ma'ruza – 2 soat

##### Reja

1. Jinoyat huquqi tushunchasi, predmeti, usuli, vazifalari, tamoyillari manbalari. Jinoyat va jinoyatchilik tushunchasi. Jinoiy javobgarlik va uning asoslari.
2. Jinoyatda ishtirokchilik tushunchasi, vakillari, jinoyat ishtirokchilarining turlari. Jinoiy javobgarlik va jazo tushunchasi, maqsadlari, turlari va undan ozod qilish asoslari.
3. Halqaro huquq tushunchasi, uning rivojlanish tarihi, ob'ektlari, funksiyalari va manbalari. Halqaro huquq tarmoqlari.

4. Halqaro huquq tamoyillari tushunchasi. Halqaro yuridik javobgarlik tushunchasi va sub'ektlari. Halqaro siyosiy javobgarlik (Satifikasiya. Repressaliya. Retorsiya. Moddiy javobgarlik. Restitusiyya va reparasiyya).

### **1. Jinoyat huquqi tushunchasi, predmeti, usuli, vazifalari, tamoyillari manbalari. Jinoyat va jinoyatchilik tushunchasi. Jinoiy javobgarlik va uning asoslari.**

**Jinoyat hukuki** Oliy davlat hokimiyati organi tomonidan o'rnatilgan, qonun bilan qo'riqlanadigan, ijtimoiy munosabatlar uchun havfli bulgan tajovuzlarni jinoyat ekanligi va jazoga sazovorligini, jazo choralarini tayinlash shartlari va tartibini hamda jinoiy javobgarlikdan va jazodan ozod qilishni belgilovchi g'uquqiy normalar yig'indisidan iborat.

Jinoyat huquqining huquqiy tartibga soladigan **predmeti** jinoyat sodir etilishi munosabati bilan vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlardir. YA'ni ijtimoiy munosabatlarga jiddiy havf tug'diradigan huquq buzishdir. Demak jinoyat alomatlarini aks ettiruvchi ijtimoiy havfli qilmishlar **jinoiy huquqini predmetini** tashkil etadi. Ularga quyidagilar kiradi.

1. SHahsga qarshi jinoyatlar.
2. Jamoat havfsizligiga va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar.
3. Iqtisodiy sohadagi jinoyatlar.
4. Jinoyat qonuni bilan taqiqlangan huquqqa hilof ijtimoiy havfli qilmishlar.

Bunday ijtimoiy munosabatlarning sub'ektlari, bir tomondan jinoyat sodir qilgan shahs bo'lsa, ikkinchi tomondan odil sudlovni amalga oshiruvchi organlar orqali davlatdir.

**Respublikamiz oldida turgan g'oyat muhim vazifalardan biri** keyingi vaqtda o'sib borayotgan jinoyatchilikka qarshi kurash olib borishdir. Jinoyat huquqi huquqning boshqa sohalaridan qo'yidagi jihatlari bilan farq qiladi, **birinchidan**, jinoyat sodir etilishi munosabati bilan vujudga kelgan jinoiy- huquqiy munosabatlarda, bir tomondan jamiyat, davlat, ikkinchi tomondan esa jinoyat sodir etilgan shahs sub'ekt bo'ladi. **Ikkinchidan**, jinoiy – huquqiy norma bilan belgilab qo'yilgan ta'qiqlarni buzganlik uchun odatda sud davlat nomidan qo'llaydigan jinoiy jazo beriladi.

**Jinoyat huquqining vazifalariga quyidagilar kiradi:** shahsni, uning huquq va erkinliklarini, mulkni, tabiiy muhitni, jamoat va davlat manfaatlarini hamda butun huquq tartibotini jinoiy tajovuzlardan qo'riqlash, shuningdek insoniyatning tinchligi va havfsizligini saqlashga ko'maklashish, jinoyatlarni oldini olishga, fuqarolarni respublikamiz konstitusiyasi va qonunlariga aniq rioya etish ruhida tarbiyalashga yordam berish. **Jinoiy huquq normalari o'z mazmuniga ko'ra ikki qismga bo'linadi.** Ulardan biri jinoyat huquqining umumiy o'rnini qoida va tartibni belgilab beradi. Ikkinchisi esa, aniq jinoyatlar belgilarini ta'riflab, mazkur jinoyatlarni sodir etgan shahslarga nisbatan qo'llaniladigan jazolarni aniqlaydi. Birinchi hil normalar jinoyat huquqining **umumiy qismini**, ikkinchi hil normalar esa **mahsus qismni** tashkil etadi.

**Umumiy qismda** jinoyat huquqining jinoyat va jazoga tegishli umumiy qoidalar, tamoyillar va institutlar mustahkamlanib qo'yilgan normalardan iboratdir. JKning 1-moddasidan 96-moddalarigacha o'z ichiga oladi.

**Mahsus qismga** – alohida jinoyatlar va jinoyatlarni belgilarini jinoyat sodir etgan shahslarga nisbatan tayinlanadigan jazo choralarini belgilovchi normalar kiradi. Mahsus qism (8 bo'lim) normalari 97-moddadan 302-moddalarni o'z ichiga oladi.

Mahsus qismni normalarini amalda tadbiiq etishda Umumiy qism normalarining qoidalari tadbiiq etiladi. Demak Umumiy qism normalari Mahsus qism normalari orqali yoki birgalikda qo'llaniladi. Mahsus qism normalarini qo'llashda Umumiy qism normalari yo'naltiruvchi, tartibga soluvchi hisoblanadi. Demak Umumiy qism normalari Mahsus qism normalari kaliti hisoblanadi.

Umumiy va mahsus qismlar uzviy bog'liqdir. Mahsus qism normalari umumiy qism asosidagina qo'llanishi mumkin. Ayni paytda umumiy qism hayotni faqat mahsus qism normalari orqaligina aks ettiradi. Umumiy qism normalariga asoslanib mahsus qism

moddalarida ko'satilgan turdagi va normadagi jazoni tayinlash majburiyatini yuklaydi. Jinoyat huquqi huquqning bir qancha boshqa sohalari jumladan, jinoyat prosessual huquqi, ahloq tuzatish, mehnat huquqi, ma'muriy huquq bilan uzviy bog'liqdir. Masalan, jinoyat prosessual va ahloq tuzatish mehnat huquqi bilan uning vazifasi bir hildir.

Jinoyat huquqi qonuniylik, fuqarolar tengligi, javobgarlik muqarrarligi, adolat, demokratizm va insonparvarlik prinsiplariga asoslanadi.

#### **Qonuniylik prinsipi.**

Sodir etilgan qilmishning jinoyligi, jazoga sazovorligi va boshqa huquqiy oqibatlari faqat jinoyat kodeksi bilan belgilanadi. Hech Kim sudning hukmi bo'lmay turib jinoyat sodir qilishda aybli deb topilishi va qonunga hilof ravishda jazoga tortilishi mumkin emas. Jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shahs qonunda belgilangan huquqlardan foydalanadi va majburiyatlarni bajaradi.

#### **Fuqarolarni qonun oldida tengligi prinsipi.**

Jinoyat sodir etgan shahslar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shahsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, bir hil huquq va majburiyatlarga ega bo'lib qonun oldida tengdirlar.

#### **Demokratizm prinsipi.**

Jamoat birlashmalari fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari yoki jamoalar jinoyat sodir etgan shahslar ahloqni tuzatish ishiga qonunda nazarda tutilgan hollarda jalb qilishlari mumkin.

#### **Insonparvarlik prinsipi.**

Jazo va boshqa huquqiy ta'sir choralari, jismoniy azob berish, yoki inson qadr - qimmatini kamsitish maqsadini ko'zlamaydi. Jinoyat sodir etgan shahsga nisbatan uning ahloqan tuzalishi va yangi jinoyat sodir etishining oldini olish uchun zarur hamda etarli bo'ladigan jazo tayinlashi va boshqa huquqiy ta'sir chorasi qo'llanishi kerak.

#### **Odillik prinsipi.**

Jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shahsga nisbatan qo'llaniladigan jazo yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi odilona bo'lishi, ya'ni jinoyatning og'ir engilligiga, aybning va shahsning ijtimoiy havflilik darajasiga muvofiq bo'lishi kerak. Hech kim aynan bitta jinoyat uchun ikki marta javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

#### **Ayb uchun javobgarlik prinsipi.**

SHahs qonunda belgilangan tartibda aybi isbotlangan ijtimoiy havfli qilmishlari uchungina javobgar bo'ladi.

#### **Javobgarlikning muqarrarligi prinsipi.**

Qilmishida jinoyat tarkibining mavjudligi aniqlangan har bir shahs javobgarlikka tortilishi shart deyilgan.

**Jinoyat huquqining asosiy manbasi** O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, 1994 yil 22 sentyabrda qabul qilingan va 1995 yil 1 aprelda amalga kiritilgan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksidir.

## **2. Jinoyat va jinoyatchilik tushunchasi. Jinoyat javobgarlik va uning asoslari.**

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 14 moddasida «Aybli ijtimoiy havfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo'llash tahdidi bilan jinoyat» deb belgilangan. Bu esa jinoyat – ijtimoiy havfli qilmish ekanligini anglatadi, chunki u sodir etilganda (yoki sodir etilishi mumkin bo'lganda) ijtimoiy munosabatlarga moddiy putr etkaziladi.

Demak, **jinoyat** – **ijtimoiy havfli, huquqa hilof harakat yoki harakatsizlikdir.** Qilmishni **jinoyat** deb topish uchun **o'ziga hos zaruriy belgilari bo'lishi** lozim. Bular: 1.Qilmishni ijtimoiy havfli. 2.Aybning mavjudligi. 3.Huquqqa hilofligi. 4.Jazoga sazovorligidir.

**Ijtimoiy havflilik** deb - jamiyat a'zolarining erkiga, nomusiga, mulkiga, hayotiga va boshqa manfaatiga, jamiyatning iqtisodiy, siyosiy negiziga ziyon keltiruvchi harakat yoki harakatsizlikka tushuniladi.

**Jinoyatlar ijtimoiy havflilik darajasiga qarab bir necha guruhlariga bo'linadi:**

1. Alohida havfli jinoyatlar. 2. Og'ir jinoyatlar. 3. O'rtacha og'irlikdagi jinoyatlar. 4. Kam ahamiyatli jinoyatlar.

Lekin **ijtimoiy havflilik turlicha** bo'lishi mumkin. Mayda bezorilik bir jamoat havfsizligini, o'g'irliklar, tanga shikast etkazishlar, odam o'ldirish boshqa jamoat havfsizligini keltirib chiqarishi mumkin. SHuning uchun ham, Jinoyat Kodeksiga ko'ra jinoiy qonun taqiqlangan ijtimoiy havfli qilmishni sodir etgan shahslargina jinoiy javobgarlikka tortiladilar. Qilmish jinoyat deb topilishi uchun uning ijtimoiy havfli bo'lishi va qonun bilan qo'riqlanadigan ob'ektlarga zarar etkazadigan yoki shunday zarar etkazishi real bo'lishi kerak.

Jinoyatning shart bo'lgan alomati jazoga loyiqdir. Agar qonun chiqaruvchi u yoki bu hatti-harakatni taqiqlagan holda uni sodir etganlik uchun u yoki boshqa jazoni belgilamas ekan, demak mazkur hatti harakat jinoyat emas. Jinoyatlar ijtimoiy havflilik darajasiga ko'ra ijtimoiy havfi katta bo'lmagan, uncha og'ir bo'lmagan og'ir va o'ta og'ir turlarga bo'linadi. YA'ni: havfi katta bo'lmagan jinoyatlarga qonun ozodlikdan mahrum qilishdan ko'ra ancha yumshoq jazolar tayinlashni nazarda tutadigan jinoyatlar kiradi.

**Besh yildan ortiq bo'lmagan muddatga** ozodlikdan mahrum qilish jazosi ko'zda tutilgan qasddan qilingan jinoyatlar, shuningdek ehtiyotsizlik orqasidan qilingan barcha jinoyatlar unchalik og'ir bo'lmagan jinoyatlarga kiradi.

Jinoyatlar ijtimoiy havfliligi darajasiga ko'ra tavsiflanishidan tashqari takror guruh tomonidan sodir etilgan (resiediv) jinoyatlarga bo'linadi.

**Jinoiy javobgarlik devulganda** jinoyat qonunda muayyan qilmishning jinoyat sifatida ifodalangan baholanishini va aybdorning uni sodir qilganlik uchun jamiyat oldida javob berishini tushunmoq kerak. Jinoiy javobgarlik jinoyat oqibati bo'lgan jazo bilan uzviy bog'liqdir. Jinoiy javobgarlik jinoyat qonunining buzilishidan boshlanadi, bu esa davlatning qonun buzuvchini sodir qilingan qilmishi uchun javobgarlikka tortish, unga jinoyat qonunida ko'zda tutilgan jazoni tayinlash huquqi va burchini vujudga keltiradi.

Jinoiy javobgarlik qonun bilan qat'iy belgilangan vaqt chegaralarida mavjuddir. U muayyan shahs jinoyat sodir qilgan fursatdan boshlanadi va yo davlat shahsga ijtimoiy yoki ma'muriy ta'sir o'tkazish choralarini qo'llagan holda, jinoiy javobgarlikka tortish huquqidan voz kechganida yoki jinoiy javobgarlikka tortish davrining muddati tugaganini yo bu avf umumiy yoki gunohidan o'tish aktlari munosabati bilan to'htaydi. SHahsning qilmishida jinoyat tarkibining bo'lishi jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi. Bu esa jinoiy javobgarlikning birdan-bir asosidir va jinoyat tarkibi doirasidan tashqaridagi barcha holatlar masalan javobgarlikni engillashtiradigan yoki og'irlashtiradigan holatlar jazoni shahsiylashtirishda, ancha engil va ancha og'ir jazo tayinlash masalasini hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin jinoiy javobgarlik boshlanishini belgilamaydi.

**2. Jinoyatda ishtirokchilik tushunchasi, vakillari, jinoyat ishtirokchilarining turlari.**

**Jinoiy javobgarlik va jazo tushunchasi, maqsadlari, turlari va undan ozod qilish asoslari.**

Ikki yoki undan ortiq shahslarning jinoyat sodir qilishda qasddan birga qatnashishi ishtirokchilik hisoblanadi. Agar jinoyatda aqli norasolar yoki 14 yoshgacha bo'lgan balog'atga etmaganlar, qasddan odam o'ldirishda esa 13 yoshgacha bo'lgan balog'atga etmaganlarning qatnashishi ishtirokchilik hisoblanmaydi. **Ishtirokchilik devulganda** jinoyatni birgalikda sodir qilish, ya'ni jinoyatni sodir qilishda qatnashgan shahslarning harakatlari o'zaro shartlangan hamda har bir qatnashuvchi hatti-harakatga sababiy bog'liqlikda bo'lgan yagona jinoiy oqibatga ega bo'lishi tushuniladi. Jinoyat kodeksining moddasida jinoyatning asosiy belgisi sifatida sabab yoki maqsad ko'rsatilsa bunday jinoyatning ishtirokchisi ularni bilgan va amalga oshirishga ko'maklashgan kishi bo'ladi.

**Ishtirokchilarning funksiyalari turlicha bo'lishi mumkin.**

YA'ni: bajaruvchi, uyushtirish, dalolat va yordam qilish.

**Bajaruvchi** - bu o'zi jinoyat sodir qiladigan yoki boshqa shahslar bilan birga uni sodir qilishda bevosita qatnashadigan. SHuningdek, qonun tufayli jinoiy javobgarlikka tortilmaydigan boshqa shahslardan foydalanish vositasida jinoyat sodir qilgan shahsdir.

**Tashkilotchi** – bu jinoyat sodir qilishni uyushtirgan yoki uni tayyorlash va sodir qilishni boshqargan shahsdir. Jinoyatni tashkil qilish deyilganda ishtirokchilarni tanlash va tayyorlash, ularni qurol hamda vositalar bilan ta'minlash tajovuz rejasini ishlab chiqish tushuniladi.

**Rahbarlik qilish** – bu vazifalarni ishtirokchilar o'rtasida taqsimlash, jinoyatni sodir qilish jarayonida ularga ko'rsatmalar berib turishdir.

**Dalolatchi** – jinoyat sodir etishga moyil qilgan shahsdir. Moyil qilish boshqa shahsda jinoyat sodir qilishga jur'at uyg'otishni bildiradi. Bunda tajovuz fakti quyidagi hollarda sodir etilgan hisoblanadi. **Birinchidan**, muayyan jinoyatni sodir qilishga boshqa shahsni ongli ravishda moyil qilish, dalolatchi boshqa shahsni tortayotgan jinoyatning harakterini anglash birgalikdagi jinoiy oqibatlarini oldindan ko'rish ular bilishini istash mavjud bo'lganda.

**Ikkinchidan**, dalolat qilinayotgan shahs o'zi g'alamislik qilinayotgan jinoyatni to'la yoki qisman sodir qilishga tayyor bo'lganda.

Ishtirokchilik oddiy (birgalikda ijro etuvchilik) va murakkab (turli rollarni ijro etishda) ishtirokchilikka bo'linadi. Murakkab ishtirokchilikda oldindan bitishib olinadi. Bunda bir kishi jinoyatni bevosita sodir qiladi, boshqalari esa g'alamislik yoki hamkorlik qilish shaklida unga ko'maklashadilar.

**Uvushgan guruh** - bu birgalikda jinoyat sodir qilish uchun oldindan bitishib olgan ikki va undan ortiq kishilardan iborat barqaror birlashma.

**Jinoiy uyushma** - ikki va undan ortiq uvushgan guruhning jinoiy faoliyat bilan shug'ullanish uchun oldindan birlashishidan iborat barqaror birlashma.

**18 yoshgacha bo'lgan yoshda** jinoyat sodir qilgan shahslarga nisbatan jarima, ahloq tuzatish ishlari, qamoqqa olish, ozodlikdan mahrum qilish kabi jazolar qo'llaniladi. Bu toifadagi shahslarga qo'shimcha jazolar qo'llanishi mumkin emas. **Faqat 16 yoshga to'lgan voyaga** etmaganlargagina ikkitadan yigirma baravarigacha bo'lgan eng oz ish haqi hajmida jarima solinadi. Mahkum olti oy ichida jarima to'lashdan bosh tortgan taqdirda sud jarimaning to'lanmagan summasini jarima uchun bir oy hisobida ahloq tuzatish ishlari ko'rinishidagi jazo bilan almashtiriladi, bunda jarima summasi ish haqining ikki baravari miqdoriga to'g'ri keladi. Voyaga etmagan shahs ahloq tuzatish ishlarida tayinlangan jazo muddatining o'ndan biridan ko'p vaqt bosh tortsa sud bu jazoning o'talmagan qismini qamoqqa olish ko'rinishidagi jazoga ahloq tuzatishlarining uch kuni uchun bir kun qamoqqa olish hisobida, lekin uch oydan ortiq bo'lmagan muddatga almashtiradi. Qamoqqa olish hukm chiqarilgan vaqtda 16 yoshga to'lgan, balog'atga etmagan shahslarga nisbatan bir (1) oydan uch (3) oygacha bo'lgan muddatga qo'llaniladi. Ozodlikdan mahrum qilish voyaga etmaganlar uchun olti (6) oydan o'n (10) yilgacha bo'lgan muddatga tayinlanadi. Ozodlikdan mahrum qilish unchalik og'ir bo'lmagan jinoyat uchun 14 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan voyaga etmaganlarga uch (3) yilgacha muddatga, 16 yoshdan 18 yoshgacha to'rt (4) yilgacha muddatga, og'ir jinoyat uchun tegishli ravishda olti (6) va etti (7) yilgacha muddatga alohida og'ir jinoyat uchun unisiga ham bunisiga ham o'n (10) yil muddatga tayinlanadi. Faqat jinoyatlar jami buyi 14 dan 16 yoshgacha bo'lgan voyaga etmaganlarga 12 yilgacha muddatga, 16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan voyaga etmaganlarga esa 15 yilgacha ozodlikdan mahrum qilishni tayinlashga yo'l qo'yiladi.

Quyidagilar voyaga etmaganlarga nisbatan qo'llaniladigan majburiy choralardir. YA'ni, ko'pchilik oldida yoki sud tayinlangan boshqa shaklda jabrlanuvchi kechirim so'rash majburiyatini yuklash; 16 yoshgacha to'lgan voyaga etmaganga etkazilgan zararni qoplash yoki bartaraf etish majburiyati yuklash; voyaga etmagan shahsni o'quv tarbiya muassasalariga joylashtirish.

**Jinoiy jazo** bu jinoyat sodir qilishda aybdor deb topilgan shahsga sud hukmiga ko'ra davlat nomidan qo'llaniladigan hamda qonun tomonidan mahkumni huquq va erkinliklaridan mahrum etish va ularni cheklashdan iborat majburlash choralaridir. **Jazolarning quvidagi sakkizta turi, shu jumladan:** jarima, muayyan huquqdan mahrum qilish, ahloq tuzatish ishlari,

hizmat bo'yicha cheklashlar, hibsga olish, harbiy-ijroiya qismida tutish, ozodlikdan mahrum qilish va o'lim jazosi (2008 yil 1 yanvardan bekor qilindi). Bu asosiy jazolardan tashqari quyidagi qo'shimcha jazolar ham qo'llanishi mumkin. Harbiy yoki mahsus unvondan, davlat mukofotlaridan mahrum etish, jarima qonunda belgilangan hollarda va miqdorda sud tomonidan solinadigan pul jarimasidir. **Jarima** ham asosiy, ham qo'shimcha jazo bo'lishi mumkin. Jarimani ozodlikdan mahrum qilish bilan almashtirish va buning aksiga yo'l qo'yilmaydi. **Muayyan huquqdan mahrum qilish** aybdorning muayyan mansablarni egallashni yoki muayyan faoliyat bilan shug'ullanishini ta'qiqlashni nazarda tutadi. Bu ta'qiq sud tomonidan qo'shimcha jazo sifatida besh yildan ortiq bo'lmagan muddatga yoki qo'shimcha jazo sifatida uch yildan ortiq bo'lmagan muddatga tayinlanadi. **Ahloq tuzatish** ishlari ikki oydan uch yilgacha bo'lgan muddatga tayinlanadi va mahkumning mehnat haqidani **10% dan 30%** gachasi davlat daromadiga ushlab qolinadi. **Ahloq tuzatish ishlarini o'tash vaqti umumiy mehnat stajiga kiritilmaydi.** Ahloq tuzatish ishlari mustaqil jazo sifatidagina qo'llaniladi. Bu ishlar nafaqadagilar, homilador ayollar va bola boqish bo'yicha ta'tilda bo'lgan ayollar shuningdek, harbiy hizmatchilarga qo'llanilmaydi.

**Hibsga olish** bir oydan olti oygacha bo'lgan muddatga tayinlanadi va qat'iy yakkalesh sharoitidagi erksizlik nimaligini sezdirib qo'yish uchun hijolatli jazo hisoblanadi. **Ozodlikdan mahrum etish** olti yildan o'n yilgacha bo'lgan muddatga, alohida og'ir jinoyatlar uchun bu narsa qonunlarda nazarda tutilgan bo'lsa yigirma yilgacha muddatga tayinlanadi. **O'lim jazosini avf etish tartibida ozodlikdan mahrum etish bilan almashtirilganda 25 yilgacha muddatga belgilanadi.** Quyidagi o'n bitta jinoyat uchun nazarda tutiladi: og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirish, 14 yoshga to'lmagan qiz bolan zo'rlash, 14 yoshga to'lmagan bolaga nisbatan jinsiy ehtiyojni g'ayri tabiiy shakllarda zo'ravonlik bilan sodir qilish, genosid, terrorchilik, davlatga hiyonat qilish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga suiqasd qilish, urush qonunlari va urf-odatlarni buzish, jinoiy uyushma tashkil qilish. Sud jazoni qonunning jinoyat uchun javobgarlikni nazarda tutgan moddasi doirasida tayinlaydi jazo sodir etilgan jinoyatning harakteri va ijtimoiy havflilik darajasi, hatti harakatning sabablari, etkazilgan zarar harakteri, hamda hajmi, aybdor shahs javobgarlikni engillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlari hisobga olingan holda tayinlanishi lozim.

**Jinoyat Kodeksi javobgarlikni engillashtiradigan holatlarga quvidagilarni kiritish mumkin:**

1. Aybni bo'yniga olib kelish, astoydil tavba qilish va jinoyatni ochishda faol ko'maklashish;
2. Etkazilgan zararni ihtiyoriy qoplash yoki etkazilgan zararni bartaraf etish;
3. Homiladaor ayol tomonidan jinoyat sodir qilish;
4. Balog'atga etmagan shahs tomonidan jinoyat sodir qilish va hokazo.

**Javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlarga quvidagilar kiradi:**

1. Aybdor tomonidan hotin homiladorligidan habardor bo'la turib unga nisbatan jinoyat sodir qilinishi;
2. O'ta bag'ritoshlik bilan jinoyat sodir qilish;
3. Avval biron-bir qasddan jinoyat sodir qilgan shahs tomonidan qasddan jinoyat sodir qilinishi;
4. Alkogoldan mastlik holatida, narkotik vositalar yoki aqliy irodaviy faoliyatga ta'sir etadigan moddalar ta'siri ostida jinoyat sodir qilish va hakazo.

Jinoyat qonunlariga ko'ra sudlanganlik sud tomonidan o'chirilishi va olib tashlanishi mumkin.

2007 yil 22-23 avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisida «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni ko'rib chiqildi. Kiritilayotgan o'zgarish va qo'shimchalar sud-huquq tizimini yanada isloh qilish bilan bog'liq ekanligiga urg'u berilib jinoyat to'g'risidagi qonunlarning insonparvarlik jihatlarini kuchaytirish hamda jinoiy jazolarni liberallashtirish jarayonining mantiqiy davomi ekanligi

ta'kidlandi. **2008 yil 1 yanvardan boshlab O'zbekistonda o'lim jazosini bekor qilish**, hamda O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksiga va «O'zbekiston Respublikasining ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksiga o'zgartirish qo'shimchalar kiritish haqida»gi qonun loyihalari taqdim etildi hamda O'zbekiston Respublikasi **prokratura organlaridan sanksiya berish sud hokimiyatiga** o'tkazildi.

**Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar, ularga nisbatan qo'llaniladigan jazolar, ularni qo'llash tartibi.**

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining uchinchi bo'limi, «Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar» deb nomlanib, o'z ichiga 4-bobni oladi:

\***“O'zgalar mulkini talon-taroj qilish” (164-169 moddalar)** yani bosqinchilik, tovlamachilik, talonchilik, o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-taroj qilish, firibgarlik, o'g'rilik.

\***“O'zgalar mulkini talon-taroj qilish bilan bog'liq bo'lmagan jinoyatlar” (170-174 moddalar)** yani aldash yoki ishonchni suiste'mol qilish yo'li bilan mulkiy zarar etkazish, jinoiy yo'l bilan topilgan mulkni olish va o'tkazish, mulkni qo'riqlashga vijdotsiz munosabatda bo'lish, mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar etkazish, axborotlashtirish qoidalarini buzish.

\* **“Iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar” (175-185-2 moddalar)** yani O'zbekiston Respublikasining manfaatlariga xilof ravishda bitimlar tuzish, qalbaki pul yoki qimmatli qog'ozlar sisash va ularni o'tkazish, valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish va o'tkazish, chet el valyutasini yashirish, soxta tadbirkorlik, soxta bankrotlik, bankrotlikni yashirish, bojxona to'g'risidagi qonunlarni buzish, monopoliyaga qarshi qonun hujjatlarini buzish, soliq va boshqa to'lovlarni to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash, byudjet intizomini buzish, qimmatbaho metallar yoki toshlarni topshirish qoidalarini buzish, rangli metallar, ularning parcha va rezgi chiqitlarini tayyorlash, olish va ulardan foydalanish hamda ularni o'tkazish qoidalarini buzish, elektr, issiqlik energiyasi, gaz, vodoprovoddan foydalanish qoidalarini buzish.

\***“Xo'jalik faoliyati sohasidagi jinoyatlar” (186–192 moddalar)** yani xavfsizlik talablariga javob bermaydigan tovarlarni o'tkazish maqsadini ko'zlab ishlab chiqarish, saqlash, tashish yoxud o'tkazish, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish, etil spirti, alkogolli mahsulot va tamaki mahsulotlarini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish yoki muomalaga kiritish, chigitdan olinadigan mahsulotni qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish va muomalaga kiritish, haridor yoki byurtmachilarni aldash, savdo yoki vositachilik faoliyati bilan qonunga xilof ravishda shug'ullanish, savdo va xizmat ko'rsatish qoidalarini buzish, faoliyat bilan lisienziyasiz shug'ullanish, qonunga xilof ravishda axborot to'plash, uni oshkor qilish yoki undan foydalanish, raqobatchini obro'sizlantirish kabilar.

Hozirda mulkdorning, tadbirkorlik va kichik biznesning maqomi, o'rni va axamiyatini tubdan qayta ko'rib chiqish, fermer xo'jaliklari rivojini har tomonlama qo'llab-quvvatlash respublika iqtisodini rivojlantirish borasida eng asosiy vazifalardan biriga aylandi. SHuning uchun bu boradagi qonunchilik va normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish va mustahkamlash, yangi qonunlar qabul qilish va mazkur yo'nalishlarni tartibga soluvchi mavjud qonunlarni qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi.

## **Halqaro huquq tushunchasi, uning rivojlanish tarihi, ob'ektlari, funksiyalari va manbalari. Halqaro huquq tarmoqlari.**

Halqaro huquqning boshqa sohalari kabi o'z-o'zidan paydo bo'lgan emas. U muayyan ijtimoiy jarayonning rivojlanishi natijasida vujudga kelgan. Insoniyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida qadimiy ilk jamoalar va kabilalar bir-biridan alohida ajralgan holda emas, balki qabilalarning yozilmagan qonunlari bilan birlashgan edi.

Birinchi odat me'yorlari davlatchilikning vujudga kelishidan oldin ibtidoiy jamoa tuzumi davridayoq paydo bo'lgan.

Halqaro huquq tarihiy, ijtimoiy-huquqiy amaliyoti rivojlanishi natijasidir. Kishilik tarihi davomida halqaro huquq nafaqat halqaro munosabatlarning taraqqiyoti bilan birga rivojlanib kelgan, balki ularga ma'lum darajada ta'sir ham ko'rsatgan. Halqaro huquqning kelib chiqishi tabiiy ob'ektiv jarayondir. Halqaro huquq paydo bo'lishining umumiy shart-sharoiti davlatlarning hohish irodasi emas, balki insoniyat hayotining sharoiti, uning tarihiy taraqqiyoti, insonning atrofidagi dunyo bilan o'zaro munosabati, ijtimoiy mehnat taqsimoti, davlatlarning paydo bo'lishi va rivojlanishidir.

Halqaro huquq – bizni o'rab turgan dunyoning muhim bir ajralmas qismidir. U doimiy ravishda insonga, halqlarga, davlatlarga ta'sir ko'rsatib keladi.

Halqaro huquq muhim huquqiy kategoriya bo'lib, halqaro munosabatlardan, ularning iqtisodiy, siyosiy, harbiy, madaniy va boshqa hususiyatlaridan o'sib chiqqan.

SHunday qilib, halqaro huquqning paydo bo'lishi, bevosita davlatlarning vujudga kelishi va rivojlanishi bilan bog'liq. Davlatlar taraqqiyotining ob'ektiv shart-sharoiti ular o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy va huquqiy munosabatlarni o'rnatish zaruratini keltirib chiqaradi. Buning natijasi o'laroq huquqning mustaqil tizimi sifatida halqaro huquqning paydo bo'lishi va rivojlanishidir. Halqaro huquq davlatlar, halqlar va halqaro tashkilotlar o'rtasidagi turli munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan. SHarqda ikki daryo oralig'i va Nil vodiylarida birinchi davlatlarning vujudga kelishi bilan bir vaqtda ular o'rtasida asta sekinlik bilan huquqiy hususiyatlar kasb etib borgan, turli ijtimoiy munosabatlar vujudga kela boshlagan. Davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy me'yorlar majmui halqaro huquq shu tarzda vujudga kelgan. Tahminan eramizdan avvalgi 1300 yilda hetlar podshosi Hattumil III va Misr Frauni Ramzes II tomonidan tuzilgan shartnoma o'z davri uchun hos shartnoma bo'lgan. Bu Misr va Het podsholigi o'rtasidagi uzoq yillar urushga barham beruvchi tinchlik va ittifoq shartnomasi edi.

Eramizdan avvalgi 1 minginchi yilning o'rtalariga kelib har qanday davlatlar ham halqaro shartnomalarning teng huquqli qatnashchilari hisoblanmagan. Bu vaqtga kelib Misr, Babil va Het podsholigi hukmdorlari teng huquqli qatnashchilar hisoblanganlar. Ular bir-birlariga aka-uka sifatida «Men farovonman, sen ham, sening oilang, sening hotinlaring, sening o'g'illaring ham farovon bo'lsin» deb murojaat qilganlar. Qadimgi Gresiyada shartnomalar turli masalalar bo'yicha tuzilgan. Ular shartnoma tomonlari tan olgan tilda (pergamentlarga) yoki terilarga yozilgan. Ba'zan ular tosh plitalarga o'yib yozilib, maydonlar yoki ibodat honalarga o'rnatib qo'yilgan va ular hudolar himoyasida deb hisoblangan.

Halqaro huquq tushunchasini aniqlash va unga aniq ta'rif berish halqaro huquq fanining eng muhim vazifalaridan biridir. Agar davlat va huquq nazariyasi fani davlatlarning milliy huquqiy tizimiga hos bo'lgan hodisalarni o'rgansa. Halqaro huquq fani esa davlatlararo yoki kengroq ma'noda halqaro munosabatlarga hos bo'lgan hodisa va jarayonlarning huquqiy hususiyatlarini ko'rib chiqadi. Halqaro huquqiy meyorlarda milliy davlatlarning o'zaro munosabatlaridagi murakkab jarayonlar o'z aksini topadi. Ularning asosida shakllanayotgan, halqlarning sub'ektiv hohish irodasiga emas, balki ijtimoiy taraqqiyotning ob'ektiv omillariga mos keladigan huquqiy ong halqaro huquqda o'z ifodasini topadi. Hozirgi halqaro munosabatlarga ta'sir qiluvchi ko'plab omillar ichida halqaro huquq ustivorligi to'g'risidagi qoida HHI asrdagi siivilizasiya va

huquqiy ong darajasiga ko'proq mos keladi. Halqaro huquq fanida halqaro huquq tushunchasiga turli hil ta'riflar berilgan.

Birinchi ta'rif: Halqaro huquqni «davlatlarning irodasini muvofiqlashtirish asosida tuzilgan va rivojlanadigan davlatlarning tinch-totuv yashashi, halqlarning teng huquqligi va o'z taqdirini o'zibegilashini ta'minlash maqsadida halqaro munosabatlarni tartibga soluvchi yuridik me'yorlar tizimi» sifatida ta'riflash mumkin.

Ikkinchi ta'rif: Halqaro huquq bu «davlatlar va ushbu huquq tizimining boshqa sub'ektlari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi yuridik me'yorlar tizimidir».

Uchinchi ta'rif: Halqaro huquq «ijtimoiy taraqqiyot qonuniyatlarining ta'siri bilan bog'liq ravishda halqaro munosabatlarni tartibga soluvchi va davlatlar irodasining nisbiy uyg'unligini ifodalovchi shartnomalar, odat me'yorlari va tamoyillar tizimidir».

To'rtinchi ta'rif: Halqaro huquq «halqaro (davlatlararo va boshqa turdagi) munosabatlarni tartibga soluvchi me'yorlar majmui va tizimidir».

Beshinchi ta'rif: Halqaro huquq bu «huquqning mustaqil tarmog'i bo'lib, unda bir butun va yahlit tamoyillar va me'yorlar tizimni, yani eng avvalo davlatlar o'rtasidagi halqaro munosabatlar sohasini tartibga soluvchi yuridik majburiy bo'lgan hulq atvor qoidalarini ifodalaydi».

Oltinchi ta'rif: «Halqaro huquq g'oyat keng va turli tarmoqlarni o'z ichiga oluvchi alohida huquqlar tizimidir. SHu bilan birga faqat me'yorlar yig'indisi bo'libgina qolmay, ularning tizimi hamdir».

Hozirgi zamon halqaro huquqi ikkinchi jahon urushidan so'ng Birlashgan Millatlar Tashkilotining ustavi qabul qilingandan keyin yuzaga kelib rivojlangan. SHu bois «Hozirgi zamon halqaro huquqi tushunchasi halqaro munosabatlarning umume'tirof etilgan tamoyillari va me'yorlari rivojlanishining yangi bosqichini aks ettirgan holda halqaro huquq harakatining hronologik doirasini belgilaydi.

Halqaro huquq aynan yuridik me'yorlardan tashkil topgan. SHuni aytish mumkinki, davlatlar o'rtasidagi munosabatlar nafaqat halqaro huquqiy me'yorlar bilan, balki ahloqiy me'yorlar hamda amaliyot va boshqa me'yorlar bilan ham tartibga solinadi.

Halqaro huquq atamasi. Halqaro ommaviy huquqni bildiradi. Undan halqaro hususiy huquqni farqlab olish lozim. SHu bois halqaro huquq atamasi, ma'lum darajada shartli ekanligini ta'kidlab o'tish kerak. SHu ma'noda tarihan shakllanib va davlatlar hamda halqaro hujjatlarda, darsliklarda, qo'llaniladigan «Halqaro huquq» atamasi o'zining tub ma'nosiga to'la mos keladi deb bo'lmaydi.

### **Halqaro huquq tamoyillari tushunchasi. Halqaro yuridik javobgarlik tushunchasi va sub'ektlari. Halqaro siyosiy javobgarlik**

Halqaro huquq ob'ektiga har qanday emas, balki muayyan halqaro munosabatlar kiradi. Halqaro munosabatlar bu davlatlar va davlatlar tizimi o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy madaniy huquqiy, diplomatik, harbiy va boshqa turdagi aloqalar va munosabatlar majmuidir. Halqaro munosabatlar o'zining mazmuniga ko'ra biron bir davlatning vakolati va yurisdiksiyasi doirasidan chiqib, davlatlarning birgalikdagi yoki butun jahon hamjamiyatining vakolatlari va yurisdiksiyalari ob'ekti hisoblanadi. Halqaro munosabatlarda davlatlararo munosabatlar asosiy rol o'ynaydi. SHu bilan birga nodavlat harakterdagi halqaro munosabatlar, ya'ni turli davlatlarning yuridik va jismoniy shahslari o'rtasidagi (chet el elementi yoki halqaro element kabilar) shuningdek, halqaro nohukumat tashkilotlar va halqaro ho'jalik birlashmalari ishtirokidagi halqaro munosabatlar ham mavjud.

Halqaro huquq tarmog'i sifatida quyidagi munosabatlarni, ya'ni:

Birinchidan: davlatlar o'rtasidagi ikki tomonlama va ko'p tomonlama munosabatlarni (ularning ichida butun halqaro hamjamiyatni qamrab oladigan munosabatlar) alohida kasb etadi;

Ikkinchidan: davlatlarning halqaro tashkilotlariga a'zo bo'lishi bilan bog'liq davlatlar va hukumatlaroro tashkilotlar o'rtasidagi;

Uchinchidan: hukumatlaroro, tashkilotlararo;

To'rtinchidan: davlatlar va nisbiy mustaqil halqaro maqomga ega bo'lgan davlat ko'rinishidagi tuzilmalar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Masalan, Vatikan Rim katolik cherkovining markazi sifatida alohida o'ziga hos halqaro huquqiy maqomga ega.

#### **Halqaro huquq funksiyalari**

Halqaro huquq funksiyalarini ko'rib chiqmay, uning mohiyatini ochib berish mumkin emas. Halqaro munosabatlarni tartibga soluvchi halqaro huquq quyidagi funksiyalarni bajaradi:

##### 1) Muvofiqlashtiruvchi funksiya.

Bu davlatlar halqaro huquq me'yorlari yordamida halqaro hamkorlikning turli sohalarida umumiy qabul qilingan hulq-atvor standartlarini belgilaydi.

##### 2) Tartibga soluvchi funksiya.

Bu davlatlar tomonidan qa'iy qoidalarni belgilashda namoyon bo'ladi. Bularsiz davlatlarning jahon hamjamiyati bilan munosabatlari va birgalikda mavjudligini tasavvur qilishning imkoni yo'k.

##### 3) Ta'minlash funksiyasi.

Bunda halqaro huquq shunday me'yorlarni o'zida mustahkamlaydi. Bu davlatlarning ko'p yillik aloqalari jarayonida belgilangan ma'lum hulq atvor qoidalariga rioya qilishga undaydi.

##### 4) Muhofaza qilish funksiyasi.

Bu davlatlar milliy manfaatlari va qonuniy huquqlarini himoya qiladi.

Halqaro huquqning o'ziga hos xususiyati shundaki, halqaro munosabatlarda davlatlardan yuqori turuvchi majburlash mehanizmi mavjud emas. Zarur hollarda davlatlarning o'zlari jamoa tarzda halqaro huquqiy me'yorlarning bajarilishini va halqaro huqukiy tartibotni ta'minlaydilar.

Ba'zi bir olimlar halqaro huquqni yagona huquqiy tizim deb hisoblaydilar. Ular davlatlarning ichki munosabatlarini ham halqaro huquq tartibga soladi deb ma'lum bir bosqichda davlatlarni ichki huquqiy tartibga solishning rivojlanishini ham inkor qilmaydilar, lekin kelajakda halqaro huquqning rivojlanishi bilan yo'q bo'lib ketadi, deb hisoblaydilar.

Real voqelikda bir-biriga bog'liq, lekin mustaqil ikki huquqiy tizim mavjud: bir tomondan ichki davlat huquqi (alohida milliy davlatlarning huquqiy me'yorlari majmui) va ikkinchi tomondan, huquqiy tartibga solishning o'ziga hos ob'ekti va sub'ektiga ega bo'lgan halqaro huquq. Agar, ichki davlat huquqida huquqiy tartibga solish ob'ekti bir davlat doirasidagi ijtimoiy munosabatlar bo'lsa halqaro huquqiy munosabatlar ob'ektiga davlatlar va ularning birlashmalari o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar kiradi.

Huquq bir-biriga bog'liq, mustaqil ikki hukuqiy tizim (ichki davlat huquqi va halqaro huquq) tomonidan tashkil qilinadi deb tushunilishi. Halqaro huquq fanida ham, davlat va huquq nazariyasi fanida ham tan olingan, e'tirof etilgan. Ushbu muammo hususida huquqshunoslik fanida turli hil nazariyalar olg'a surilgan. Boshqa bir mualliflar halqaro huquq faqat davlatlarning tashqi huquqi sifatida hizmat qiladi, deb hisoblaydilar.

Ichki davlat huquqi va halqaro huquqning o'zaro aloqadorligi shundaki, halqaro huquq davlatlarning konstitusiyaviy tuzimi bilan davlatlar va halqaro munosabatlarning boshqa sub'ektlari bilan o'zaro munosabatlarda davlat irodasini ifodalashga vakolatli davlat hokimiyati organlari tizimi bilan shuningdek, har qanday davlatlarning ichki ishi hisoblanadigan va odatda halqaro huquqiy munosabatlarni tartibga solish doirasiga kirmaydigan ishlarning mavjudligi bilan hisoblashishga majburdirlar. Ichki davlat huquqi davlatning majburiyatlarini mustahkamlovchi, ma'lum hollarda ushbu davlatning milliy huquqida aks ettirilishi lozim halqaro huquqiy me'yorlarning mavjudligi bilan hisoblashadi. Halqaro huquq va ichki davlat huquqi bir-biridan alohida mavjud bo'lmaydi. Halqaro huquq me'yorlarini ishlab chiqishga milliy huquqiy tizimlar ta'sir ko'rsatadi, u davlatning tashqi siyosati va diplomatiyasida o'z ifodasini topadi.

Halqaro huquq o'z navbatida milliy qonunchilikning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Halqaro huquq me'yorlari o'z sub'ektlari uchun, ya'ni eng avvalo davlatlar uchun huquq va majburiyatlar tug'diradi. Davlatning rasmiy organlari uning yuridik va jismoniy shahslari esa bevosita halqaro huquq me'yorlariga bo'ysunmaydilar, chunki uning sub'ekti bo'lib

hisoblanmaydilar. Halqaro majburiyatlarning huquqi darajasida real amalga oshirilishini ta'minlash uchun halqaro huquqiy me'yorlarni milliy qonunlarda mustahkamlash, ya'ni transformasiya qilish choralari ko'riladi. O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksining 7 moddasida shunday deyilgan «Agar halqaro shartnomalar va bitimlarda fuqarolik qonunchiligidan boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lsa, halqaro shartnomalar va bitimlardagi qoidalar qo'llaniladi».

### **O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosati va diplomatiyasi**

Tashqi siyosat tushunchasi, davlatning halqaro munosabatlardagi umumiy yo'nalishlarini qamrab oladi. Tashqi siyosat davlatning boshqa davlatlar, halqlar va halqaro tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlari sohasidagi faoliyatining maqsadlari va vositalari majmuini qamrab oladi.

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari Konstitusiyasining 17 moddasida qonuniy jihatdan mustahkamlangan. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosati va halqaro faoliyati O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, «O'zbekiston Respublikasi halqaro shartnomalar to'g'risida»gi qonun, O'zbekiston Respublikasi «Mudofaa to'g'risida»gi, O'zbekiston Respublikasi «Harbiy doktrinasi to'g'risida»gi qonunlari va boshqa qonunchilik hujjatlaridagi tamoyillar va me'yorlarga BMT va EHHT ning tamoyil va maqsadlariga shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ratifikasiya qilgan O'zbekiston Respublikasi halqaro shartnomalari va bitimlaridan kelib chiqadigan majburiyatlariga asoslandi deyiladi. 1996 yildagi «O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosati faoliyatining asosiy tamoyillari to'g'risida»gi qonunning 1 moddasida Diplomatiya tashqi siyosatning muhim vositasi hisoblanadi. Aynan tashqi siyosat diplomatiyaning amaliy tadbirlar shuningdek tashqi siyosatni amalga oshirishda foydalaniladigan shakl, vositalar va metodlar majmuini ifodalaydi. O'zbekiston tashqi siyosatining bosh maqsadi davlat suverenitetini himoya qilish ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini qurish uchun halqaro zamin yaratish, tinchlikni va siyosiy barqarorlikni ta'minlash, halqaro mintaqaviy havfsizlikni ta'minlash maqsadida barcha davlatlar bilan teng huquqli hamkorlikdan iborat. O'zbekiston Respublikasi o'z tashqi siyosatini yuritishda quyidagi asosiy ustuvorlikdan kelib chiqadi: 1) O'z milliy davlat manfaatlarini ustuvorligida o'zaro manfaatlarini har tomonlama hisobga olish; 2) Inson va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda umuminsoniy qadriyatlarga ustuvorlik berib O'zbekiston halqaro maydonda tinchlik va havfsizlikni mustahkamlash mojarolarini tinchlik yo'li bilan hal qilishni yoqlaydi; 3) O'zbekistonning tashqi siyosati teng huquqlik va o'zaro manfaatdorlik tamoyillariga ichki ishlarga aralashmaslik, mustaqillik va suverenitetni cheklash mumkin bo'lgan imkoniyatlarni bartaraf qiladigan tamoyillarga davlatlararo munosabatlarni mafkuradan holi qilish tamoyillari asosida ko'riladi; 4) O'zbekiston tashqi siyosatida ochiq mafkuraviy qarashlardan holilik tamoyillari amalga oshirish, keng tashqi aloqalarni barcha tinchliksevar davlatlar bilan o'rnatishga intildi; 5) O'zbekiston davlatining ichki huquqi oldida halqaro huquq me'yorlarining ustuvorligini tan oladi. Halqaro huquqiy standartlarga rioya qiladi.

O'zbekiston Respublikasi boshqa davlatlar bilan munosabatlari davlatlarning suveren tengligi kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik chegaralarning dahlsizligi, nizomlarini tinch yo'l bilan hal qilish, boshqa davlatlarning ichki ishiga aralashmasliktamoyillariga va halqaro huquqning umume'tirof etilgan tamoyillari va me'yorlari O'zbekiston hududida davlatning ichki qonuni sifatida amalda bo'lishini tasdiqlaydi.

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yhati.**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, Toshkent "O'zbekiston". 2014 yil.
2. Karimov I.A. "Mamlakatimizni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish ustuvor maqsadimizdir"/Prezident I.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi // T.: "O'zbekiston". 2010 B-14.

3. Karimov I. A. [«Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsiepsiyasi»](#) mavzuida 2010 yil 12 noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlis ma'ruza.
4. Karimov I.A. ona yurtimiz bahtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida hizmat qilish – eng oliy saodatdir. –T. O'zbekiston. 2015.
5. O'zbekiston Respublikasining kodekslari. T., "Adolat", 2010 yil.
6. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga sharhlar. -T.: "O'zbekiston", 2010.- 496
7. O'zbekiston Respublikasining «Jinoyat qonunlarini liberallashtirish to'g'risida»gi Qonuni // Halq so'zi, 2001, 30 avgust.
8. O'zbekiston Respublikasining «YArashuv institutlarini tashkil etish to'g'risida»gi Qonuni // Halq so'zi, 2001, 30 avgust.
9. O'zbekiston Respublikasining «O'lim jazosini bekor qilish to'g'risida»gi Qonuni // Halq so'zi, 2005, 30 yanvar.
10. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga sharhlar. -T.: O'zbekiston, 2001.
11. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksiga sharhlar. -T.: O'zbekiston, 1997.
12. Mualliflar jamoasi. Jinoyat huquqi. Darslik. -T.: Adolat, 1998.
13. Rustambaev M.H. Jinoyat huquqi. (Mahsus qism.) Darslik. — T.: O'qituvchi, 2003. —560
14. Rustambaev M.H. Uголовное право Respubliki Uzbekistan. (Osobennaya chast'.) Uchebnik. —T.: Mir ekonomiki i prava, 2002. —528 s.
15. Rustambaev M.H., Tohirov F., Erkahodjaev A.K. Jinoyat huquqi. (Mahsus qism.) Darslik. -T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2000. —528 b.
16. Rustamboev M.H. Jinoyat huquqi. (Umumiy qism.) Darslik.—T.: ILM ZIYO, 2005.— 478 b.
17. Tuzmuhammedov R. Halqaro huquq asoslari. -T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 1998.

**7-mavzu: O'zbekiston Konstitusiyasini o'rganish o'quv kursining maqsad, vazifalari va uslublari O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining asosiy prinsiplari. O'zbekistonda Respublikasida inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari.**

**Ma'ruza-2 soat**

**Reja**

1. O'zbekiston Konstitusiyasini o'rganish o'quv kursi, uning maqsad, vazifalari, asosiy manbalari va ularning tasnifi. Konstitusiya davlatning asosiy qonuni, uning yuridik va o'ziga hos hususiyatlari, konstitusiyaviy huquqiy munosabatlar tushunchasi va sub'ektlari.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov O'zbekiston Konstitusiyasining tashabbuskori va ijodkori. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining qabul qilinishi, uning tuzilishi va Konstitusiyaga o'zgartirish kiritish tartibi.
3. O'zbekiston Respublikasida shahsning huquqiy holati. O'zbekiston Respublikasi fuqoroligi va umumiy qoidalari.
4. Inson va fuqarolarning konstitusiyaviy huquqlari, erkinliklari va burchlari tushunchalari, ularning tizimi. Huquq va erkinliklarning konstitusiyaviy kafolatlari.

**1. O'zbekiston Konstitusiyasini o'rganish o'quv kursi, uning maqsad, vazifalari, asosiy manbalari va ularning tasnifi. Konstitusiya davlatning asosiy qonuni, uning yuridik va o'ziga hos hususiyatlari, konstitusiyaviy huquqiy munosabatlar tushunchasi va sub'ektlari.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 4 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida" gi farmoyishi asosida mamlakatimiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida "**O'zbekiston Konstitusiyasini o'rganish**" o'quv kursi joriy qilindi.

O'zbekiston Konstitusiyasi o'quv kursining maqsadi O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining davlat va jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini, ma'no-mazmunini hamda

mohiyatini o'rganish, fuqarolarning huquqiy ongi, huquqiy madaniyatni muntazam yuksaltirish va shu bilan birga Asosiy Qonunni mukammal o'zlashtirish, uni targ'ib- tashviqot qilishidir.

O'quv kursining **vazifasi** O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, davlatchilikni rivojlantirish, adolatli tashqi siyosat olib borish, O'zbekistonni dunyoviy davlat darajasiga ko'tarish, respublikada huquqiy demokratik davlat barpo etish, adolatli jamiyat qurish, konstitusiyaviy huquq normalari va huquqiy institutlarni takomillashtirishga doir muammolarni tadqiq etish, jamiyatda yuzaga keladigan huquqiy munosabatlarni o'rganish va buning natijasida respublika qonunlarini rivojlantirish uchun zarur takliflarni tayyorlashdan iboratdir.

O'quv kursining asosiy **vazifalari** quydagilarni o'rganishdan iborat bo'lib, ular:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyaviy tuzumining asosiy prinsiplarini;
2. Fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlarini;
3. Jamiyat va shahs urtasidagi munosabatlarni;
4. Jamiyatning iqtisodiy asoslarini;
5. O'zbekistonning ma'muriy-hududiy davlat tuzilishini;
6. O'zbekiston Respublikasi saylov tizimini;
7. O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatini, oliy va mahalliy organlarining tuzilishini;
8. O'zbekiston Respublikasi sud hokimiyatining amalga oshirilishini;
9. O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining tashkil etilishi va vazifalarini;
10. O'zbekiston Respublikasi moliya va kredit tuzilishini;
11. O'zbekiston Respublikasida mudofaa va havfsizlikning ta'minlanishini;
12. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga o'zgartirish va kushimchalar kiritish tartibini;

Ushbu o'quv kursining mohiyatini to'la anglab olish uchun avvalo "Konstitusiyaviy huquq" tushunchasini bilib olish kerak, zero, "O'zbekiston Konstitusiyasini o'rganish" o'quv kursi "Konstitusiyaviy huquq" fanining asosiy qismini tashkil etadi.

Konstitusiyaviy huquq fani esa, Huquqshunoslikning muhim tarmog'i bo'lib, uning asosiy vazifasi konstitusiyaviy huquq sohasini o'rganishdan iborat.

Binobarin, Konstitusiyaviy huquq fani O'zbekiston Respublikasi huquqiy tizimning etakchi tarmog'i bo'lgan konstitusiyaviy huquq tushunchasi, uning predmeti, huquqiy normalari, institutlarini, ularning amalga oshirish natijasida kelib chikadigan huquqiy munosabatlarni o'rganadi va ushbu huquqiy tarmoqning rivojlanish istiqbolini kursatib beradi.

Konstitusiyaviy huquqni milliy tizimning asosiy tarmog'i sifatida o'rganishda quyidagilarni nazarda tutadi. Birinchidan, konstitusiyaviy huquq boshqa huquq tarmoklari kabi davlat tomonidan o'rnatiladi va qo'riqlanadi. Ikkinchidan, konstitusiyaviy huquq boshqa huquq tarmoklaridan o'z mohiyati va mazmuniga ko'ra farq qiladi, ya'ni u davlatning eng asosiy huquqiy normalarini ifoda etib, boshqa huquq sohalaridan farqli o'larok, ustunlik va umumhuquqiy tamoyillarini o'rnatuvchi harakterga ega.

Konstitusiyaviy huquq eng avvalo inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini muhofaza etuvchi, kafolatlovchi va shu maqsadlarda uni himoyalovchi davlat hokimiyatining muayyan tizimini ta'sis etuvchi huquqiy normalar majmuasidir.

Hozirgi zamon siivilizasiyasining muhim qoidalaridan biriga binoan, davlat inson uchun, uning erkinliklarini muhofaza qilish va yahshi turmush sharoitini ta'minlash uchun mavjuddir. Hokimiyat va erkinlikning muvozanatini ta'minlash konstitusiyaviy huquqning eng asosiy nozik mohiyatini tashkil etadi.

Huquqning boshqa tarmoklari kabi konstitusiyaviy huquq ham o'z predmetiga ega.

Konstitusiyaviy huquq predmetini belgilash katta aniklikni talab etadi. CHunki bu tarmokda eng to'g'ridan-to'g'ri inson va fuqarolarning huquqlari, burchlari va erkinliklari kafolatlari to'g'risida boradi.

Zero, gap inson huquqi, erki va burchi to'g'risida borar ekan, Konstitusiiya o'zining normalarda uni odilona echish va eng muhimi, ana shu huquq va erkinliklarni ta'minlaydigan, qo'riqlaydigan davlat hokimiyatini tashkil etadigan o'ta murakkab masalani hal qiladi.

Halq hokimiyatchilikka asoslangan demokratik davlat organlarini tashkil etish qonun ustuvorligiga asoslangan ijroiya hokimiyatini, mustaqil sudni, mahalliy o'z-o'zini boshqaruvni takozo etadi.

Konstitusiiya birinchi navbatda boshqaruv shakli va davlat hokimiyatini tashkil etish me'yorlarini o'rnatadi. Bunda u avvalam bor uning asosiy prinsiplari, manbaalari, ta'limotlari va g'oyalari nimalardan iborat ekanligini aniq ko'rsatadi. Bu o'rinda halq hokimiyatining taqsimlanishi, davlat boshqaruv shakli, ko'p partiyaviylik, hur fikrlik, vijdon erkinligi, mulk huquqi kabi masalalar muhim ahamiyat kasb etadi.

**Tizimi** - bu konstitusiyaviy huquq normalarini ilmiy asoslangan tartibda, ularning mazmuniga, ular tartibga soladigan ijtimoiy munosabatlarning hususiyatiga, ahamiyatiga qarab muayyan guruhlariga bo'lish.

Konstitusiyaviy huquqning huquq sohasi sifatidagi tizimi O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining tizimiga mos keladi, lekin u bilan aynan bir hil emas. Konstitusiiya tizimi o'zgarishi bilan konstitusiyaviy huquq tizimi ham o'zgaradi.

Huquq sohasi sifatida konstitusiyaviy huquq quyidagi tizimga ega.

1. Konstitusiyaviy tuzimning asosiy prinsiplari;
2. Inson va fuqorolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari;
3. Jamiyat va shahs o'zaro munosabatining asoslari;
4. Ma'muriy-hududiy va davlat tuzimlarning asoslari;
5. Davlat hokimiyati organlarining tizimi, ularni tashkil etish va faoliyatining asoslari.

## **2. Konstitusiiya davlatning asosiy qonuni, uning yuridik hususiyatlari.**

Konstitusiyaviy huquqning predmeti, ijtimoiy munosabatlarning **ikki asosiy sohasini** qamrab oladi;

Birinchidan, inson va fuqorolarning huquqlari va erkinliklari muhofazasi, ya'ni, inson va davlat o'rtasidagi munosabatlar;

Ikkinchidan, davlat tuzumi va davlat hokimiyatini tashkil etilishi - hokimiyat sub'ektlari o'rtasidagi munosabat.

Inson va davlat o'rtasidagi munosabatlar faqatgina konstitusiyaviy huquq bilan emas, balki huquqning boshqa sohalari masalan, ma'muriy huquq, mehnat huquqi, fuqarolik huquqi va boshqalar tomonidan ham tartibga solinadi.

**Inson erkinligi tabiiy holat deb e'tirof etish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish murakkab ishdir.**

U faqat huquqlargina emas balki insonning boshqa odamlarga va davlatga munosabati borasidagi majburiyatlarni ham mustahkamlashni kuzda tutadi. Erkinlik absalyut bo'lishi mumkin emas. Uni suis'temol qilishning oldini olish uchun muayyan cheklashlar zarur.

Hozirgi paytda O'zbekistonda shakllanayotgan chinakam fuqarolik jamiyati davlatdan mustaqildir va undan yuqori turadi, u insonning erkinliklari va tashabbuslarini, odamlarning ham siyosiy, ham iqtisodiy sohalardagi birlashmalarini e'tirof etish asosiga qurilgan.

Huquq ijtimoiy munosabatlarning faqat kichik bir qismini tartibga soladi, uning katta qismi esa, ahloq va ijtimoiy o'zini-o'zi boshqarishni tashkil etish asosida tartibga solinadi.

Davlat hokimiyatining tuzilishi davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining ta'sis etilishigina emas, balki ular orasidagi munosabatlarning keng doirasini tartibga solishni ham nazarda tutadi. Konstitusiyaviy huquq hokimiyat-huquq jarayonlari rivojida boshlang'ich nuqtani tashkil etadi. U barcha davlat organlarini hamjihatlik bilan, yagona maqsad yo'lida o'zaro hamkorligi uchun asos bo'lishi lozim.

YUqoridagilardan hulosa qilib, "O'zbekiston Konstitusiyasini o'rganish "o'quv kursining predmetini quydagicha tavsiflash mumkin:

- Konstitusiyaviy huquq tarmog'iga hos rivojlanish qonuniyatlarini, belgilarini va hususiyatlarini;
- Konstitusiyaviy huquq normalari va institutlarini;
- Konstitusiyaviy huquq normalarining amal qilish mehanizmini;
- Konstitusiyaviy normalarning boshqa tarmoklaridagi normalar va institutlar bilan munosabatini;
- Konstitusiyaviy normalarning huquqining boshqa tarmoqlaridagi normalar va institutlar bilan munosabatini;
- Konstitusiyaviy huquqning nazariy masalalarini;
- O'zbekiston konstitusiyasining davlatimiz rivojidadagi o'rni va ahamiyati;
- Konstitusiyaviy huquqiy normalar bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarni;
- O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va siyosiy tuzumi, asoslarini o'rganadi.

### **O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining yuridik hususiyatlari**

*Mustaqil davlatimizning 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan Konstitusiyasi avvalgi Konstitusiyalardan o'zining yuridik mazmun va mohiyati jihatidan farq qilib, bu Konstitusiyada davlatning mustaqilligi mustahkamlandi. Konstitusiyamizning asosiy mohiyati uning halq manfaatlari uchun xizmat qiladigan, huquqiy demokratik davlat qurish asoslari belgilab berilganligidadir. Konstitusiyaning yuridik hususiyati – Asosiy Qonun sifatidagi uning quyidagi belgilarini tashkil etadi.*

1. Avvalom bor shuni ta'kidlash joizki, Konstitusiya normativ-huquqiy aktlar jumlasiga kirib, qonunlarga hos bo'lgan hamma belgilarga ega bo'ladi. Konstitusiya bu Oliy Majlis tomonidan qabul qilinadigan va hamma uchun umummajburiy kuchga ega bo'lgan normativ-huquqiy akt bo'lib, jamiyat qurilishi halq hokimiyatchiligi bilan bog'liq bo'lgan hamma ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi.

2. Konstitusiya oliy yuridik kuchga ega, ya'ni barcha oddiy qonunlar va boshqa normativ-huquqiy aktlarga nisbatan ustunlikka ega, chunki qonunlar va boshqa normativ-huquqiy aktlar Konstitusiya normalariga muvofiq bo'lishi shart.

3. Konstitusiya joriy qonunchilik uchun asos bo'lib hisoblanadi va ularning harakterini belgilab beradi va ayni vaqtda uning normalarini takomillashtiruvchi normativ aktlar qabul qilish zarurligini nazarda tutadi.

4. Konstitusiya yana uni qabul qilish va o'zgartirishning alohida tartiblarini belgilaydi.

#### **Konstitusiyaning asosiy yuridik belgilari quyidagilardan iborat:**

1. Konstitusiya boshqa normativ-huquqiy aktlar uchun asos bo'lib hisoblanadi. U jamiyat hayotidagi eng muhim ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi.

2. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining halqchilligi shunda namoyon bo'ladiki, bu Konstitusiya mutahassislar tomonidan ishlab chiqilishi bilan birga hayot taqazosi bilan vujudga kelgan Konstitusiyadir. U Asosiy Qonun sifatida halq manfaatlarigagina xizmat qiladi. Konstitusiyada eng avvalo inson omiliga katta e'tibor berilgan. Insonning har tomonlama rivojlanishiga, ularga keng huquq va majburiyatlar berilishiga shart-sharoitlar yaratilgan.

3. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining hayotiyligi. shundaki, Konstitusiya jamiyatda mavjud ijtimoiy munosabatlarga to'la mos keladi, jamiyatning rivojlanish qonuniyatlariga, demokratik tamoyillariga to'la mos keladi.

4. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining barqarorligi, unda mujjasmalashgan normalar uzoq vaqtlar davomida o'zgartirishsiz harakatda bo'lishida namoyon bo'ladi.

Konstitusiiya jamiyat hayotidagi muhim o'zgarishlar natijasida vujudga keladi va jamiyat rivojlanishining kelgusi tarixiy davri uchun siyosiy-huquqiy asosi bo'lib xizmat qiladi. Konstitusiiya jamiyat taraqqiyoti natijalarini o'zida mujassamlaydi

Davlatimiz o'z oldiga demokratik huquqiy davlat qurishni asosiy vazifa qilib qo'ygan ekan, Konstitusiiya bu vazifaning bajarilishida hamma davlat organlari, mansabdor shahslarni, fuqarolarni shu ishga da'vat etadi. Ularning faoliyatini yo'naltirib turadi.

### **3. O'zbekiston Respublikasi konstitusiyasining o'ziga hos xususiyatlari.**

Asosiy Qonunimizning oldingilardan va boshqa davlatlarning Konstitusiyalaridan ajralib turadigan o'ziga hos jihatlari quyidagilardan iborat:

**Birinchidan**, 1992 yilgi Konstitusiyamiz o'zining tub mohiyati va falsafasi, maqsadlari va g'oyalari ko'ra yangi hujjatdir. Respublikamizning oldingi Asosiy Qonunlari biz sobiq Ittifoq tarkibida qog'ozdagina mustaqil bo'lgan davlatning Konstitusiyalari edi. Ushbu Qonunimiz esa birinchi moddasidan to ohirgi moddasigacha mustaqillik g'oyasi bilan sug'orilgan.

**Ikkinchidan**, Konstitusiyamiz o'zining ichki tuzilishi va yangi konstitusiyaviy institutlari bilan ajralib turadi. Bunda 1991 yili qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining asoslari to'g'risida"gi konstitusiyaviy qonun muhim mezon bo'lib xizmat qildi.

**Uchinchidan**, Asosiy Qonun boshqa konstitusiyalardan farqli o'laroq, o'ta mafkuralashtirish va siyosatlashtirish ruhi bilan sug'orilmagan. Unda kommunistik mafkura, sinfiylik, partiyaviylikdan asar ham yo'q.<sup>15</sup> Umumbashariy insoniy qadriyatlar biz qurayotgan huquqiy davlat va demokratik, adolatli fuqarolik jamiyatining asosi bo'lmog'i kerak.

**To'rtinchidan**, Konstitusiyamiz jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilgan halqaro huquq talab va qoidalariga javob beradigan tarzda tayyorlangan. Chunki O'zbekiston halqaro munosabatlarning teng huquqli sub'ekti sifatida o'zining Konstitusiyasida shunday talab va qoidalarni tan olgan va mustahkamlagan.

O'zbekistonning tashqi siyosati davlatlarning suverenligi tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning dahlsizligi, nizolarni tinch siyosiy vositalar bilan hal etish, ichki ishlarga aralashmaslik qoidalariga va halqaro huquqning umum e'tirof etgan boshqa qoidalari va normalariga amal qilish zaminiga qurilgan.<sup>16</sup>

**Beshinchidan**, Konstitusiyamiz jahon konstitusiyaviy tajribasiga keng tayanishi va ijobiy tomonlardan atroflicha foydalanganligi bilan ham ajralib turadi. Konstitusiyamiz eng taraqqiy etgan mamlakatlar, hususan, AQSH, Turkiya, Fransiya, Germaniya, SHvesiya, Italiya kabi Farb davlatlari, ruhiyati va etnik jihatlardan bizga yaqin bo'lgan Yaponiya, Misr, Hindiston va boshqa SHarq davlatlarining boy tajribasidan eng demokratik jihatlarni, insonparvarlik g'oyalarni tarannum etuvchi halqaro hujjatlarning talablarini o'zida jamlagan.

**Oltinchidan**, Konstitusiyamizni mustaqil davlatimiz ravnaqining huquqiy kafolati darajasiga ko'taruvchi eng muhim belgi unda jahonning ilg'or konstitusiyaviy tajribasini milliy-ma'naviy va huquq qadriyatlarimizga, o'zbek halqining boy tarixiga uyg'unlashtirilib qo'llanilganidir.

### **4. Konstitusiyaviy huquqiy munosabatlar tushunchasi va sub'ektlari.**

<sup>15</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон–келажаги буюк давлат. –Т.: Ўзбекистон, 1992, 337 б

<sup>16</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон–келажаги буюк давлат. –Т.: Ўзбекистон, 1992, 39 б

Konstitusiyaviy huquq normalarini hayotga tadbiiq etish jarayonlarida konstitusiyaviy-huquqiy munosabatlar vujudga keladi. **Konstitusiyaviy-huquqiy munosabatlar deb, Konstitusiyaviy huquq normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarga aytiladi.** Bunday munosabatlarning ishtirokchilari konstitusiyaviy huquq normalari tomonidan o'ratilgan huquq va majburiyatlar bilan o'zaro bog'langan bo'ladi. Uning ishtirokchilari o'zaro yuridik aloqada bo'ladi, chunki ular kishilar ongiga bog'liq bo'lib, davlat organlari tomonidan ta'minlanadi, himoya qilinadi, kafolatlanadi.

Konstitusiyaviy-huquqiy munosabatlarning yuridik mazmunini, munosabat ishtirokchilarining huquqlari va majburiyatlari tashkil etadi. Bu munosabatlar asosan davlat va jamiyat tuzilishini mustahkamlash, halq hokimiyatchiligini amalga oshirish tizimi va shakllari bilan bog'liqdir, shuning uchun ham konstitusiyaviy-huquqiy munosabatlar huquq tizimida hal qiluvchi o'rinda turadi.

Konstitusiyaviy-huquqiy munosabatlarning o'ziga hos xususiyatlari bo'lib, bu munosabatlarda ishtirok etuvchilarning, ya'ni sub'ektlarning mahsus doirasini guruhlarga bo'lib o'rganish tavsiya etiladi.

**Konstitusiyaviy-huquqiy munosabatlarning sub'ektlari qatoriga quyidagilar kiradi:**

**1. O'zbekiston halqi.** O'zbekiston Konstitusiyasining 7-moddasida, "Halq davlat hokimiyatining birdan-bir manbai" ekanligi mustahkamlangan, 9-moddasida esa "jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari umumhalq muhokamasiga ya'ni ovozza (referendumga) qo'yilishi mustahkamlangan".

"O'zbekiston Respublikasining referendumini to'g'risida" gi 1991 yil 18 noyabrda va 2001 yil 30 avgustda yangi tahrirda qabul qilingan qonuniga binoan, O'zbekiston Respublikasining referendumini – davlat hayoti va ijtimoiy hayotining eng muhim masalalari bo'yicha, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining qonunlarini va o'zga qarorlarni qabul qilish, ularga o'zgartirish kiritishda jamoatchilik fikrini aniqlash uchun, umumhalq ovozza qo'yilishi, bo'lib, halq hokimiyatchiligini bevosita amalga oshirish vositasidir.

Referendumda qabul qilingan qarorlar O'zbekiston Respublikasi hududida oliy yuridik kuchga ega bo'ladi va faqat referendum o'tkazish yo'li bilan bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi mumkin.

Halq hokimiyatchiligini amalga oshirishning ikkinchi shakli - Davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda halqning o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqidir. Bu tarzda ishtirok etish o'zini-o'zi boshqarish va davlat organlari faoliyatini demokratik prinsiplar asosida tashkil etish yo'li bilan amalga oshiriladi.

**2. O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikalari o'rtasidagi davlat-huquqiy munosabatlari va ularning vakolatlari doirasini belgilash tartibi.** Konstitusiyaning XVII bobida va boshqa moddalarda mustahkamlangan prinsiplar asosida qabul qilingan qonunlar, qarorlar, shartnomalar va bitimlarda ko'rsatib o'tilgan.

**3. Ma'muriy-hududiy birliklar:** O'zbekiston Respublikasi viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasidan iborat (Konstitusiyaning 68-moddasi). Davlat mazkur ma'muriy-hududiy sub'ektlari bilan ham huquqiy munosabatlarga kirishadi. Ular esa, o'z navbatida, o'z vakolatlari doirasida huquqiy harakatlarni amalga oshirishi belgilangan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining roziligi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahrining chegaralarini o'zgartirish, shuningdek viloyatlar, shaharlar, tumanlar tashkil qilish va ularni tugatish amalga oshiriladi.

**4. Jamoat birlashmalari:** O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan tartibda ro'yhatdan o'tkazilgan: siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari, yoshlar tashkilotlari, olimlarning jamiyatlari, fahriylar va ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari. ular o'z faoliyatlari davomida deputatlikka nomzodlar ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan yoki deputatlarni chaqirib olish tartibini amalga oshirish bilan bog'liq masalalarda davlat-huquqiy munosabatlarning sub'ekti bo'la oladilar.

**5. Mehnat jamoalari:** muassasa korhona, tashkilot, shirkat ho'jaligi, fermer ho'jaligi, dehqon ho'jaligi, oliy o'quv yurti talabalari, o'qituvchilari, kollej va liseylar, harbiy hizmatchilar va boshqalar. Davlat va jamiyat ahamiyatiga molik masalalarni muhokama qilishda davlat-huquqiy munosabatlarining sub'ekti bo'la oladilar. Masalan, Konstitusiiya va qonunlarni muhokama qilishda o'z fikrlarini bayon etish yoki Referendumda ishtirok etish bilan davlat huquqiy munosabatlarining sub'ekti bo'ladilar.

**6. Davlat organlari:** O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida davlat organlari faoliyati va tashkil etilishining asosiy tamoyillari belgilangan. Konstitusiyaviy normalar asosida davlat organlari davlat hokimiyatini amalga oshirish va tashkil etish jarayonida bir-biri bilan o'zaro konstitusiyaviy-huquqiy munosabatlarga kirishadi:

*Davlat hokimiyati organlari* (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi va mahalliy davlat hokimiyati organlari);

*Davlat boshqaruvi organlari* (vazirliklar va idoralar, davlat qo'mitalari, ho'jaliklar, muassasalar va boshqalar);

*Sud organlari* (Konstitusiyaviy sud, Oliy sud va Oliy ho'jalik sudi);

*Prokuratura organlari.*

Konstitusiyaviy-huquqiy munosabatlar nafaqat yuqorida ko'rsatilgan organlar o'rtasidagi munosabatlarni, balki **ikkinchi tomondan** bu organlar bilan fuqarolarni, jamoat birlashmalari bilan deputatlarni va saylovchilar o'rtasidagi davlat-huquqiy munosabatlarni ham o'z ichiga oladi.

Davlat organlarining yuqori organlari tomonidan, quyi organlarga rahbarlik qilishi, quyi organlar qarorlarini bekor qilish bilan bog'liq konstitusiyaviy-huquqiy munosabatlari kelib chiqadi va unda ishtirok etuvchilar sub'ekt bo'la oladilar. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti respublika boshqaruv organlarining, shuningdek, hokimlarning qabul qilgan hujjatlarni to'htatadi va bekor qiladi.

**7. Davlat organlari va jamoat birlashmalarining mansabdor shahslari.** Ular masalan, deputat so'rovi, fuqarolarning mansabdor shahslar harakati ustidan shikoyat qilish bilan bog'liq davlat-huquqiy munosabatlarida sub'ekt sifatida ishtirok etadilar. O'zbekiston Respublikasida har bir shahs bevosita o'zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalarga yoki halq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega.<sup>17</sup>

**8. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a'zolari va Qonunchilik palatasi va mahalliy-halq deputatlari Kengashlarining deputatlari.** Deputatlar va Senatorlar o'z huquqlari va majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq munosabatlarda sub'ekt sifatida ishtirok etadilar. Masalan, deputat yoki senator sessiyada muhokama qilinayotgan masala yuzasidan so'zga chiqishi, raislik qiluvchiga savol berishi so'rov bilan murojaat qilishga haqli<sup>18</sup>.

**9. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari.** Ular o'z ijtimoiy faolliklarini. O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq, mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga egadirlar<sup>19</sup>. Ularning ishtirok etish jarayonlaridan kelib chiqadigan munosabatlarda sub'ekt bo'ladilar. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida alohida konstitusiyaviy-huquqiy munosabatlarga kirishishi mumkin. Fuqarolarga muayyan majburiyatlar bilan birga davlat organlari oldida fuqarolarga ma'lum huquqlar ham berilgan. Jumladan, Konstitusiyaning 18-moddasida, O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir hil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shahsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar qonun oldida tengdirlar, deb belgilangan. YA'ni konstitusiyaviy-huquqiy munosabatlarining sub'ekti sifatida ishtirok etuvchi fuqarolarning huquqiy layoqatlari Konstitusiyada kafolatlangan. Masalan, fuqaro davlat organlari, halq deputatlari, jamoat birlashmalari va boshqa uyushma, tashkilotlar bilan konstitusiyaviy-huquqiy munosabatlarga kirishi oqibatida ham sub'ekt bo'la oladi.

<sup>17</sup> Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 18-моддаси. Т.: “Ўзбекистон”, 2003, 9-бет

<sup>18</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси.2005й.№1.8-модда

<sup>19</sup> Ўзбекистон Республикаси конституциясининг 33-моддаси, Т.: “Ўзбекистон”, 2003, 8-бет

**10. Konstitusiyaviy-huquqiy munosabatlarning sub'ekti sifatida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shahslarni ko'rsatish mumkin.**

Konstitusiyaviy huquq normalari konstitusiyaviy-huquq munosabatlari ishtirokchilarining huquqlari va majburiyatlarini ma'lum ob'ektlar bilan, ya'ni narsalar va hodisalar bilan bog'lab belgilaydi.

**Konstitusiyaviy huquqiy munosabatlar ob'ektlarini bir nechta guruhlariga ajratish mumkin:**

**1. Davlat hududi.** Masalan, O'zbekiston Respublikasining "Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi Konstitusiyaviy qonunning 4-moddasida "O'zbekiston Respublikasining davlat chegarasi va hududi dahlsiz va bo'linmas bo'lib, halqining hohish-irodasi, erki, ya'ni bildirmasdan turib uning o'zgartirilishi mumkin emas"-deyilgan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitusiyasining 3-moddasida "...Qoraqalpog'iston Respublikasining hududi va chegaralari dahlsiz bo'lib, o'zgartirilishi va bo'linishi mumkin emas"-deb belgilangan. Bu normalar asosida davlat-huquqiy munosabatlari kelib chiqadi. Chunki, Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston tarkibidagi suveren respublika, uning hududiy o'zgarishlari halqining roziligi bilan o'zgartirilishi mumkin.

**2. Moddiy boyliklar.** Konstitusiyaviy huquq normalari davlat mulkini tashkil etuvchi ob'ektlar doirasini belgilaydi va bu ob'ektlardan foydalanish huquqiga ega bo'lgan sub'ektlarni ham belgilaydi. Masalan, er usti va er osti boyliklari suv, tabiiy zahiralari, o'rmon, hayvonot dunyosi umummilliy boylikdir. Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish ustidan davlat nazorati mahalliy davlat hokimiyati organlari, O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

**3. Kishilarning hatti-harakatlari, hulq-atvorlari, davlat organlari va jamoat birlashmalarining qonuniy faoliyat yuritishi.** Masalan, deputatning vakillik organiga kiritgan so'rovi bilan bog'liq harakati natijasida konstitusiyaviy-huquqiy munosabatning ob'ekti bo'lishi mumkin yoki vakillik organi tomonidan qonunga zid qabul qilingan qarorning yuqori vakillik organi tomonidan bekor qilinishi ham konstitusiyaviy-huquqiy munosabatlarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Bu normalarda ob'ekt, huquqiy harakat nimaga qaratilganligi bilan aniqlanadi.

**4. Mulkiy harakterga ega bo'lmagan shahsiy manfaatlar, ya'ni obro', sha'n, qadr-qimmat va hokazo.** Masalan: "O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi deputatining va Senat a'zosining maqomi to'g'risida" gi qonuni asosida deputat va senator dahlsizligi mustahkamlangan. Demak bu qoida asosida deputat va senatorning sha'ni va qadr-qimmatini muhofaza qilish bilan bog'liq bo'lgan davlat-huquqiy munosabatlari kelib chiqishi mumkin, shunday qilib, konstitusiyaviy huquqning hilma-hilligi o'z navbatida turli ma'nolardagi davlat-huquqiy munosabatlarini vujudga keltiradi. Demak, davlat-huquqiy munosabatlarining ob'ektiga huquqiy munosabat ishtirokchilari qonunlarda belgilangan manfaatlar bilan bog'liq bo'ladi.

**2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov O'zbekiston Konstitusiyasining tashabbuskori va ijodkori. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining qabul qilinishi, uning tuzilishi va Konstitusiyaga o'zgartirish kiritish tartibi.**

Dastlab Turkiston ASSR, Buhoro va Hiva respublikalarining 1918-1920 yillardagi Konstitusiyasi mavjud bo'lgan.

O'rta Osiyo va Kozog'istonda milliy-davlat chegaralanishi natijasida O'zbekiston Respublikasi ham tashkil topgach, oradan uch yil o'tib, 1927 yilda birinchi Konstitusiyaga qabul qilindi. Konstitusiyaga qabul qilganligiga qadar respublikada konstitusiyaga ahamiyatiga molik bo'lgan bir nechta hujjatlar e'lon qilingan edi. Bu hujjatlarga quydagilarni ko'rsatish mumkin. O'zbekiston SSRni tashkil etish to'g'risidagi Deklarasiya, 1925 yilning 22-iyulida chiqarilgan. "O'zbekiston SSRning gerbi va bayrog'i haqida"gi respublika MIK qarori va boshqalar.

1927 yildagi O'zbekiston Konstitusiyasi Respublika suverenitetini va uning SSSR tarkibiga kiritishini, O'zbekiston SSR tashkil etishi hamda shakilanishi davrida paydo bo'lgan davlat hokimiyati va davlat boshqaruvchi organlari tuzilmasini mustahkamladi.

1937 yildagi ikkinchi Konstitusiiya, o'sha paytlardagi Ittifoqda amalda bo'lgan an'anaga ko'ra, SSSR Konstitusiyada keyin qabul qilindi. SSSR Konstitusiyasida aytilgan kabi O'zbekiston Konstitusiyasi ham sotsialistik tuzum asoslari qurilishi tugallanganligi ham e'lon qilindi. Bunday qaraganda nihoyatda demokratik va maqsadga muvofiq bo'lib ko'ringan bu konstitusiiya, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan huquq va erkinliklarni mustahkamlagan edi. Lekin Konstitusiyada yozilganlar hayotda amalga oshirilmadi.

1978 yilda qabul qilingan O'zbekistonning uchinchi Konstitusiyasi esa SSSR Asosiy qonunidagi barcha ustunlik hamda kamchiliklarni o'zida mujassam etdi. SSSR Konstitusiyasi kabi O'zbekiston Konstitusiyasi ham jamiyat manfaatlari yo'lida foydalanish mumkin bo'lgan bir qancha demokratik imkoniyatlarga ega edi. Konstitusiyada ham deputatlari orqali davlat hokimiyatini amalga oshiruvchi halqning to'la hokimiyati, qonunchilik, huquq-tartibot tamoyillari mustahkamlangan edi. 1937 yil Konstitusiyaga qaraganda undan fuqorolarning huquq va erkinliklari hususidagi moddalar soni ikki barovar ko'p edi.

Ammo lekin, Konstitusiiya amalga oshmadi, sababi Konstitusiiyaning o'zi turg'unlik davrida odamlar ongiga singmadi. Konstitusiiya moddalarini hayotga tadbqiq etish imkoni ozligi uni amalda boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik tuzumi almashtirgani bilan izohlandi. Qonunchilikni tiklash jarayoni esa ohiriga etkazilmadi. Misol uchun shuni eslab o'tish kifoya qiladi, ya'ni; bizda 1987 yilga kadar mansabdor shahs harakati ustidan fuqorolarning arz qilish tartibi haqidagi huquqiy akt yo'q edi. Vaholanki, ana shu fakt hususida Konstitusiiyaning 56 moddasida ochiqchasiga aytilgan edi.

Huquqiy tizimda konstitusiiyaning chinakam ustunligi ta'minlanmadi.

SHunga kura, sobiq SSSR da ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar boshlangan birinchi yillardayok Ittifoq Konstitusiyasining o'zini va unga kiradigan respublikalarning konstitusiyalarini o'zgartirish zarurligi dolzarb vazifa sifatida oldinga surildi.

1988 yildan e'tiboron hokimiyat organlari tizimiga o'zgartirishlar kiritildi, prezidentlik va hokimlik instituti joriy qilindi. Respublika Prezidenti huzurida Vazirlar Mahkamasi tuzildi, saylov tizimi bir muncha demokratlashtirildi. Iqtisodiy tizim faqatgina mulkchilikning ko'p shakllari asosida rivojlanib qolmay, balki u davlat tomonidan to'la himoya qilinishi ham lozim degan qarorga kelindi.

O'zbekiston Respublikasida Konstitusiiya ikki yo'nalishda olib borildi: ya'ni birinchidan - amaldagi asosiy qonunni qisman qayta ko'rib chiqish; ikkinchidan, yangi konstitusiyaga to'la tayyorgarlik ko'rish.

SHu bilan birga bir vaqtning o'zida yangi Asosiy qonun loyihasini tayyorlash bo'yicha ish olib borildi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining e'lon qilinishi favqulodda yuz bergan hodisa emas, balki qonuniy va tabiiy holdir. Qolaversa respublikamiz mustaqilligining e'lon qilinishi ona zaminimizda asrlar osha qo'lni qo'lga berib, elkama-elka yashab, mehnat qilib kelayotgan barcha qarindosh, dindosh halqlarning 150 yilga yakin vaqt mobaynida goh oshkora, goh pinhona qurolli yoki tinch yo'l bilan olib borgan mashaqqatli ko'pchilik hollarda fojiali kurashning mahsulidir.

Ozodlik va mustaqillik uchun intilishning ommaviy tus olishiga imkoniyat bo'lmagan bo'lsada, u yashirin, unchalik katta bo'lmagan guruhlar tomonidan davom ettirildi.

80-yillarning ohirlariga kelib O'zbekiston mustaqilligi uchun kurash tarixida yangi davr boshlandi. Bu erda qayta qurish, oshkoralik, demokratiya uchun kurash jarayonida turli hil ommaviy tashkilotlar, halq harakatlari, guruhlar vujudga keldi. Ularning faoliyatida yo'l qo'yilgan hato va kamchiliklari, nuqsonlar, millatchilik kayfiyatidagi urinishlar, nojo'ya hatti-harakatlardan qat'iy nazar asosiy maqsadlari O'zbekistonning iqtisodiy va siyosiy mustaqilligiga erishish edi. Bu davrda pahta yakka hokimlimgiga barham berish, respublikadagi tabiiy boylklarga to'la egalik qilish, o'zbek tiliga davlat maqomini berish, ittifoq tasarrufidagi

korhonalarni respublika ihtiyoriga berish, respublikaning pul birligini chiqarish, armiyasini tashkil etish, chegarasini qo'riqlash, O'zbekistonning halqaro huquqining teng huquqli sub'ekti sifatida Birlashgan Milatlar Tashkilotiga va boshqa halqaro tashkilotlarga a'zo bo'lishi, horijiy davolatlar bilan iqtisodiy, siyosiy, madaniy va diplomatik aloqalar o'rnatishi haqidagi g'oyalar ilgari surildi.

1990 yil 20 iyunda O'zbekiston SSR Oliy Soveti 12-chaqiriq II - sessiyasi respublikaning mustaqilligi to'g'risidagi Deklarasiyani qabul qildi. Ushbu Deklarasiyada Respublika davlat mustaqilligining muhim prinsiplari mustahkam o'rin olganligi diqqatga sazovordir. Jumladan, unda respublika tashqi siyosatiga doir masalalarni mustaqil hal etish asosiy halqaro huquq prinsiplarini e'tirof etish va hurmat qilish imkoniga ega ekani ta'kidlangan edi. SHu bilan birgalikda Oliy Sovet O'zbekiston Respublikasi halqaro huquqning umum e'tirof etgan normalarining eng muhim prinsiplarini tan olinishini ham ma'lum qildi.

SSSR Ittifoqi siyosiy va ijtimoiy hayotidagi o'zgarishlarni hisobga olib va mustaqillik to'g'risidagi deklarasiyaga amal qilib, 1991 yil 31 avgustda Respublika Oliy Soveti o'zining navbatdan tashkari sessiyada O'zbekiston davlat mustaqilligi va erkin, mustaqil O'zbekiston Respublikasi tashkil etilganligini tantanali ravishda e'lon qildi.

SHu bilan bir vaqtda Oliy Sovet Ittifoqining barcha yuqori qonunchilik organlariga va uning tarkibiga kiruvchi mustaqil davlatlar, barcha horijiy davlatlar va jahon hamjamiyatiga respublika davlat mustaqilligi deb e'lon qilingani to'g'risidagi hujjatni tan olishga da'vat etib, murojat qilindi.

Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risidagi qonun qabul qilingandan keyin esa O'zbekiston Respublikasi to'g'ridan-to'g'ri halqaro munosabatlar miqyosiga chiqa boshladi.

1991 yil sentyabridan boshlab, bir qancha davlatlar, halqaro tashkilotlar bilan hamkorlikning turli sohalari bo'yicha shartnoma va bitimlar imzolandi. Turkiya, Pokiston, Islom Respublikasi, Vengriya, GFR, Fransiya, Polsha, AQSH, HHR, Koreya Respublikasi, MDH mamlakatlari, BMT, OBSE, ES va boshqa ko'plab mamlakat, tashkilotlar bilan tuzilgan shartnomalar mana shular jumlasidandir.

Mustaqillik har qanday davlatning eng muhim belgisidir. Asosiy Qonunimizda uning ahamiyatiga alohida urg'u berilgan.

O'z istiqloli va mustaqilligini har tomonlama mustahkamlab borayotgan Respublika ayni paytda sobiq ittifoq hududida iqtisodiy aloqani saqlab kolish da'vati bilan chiqmoqda. SHu munosabat bilan, 1992 yil 21 dekabrda Olmeta shahrida ilgari ittifoq tarkibiga kirgan 12 ta mustaqil davlat bilan MDHga a'zo bo'lish to'g'risidagi hujjatga imzo chekildi.

O'zbekiston MDH faoliyatida, davlatlar boshliqlari, barcha kengashlari, turli davlatlararo organlar, Birlashgan Qurolli Kuchlar Bosh qo'mondonligi ishlarida faol qatnashmokka.

Halqaro maydonda O'zbekiston mavqeini mustahkamlashda Prezidentimizning jahonning turli mamlakatlariga qilgan safarlari katta ahamiyat kasb etadi. HHR, YAponiya, Koreya respublikasi, Ruminiya, AQSH, Italiya va boshqa mamlakatlarga qilgan safarlar Respublikamiz bilan Osiyo, Evropa qit'alari davlatlari va AQSH o'rtasida o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishga oid masalalarni hal qilishga hizmat qiladi.

O'zbekiston o'z mustaqilligi davomida qisqa vaqt ichida jahon mamlakatlari o'rtasida o'zining munosib o'rnini egalladi va o'z ovozi, mavqeiga ega bo'ldi.

O'zbekiston hozirgi kunda jahon hamjamiyatining teng huquqli ishtirokchisidir. Uning tashqi siyosati tinchlik siyosatidir. Bu siyosiy insonparvarlik, odamlarning tinch va osoyishta mehnati to'g'risida g'amho'rlik g'oyalari bilan sug'orilgan.

Endi, bevosita O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasini tayyorlash maqsadida Prezident boshchiligidagi Konstitusiyaya komissiyasi 1990 yil iyun oyida Oliy Kengashning ikkinchi sessiyasida saylandi.

1991 yil 31 avgustda Respublika Oliy Kengashining oltinchi sessiyasida I.A.Karimovning ma'ruzasi bo'yicha O'zbekistonning mustaqilligi asoslari to'g'risidagi konstitusiyaviy qonun qabul qilindi. Dunyo haritasida O'zbekiston Respublikasi deb atalgan

yangi mustaqil davlat paydo bo'ldi. Halqimiz uzoq yillar orzu qilib kelgan ozodlik, mustaqillik, erkinlik ruyobga chiqdi.

O'zbekiston mustaqil davlat deb e'lon qilingan kundan boshlab, Konstitusiiya loyihasi ustidan ish jonlanib ketdi.

Tuzilgan Konstitusiiya komissiyasi dastlabki kundan, to Konstitusiiyani Oliy Kengash majlisida qabul qilingunga qadar, doimo Prezidentning diqqat markazida bo'ldi. Hech mubolag'asiz aytish mumkinki, Prezidentimiz Konstitusiiyaning har bir moddasini aqli va yuragi bilan his etdi, uni pishitish va takomillashtirishga bosh bo'ldi.

Prezidentimizning taklifi bo'yicha Konstitusiiyaga 26-modda (aybsizlik prezumpsiyasi), 42 (ijod erkinligi), 46 (hotin-kizlarning erkaklar bilan teng huquqligi), 3 (Oliy ho'jalik sudi to'g'risida) va boshqa bir necha moddalar kiritildi.

Ko'pgina moddalarni tahrir qilishda, o'zgartirishda, yangilashda Prezident shahsan qatnashdi. Ba'zi nizoli, masalalarni hal etdi. Masalan, 91 moddaning oldingi tahririda, Prezident shu lavozimda turgan paytda partiya a'zolikini to'htatib qo'yish kerak, deyilgan edi. Prezidentimiz horijiy davlatlarga safar qilgan paytlarda va o'zimizda boshqa mamlakatlarni rahbarlari bilan bo'lgan uchrashuvlarda bu masalada jahon tajribasiga doimiy e'tibor berib keldilar.

Prezident o'z partiyasiga a'zolikni vaqtincha to'htatib qo'yishi haqidagi qoida qizg'in munozaraga sabab bo'ldi. Halq demokratik partiyasi butun kuchi va g'ayrati bilan bu qoidaga qarshi chiqdi va natijada g'olib keldi. Konstitusiiya komissiyasi o'zining ohirgi majlisida shu masalani muhokama qilib, yuqorida aytilgan jumlaning loyihadan olib tashlashga rozi bo'ldi. Mana shunga o'hshash masalalar juda ko'p edi. Har safar masalani hal etishda jahon tajribasi inson huquqlari haqidagi halqaro hujjatlar hisobga olinib, bir qarorga kelinadi.

Qat'iy qilib aytish lozimki, Konstitusiiya loyihasining ishlab chiqarilishi Prezidentimiz sa'y-harakatlari mevasidir. O'zbekiston Prezidenti iqtisod, siyosat sohasidagini emas, balki huquq jabhasida ham buyuk olimdir. Loyihani matbuotda e'lon qilishga tayyorlash jarayonida I.A.Karimov qo'liga qalam olib, uni to'rt bora o'qib chiqdi. Loyihaning matbuotda birinchi e'lon qilinishi bilan ikkinchi marta chop etilishi borasida o'tgan vaqt ichida u fuqarolarning aniq fikrlari va taklif-mulohazalarini o'rgangan holda yana ikki marotaba, sessiya arafasida tag'in bir bor qalam olib, loyihani ko'rib chiqdi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiiyasi - bu O'zbekiston hududida yaratilgan birinchi, tom ma'nodagi mustaqil davlatning birinchi Asosiy Qonunidir.

Prezidentimizning iborasi bilan aytganda, bu Konstitusiiya o'zining tub mohiyati, falsafasi, g'oyasiga ko'ra tamomila yangi hujjat. Unda kommunistik mafkura, sinfiylikdan, eskicha partiyaviylikdan asar ham yo'q. Konstitusiiya jamiki dunyoviy qadriyatlar orasida eng ulug'i - Inson degan fikrni ilgari surdi va shu asosida "fuqaro-jamiyat-davlat" o'rtasidagi oqilona huquqiy echimini topishga intildi.

Konstitusiiya konsiepsiyasining ishlab chiqilishi va loyiha tayyorlanishi to'g'risida albatta, har bir o'qituvchi va talaba qolaversa, hamma O'zbekiston fuqarolari habardor bo'lmog'i lozim.

1991 yilning boshida Konstitusiiyaviy komissiya bo'lajak Konstitusiiya konsiepsiyasini ishlab chiqish bo'yicha ish boshladi. O'zFA Falsafa va huquq instituti, Siyosatshunoslik va boshqaruv instituti, Respublika Prezidenti Devona ma'muriy-huquqiy bo'limi Konstitusiiya konsiepsiyasi ustidan ish olib bordilar. Ishlab chiqarilgan turli konsiepsiyalar asosida yagona mukammal konsiepsiya yaratildi.

Ishchi guruh konsiepsiya asosida 1991 yilning noyabrida yangi Konstitusiiya loyihasining dastlabki, ya'ni birinchi variantlarini tayyorladi. U muqaddima va 158 moddadan iborat edi. 1992 yilning bahorida loyiha ikkinchi varianti ishlab chiqildi.

Konstitusiiya komissiyasining raisi I.A.Karimov ikkinchi loyiha aniq va prinsipiial tarzda tahlil qilib chiqdi. Tahrir qilingan loyiha 137 moddadan iborat bo'lgan bo'lsa, loyiha uchunchi varianti ham prezident tomonidan tahrir qilinib, u 128 moddani tashkil etdi.

1992 yil 26 sentyabrda Konstitusiyasi loyihasi umumhalq muhokamasi uchun matbuotda e'lon qilindi, umumhalq muhokamasi sentyabrning ohirida dekabrning boshigacha davom etdi. Unda mamlakatning voyaga etgan deyarli barcha aholisi ishtirok etdi.

Loyiha Qoraqalpog'iston Oliy Kengashining sesiyasida va viloyatlar, shaharlar faollarining yig'ilishlarida muhokama qilindi.

1992 yil 21 noyabrda Konstitusiyasi loyihasi keyingi muhokama uchun yana matbuotda e'lon qilindi. Loyihaning bu variantida mamlakatimiz oddiy fuqorolarning ko'plab taklif va mulohazalari hisobga olindi. Demak, loyihani muhokama qilish 2 bosqichga o'tdi.

Konstitusiyaviy komissiyaning 1992 yil 7 dekabrda bo'lib o'tgan ohirgi majlisida loyihaning aholi tomonidan maqullanganligi takidlandi. Muhokama davomida 6000 dan ziyod mulohaza va taklif qabul qilindi. Ular har tomonlama o'rganildi va tahrir qilindi.

**Konstitusiyaviy Komissiya raisi I.A.Karimov shunday deydi: "Uning loyihasi ustida tahminan ikki yil davomida ishladik. U ikki yarim oy mobaynida umumhalq muhokamasidan o'tdi, halqning fikr-hazinasini durdonalari bilan boyitildi, sayqal topdi."**

1992 yil 8 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashning XII - chaqiriq 11-sessiyasi bo'lib, unda "O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilish haqida"gi masala ko'rildi. Bu hususida Konstitusiyaviy komissiya Raisi Prezident I.A.Karimov ma'ruza qilib, sessiya muhokamasiga havola qilingan qonunlardan farqli o'larok demokratik yo'l bilan tayyorlangan bo'lib, unda yillar davomida sinovdan o'tgan umuminsoniy qadriyatlar o'z aksini topganligini hamda u ko'plab taraqqiy etgan mamlakatlarning tajribalarini o'ziga singdirganligi alohida uqdirildi. SHuning uchun ham, mazkur Konstitusiyasi har qanday etakchi mamlakatning Konstitusiyasi bilan bahslashi olishi mumkin deb takidlandi.

Sessiyada deputatlar loyihaga 80ga yaqin o'zgarish, qo'shimcha va aniqliklar kiritildi va bir ovozdan qabul qilindi.

SHunday qilib, suveren demokratik O'zbekiston Respublikasining birinchi mustaqil Konstitusiyasi qabul qilindi.

**Konstitusiyasi 6 bulim, 26 bob, 128 moddadan iboratdir.**

YAngi Konstitusiyasi eskisidan farq qilib, muqaddima bilan boshlanadi. Muqaddimada asoslar ko'rsatib berilgan va Konstitusiyasi shu asoslarga tayanadi.

Faqat milliy istiqloq, davlat mustaqilligiga erishish tufayli O'zbekiston Respublikasining tamomila yangi, inson manfaatlarini, haq-huquqini himoya qiluvchi chinakam demokratik Konstitusiyasini yaratishdek ulkan tarixiy imkoniyat vujudga keldi.

O'zbekiston Respublikasi 12 chaqiriq Oliy Kengashining 1992 yilning 8 dekabrda 11 sessiyasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi 1 Konstitusiyasining qabul qilinishi mamlakat tarixida olamshumul voqea bo'ldi.

O'zbekiston Respublika Prezidenti I.A.Karimov Oliy Kengashning 11 sessiyasida Konstitusiyasi loyihasi yuzasidan so'zlagan nutqida bunday deb ta'kidladi: "Hur O'zbekistonning tarixida birinchi Konstitusiyani qabul qilish - jumhuriyatimizning yangi tug'ilishidir, huquqiy mustaqilligimizga mustahkam poydevor qurishdir. Konstitusiyasi asosiy qonunimiz sifatida davlatni davlat qiladigan, millatni millat qiladigan qonunlarga asos bo'lishi mukarrar".

Konstitusiyasi qabul qilingan kun 8 dekabr - bayram, dam olish kuni deb e'lon qilindi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi 6 bo'lim, 22 bob va 128 moddadan iborat bo'lib, u o'z ichki tuzilishi bilan Asosiy Qonun jahon Konstitusiyaviy amaliyotiga to'la mos keladi.

**Mukaddimasi** juda qisqa va ko'tarinki ruhda yozilgan. Uning mohiyati: Konstitusiyani halq, ya'ni davlatning haqiqiy sohibi qabul qiladi va unda o'z irodasini ifoda etadi.

Konstitusiyaning asosiy mantiqiy yo'nalishi quydagicha: **inson-jamiyat-davlat.**

**Birinchi bo'limda** mustaqil O'zbekiston davlatining asosiy Konstitusiyaviy prinsiplari ko'rsatilgan bo'lib, bunday prinsiplar katoriga davlat suvereniteti, halq hokimiyatchiligi, Konstitusiyasi va qonunning ustunligi hamda tashqi siyosatimiz tamoyillari kiradi.

**Ikkinchi bo'lim** inson huquqlari to'g'risidagi o'zbek partiyasidir. Boshqacha qilib aytganda inson huquqlarining yahlit va keng tizimidir.

**Uchinchi bo'lim** esa odatdagidek emas, jahonning birona Konstitusiyasida bunday bo'lim yo'q. YA'ni, bu bo'limning asosiy maqsadi: fuqarolik jamiyatining an'analarini tiklash, ijtimoiy uyushmalar va munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solib, ularning rivojlanishini ta'minlashdan iborat.

Bu bo'lim "ja'miki dunyoviy ne'matlar orasida eng ulug'i - inson degan fikrni" o'zida mujassamlashtirgan.

**To'rtinchi bo'lim** ma'muriy hududiy va davlat tuzilishiga bag'ishlangan O'zbekiston viloyatlari, tumanlari, shaharlar, shaharchalardan iborat ma'muriy-hududiy tuzilishga egadir. Respublika tarkibiga Qoraqalpog'iston respublikasi ham kiradi. Bu suveren davlatning Konstitusiyaviy makomiga va O'zbekiston bilan o'zaro munosabatlariga mahsus 17 bob bag'ishlangan.

**Beshinchi bo'lim** davlat hokimiyati idoralari tashkil etish haqida bo'lib, Konstitusiyadagi eng katta qism hisoblanadi. Bu bo'limda hokimiyat vakolatlarini taqsimlash prinsipi o'zining amaliy ifodasini topgan, ya'ni qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati idoralari konstitusiyaviy maqomi muayyan tartibda mustahkamlangan. Davlatimizning markaziy idoralari Oliy Majlis, Prezident, Vazirlar Mahkamasi, Konstitusiyaviy, Oliy va Ho'jalik Sudlari, Prokuratura, mahalliy davlat hokimiyati idoralari konstitusiyaviy maqomi belgilab berilgan.

Saylov tizimining prinsiplari, moliya va kredit, havfsizlik va mudofaa masalalari ham konstitusiyaviy tartibga solish doirasiga kirgan.

Nihoyat so'nggi, **Oltinchi bo'lim** - Konstitusiyani o'zgartirish muammosiga bag'ishlangan bo'lib, huquqiy nuqtai nazardan Asosiy Qonunning barqarorligini ta'minlashga karatilgandir.

O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasining tuzilishi uning: **birinchidan**, fuqarolar tinchligiga, ya'ni milliy va ijtimoiy totuvlikka; **ikkinchidan**, shahs erkinligiga va saylov erkinligiga; **uchinchidan**, siyosiy barqarorlikka, **to'rtinchidan**, faravonlik va iqtisodiy o'sishga; **beshinchidan**, davlatning odamlar oldidagi o'z burchini bajarishga erishishga qaratilgandir.

**5. Konstitusiya va qonunning ustunligi** O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining birinchi bo'lim 3-bobi 15 moddasida – ularning so'zsiz tan olinishi, davlat organlari, mansabdor shahslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitusiya va qonunlarga muvofiq ish ko'rishlari, 16-moddada Konstitusiyaning birorta qoidasi O'zbekiston Respublikasi huquq va manfaatlariga zarar etkazadigan tarzda talqin etilishi mumkin emasligi hamda birorta ham qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitusiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emasligi belgilab qo'yilgan.

**O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining konstitusiyaviy asoslari** 17-moddada "O'zbekiston Respublikasi halqaro munosabatlarning to'la huquqli sub'ekti. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning dahlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va halqaro huquqning umum e'tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi.

Respublika davlatning, halqning oliy manfaatlari, farovonligi va havfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlar tuzilmalariga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin." ekanligi belgilab qo'yilgan.

**O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga o'zgartirish kiritish tartibi** O'zbekiston Konstitusiyasida mustahkamlangan bo'lib, u 127, 128-moddalarida uz ifodasini topgan. YA'ni:

**127-modda**, O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasiga o'zgartirishlar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi jami deputatlarning kamida uchdan ikki qismidan iborat, ko'pchiligi tomonidan qabul qilingan qonunlar bilan kiritiladi.

**128-modda**, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tegishli taklif kiritilgandan keyin olti oy mobaynida Konstitusiyaga o'zgartirishlar hamda o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi keng va har taraflama muhokamani hisobga olgan holda qonun qabul qilishi mumkin. Agar Oliy Majlis

Konstitusiyasiga o'zgartirish kiritish to'g'risidagi taklifni rad etsa, taklif bir yil o'tgandan keyingina qayta kiritilishi mumkin.

SHaroit taqazo etsa, har qanday qonun yoki Konstitusiiya maqomi o'zgartirilishi mumkin. Konstitusiiya maqomlari Asosiy Qonunlar tarkibiga kirganligi uchun ularni o'zgartirish, yangilash, oddiy qonunlarni o'zgartirish yoki yangilashdan qisman farq qiladi. Bu jahon tajribasida qabul qilingan qoida.

O'tmishda Konstitusiyaga juda ko'p o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilar edi. Konstitusiyaga o'zgartirish kiritilmagan deyarli biror-bir sessiya ham yo'q edi. Bu ahvol Konstitusiiya va Qonunlarning barqarorligiga putur etkazar va huquqiy ongning shakllanishiga zarar keltirar edi. Konstitusiiya va Qonunlarga nisbatan bo'lgan ishonch va hurmatni susaytirardi. SHu sababli Konstitusiyaviy maqomlarning obro'yini ko'tarishni, ularni barqarorligini mustahkamlashning maqsad qilib, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga ushbu moddalar kiritildi.

### **3. O'zbekiston Respublikasida shahsning huquqiy holati. O'zbekiston Respublikasi fuqoroligi va umumiy qoidalari.**

**1. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi e'lon qilinganidan keyin ratifikasiiya etilgan birinchi halqaro hujjat "Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasi"dir.** Bu bejiz emas, albatta. CHunki insonning ulug'lash, uning hohishi, irodasini kafolatlash orzu umidlarini to'la ruyobga chiqarishni o'zining bosh maqsadi qilib belgilagan mustaqil davlatimizning etakchi tamoyillarini ana shu muhim halqaro hujjatga muvofiqlashtirish nazarda tutilgan edi.

**Bosh Komusimiz - O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasini tayyorlash va qabul qilishda ushbu umuminsoniy oliy qadriyat asos qilib olindi. SHuning uchun ham Konstitusiyamiz halqaro hamjamiyat tomonidan umumbashariy insonparvarlik va demokratik mezonlarga to'la javob beradigan hujjat sifatida yakdillik bilan e'tirof etildi.**

Prezidentimiz I.Karimov Konstitusiiyaning etti yilligiga bag'ishlangan tan'tanali marosimda so'zlagan nutqida Asosiy Qonunimizning insonparvarlik mohiyati haqida: "Konstitusiyamizning halqaro demokratik andoza va talablariga javob berishi, uning oldingi konstitusiyalaridan mutlaqo farq qilishi, biz avvalo, unda inson huquqlari, uni himoyalashga qaratilgan barcha kafolotlar alohida o'rin tutganini, asosiy Qomusimiz inson manfaatini davlat manfaatidan ustun turishini muhrlab qo'ygani haqida gapirishimiz kerak", degan edi:

Huquqiy demokratik davlat qurish, qonun oldida barchaning barobarligi, insonning islohot uchun emas, balki islohotlarning inson uchun hizmat qilishi, kuchli ijtimoiy muhofaza siyosatini yuritib, islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish kabi qator muhim gumanistik tamoyillar prezidentimizning asarlari, Oliy Majlis sessiyalari, Vazirlar mahkamasi yig'ilishlari, turli darajadagi uchrashuv va kengashlardagi ma'ruzalarning ildizini tashkil etadi.

Falsafiy ma'noda shahs - ijtimoiy shartlangan va yakka tartibda ifodalangan fazilatlarga ega bo'lgan insondir.

Hozir Respublikada insonning huquqiy holati tubdan o'zgarib bormokda. Konstitusiiyaning 19-moddasida bunday deyilgan: "O'zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat bir-biriga bo'lgan huquqlari va burchlari bilan o'zaro bog'liqdir. Fuqarolarning Konstitusiiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari dahlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim hakli emas".

**Fuqarolik shahs holatining asosiy tarkibiy holatlardan biridir.** Har qanday boshqa davlatda bo'lgani kabi respublika aholisi faqat o'z fuqarolaridagina emas, shu bilan birga o'z hududida vaqtincha yoki doimiy yashovchi chet el fuqarolaridan, fuqaroligi bo'lmagan shahslardan ham iboratdir. CHet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shahslarning huquqiy holati respublikadagi fuqarolarning huquqiy holatidan farq qiladi, lekin shunga qaramay, ular ham davlat bilan jamiyatga nisbatan muayyan huquq va burchlarga egadirlar. Davlat o'z navbatida, o'z hududida bo'lgan har qanday kishi, har qanday shahs huquqlarini muhofaza qiladi, biroq ularga berilgan huquqlar va ular zimmasiga yuklangan burchlar hajmi har hil bo'lib,

bu holat ularning respublika bilan huquqiy aloqalari harakteriga bog'liqdir. Faqat respublika fuqarolari huquq va erkinliklaridan to'la-to'kis foydalanadilar va belgilangan burchlarini ado etadilar. Qolgan hamma toifadagi shahslar kamroq huquq va burchlarga egadirlar.

**Jamiyat, davlat va fuqarolar o'rtasidagi eng muhim va eng ko'p sonli munosabatlarga aloqador bo'lgan huquqlar hamda burchlar fuqarolar huquqiy holatining uchinchi jihati hisoblanadi.**

SHahs huquqiy holatining muhim jihatlaridan biri-shu huquqiy holatini vujudga keltiradigan qoidalardir. Bu jamoatchilik manfaatlarini shahsiy manfaatlar bilan birga qo'shishdan hamda huquq va burchlarining shunga asoslangan birligidan, huquq va burchlarning umumiyligidan, insonparvarlikdan iborat.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida inson huquq va erkinliklarini himoyalash sohasidagi 60dan ziyod halqaro huquqiy hujjatlarga imzo chekkan.

BMTning inson huquqlari borasida esa hozirgi paytda **80ga yaqin konvensiia mavjud.** Umumjahon deklarasiyasidan farqi shundan iboratki, bu hujjatlarda inson huquqlari batafsil talqin qilinadi va ularning ruyobga chiqarishning davlat tomonidan kafolatlanishi mustahkamlab qo'yilgan, har qanday holatlarda ham inson huquqlarining davlat tomonidan cheklanishi mumkin bo'lmagan alohida turkumlari, masalan; yashash huquqi, qiynoqlarga yo'l qo'ymasligi, fikr va e'tiqod erkinligi, sudlov himoyasiga bo'lgan huquq va boshqalar ajratib ko'rsatilgan.

**Inson huquqlari negizida inson shahsi qadriyati turadi.** Odatda inson huquqlarining **uch bug'ini** bir-biridan farqlanadi: **fuqarolik** va **siyosiy** huquqlari; yashash huquqi, fikr va suz erkinligi huquqi, uyushmalarga birlashish huquqi va boshqalar va **uchinchi bug'ini iqtisodiy-ijtimoiy huquqlar**; bilim olish huquqi, mehnat qilish huquqi, ijtimoiy ta'minot olish huquqi, malakali tibbiy xizmatdan foydalanishga bo'lgan huquqlar va h.k.

O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgan dastlabki kunlardan oq shahs, jamiyat va davlat munosabatlarini umuminsoniy qoidalar hamda halqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari asosida qadam qo'ydi.

SHahs, davlat va jamiyat munosabatlarning asosiy echimini belgilovchi huquqiy asos konstitusiiya qabul qilindi.

**Jamiyatning, davlatning shahslar bilan bo'ladigan va huquqiy normalar bilan belgilanadigan o'zaro munosabatlari shahsning huquqiy holati deb ataladi.**

SHahs huquqiy holatini belgilovchi, ya'ni shahsning tartibga solinishi jamiyatda amalda bo'lgan ijtimoiy normalar ta'sirida yuzaga keladi. Masalan, urf-odat, odob, an'analarning o'rni alohida mavjud.

SHahs bilan davlat o'rtasidagi munosabatlar qonunlar va boshqa huquqiy normalar bilan belgilanadi.

Fuqaroligi bo'lmagan, ya'ni hech bir davlat fuqaroligini olmagan shahslarning huquqiy holati muayan davlatda alohida holatda bo'ladi.

Ikki fuqarolikka yoki ko'p fuqarolikka ega bo'lgan shahslarning huquqiy holati ham ma'lum munosabatlarda o'zgacha holat kasb etadi. **Demak fuqarolik, fuqarolikka ega bo'lmaslik, ko'pfuqarolik** masalalari shahsning huquqiy holatiga ta'sir etuvchi omildir.

**Ikkinchidan,** shahsning huquqiy holatiga ta'sir etuvchi omillardan yana biri, shahsning ma'lum yoshga to'lishi va natijada muomala layoqatiga ega bo'lishi hisoblanadi.

Jamiyat va davlatning shahs bilan munosabatlari va aloqasi to'g'risidagi huquqiy normalar qonunda emas, balki faqat konstitusiiya normalarida o'z aksini topadi.

Hulosa qilib aytganda, shahsning O'zbekiston Respublikasidagi huquqiy holati, bu kishining O'zbekiston Respublikasi huquq normalari bilan belgilangan holati, uning jamiyatdagi, davlatdagi o'rnidir. Bu normalar O'zbekistonda yashovchi shahsning jamiyat bilan munosabatini, davlat bilan munosabatini, ularning asosiy huquq va burchlarini belgilaydi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, inson huquqi masalalariga oid 100dan ortiq qonunlar qabul qilindi. Respublika Prezidenti esa shu davr ichida inson huquqi masalalariga bagishlangan 60dan ortiq farmon qabul qildi.

Har bir mamlakatda inson huquqlariga va asosiy erkinliklariga nechog'lik rioya etilayotganligiga qarab, shu mamlakatning jahon iqtisodiyotidagi obro'si va uning boshqa davlatlar bilan munosabatlari belgilanadi. 1948 yilda BMT insonning asosiy huquqlariga ishonchini mustahkamlash va BMT prinsiplarini amalga oshirish maqsadida Inson huquqlari umumjahon Deklarasiyasini qabul qildi. Bu mo''tabar hujjat er yuzidagi har bir kishi asosiy huquqlarini obro'li bayonidir.

Unda BMT nizomining, inson huquqlarning har jihatdan hurmat qilinishi barcha hukumatlar va barcha halqlarning mushtarak burchidir, - degan prinsipi o'z aksini topgan. Bu deklarasiya buyuk tarixiy ahamiyatga molik hujjat bo'lib, u jahon aholining vijdoni, jamiyatlar va hukumatlar pozitsiyalarining nechog'lik to'g'riligini o'lchab beradigan mezonlardir.

Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasidan keyin yana **uch hujjat**, ya'ni, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi 19-dekabr 1996 yildagi **halqaro pakt**, 1996 yil 18-dekabrda fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi **pakt**, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi 1996 yil 19 dekabr halqaro **paktga** fakultativ protokol qabul qilindi. Bu hujjatlar halqaro huquqiy munosabatlarda inson huquqlari to'g'risidagi **bill (qonun) deb** atala boshladi.

Bu ko'rsatilgan Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasi va inson huquqlari to'g'risidagi paktlar birgalikda davlatlarning inson huquqi sohasidagi halqaro hamkorligini asosini tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasi bu masalada, mustaqillikka erishgach halqaro hujjatlarni tan olib, ularga sodiq qolishini ma'lum qiladi va 1992 yil 8-dekabrda qabul qilingan Asosiy Qonunimizda, nafaqat O'zbekiston fuqarolari, balki barcha insonlarning asosiy huquqlari va erkinliklarini ham mustahkamlab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishishi bilan fuqarolik instituti mazmunan tubdan yangi ma'no va mustaqil ahamiyat kasb etadi. Endilikda fuqarolik davlatchiligimizni muhim ajralmas belgisidir.

Fuqarolik Asosiy Qonunimizning **21-moddasida, ya'ni: "O'zbekiston Respublikasining butun hududida yagona fuqarolik o'rnatildi.**

**O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi, unga qanday asoslarda ega bo'lganliklaridan qat'iy nazar, hamma uchun tengdir.**

**Koraqalpog'iston Respublikasining fuqarosi ayni vaqtda O'zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi.**

**Fuqarolikka ega bo'lish va uni yo'qotish asoslari hamda tartibi qonun bilan belgilanadi"** deb mustahkamlab qo'yilgan.

Fuqarolik - bu shahs bilan davlat o'rtasidagi barqaror va doimiy siyosiy huquqiy aloqa bo'lib, bunda ularning o'zaro huquq, burch va majburiyatlari o'z ifodasini topadi. Bir so'z bilan aytganda, fuqarolik bu shahsning muayyan davlatga huquqiy jihatdan mansubligidir.

**O'zbekiston Respublikasi fuqarosi** deganda, faqatgina uning hududida yashashi yoki uning hokimiyatga bo'ysunish, huquq va burchlar bilan ta'minlanishningina emas, balki shahs bilan O'zbekiston Respublikasi o'rtasida o'rnatilgan alohida siyosiy huquqiy aloqalar va munosabatlar tushuniladi. **Fuqarolik** - bu shahsning huquqiy holatidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining bir yilligi munosabati bilan kilgan ma'ruzasida shunday degan edi: **"SHAHS O'zbekiston Respublikasi Fuqaroligini qabul qilar ekan, bu bilan u konstitusiyamiz va Qonunlarimizda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklarga ega bo'ladi. SHuningdek, u ma'lum burchlarni ham bajarishga majburdir. Tabiiki, O'zbekiston davlati ham fuqarolarning manfaatlarini va erkinliklarini Respublika hududida va uning tashqarisida himoya qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi"**.

O'zbekiston Respublikasida har bir kishi fuqaro bo'lish huquqiga egadir. Hech kim fuqarolikdan yoki fuqarolikni o'zgartirish huquqidan mahrum qilinishi mumkin emas.

Konstitusiyaya O'zbekiston Respublikasida, ya'ni uning butun hududida yagona fuqarolikni joriy etgan. Uning ma'nosi:

1. Davlatning yagonaligi, mustaqilligi va yahlitligidir;

2. Barcha fuqorolar, shu jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi birday siyosiy, huquqiy maqomga ega, qonun oldida teng va davlat huquqiy munosabatlarining to'la qonli sub'ekti hisoblanadilar;

3. Respublikaning butun hududida fuqorolariga ularning konstitusiyaviy va boshqa huquq va qonuniy manfaatlarining davlat - huquqiy muhofazasi ta'minlanadi va himoya qilinadi.

Hozirda O'zbekiston Respublikasining 1992 yil 2 iyulda qabul qilingan "Fuqarolik to'g'risida"gi qonuni fuqarolikka qabul qilish, unga ega bo'lish va fuqarolikni yo'qotish tartibini belgilaydi.

- Kelib chiqishi, ijtimoiy va mulkiy holatidan, irki va millatidan, jinsi, ma'lumoti, tili, siyosiy qarashlari, dini e'tiqodi, mashg'ulotining turidan qat'iy nazar, ushbu qonun kuchga kirgan vaqtda (1992 yil 7 iyulda) O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan, boshqa davlatlarning fuqorolari bo'lmagan hamda O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lish istagini bildirgan shahslar;

- Davlat yo'llanmasi bilan O'zbekiston Respublikasidan tashqarida ishlayotgan, harbiy hizmatni o'tayotgan yoki o'qiyotgan shahslar, agar ular, O'zbekiston Respublikasining hududida tug'ilgan bo'lsalar yoki doimiy yashaganliklarini isbot qilgan bo'lsalar, boshqa davlatlarning fuqorolari bo'lmasalar va ushbu qonun kuchga kirgandan keyin kechi bilan bir yil ichida O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lish istagini bildirgan bo'lsalar;

- Ushbu qonunga muvofiq O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini olgan shahslar.

Ota-onasidan biri bola tug'ilgan paytdan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan, boshqasi esa fuqaroligi yo'q shahs bo'lgan, yohud noma'lum bo'lgan taqdirda, bola qaerda tug'ilgan bo'lishidan qat'iy nazar, u O'zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanadi.

Fuqaroligi bo'lmagan, O'zbekiston Respublikasida doimiy istiqomat joyga ega bo'lgan shahslarning O'zbekiston Respublikasi hududida tuqilgan bolasi O'zbekiston fuqarosi hisoblanadi.

Ota onasi noma'lum bo'lgan va O'zbekiston hududida yashayotgan bola O'zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanadi.

**Qonun O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga ega bo'lishning quyidagi asoslarini belgilab bergan:**

1. Tug'ilganda;
2. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilinishi natijasida;
3. O'zbekiston Respublikasining halqaro shartnomalarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha;
4. Ushbu qonunda nazarda tutilgan boshqa asoslar bo'yicha.

CHet el fuqorolari va fuqaroligi bo'lmagan shahslar o'z iltimosnomalariga ko'ra kelib chiqishdan, irqi va millatidan, jinsi, ma'lumoti, tilidan, dinga munosabatidan, siyosiy va boshqa e'tiqodlaridan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilinishi mumkin, lekin shu bilan birga **O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga kirish uchun qonun tomonidan ayrim shartlar qo'uyilgan bo'lib ular;**

1. CHet el fuqaroligidan voz kechishidan;
2. So'ngi 5 yil davomida O'zbekiston Respublikasida doimiy yashaganligini;
3. Qonuniy tirikchilik manbalarining mavjudligi;
4. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasini tan olishi va bajarishi shartdir.

**O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi kuydagi asoslarga ko'ra to'htatiladi:**

1. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqishi oqibatida;
2. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo'qotishi oqibatida;
3. O'zbekiston Respublikasining shartnomalarida nazarda tutilgan asoslarga binoan;
4. Ushbu qonunda ko'zda tutilgan boshqa asoslarga binoan.

Fuqarolik to'g'risidagi qonunda O'zbekiston Respublikasi **fuqaroligini yo'qotish** asoslari ham belgilab berilgan. Bunga quydagilar sabab bo'ladi.

1. SHahs chet davlatda harbiy hizmatga, havfsizlik hizmati va boshqaruvining boshqa idoralariga ishga kirganligi aniqlansa;

2. Agar chet elda doimiy yashovchi shahs 5 yil davomida uzrli sabablarsiz konsullik hisobida turmagan bo'lsa.

3. Agar O'zbekiston Respublikasi fuqoroligi yolg'onligi shak-shubhasiz ma'lumotlar yoki sohta hujjatlarni taqdim etish natijasida olingan bo'lsa.

SHu sabablarga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoniga asosan O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi yo'qotiladi. Fuqarolik to'g'risidagi qonunda ota-onalarning fuqaroligi o'zgarganda bolalarning fuqaroligi masalalari ham keng yoritilgan.

#### **4. Inson va fuqorolarning konstitusiyaviy huquqlari, erkinliklari va burchlari tushunchalari, ularning tizimi. Huquq va erkinliklarning konstitusiyaviy kafolatlari.**

Fuqorolarning Konstitusiyaviy huquq va erkinliklari Respublikamiz Konstitusiyasining 18-moddasida mustahkamlangan bo'lib, **"O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir hil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shahsiy va ijtimoiy mavqeidan qa'tiy nazar, qonun oldida tengdirlar**

**Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart"**.

Ushbu qoidaning O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida yozib qo'yilishi O'zbekistonni davlat sifatida dunyodagi eng demokratik mamlakatlar darajasiga ko'taradi. CHunki insonni ulug'lash, uni kim bo'lishidan qa'tiy nazar qonun olida tengligini ta'minlash hamda uning haq va huquqini qo'riqlash faqat demokratik davlatlarga hosdir.

Fuqorolarning O'zbekiston Respublikasida bir hil huquq va erkinliklarga ega bo'lishi qoidasi inson huquqlari umumjahon deklarasiyasi moddalariga to'la-to'kis mos keladi. Masalan; Inson huquqlari umumjahon Deklarasiyasining 1-moddasida, "Barcha odamlar erkin, kadr-kimmat va huquqlarda teng bo'lib tug'iladilar. Ular aql va vijdon sohibidirlar va bir-birlariga birodarlarcha muomala qilishlari zarur", - degan so'zlar bitilgan.

Inson huquq va erkinliklari har bir shahsga taalluqli bo'lib, fuqorolarning huquq va erkinliklari esa faqat o'sha davlat fuqaroligiga ega bo'lgan shahslargina tegishlidir.

Har qanday davlat itfokining maqsadi insonning ajralmas va tabiiy huquqlarini ta'minlashga qaratiladi. Erkinlik mulkka egalik qilish, havfsizlik, zulm-qiynoqlarga solinishiga qarshilik ko'rsatish shular jumlasidandir.

Huquq va erkinliklarining konstitusiyaviy ifodalanishi **ikki usuli – ijobiy va salbiy usullari** mavjud. **Ijobiy usul** konstitusiiya sub'ektining muayan huquqqa egaligini belgilaydi yoki ta'kidlaydi. **Salbiy usul** esa, ijobiy usuldan farqli har qanday sub'ektga o'zga sub'ektning huquq yoki muayan erkinligini buzish yoki cheklashni ta'kidlaydi.

Huquq, erkinliklar va burchlarni asosiy guruhlariga ajratish quydagicha qabul qilingan:

1. shahsiy yoki inson huquqlari, ya'ni yashash huquqi, shahsiy dahlsizlik va turar-joy dahlsizligi kabi huquq, erkinlik va burchlar;

2. davlat va jamiyat boshqaruvida ishtirok etish, ovoz berish, yig'ilish huquqi, vatanni himoya qilish bilan bog'liq kator siyosiy huquq, erkinlik va burchlari;

3. mehnat qilish huquqi, mehnat erkinligi, mulk huquqi, soliq to'lash burchi, ta'lim olish huquqi, ijod erkinligi va shu kabilar iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquq erkinlik va burchlar guruhini tashkil etadi.

SHahsni himoya qilish shuningdek uning hayotini ijtimoiy havfli tajovuzlaridan muhofaza qilish davlatning muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Inson va fuqorolarning asosiy huquqlari tizimida eng muhimi yashash huquqi hisoblanadi.

Haqiqatdan ham, yashash huquqi insonning tabiiy huquqidir, har bir inson jinsi, irqi, millati, dini, tili, ijtimoi kelib chiqishi, fikrlash, shahsiy va ijtimoiy ahvolidan, yoshi, jismoniy kuch, sog'lig'idan qa'tiy nazar yashash huquqiga ega.

**"Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suyuqasd qilish eng og'ir jinoyatdir"**-deb, Konstitusiiyaning 24-moddasida mustahkamlab qo'yilgan.

Mazkur modda halqaro huquqiy hujjatlarga, aniqrog'i, inson huquqlari umumjahon deklarasiyasiga; Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi Pakti va fuqarolik siyosiy huquqlar to'g'risidagi halqaro Paktga to'la mos keladi va mana shu hujjatlardan kelib chiqadi.

Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasining 3-moddasida: "Har bir inson yashash, erkinlik va shahsiy dahlsizlik huquqiga egadir", deyilgan bo'lsa, Fuqarolik huquqlari va siyosiy huquqlari to'g'risidagi Paktning 6-moddasi 1-bandida: "Har bir insonning yashash huquqi uning ajralmas huquqidir. Bu huquq qonun bilan muhofaza etiladi. Hech kim o'zboshimchalik bilan insonni yashash huquqidan mahrum qila olmaydi", deb belgilangan.

Erkinlik va shahsiy dahlsizlik huquqi konstitusiyaviy huquqdan bo'lib, inson tuzilishi bilan unga ega bo'ladi.

Inson erkinligi va shahsiy dahlsizligining buzilishi har bir shahsning sudga shikoyat bilan murojat qilish hamda buzilgan huquqlarini tiklash va uning talabalarini qondirish huquqini keltirib chiqaradi.

Ushbu huquqni amalga oshirish tartiblari O'zbekiston Respublikasining 1995 yil 30-avgustdagi "Fuqarolarning huquq va erkinliklarini buzadigan harkatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat to'g'risida"gi qonun bilan tartibga solinadi.

Aybsizlik prezumpsiyasi (aybini isbot qilgunicha shahsni aybsiz deb faraz qilish) Konstitusiyaning 26-moddasida mustahkamlangan bo'lib, u jinoyat huquqida qonuniylik tamoyilining asosi hamda odil sudlovning asosiy tamoyillaridan hisoblanadi. Bu tamoyil jinoyat Kodeksining 4-moddasida yanada rivojlantiriladi. Unga binoan, hech kim sudning hukmini bilmay turib jinoyat sodir qilishda aybli deb topilishi va qonunga hilof ravishda jazoga tortilishi mumkin emasligi aniq ko'rsatilgan. Bu qoida birinchi marta 1789 yildagi inson va fuqarolar huquqi Deklarasiyasida o'z ifodasini topgan edi.

Aybsizlik prezumpsiyasi, O'zbekiston mustaqil bo'lib, o'z Konstitusiyasini qabul kilgach, odil sudlovning asosiy prinsipi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisning 1995 yil 31 avgustdagi qarori bilan 1984 yil 10 dekabrda "Qiynoqlarga solishga va muomalada bo'lish va jazolashning boshqa shafqatsiz, g'ayri insoniy yoki qadr-qiymatini tahqirlovchi turlariga qarshi Konvensiya"ga qo'shilishini e'lon qildi.

O'zbekiston Konstitusiyasining **27-moddasida, - "Har kim o'z sha'ni va ob'ro'siga qilingan tajovuzlardan, shahsiy hayotga aralashishidan himoyalani va turar joyi dahlsizligi huquqiga ega.**

**Hech kim qonun nazarda tutgan hollardan va tartibdan tashqari birovning turar joyiga kirishi, tintuv o'tkazishi yoki uni ko'zdan kechirishi, yozishmalar va telefonda so'zlashuvlar sirini oshkor qilishi mumkin emas",** deb mustahkamlab kuyilgan.

Bu qoidagi shahsni sha'ni, qadr-qimmatini; va hurmat qilish shahsiy hayot va uy-joyi dahlsizligini ta'minlashga qaratilgan. Sha'n va qadr-qimmatga faqat insonga hos sifat bo'lib, u unga tug'ilganidan boshlab ega bo'ladi. Bu huquq shahsning ajralmas va boshqalarga o'tkazib bermaydigan huquqi hisoblanadi. YA'ni bu huquqlar umuman mutlaq harakterga ega bo'lib, ulardan foydalanishi uchun mahsus ruhsatnoma talab qilinmaydi.

O'zi sha'n qadr-qimmat deganda nimani tushunasiz?, Bu qanday ma'no va hususiyatlarni anglatadi?, sha'n va qadr-qimmatning o'zi nima? - degan va boshqa savollar tug'ilishi tabiiy.

**SHa'n** - bu jamiyatning shahsga bahosi, jamiyat a'zosi sifatida fuqaro ijtimoiy va ma'naviy hususiyatlarining o'lchovidir. Jamiyatning shahsga bahosi to'g'ridan-to'g'ri fuqaroning o'ziga bog'liqdir, chunki uning shahsi davlatga, jamiyatga, o'zini o'rab turgan insonlarga munosabati hamda ba'zi bir harakatlari umumiy faoliyati asosida shakllanadi. U inson faoliyatining ijtimoiy hayotdagi o'rnini va samarali faoliyatini foydaliligiga bog'liq, chunki bu sifat uning barcha mavjud hizmatlarini aks ettiradi.

Inson ya'ni shahsning hulqi asosida uning ma'naviy ahloqiy timsoli haqidagi qarashlardan shakllanadi, ular shu asosida jamoatchilik, jamoalar, boshqa shahs-individlar, tomonidan aniq shahsning hususiyatlariga baho beriladi.

Endi, **qadr-qimmat** - esa o'zining jamoatdagi o'rniga, shahsiy hususiyatlariga, qobiliyatiga, dunyoqarashiga qarab o'zini-o'zi ichki baholashdir. Har bir inson o'zining jamiyatda tutgan o'rnini anglab etadi. Unga o'zini-o'zi hurmatlash va boshqa odamlar uni hurmatlashini his qilish hususiyatlari hosdir. YA'ni insonning jamiyatda tutgan o'rnini o'zi anglab etishi umuman uning harakat va hulqini aniqlab beradi.

SHahs sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqining e'lon kiliganligi O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining inson huquqlariga oid halqaro standartlariga to'la mos keladi. Misol uchun "Inson huquqlari umumjahon Deklarasiyasi"ning 12-moddasida ko'rsatilganidek, "Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risida"gi halqaro Paktining (1966) 17-moddasiga ko'ra "hech kimning shahsiy va oilaviy hayotiga o'zboshimchalik yoki noqonuniy tarzda aralashishi, uni uy-joy dahlsizligiga yoki yozishlardagi sirlarning dahlsizligiga o'zboshimchali yoki noqonuniy tarzda tajovuz qilish va uning or-nomusi va sha'niga tajovus kilinishi mumkin emas".

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 100-moddasiga binoan, fuqaro o'zining sha'ni qadr-qimmatini yoki ishchanlik obro'siga putur etkazuvchi ma'lumotlar yuzasidan, basharti butun ma'lumotlarni etkazgan shahs ularning haqiqatga to'g'ri kelishini isbotlay olmasa, sud yo'li bilan raddiya talab qilishga haqlidir.

SH'ni va qadr-qimmatiga putur etkazigan fuqaro ushbu ma'lumotlarni raddiya qilish bilan birga bir qatorda, uni tarqatilishi natijasida o'ziga etkazilgan ziyon va ma'naviy zararni qoplash talabini qo'yishi ham mumkin.

Insoning turar jay dahlsizligi huquqi, mulk shaklidan qa'tiy nazar hamma uy-joylarga, hamma binolarga tegishlidir. Uy-joyga ruhsatsiz kirishga faqat qonun bilan ko'rsatilgan hollarda va belgilangan tartibda yo'l qo'yiladi. Jinoyat prosessual qonuni esa uyni ko'zdan kechirish va tintuv o'tkazish shartlari va asoslarini belgilab beradi.

Fuqarolarning uy-joylariga ularning roziligisiz kirishga faqat yong'in, gaz yoki suv tizimining buzilishi kabi favqulodda vaziyatlarda yo'l qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasining 28-moddasi respublika hududida fuqarolarning bir joydan ikkinchi joyga ko'chishi, kelish va undan chiqish huquqini mustahkamlaydi. Bu huquqqa muvofiq shahs o'z hohishi bilan O'zbekiston Respublikasi hududida bir joydan ikkinchi joyga ko'chishi, undan chiqib ketishi va qayta kelishi mumkin. Qonunda belgilangan cheklash hollari bundan mustasnodir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 6-noyabridagi "O'zbekiston Respublikasi Fuqarolarining chet elga chiqish tartibi va O'zbekiston Respublikasi diplomatik pasporti to'g'risidagi qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori bilan respublika hududidan chiqish va unga kirish tartibi belgilangan.

Ichki ishlar organlari quydagi shahslarga chet elga chiqish huquqini rad etishi mumkin:

- davlat siri bo'lgan ma'lumotlardan habardor bo'lgan shahslarga bu holat bekor bo'lgunga qadar;
- shartnoma majburiyatlari amal qilayotgan shahslarga nisbatan bu holatlar tugagunga qadar;
- jinoiy ish kuzg'atilgan shahslarga nisbatan ko'rib chiqish tugagunga qadar;
- o'ta havfli resiivist deb tanilgan shahslarga nisbatan- sudlanganligi olib tashlangunga qadar;
- ustidan ma'muriy nazorat o'rnatilgan shahslarga nisbatan-ma'muriy nazorat tugagunga qadar;
- sud tomonidan yuklatilgan majburiyatni bajarmasdan yurgan shahslarga nisbatan-ushbu majburiyatni bajargaunga qadar;
- o'zi haqida yolg'on ma'lumotlar bergan shahslarga;
- sud tomonidan fuqarolik da'vosi e'lon qilingan shahslarga nisbatan - ish yakunlangunga qadar;
- chaqiruv bo'linmasiga yozilgan va haqiqiy harbiy xizmatga chaqiriladigan shahslarga nisbatan - muddatli harbiy xizmatni o'tagunga qadar yoki undan qonunga muvofiq ozod etilgunga qadar.

Fuqaro ko'chib yurish huquqi rad etilgani haqida yuqori idoralarga shikoyat qilinishi mumkin. Bunday shikoyat mobaynida javob berilishi shart. Agar fuqaro uning qaroridan norozi balsa, sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Konstitusiiyaning 29-moddasida har bir insonga fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi, istagan ahborotini izlash, olish va uni tarqatish huquqini beradi, lekin bunday erkinlik amaldagi konstitusiyaviy tuzumiga qarshi qaratilgan ahborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlarga qa'tiy rioya etilgan holda amalga oshirilishi kerak.

Fuqarolarga fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi, barcha ma'lumotlarni qidirish, olish, tarqatish huquqi ularga davlat idoralariga, jamoat birlashmalariga, korhona, tashkilot, muassasalarga taklif, ariza yoki shikoyat bilan murojat qilish yo'li bilan jamoat va davlat ishlarini boshqarishda faol qatnashish imkonini beradi.

Fikr va e'tiqod erkinligi so'z erkinligi orkali amalga oshiriladi - bu o'z fikrini ochiq so'zlamog va boshqa shahslarning e'tiboriga etkazmoqdeb tushuniladi.

So'z erkinligi esa - bu qonun hujjatlarining ko'rib chiqishda, referendum o'tkazilayotganda, Oliy Majlis va mahalliy hokimiyat saylovlarida, o'zini o'zi boshqarish organlarida va kundalik hayotda o'z fikrini bildirish va ishtirok etish imkonini beradi.

Inson huquqlari Umumjahon Deklarasiyasining 19-moddasida ham "Har bir inson e'tiqodlar erkinligi va bularni erkin ifodalash huquqiga ega: ushbu huquq hech bir to'siqsiz o'z e'tiqodlariga amal qilish erkinligi hamda ahborot va g'oyalarni har qanday vositalar bilan, davlat chegaralaridan qa'tiy nazar, izlash, olish va tarqatish erkinligini o'z ichiga oladi",-deb mustahkamlab qo'yilgan.

Insonlarning sudda uziga nisbatan har qanday ish ko'rilayotganda o'z huquq va manfaatlariga ta'sir qiladigan hujjatlar qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishish huquqi amalga oshiriladi.

Konstitusiyaviy sud esa fuqarolarga hujjatlar va materiallar bilan tanishish imkoniyatini berish huquqiga ega.

Bu huquqlar Konstitusiiyaning 30-moddasida mustahkamlab qo'yilgan.

Konstitusiyada fuqarolarnin eng muhim shahsiy huquqlardan biri bu - vijdon erkinligidir.

Vijdon erkinligi - bu insonning dinga bo'lgan munosabatidir.

Respublika Konstitusiyasining 32-moddasi respublika halqining hammasi uchun vijdon erkinligini kafolatlaydi. Buning ma'nosi shundaki, O'zbekistonda yashaydigan har bir inson hohlagan dinga e'tiqod qilishi yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqini beradi.

Diniy tashkilotlar siyosiy partiyalar faoliyatida qatnashmaydilar va siyosiy partiyalarga moliyaviy madad ko'rsatmaydi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, davlatning puhta o'ylab o'tkazayotgan oqilona siyosati jamiyatning dinga munosabatini ancha o'zgartirib yubordi. Dindorlarning qonunlarga qa'tiy rioya etishi, diniy tashkilotlar bilan hamkorlik qilish halqning barcha tabaqalarini jipslashtirishga ya'ni birlashtirishga yordam berdi va bermoqda.

**Siyosiy huquqlar** - O'zbekistonda halq hokimiyatining amalga oshirilishi har bir O'zbekiston Fuqarosiga mamlakatning ijtimoiy, siyosiy hayotida faol amaliy va huquqiy ishtirok etish imkonini beradi.

Siyosiy huquqlar to'g'risida gap ketayotgan ekan, bu huquqlar asosan O'zbekiston fuqarolariga tegishli ekanligini alohida ta'kidlash lozim. CHunki faqat O'zbekiston Respublikasi fuqarolarigina Konstitusiyada ko'rsatilganidek, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etishi (32-modda); o'z ijtimoiy faolliklarini O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish (33-modda); kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalariga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish (34-modda) huquqlarida foydalanishlari mumkin.

O'zbekiston Konstitusiyasining fuqarolariga berilgan siyosiy sohadagi huquqlardan biri shu "jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish"dir (32modda). Bunday ishtirok etish huquqi ikki yo'l bilan amalga oshiriladi:

**Birinchidan:** bevosita ishtirok etish. Bu referendum o'tkazishda, davlat organlarini saylovlar yo'li bilan tashkil etishda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyatida ishtirok etishi bilan amalga oshiriladi.

**Ikkinchidan:** fuqarolar o'zlari saylab qo'ygan vakillari, davlat organlari Respublika Prezidenti orqali jamiyat va davlat shularni amalga oshirishda qatnashadilar.

Konstitusiyaga binoan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari vakillik organlariga saylash huquqiga egadirlar.

Demokratiyaning asosiy shakllaridan biri - bu davlat va jamiyat hayotining muhim muammolarini umumhalq muhokamasida uz echimini topish-referendum hisoblanadi.

Fuqarolarning yana bir konstitusiyaviy huquqi - bu ularning ijtimoiy faolliklarini mitinglar, yig'ilishlar namoyishlar o'tkazish yo'li bilan amalga oshirish huquqidir (33-modda).

**Miting** - bu siyosiy masalalarning muhokamasi uchun yig'ilgan jamoa yig'ilishidir.

**Yig'ilish** - bu yopiq imoratda yoki biror honada o'tkaziladigan, ma'lum yig'ilgan shahslarning majlisidir.

**Namoyish** - bu ijtimoiy siyosiy noroziliklarni ochiq ko'rinishi bo'lib, namoyishchilarning u yoki bu masalaga nisbatan oilaviy tarzda ochiq munosabatidir.

Fuqarolarning siyosiy huquqlari tizimiga kiradigan huquqlardan yana biri fuqarolarning kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqidir. Bu huquq Konstitusiyaning 34-moddasida uz aksini topgan.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan sung, ijtimoiy davlat kurilishidagi asosiy yutuqlaridan biri- fuqorolarning iqtisodiy va ijtimoiy sohadagi konstitusiyaviy huquqlaridir.

Fuqorolarning iqtisodiy va ijtimoiy sohasidagi huquqlari Konstitusiyaning IX - bobida kursatilgan bo'lib, ular: shahslarning mulkdor bo'lish huquqi (36-modda); mehnat qilish, erkin kasb tanlash huquqi: adolatli mehnat sharoitlarida ishlash, ishsizlikdan himoyalanih huquqi (37-modda); dam olish huquqi (38-modda); kariganida, mehnat layoqatini yo'qotganda ijtimoiy ta'minot olish huquqi (39-modda); malakali tibbiy hizmatdan foydalanish huquqi (40 modda); bilim-olish huquqi (41-modda); ilmiy va tehnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuklaridan foydalanish (42-modda); huquqlardan foydalanish o'z aksini topgan.

Bozor iqtisodiyoti asosida rivojlangan mamlakat tajribasi shuni ko'rsatadiki, faqatgina iqtisodiy jihatdan erkin fuqorogina haqiqiy mulk egasi bo'lib, u o'z mulkidan samarali foydalanishi va shu orkali mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir etishi mumkin.

O'zbekistonda utkazilayotgan iqtisodiyot islohatlarning asosiy vazifasi davlat mulkini hususiylashtirish orkali monopoliyaga chek qo'yish; ko'p ukladli iqtisodiyotni barpo etish, mulkni haqiqiy egasiga topshirish, mulkning barcha shakllari rivojlanishiga bir hil shart sharoit yaratib berishdan iborat. Bu vazifani bajarish birinchi navbatda, mulk husukukini amalga oshirish mehanizmning huquqiy asosini yaratish ayniksa, uning muhim elementi bo'lgan har kimning uz mulkiga erkin iegalik qilish tamoyilini mustahkamlash edi.

Bu vazifalarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "**Mulkchilik to'g'risida**"gi, "**Tadbirkorlik to'g'risida**"gi, "**Hususiylashtirish to'g'risida**"gi konunlarni qabul qildi.

SHahs o'zining mulkiy huquqlarini amalga oshirishda atrof-tabiiy muhitga va kishilar sog'ligiga zarar etkazmasligi kerak.

Davlat mulkdorning qo'lidagi mulkni o'zgalor tomonidan chegaralanishi taqiqlaydi.

Bank omonatining sir tutilishi iqtisodiy huquqlar sirasiga kiradi. Bank tomonidan omonot sirlarini saklashga oid munosabatlar O'zbekiston Respublikasining "**Bank va bank faoliyati to'g'risida**"gi qonunnibilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kedeksiga binoan meros qoldiruvchining o'lguniga qadar meros qoldirish huquqi saqlanib qoladi. Fuqarolar, ya'ni meros ochilishida shu uyda yashagan shahslar, farzandlar, qarindosh-urug'lar merosho'rlar hisoblanadi.

Meros ikki yo'l bilan: qonun va vasiyat qilish orqali qoldiriladi.

Vasiyatnoma meros qoldiruvchi tomonidan yozma shaklda amalga oshirilishi shart va bu davlat tomonidan sir tutilishini kafolatlaydi.

Fuqarolik kodeksi bo'yicha meroshurlarning bosh darajasi belgilangan bo'lib, meroshurlar qonun bo'yicha merosni teng miqdorda bo'lib oladilar:

1. Meros qoldiruvchining farzandlari, (farzandlikka olingan bolalari); shuningdek, meros qoldiruvchining o'limdan keyingi bolalari.

2. Karindoshlari, meros qoldiruvchining aka-ukalari va opa-singillari, buvisi va buvasi, ota tarafidan bo'lganidek ona tarafidagi qarindoshlari.

3. Meros qoldiruvchining tog'alari va amma-holalari.

4. Meros qoldiruvchining oltinchi avlodigacha bo'lgan uzoq qarindoshlar.

Respublikada qonun bo'yicha to'la erkin iqtisodiy faoliyat har bir inson uchun ta'minlanadi, muhit tanlash, o'z mehnatini sarflash erkinligi, har bir shahsning mehnat qilish huquqi, erkin ish joyini tanlash, adolatli mehnat shartnomalarida ishlash va ishsizlikdan himoyalaniş kabi shahslarning Konstitusiyaviy huquqlari O'zbekiston Respublikasining **"Aholining bandligi to'g'risida"gi, "Meñnat muhofazasi to'g'risida"gi** qonunlari va O'zbekiston Respublikasining Meñnat kodeksi bilan tartibga solinadi.

1992 yil 13 yanvarda **"Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi** O'zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi. 1993 yil 7 mayda esa o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

**"Ijtimoiy ta'minot"** deganda, - bu davlat tomonidan yaratib beriladigan, insonlarning hayotiy faoliyati uchun zarur bo'lgan ehtiyojni moddiy tomondan qondirish maqsadida moddiy va boshqa ijtimoiy himoya qilish tushuniladi. Bunga esa pensiya, nafaka va ijtimoiy nochor fuqarolarni pul va shunga o'hshash shakllardagi moddiy ta'minotlar bilan ta'minlash kiradi. Konstitusiyada ko'rsatilgan ijtimoiy tuzumlardan yana biri - har bir inson uchun malakali tibbiy xizmatan foydalanish muhimdir.

Respublika Konstitusiyasi har bir shahsga bilim olish huquqini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning 1997 yil 29 avgustdagi IX -sessiyasida O'zbekistonda ta'lim tuzilishi isloh qilish masalasi ko'rildi va "Ta'lim to'g'risi"da yangi qonun qabul qildi. SHu qonunning 4-moddasiga muvofiq bilim olish, shahsning kelib chiqishi, jinsi, tili, yoshi, irqi, qaysi millatga mansubligi, e'tiqodi, dinga munosabati, ijtimoiy ahvoli, yashash joyi, respublika hududida qanchadan beri yashayotganidan qa'tiy nazar, har kim uchun tengdir.

Respublikada ta'lim olayotgan shahslarni ijtimoiy himoyalash maqsadida ular belgilangan tartibda stipendiyaga, nafaqa, yotoqhona, tekin ovqat va boshqa imtiyozlar bilan ta'minlangan.

O'zbekiston Konstitusiyasining 42-modasi shahslarning ilmiy va teñnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqini birinchi marta konstitusiyaviy maqom darajasiga ko'tardi.

**Madaniyat deganda** inson tomonidan yaratilgan barcha boyliklar, yutuqlar yig'indisi tushuniladi. Madaniyat tarkibiy qismlarini fan, ta'lim va sa'nat tashkil qiladi.

Respublikada madaniyat muassasalari taraqqiyoti faoliyati tizimini boshqarish madaniyat ishlari vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Ilmiy-teñnika sohasi faoliyati bilan Fan va Tehnika davlat ko'mitasi (Fan va teñnologiyalar markazi) shug'ullanadi.

"Ma'naviyat targ'ibot" markazi, Milliy mafkura ilmiy-amaliy markazi, O'zbekistonning yangi tarihini o'rganish markazi va shu kabi boshqa tashkilotlar madaniy yutuqlarini asrash va uni keyingi avlodga etkazishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida Fan va Tehnikaning rivojlanish maqsadida iktidorli talabalarning chet ellarda o'qishlarin qo'llab-quvvatlovchi "Umid" (hozirda "Iste'dod") jamg'armasi, shuningdek "Kamolot" va "Ulug'bek" jamg'armalari tashkil etilgan.

O'zbekiston Respublikasida shahslarga nisbatan hurmat, ishonch bo'lishi, ularning tashbusini, ijodkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash bilan bir vaqtda, ulardan davlat va jamiyat oldidagi ma'lum bir burchlarini ham bajarish talab qilinadi.

Bular konstitusiiyaning **47-52 moddalarida** o'z ifodasini topgan.

Fuqarolarning imtiyozini mustahkamlash, davlat o'ratgan tartib va qoidalarga rioya qilish jamiyatimiz rivojini ta'minlash shartlardan biri hisoblanadi. SHuning uchun ham O'zbekiston Respublikasida o'rnatilgan konstitusiyaviy tuzum fuqarolarga keng huquq va erkinliklar berish, ularning amalga oshirishni kafolatlash bilan birga fuqarolar zimmasiga ma'lum burchlarni bajarishni yuklaydi. Bu konstitusiiyaning **47-moddasida**, - "**Barcha fuqarolar konstitusiyada belgilab kuyilgan burchlarni bajaradilar**", - deb mustahkamlab qo'yilgan.

Konstitusiyaga binoan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat bir biriga nisbatan bo'lgan huquqlari va burchlari uzviyligi prinsipi bilan bog'liqdir. Bu prinsipning amalga oshirilishi O'zbekiston fuqarolarining o'z burchlarini tushungan holda ixtiyoriy bajarganliklarida namoyon bo'ladi. Demak, huquq bor joyda burch ham bor. CHunki fuqaro o'ziga berilgan huquq va erkinlik bilan bir qatorda yuklatilgan ma'suliyatni ham sezishi lozim.

SHunday ekan, fuqarolarning o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishlari boshqa fuqarolarning hamda davlat va jamiyatning qonuniy mafaatlarga zid bo'lmasligi kerak.

Har bir fuqaroning qonunda belgilangan huquqlarini bajarmasligi muayan oqibatlarni keltirib chikarishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining burchlarini konstitusiiya normalarida o'z aksini topib, ma'lum tizimni tashkil qiladi. Bu tizimga: Konstitusiiya va Qonunlarga rioya etish, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni, qadr-qimmatini hurmat qilish (**48-modda**); O'zbekiston halqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosni avaylab asrash (**49-modda**); atrofdagi tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish (**50-modda**); qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'implarni to'lash (**51-modda**); O'zbekiston Respublikasini himoya qilish, qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tash (**52-modda**); ota-onalarning o'z farzandlarini voyaga etgunlariga qadar boqish va tarbiyalash (**64-modda**); voyaga etgan, layoqatli farzandlarning o'z ota-onalari haqida g'amho'rlik qilish (**66-modda**) kiradi. Bu normalarni to'g'ri amalga oshirilishi respublikada osoishtalikni, bozor iqtisodiyotiga tinch o'tishni, demokratik prinsiplar, fuqarolarning huquq va erkinliklarini to'la amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Konstitusiiyaning **48-moddasi** O'zbekiston fuqarolari zimmasiga Konstitusiyaviy va amaldagi qonunlarga rioya qilish, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish va o'ziga tegishli burchlarni bajarish orqali kirishadigan huquqiy munosabatlarda, ya'ni fuqarolik uy-joy, oila-nikoh va boshqa munosabatlarda nomayon bo'ladi, shu bilan birga respublika fuqarosi degan yuksak nomga munosib bo'lish majburiyatini yuklaydi. O'zbekiston halqining tarixiy, madaniy va ma'naviy boyligini, madaniy yodgorliklarni ehtiyot qilish va saqlash har bir fuqaroning burchidir.

Arhitektura yodgorliklari, tarixiy-madaniy hudud va ob'ektlar, badiiy va musiqiy asarlar, halq og'zaki ijodiyoti O'zbekiston halqining o'zligini anglashiga xizmat qiladi hamda dunyo madaniyati taraqqiyotiga qo'shgan katta hissasini bildiradi. Qadimdan qolgan yodgorliklarini nafaqat saqlash, balki kelajak avlodga etkazib, yangilarini yaratish bu bizning ya'ni barchamizning burchimizdir.

O'zbekiston fuqarolarining o'z halqi tarixiga nisbatan hurmatda bo'lishi, uni avaylab asrashga majburligi to'g'risidagi qoidaning Konstitusiyaga kiritilishi muhim ijtimoiy-ma'naviy ahamiyatga egadir. Tarixga to'g'ri baho bermasdan turib, bugunimiz va kelajagimiz haqida uylash mumkin emasligi hammaga ayon hakikatdir.

Konstitusiiyaning **50-moddasida**, - «**Fuqarolar atrof tabiyati muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishiga majburlar**» - deb ko'rsatilgan bo'lib, bu qoida va boshqa qonunlarda qayd etilgan bunday huquqiy me'yor fuqarolarda atrof tabiiy muhitga bo'lgan munosabatni tubdan o'zgarishiga qaratilgan bo'lib, u yashash muhiti, tabiat va ma'naviyat ekologiyasini bir-biri bilan bog'liqligiga asoslangandir.

Fuqarolarning bu majburiyati **1992 yil 9 dekabrda** qabul qilingan va **1995 yil 6 mayda** qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilgan O'zbekiston Respublikasining «**Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida**» gi qonunida belgilangan bo'lib, bu qonunning mazmunini O'zbekiston

Respublikasi fuqorolarning tabiat resurslaridan oqilona va tejamkorlik bilan foydalanishlarini tashkil etadi.

Tabiatni muhofaza qilish bilan bog'liq bo'lgan konstitusiyaviy majburiyatlarni bajarmagan shahslarni **mulkiy, ma'muriy** va hattoki **jinoiy** javobgarlikka tortish ham belgilangan.

Hammaga ma'lumki, soliqlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va davlat hokimiyatining mahalliy organlar tomonidan belgilanib hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Amaldagi qonunlarga ko'ra, soliq yuridik shahslar va fuqorolarning davlatga to'laydigan majburiy to'lovidir. Bu Konstitusiyaning **«Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'implarni to'lashga majburdirlar»**, -deb mustahkamlanib, o'z ifodasini topgan.

Bu qoida **1991 yil 15 fevralda** qabul qilingan **«O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan va horijiy fuqarolardan olinadigan daromad solig'i to'g'risida»** dagi, **1993 yil 7 mayda** qabul qilingan **«Mahallada qonuniy soliq va yig'implar to'g'risida»**gi qonun hamda boshqa qonuniy hujjatlar va aktlar orqali tartibga solinadi.

Soliq to'lashdan bosh tortgan shahslar tegishli ma'muriy va jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

Solik va yig'implarni undirish qator davlat idoralari tomonidan amalga oshiriladi. Bularga O'zbekiston Solik Qo'mitasi, Moliya vazirligi, o'z-o'zini boshqaruvchi idoralar kiradi.

O'zbekiston Respublikasining daromad solig'i to'g'risidagi qonunda belgilanishicha, yuqorida qayd qilinganidek undirilgan soliqlar va tulovlar fuqorolarning ehtiyojlari uchun halq ta'limiga, sog'likni saqlashga, moddiy yordam hamda ijtimoiy yordamning boshqa turlariga sarf qilinadi. Bulardan tashkari amaldagi soliq tizimi nogironlarni, bolalarni, talabalarni, ko'p farzandlilarni va fuqorolarning boshqa toifalarini ijtimoiy himoyalash uchun qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasida fuqorolarning vatanni himoya qilish burchi to'g'risida bir qancha farmon va huquqiy aktlar qabul qilingan.

Vatanni himoya qilish – har bir fuqaroning burchidir.

O'zbekiston Konstitusiyasining **52- moddasida** O'zbekiston Respublikasini himoya qilish - uning har bir fuqarosining burchi ekanligi mustahkamlangan.

O'zbekiston Respublikasini **«Mudofaa to'g'risida»** dagi **1992 yil 3 iyul** qonunida Vatanning hududiy yahlitligini, mustaqilligini himoya qilish, Respublika fuqorolarining Konstitusiyaviy burcha ekanligi ifodalangan. Bundan tashkari usha vaqtda qabul qilingan **«Umumiy harbiy majburiyat va xizmat to'g'risida»**gi qonunning maqsadi O'zbekiston fuqorolarining o'z mamlakatini qurolli himoya qilish uchun majburiy harbiy tayyorgarlikdan o'tishlaridan hamda Respublika Kurolli kuchlarini butlash va zahira tayyorlashni ta'minlashdan iborat ekanligi ko'rsatilgan.

Qonunga ko'ra, tinchlik vaqtida salomatligi harbiy xizmatga yaroqli bo'lgan va chaqiruv kuniga, 18 yoshga to'lgan O'zbekiston fuqarosi bo'lgan yigitlar muddatli harbiy xizmatga chaqiriladilar.

Yana bir narsaga e'tibor berish lozimki, harbiy xizmatga nafaqat yigitlarimiz, balki O'zbekiston hotin-qizlari ham ihtiyoriy ravishda harbiy xizmatga kirishlari mumkin.

Qonunga ko'rsatilgan vazifalarni Respublikaning Mudofa Vazirligi amalga oshiradi. SHunday qilib O'zbekistonning har bir fuqarosi Kurolli Kuchlar safida harbiy xizmat qilishi o'zining fahriy va muqaddas burchi ekanligini, unga hiyonat qilish esa eng og'ir jinoyat ekanligini hamisha e'tiborda tutishlari lozimdir.

Inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlash deganda, shahslarning konstitusiyada ko'rsatilgan huquqlari va erkinliklarini amalga oshirish uchun zarur sharoitlar yaratish hamda har bir insonning bu huquqlarini huquqiy amalga oshirish tushuniladi.

Kafolatlash qonunda ko'rsatilgan, mumkin bo'lgan imkoniyatlari holda amalga oshiriladi.

**Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari ikki ko'rinishga ega.**

1. davlatning o'z ichki kafolatlari;
2. halqaro huquqiy kafolatlari;

Bunda inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlash borasida Oliy majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili ya'ni Ombudsman faoliyati alohida o'ringa ega. Inson huquq va erkinliklarining kafolatlanishi, shuningdek malakali yuridik xizmat va professional himoyachi, ya'ni advokat xizmatidan foydalanish huquqi va imkoniyatlarining mavjudligidir.

Inson huquqlarining halqaro huquqiy kafolatlari halqaro ommaviy huquq tomonidan o'rnatilgan.

Fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini kafolatlash ko'rsatilgan huquq va erkinliklarga faqat egalik qilish bilangina cheklanmasdan, uladan foydalanish va ularning buzilishida muhofaza qilishdan ham iboratdir.

Kafolatlanishning mohiyati - bu davlat va uning organlarining fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini amalga oshirish uchun doimiy ravishda zarur vositalar bilan ta'minlashdan ifodalangan burchida nomoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi insonlarga ma'lum huquq va erkinliklar berish bilan birga ularni amalga oshirish uchun kerakli iqtisodiy, siyosiy, mavkuraviy va huquqiy kafolatlar bilan ham ta'minlanadi.

**Iqtisodiy** sohadagi kafolatlar O'zbekiston Konstitusiyasi va qonunlarda kursatilgan va iqtisodiyotning negizini tashkil etuvchi mulk shakllarining hilma-hilligidir. Ularda mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan babbarovar muhofaza etilishi kafolatlangan.

Inson **siyosiy** huquqlari va erkinliklarining kafolatlanganligi O'zbekistonda hokimiyatning halqqa tegishliligi, halq davlat hokimiyatining birdan bir manbai ekanligi; davlat hokimiyati tizimi hokimiyatning qonun chikaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatga bo'linishi prinsipiiga asoslanganligi.

O'zbekistonda ijtimoiy hayotning siyosiy institutlari, **mafkura va fikrlarning** hilma-hilligi asosida rivojlanishi, hech qaysi mavkura davlat mavkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emasdir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 43, 44, 45, 46-moddalari aynan inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlariga bag'ishlangandir.

**"Davlat fuqarolarining Konstitusiiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi,"**- deb mustahkamlab qo'yilgan.

Ushbu modda konstitusiyaviy prinsiplarning asosiy, uzagi, harkteri ifodalangan bo'lib, bunda inson manfaatlariga xizmat qilish, erkinlik kafolati, davlatning ijtimoiy maqsadi va asl g'oyasi aks etgan.

Davlatimiz mustaqillikka erishgach, respublikamizda umuminsoniy qadriyatlarni tiklash demokratik jamiyat qurish yo'lidan borishda inson erkinligiga, jamiyat va davlatning birligida insonning tutgan o'rmini baholashga katta ahamiyat berildi.

Demokratik davlatda jamiyat a'zolari huquq va erkinliklarining kafolatlari doimiy harakatdagi mehanizm singari bulmogi lozim. Konstitusiiyaning mazmuniga esa, davlat fuqarolarining huquq va erkinliklarini ta'minlashga, jamiyat uchun xizmat qilishga butun kuchini safarbar etishi lozimligi haqida g'oyalar sigdirilgan.

Fuqarolarning konstitusiyaviy huquq va erkinliklarining huquqiy kafolatlari juda ko'p va turlichadir.

Kafolat tizimida fuqarolarning uz huquq va erkinliklarini sud orkali himoya qilish davlatning muhim hususiyatlaridan biridir. Bu kafolatlar konstitusiiyaning **44-moddasida** mustahkamlab kuyilgandir. YA'ni: **"Har bir shahsga o'z huquq va erkinliklarini sud orkali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shahslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy hatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi"**.

O'zbekiston Respublikasida hokimiyatning bulinishi tamoyili amal qilib, sudlarning qonunchilik ya'ni vakillik va ijroya hokimiyatidan mustaqilligi joriy qilingach, ularning fuqarolarining huquq va erkinliklarini ta'minlashdagi vazifasi kuchaydi.

**"Sudlar to'g'risida"**gi qonunning **4-moddasida** sudlarning vazifasiga Respublika Konstitusiyasi va boshqa qonunlarda hamda inson huquqlari to'g'risidagi halqaro hujjatlarda

e'lon qilingan fuqarolarning huquq va erkinliklariga rioya etilishini kafolatlash ham kiradi, deb ko'rsatib o'tilgan.

Fuqarolarning o'z huquq va erkinliklarini ta'minlash maqsadida sudga shikoyat qilish tartiblarini o'rnatilishi huquq va erkinliklarning eng muhim kafolatidir. Tegishli konstitusiyaviy normaga asosan fuqarolar uzlarining huquq va erkinliklari buzilgan deb hisoblasalar, davlat idoralari, mansabdor shahslar, jamoat birlashmalarining gayriqonuniy hatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilib uz huquqlarini himoya qilishlari mumkin.

O'zbekistonda aholining **ijtimoiy** himoya qilishning mukammal dasturi ishlab chiqilgan. Bunda respublika aholisining eng muhtoj qatlamlariga katta e'tibor berilmokda. Bu aynan konstitusiyaning **45-moddasida** o'z ifodasini topgan. Davlat uz manfaatlaridan kelib chiqqan holda, aholining ana shu qatlamlarini mahsus himoya qiladi.

#### **45-modda. Voyaga etmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg'iz keksalarning huquqlari davlat himoyasidadir.**

Bu moddaning maqsadi mamlakatimizdagi ayrim kishilarning manfaatlarini qo'shimcha tarzda himoya qilishdir va ularning marokli hayot kechirishlarini ta'minlashdir. CHunki ular shunday kushimcha himoyaga muhtojdir.

O'zbekiston Respublikasining **46-moddasida** hotin kizlarning erkaklar bilan teng huquqliligi mustahkamlangan.

Ayollar va erkaklarning teng huquqliligini ta'minlash uchun davlat keng miqiyosda qo'shimcha tadbirlarni amalga oshirmokda.

Davlat ayollarga bilim olish, kasb egallash, mehnat qilish, unga hak olish, siyosiy hayotda faol ishtirok etish uchun erkaklar bilan teng imkoniyatlar yaratish bilan birga, ayollarning oiladagi o'rni, jismoniy imkoniyatlarini hisobga olib, ularga mehnat qilishda, sog'ligini mustahkamlashda, yahshi sharoitlar va imtiyozlar yaratib berishi zarurdir. CHunki teng imkoniyat va qo'shimcha sharoit, imtiyozlar o'rnatish bilangina ayollarning teng huquqliligi taminlanadi.

Demak, O'zbekiston fuqarolari jinsidan qa'tiy nazar ijtimoiy va siyosiy hayotda teng ishtirok etish huquqiga egadirlar.

#### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yhati**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, Toshkent "O'zbekiston". 2014 yil.
2. Karimov I.A. "Mamlakatimizni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish ustuvor maqsadimizdir"/Prezident I.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi // T.: "O'zbekiston". 2010 B-14.
3. Karimov I. A. [«Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsiepsiyasi»](#) mavzuida 2010 yil 12 noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlis ma'ruza.
4. Karimov I.A. Ona yurtimiz bahtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida hizmat qilish – eng oliy saodatdir. –T. O'zbekiston. 2015.
5. O'zbekiston Respublikasining kodekslari. T., "Adolat", 2010 yil.
6. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga sharhlar. -T.: "O'zbekiston", 2010.- 496
7. Boboev H.B. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasini o'rganish. –T.: Adolat, 2002.
8. Kayumov R.K. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyaviy huquqi. -T.: Adolat, 1998.
9. Saidov A.H. Mustaqillik qomusi. –T.: O'zbekiston, 1993.
10. Saidov A.H. Qiyosiy konstitusiyashunoslik. -T.: 1995.
11. Saidov A.H. Jahon konstitusiyaviy amaliyoti va O'zbekiston Respublikasining asosiy qonuni. -T.: 1992.
12. Tansiqbaev G.M, Muhammedjanov O.Z. Konstitusiy va biz. -T.: Adolat, 1998.
13. Tojihonov U., Odilqoriev H., Saidov A.X. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyaviy huquqi. 2001.

14. Tojihonov U., H.Odilqoriev, A.Saidov. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyaviy huquqi. –T, 2001.
15. Tojihonov U., Saidov A.H. Huquqiy madaniyat nazariyasi. Darslik 2-jildli. -T.: O'zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi, 1998.

**8-mavzu: O'zbekistonda jamiyat va shahs munosabatlarining Konstitusiyaviy asoslari. Davlat tuzilishi va ma'muriy-hududiy bo'linishi. Saylov tizimi tushunchasi. Oliy Majlis - O'zbekiston Respublikasining vakillik organi va qonun chiqaruvchi hokimiyat**  
**Ma'ruza – 2 soat**

**Reja**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyaviy tuzumning iqtisodiy negizlari. Mulk tushunchasi. O'zbekiston Respublikasida moliya, pul kredit tizimi, davlat byudjeti, soliq va bank tizimi.
2. Fuqarolik jamiyatining konstitusiyaviy asoslari. Jamoat birlashmalari tushunchasi, tashkil etilish tamoyillari va tizimi.
3. O'zbekiston Respublikasining milliy-davlat va ma'muriy - hududiy tuzilishi, uning konstitusiyaviy asoslari. Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitusiyaviy maqomi.
4. Saylov huquqi, saylov tamoyillari va tizimi. Qonun chiqaruvchi hokimiyat tushunchasi va uni tashkil qilish tartibi.
5. Oliy Majlis –qonun chiqaruvchi oliy hokimiyat organi. Oliy Majlisda qonunlar qabul qilish tartibi.

**1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyaviy tuzumning iqtisodiy negizlari. Mulk tushunchasi. O'zbekiston Respublikasida moliya, pul kredit tizimi, davlat byudjeti, soliq va bank tizimi.**

**Jamiyatning iqtisodiy negizlari** deganda, jamiyatdagi mavjud iqtisodiy hayot, ishlab chiqarish vositalariga nisbatan mulkchilik shakllari, ijtimoiy yo'nalishiga qaratilgan ishlab chiqarish maqsadi, jamiyatda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning adolat prinsipi asosida taqsimlanish, ho'jalikni boshqarishda bozor iqtisodiyoti prinsiplariga asoslanganlik tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini dastlabki yillaridayoq jamiyat taraqqiyoti uchun muhim sanalgan iqtisodiy ijtimoiy sohalarda muhim o'zgarishlar va yangiliklarni nazariy asoslab hayotga tadbiiq eta boshladi. «**Jamiyatning iqtisodiy negizlari**» deb nomlangan **XII bobda** Respublikamiz hayotining iqtisodiy asoslarini, ya'ni mulkchilik shakllari, ho'jalik yuritish va tadbirkorlik faoliyatining kafolatlari belgilanib, hozirgi paytda bozor munosabatlarini rivojlantirish amalga oshirilayotgan islohatlarini chuqurlashtirishda ahamiyati beqiyosdir.

Konstitusiyaviy tuzumning iqtisodiy negizlarining ahamiyatli yo'nalishlaridan biriga bag'ishlangan halqaro forumda **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov "O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda kichik biznes va hususiy tadbirkorlikning roli va ahamiyati" mavzusida o'tkazilgan halqaro konferensiyada "Barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim omili" nomli nutqini so'z**ladi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning bosh maqsadi – kuchli, raqobatbardosh milliy iqtisodiyotni yaratish va shuning hisobidan aholi farovonligini muntazam oshirib borishdir. SHu sababli davlatimiz rahbari zamonaviy bozor mehanizmlarini, ularning samaradorligini ta'minlash va shu asosda mamlakatimizda barqaror bozor iqtisodiyotini shakllantirishning muhim shartiga aylangan kichik biznes va hususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda.

**Halqaro forumdagi nutqda Islom Karimov quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratib o'tdi.**

**Kichik biznes va hususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirishni ustuvor yo'nalish sifatida belgilash nima bilan, qanday omil va sabablar bilan bog'liq ekanligi quyidagilardan iborat ekanligiga to'htaldi:**

**Birinchi**dan, jahon tajribasi ko'rsatadiki, iqtisodiyotning muhim tarkibini tashkil qiluvchi tarmoq bo'lgan kichik biznes ichki bozorni zarur tovar va xizmatlar bilan to'ldirishning asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi. ...

Agar 2005-2011 yillarda mamlakatimiz iqtisodiyotida 5 milliondan ortiq yangi ish o'rnini tashkil etilgan bo'lsa, ularning 60 foizdan ortig'ini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hissasiga to'g'ri keladi. Buning natijasida hozirgi vaqtda mamlakatimizda ish bilan band bo'lgan jami aholining 75 foizdan ko'prog'ini ushbu sohada mehnat qilmoqda.

**Ikkinchi**dan, tuzilishiga ko'ra ixtisam, qarorlar qabul qilishda tezkor va harakatchan, yangi tartib-qoidalarni qisqa muddatda o'zlashtiradigan kichik biznes jahon va mintaqalar bozorlaridagi talab va kon'yuktura o'zgarishlariga ancha tez moslashadi.

**Uchinchi**dan, kichik biznesni tashkil qilish va yuritish katta harajat hamda kapital qo'yilmalarni talab etmaydi. Bu esa ishlab chiqarishni tez va oson modernizatsiya qilish, texnik hamda texnologik qayta jihozlash, yangi turdagi mahsulotlarni o'zlashtirish, ularning nomenklaturasini muntazam yangilab borish va raqobatbardoshligini ta'minlash imkonini beradi.

**To'rtinchi**dan, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozning tahdid va salbiy oqibatlariga yirik korxonalariga nisbatan ushbu sohaning bardosh bera olish qobiliyati ancha yuqoridir.

Faqat kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish hamda ushbu sohaning mamlakatimiz iqtisodiyotida ustuvor mavqega ega bo'lishi natijasida biz 2008-2009 yillarda global inqirozning salbiy oqibatlarini ortiqcha qiyinchilik va talofatlarsiz engib o'tish, ishlab chiqarishni jahon bozori kon'yukturasi o'zgarishlarini hisobga olgan holda qisqa muddatlarda qayta tashkil etishga muvaffaq bo'ldik.

Sanoatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tarmog'ining o'sish sur'atlari 2008-2009 yillarda o'rtacha 23-24 foizni, xizmatlar va servis sohasini o'sish sur'atlari esa 15-16 foizdan kam bo'lmagan ko'rsatkichni tashkil etdi.

**Beshinchi**dan, kichik tadbirkorlik nafaqat daromad manbai, balki odamlarning ijodiy va intellektual qobiliyatini ro'yobga chiqarish vositasi hamdir. Mazkur soha har bir kishiga o'z iste'dodi va imkoniyatlarini namoyon etish uchun zamin tug'dirmoqda, shu tariqa tashabbuskor, omilkor, mustaqil faoliyat yurita oladigan, o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishga qodir insonlar toifasini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik o'rta sinfni shakllantirish uchun muntazam kengayib borayotgan baza bo'lib xizmat qilmoqda. O'rta sinf esa, ma'lumki, har qanday demokratik jamiyatning asosi bo'lib hisoblanadi.

Bugungi kunda aynan shu sohani rivojlantirish hisobidan jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy barqarorlikdan manfaatdor bo'lgan, mamlakatimizni taraqqiyot va demokratik islohotlar yo'lidan rivojlantirishda faol kuch bo'lib maydonga chiqayotgan ijtimoiy qatlam shakllanmoqda. ...

SHuni aytishning o'zi kifoyaki, 20 yil avval O'zbekistonda xususiy tadbirkorlik deyarli yo'q edi, bugun esa mavjud barcha ho'jalik sub'ektlarining 90 foizdan ortig'ini kichik biznes korxonalari tashkil etadi. Hozirgi kunda yalpi ichki mahsulotning 54 foizi, ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining 22 foizi va qishloq ho'jalik mahsulotlarining 98 foizi aynan shu soha hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Islom Karimov, yana bir muhim masala, ya'ni O'zbekistonda tadbirkorlik va kichik biznes sohasi aynan qanday prinsiplar asosida, qanday zaminda rivojlanayotgani haqida qisqacha to'htalib o'tdi.**

-mustahkam qonunchilik va huquqiy baza shakllantirilgani;  
-biznes uchun imtiyoz; ishlab chiqarishni texnik va texnologik qayta jihozlash;  
-modernizatsiya qilish masalalarida davlat tomonidan tizimli ravishda yordam ko'rsatilayotgani;

-90-yillar boshidanoq konstitutsiyaviy norma va tamoyillar asosida qabul qilingan "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida", "Mulkchilik to'g'risida"gi qonunlar va boshqalar....;

-2000 yilda qabul qilingan “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to’g’risida”gi qonun ahamiyati va boshqalar.

Faqat 2005-2012 yilgacha bo’lgan davrda mikrofirm va kichik korxonalar uchun aylanma mablag’lardan olinadigan yagona soliq to’lov stavkasi 2,5 barobar kamaytirilib, 13 foizdan 5 foizga tushirildi.

Faqat 2011 yilning o’zida kichik biznes va hususiy tadbirkorlik sub’ektlariga berilgan soliq imtiyozlarining umumiy miqdori 500 million dollardan oshdi. Korxonalar ushbu mablag’ning 35 foizini ishlab chiqarishni kengaytirishga va modernizatsiya qilishga, 25 foizini ishchilarni rag’batlantirishga yo’naltirildi.

“Navoiy” erkin industrial zonasiga (davlat tomonidan - 100 million dollar), “Angren” industrial zonasi (60 million dastur va uni amalga oshirish uchun) sarflandi.

**Hususiy tadbirkorlikni shakllantirish va kengaytirishni rag’batlantirishda optimallashtirish va imtiyozli kreditlash masalalari hal qiluvchi omil bo’lmoqda.**

Faqat 2011 yil yakunlariga ko’ra, tarmoqni rivojlantirish va rag’batlantirishga mamlakatimiz banklari 2,5 milliard dollarga teng qiymatdagi kreditlar ajratildi.

Turli davlat va tashkilotlar, banklar tomonidan (Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki, Halqaro moliya korporatsiyasi, Islom taraqqiyot banki, BMT tuzilmalari, Arab muvofiqlashtirish guruhi mamlakatlari, Janubiy Koreya, Hitoy, Germaniya va boshqalar 1,5 milliard dollardan ortiq kredit resurslari ajratildi.

**Islom Karimov, yana bir qator muhim masalalar bo’vicha quyidagilarni:**

- YUksak bilimli, zamonaviy fikrlaydigan, intellektual rivojlangan va professional tayyorgarlikka ega bo’lgan yoshlarga sifatli, jadal va innovatsion taraqqiyotning eng muhim sharti va garovi bo’la olishi, aynan ular mamlakatning buyuk kelajagini ta’minlashi mumkinligiga kimnidir ishonirish yoki buni isbotlab berishning hojati yo’q ekanligi;

- Tadbirkorlik erkinligining kuchli huquqiy kafolatlarini ta’minlash;

- davlat, huquq-tartibot, nazorat organlari va tuzilmalari tomonidan ularning faoliyatiga noqonuniy aralashuvlarga chek qo’yish;

- davlat organlarining noqonuniy qarorlari, mansabdor shahslarning hatti-harakati yoki harakatsizligi, shuningdek, qonunchilikka zid tarzda qabul qilingan idoraviy hujjat tufayli tadbirkorlik sub’ektiga etkazilgan zarar davlat tomonidan qoplanadi.

Bugun biz o’z mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlab tanlab olgan mamlakatni isloh etish va modernizatsiya qilish, tadrijiy rivojlanish yo’li va mashhur besh tamoyil asosida barpo etiladigan fuqarolik jamiyatini shakllantirish modeli tarihan qisqa vaqt muddatda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning mustahkam poydevorini yaratishni ta’minladi, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlariga ishonchli ravishda qarshi turish, dunyodagi sanoqli mamlakatlar qatorida iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning yuksak barqaror sur’atlariga erishish imkoni berdi, deb aytish uchun barcha asoslarimiz bor.

So’nggi 6 yil davomida mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot yiliga 8,2 foizdan kam bo’lmagan sur’atlar bilan o’sib bormoqda. YAlpi ichki mahsulot, 2000 yil bilan solishtirganda, 2,9 barobar, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 2,6 barobar oshdi, iqtisodiyotga jalb qilingan investitsiyalar hajmi 3,4 barobar, jumladan, to’g’ridan-to’g’ri horijiy investitsiyalar miqdori 20 barabardan ko’proq o’sdi.

Osiyo taraqqiyot banki ma’lumotlariga ko’ra, O’zbekistonda aholi jon boshiga to’g’ri keladigan daromad so’nggi 7 yil davomida 3 barobar ko’paygan, deb ta’kidlab o’tdi.

## **2. O’zbekiston Respublikasida moliya, pul kredit tizimi, davlat byudjeti, soliq va bank tizimi**

Bozor iqtisodiyoti asosida rivojlangan mamlakat tajribasi shuni ko’rsatadiki, faqatgina iqtisodiy jihatdan erkin fuqorogina haqiqiy mulk egasi bo’lib, u o’z mulkidan samarali foydalanishi va shu orqali mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta’sir etishi mumkin.

O'zbekistonda o'tkazilayotgan iqtisodiyot islohatlarning asosiy vazifasi davlat mulkini hususiy lashtirish orqali monopoliyaga chek qo'yish; ko'p ukladli iqtisodiyotni barpo etish, mulkni haqiqiy egasiga topshirish, mulkning barcha shakllari rivojlanishiga bir hil shart sharoit yaratib berishdan iborat. Bu vazifani bajarish birinchi navbatda, mulk huquqini amalga oshirish mehanizmning huquqiy asosini yaratish ayniqsa, uning muhim elementi bo'lgan har kimning o'z mulkiga erkin egalik qilish tamoyilini mustahkamlash edi.

**Konstitusiiyaning XXV bobi "Moliya va kredit" masalalariga bag'ishlangan.**

**122-modda.** O'zbekiston Respublikasi o'z moliya va pul-kredit tizimiga ega.

O'zbekistonning Davlat byudjeti Respublika byudjetidan, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetidan va mahalliy byudjetlardan iborat.

**123-modda.** O'zbekiston Respublikasi hududida yagona soliq tizimi amal qiladi. Soliqlar joriy qilishga faqat O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi haqli.

**124-modda.** O'zbekiston Respublikasining bank tizimini respublika Markaziy banki boshqaradi.

Bu vazifalarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "**Mulkchilik to'g'risida**"gi, "**Tadbirkorlik to'g'risida**"gi, "**Hususiy lashtirish to'g'risida**"gi konunlarni qabul qiladi.

SHahs o'zining mulkiy huquqlarini amalga oshirishda atrof-tabiiy muhitga va kishilar sog'ligiga zarar etkazmasligi kerak.

Davlat mulkdorning qo'lidagi mulkni o'zgaralar tomonidan chegaralanishi taqiqlaydi.

Bank omonatining sir tutilishi iqtisodiy huquqlar sirasiga kiradi. Bank tomonidan omonot sirlarini saqlashga oid munosabatlar O'zbekiston Respublikasining "**Bank va bank faoliyati to'g'risida**"gi qonuni bilan tartibga solinadi.

**Jamiyatning iqtisodiy negizlari** deganda, jamiyatdagi mavjud iqtisodiy hayot, ishlab chiqarish vositalariga nisbatan mulkchilik shakllari, ijtimoiy yo'nalishiga qaratilgan ishlab chiqarish maqsadi, jamiyatda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning adolat prinsipi asosida taqsimlanish, ho'jalikni boshqarishda bozor iqtisodiyoti prinsiplariga asoslanganlik tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini dastlabki yillaridayoq jamiyat taraqqiyoti uchun muhim sanalgan iqtisodiy ijtimoiy sohalarda muhim o'zgarishlar va yangiliklarni nazariy asoslab hayotga tadbiiq eta boshladi. **«Jamiyatning iqtisodiy negizlari» deb nomlangan XII bobda** Respublikamiz hayotining iqtisodiy asoslarini, ya'ni mulkchilik shakllari, ho'jalik yuritish va tadbirkorlik faoliyatining kafolatlari belgilanib, hozirgi paytda bozor munosabatlarini rivojlantirish amalga oshirilayotgan islohatlarini chuqurlashtirishda ahamiyati beqiyosdir.

Konstitusiiyaviy tuzumning iqtisodiy negizlarining ahamiyatli yo'nalishlaridan biriga bag'ishlangan halqaro forumda **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov "O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda kichik biznes va hususiy tadbirkorlikning roli va ahamiyati" mavzusida o'tkazilgan halqaro konferensiiyada "Barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim omili" nomli nutqini so'z'ladi.**

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning bosh maqsadi – kuchli, raqobatbardosh milliy iqtisodiyotni yaratish va shuning hisobidan aholi farovonligini muntazam oshirib borishdir. SHu sababli davlatimiz rahbari zamonaviy bozor mehanizmlarini, ularning samaradorligini ta'minlash va shu asosda mamlakatimizda barqaror bozor iqtisodiyotini shakllantirishning muhim shartiga aylangan kichik biznes va hususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda.

**Halqaro forumdagi nutqda Islom Karimov quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratib o'tdi.**

**Kichik biznes va hususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirishni ustuvor yo'nalish sifatida belgilash nima bilan, qanday omil va sabablar bilan bog'liq ekanligi quyidagilardan iborat ekanligiga to'htaldi:**

**Birinchidan,** jahon tajribasi ko'rsatadiki, iqtisodiyotning muhim tarkibini tashkil qiluvchi tarmoq bo'lgan kichik biznes ichki bozorni zarur tovar va hizmatlar bilan to'ldirishning asosiy manbai bo'lib hizmat qiladi. ...

Agar 2005-2011 yillarda mamlakatimiz iqtisodiyotida 5 milliondan ortiq yangi ish o'ri tashkil etilgan bo'lsa, ularning 60 foizdan ortig'i kichik biznes va hususiy tadbirkorlik hissasiga to'g'ri keladi. Buning natijasida hozirgi vaqtda mamlakatimizda ish bilan band bo'lgan jami aholining 75 foizdan ko'prog'i ushbu sohada mehnat qilmoqda.

**Ikkinchidan**, tuzilishiga ko'ra ihsam, qarorlar qabul qilishda tezkor va harakatchan, yangi tartib-qoidalarni qisqa muddatda o'zlashtiradigan kichik biznes jahon va mintaqalar bozorlaridagi talab va kon'yuktura o'zgarishlariga ancha tez moslashadi.

**Uchinchidan**, kichik biznesni tashkil qilish va yuritish katta harajat hamda kapital qo'yilmalarni talab etmaydi. Bu esa ishlab chiqarishni tez va oson modernizatsiya qilish, texnik hamda texnologik qayta jihozlash, yangi turdagi mahsulotlarni o'zlashtirish, ularning nomenklaturasini muntazam yangilab borish va raqobatbardoshligini ta'minlash imkonini beradi.

**To'rtinchidan**, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozning tahdid va salbiy oqibatlariga yirik korhonalarga nisbatan ushbu sohaning bardosh bera olish qobiliyati ancha yuqoridir.

Faqat kichik biznes va hususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish hamda ushbu sohaning mamlakatimiz iqtisodiyotida ustuvor mavqega ega bo'lishi natijasida biz 2008-2009 yillarda global inqirozning salbiy oqibatlarini ortiqcha qiyinchilik va talofatlarsiz engib o'tish, ishlab chiqarishni jahon bozori kon'yukturasi o'zgarishlarini hisobga olgan holda qisqa muddatlarda qayta tashkil etishga muvaffaq bo'ldik.

Sanoatda kichik biznes va hususiy tadbirkorlik tarmog'ining o'sish sur'atlari 2008-2009 yillarda o'rtacha 23-24 foizni, xizmatlar va servis sohasini o'sish sur'atlari esa 15-16 foizdan kam bo'lmagan ko'rsatkichni tashkil etdi.

**Beshinchidan**, kichik tadbirkorlik nafaqat daromad manbai, balki odamlarning ijodiy va intellektual qobiliyatini ro'yobga chiqarish vositasi hamdir. Mazkur soha har bir kishiga o'z iste'dodi va imkoniyatlarini namoyon etish uchun zamin tug'dirmoqda, shu tariqa tashabbuskor, omilkor, mustaqil faoliyat yurita oladigan, o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishga qodir insonlar toifasini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, kichik biznes va hususiy tadbirkorlik o'rta sinfni shakllantirish uchun muntazam kengayib borayotgan baza bo'lib xizmat qilmoqda. O'rta sinf esa, ma'lumki, har qanday demokratik jamiyatning asosi bo'lib hisoblanadi.

Bugungi kunda aynan shu sohani rivojlantirish hisobidan jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy barqarorlikdan manfaatdor bo'lgan, mamlakatimizni taraqqiyot va demokratik islohotlar yo'lidan rivojlantirishda faol kuch bo'lib maydonga chiqayotgan ijtimoiy qatlam shakllanmoqda. ...

SHuni aytishning o'zi kifoyaki, 20 yil avval O'zbekistonda hususiy tadbirkorlik deyarli yo'q edi, bugun esa mavjud barcha ho'jalik sub'ektlarining 90 foizdan ortig'ini kichik biznes korhonalari tashkil etadi. Hozirgi kunda yalpi ichki mahsulotning 54 foizi, ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining 22 foizi va qishloq ho'jalik mahsulotlarining 98 foizi aynan shu soha hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Islom Karimov, yana bir muhim masala, ya'ni O'zbekistonda tadbirkorlik va kichik biznes sohasi aynan qanday prinsiplar asosida, qanday zaminda rivojlanayotgani haqida qisqacha to'htalib o'tdi.**

-mustahkam qonunchilik va huquqiy baza shakllantirilgani;  
-biznes uchun imtiyoz; ishlab chiqarishni texnik va texnologik qayta jihozlash;  
-modernizatsiya qilish masalalarida davlat tomonidan tizimli ravishda yordam ko'rsatilayotgani;

-90-yillar boshidanoq konstitusiyaviy norma va tamoyillar asosida qabul qilingan "Davlat tasarrufidan chiqarish va hususiy lashtirish to'g'risida", "Mulkchilik to'g'risida"gi qonunlar va boshqalar....;

-2000 yilda qabul qilingan "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi qonun ahamiyati va boshqalar.

Faqat 2005-2012 yilgacha bo'lgan davrda mikrofirma va kichik korxonalar uchun aylanma mablag'lardan olinadigan yagona soliq to'lov stavkasi 2,5 barovar kamaytirilib, 13 foizdan 5 foizga tushirildi.

Faqat 2011 yilning o'zida kichik biznes va hususiy tadbirkorlik sub'ektlariga berilgan soliq imtiyozlarining umumiy miqdori 500 million dollardan oshdi. Korxonalar ushbu mablag'ning 35 foizini ishlab chiqarishni kengaytirishga va modernizatsiya qilishga, 25 foizini ishchilarni rag'batlantirishga yo'naltirildi.

“Navoiy” erkin industrial zonasiga (davlat tomonidan - 100 million dollar), “Angren” industrial zonasi (60 million dastur va uni amalga oshirish uchun) sarflandi.

**Hususiy tadbirkorlikni shakllantirish va kengaytirishni rag'batlantirishda optimallashtirish va imtiyozli kreditlash masalalari hal qiluvchi omil bo'lmoqda.**

Faqat 2011 yil yakunlariga ko'ra, tarmoqni rivojlantirish va rag'batlantirishga mamlakatimiz banklari 2,5 milliard dollarga teng qiymatdagi kreditlar ajratildi.

Turli davlat va tashkilotlar, banklar tomonidan (Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki, Halqaro moliya korporatsiyasi, Islom taraqqiyot banki, BMT tuzilmalari, Arab muvofiqlashtirish guruhi mamlakatlari, Janubiy Koreya, Hitoy, Germaniya va boshqalar 1,5 milliarddan dollardan ortiq kredit resurslari ajratildi.

**Islom Karimov, yana bir qator muhim masalalar bo'yicha quyidagilarni:**

- YUksak bilimli, zamonaviy fikrlaydigan, intellektual rivojlangan va professional tayyorgarlikka ega bo'lgan yoshlargina sifatli, jadal va innovatsion taraqqiyotning eng muhim sharti va garovi bo'la olishi, aynan ular mamlakatning buyuk kelajagini ta'minlashi mumkinligiga kimnidir ishonirish yoki buni isbotlab berishning hojati yo'q ekanligi;

- Tadbirkorlik erkinligining kuchli huquqiy kafolatlarini ta'minlash;

- davlat, huquq-tartibot, nazorat organlari va tuzilmalari tomonidan ularning faoliyatiga noqonuniy aralashuvlarga chek qo'yish;

- davlat organlarining noqonuniy qarorlari, mansabdor shahslarning hatti-harakati yoki harakatsizligi, shuningdek, qonunchilikka zid tarzda qabul qilingan idoraviy hujjat tufayli tadbirkorlik sub'ektiga etkazilgan zarar davlat tomonidan qoplanadi.

Bugun biz o'z mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlab tanlab olgan mamlakatni isloh etish va modernizatsiya qilish, tadrijiy rivojlanish yo'li va mashhur besh tamoyil asosida barpo etiladigan fuqarolik jamiyatini shakllantirish modeli tarihan qisqa vaqt muddatda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning mustahkam poydevorini yaratishni ta'minladi, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlariga ishonchli ravishda qarshi turish, dunyodagi sanoqli mamlakatlar qatorida iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning yuksak barqaror sur'atlariga erishish imkoni berdi, deb aytish uchun barcha asoslarimiz bor.

So'nggi 6 yil davomida mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot yiliga 8,2 foizdan kam bo'lmagan sur'atlar bilan o'sib bormoqda. YAlpi ichki mahsulot, 2000 yil bilan solishtirganda, 2,9 barobar, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 2,6 barobar oshdi, iqtisodiyotga jalb qilingan investitsiyalar hajmi 3,4 barobar, jumladan, to'g'ridan-to'g'ri horijiy investitsiyalar miqdori 20 barabardan ko'proq o'sdi.

Osiyo taraqqiyot banki ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad so'nggi 7 yil davomida 3 barobar ko'paygan, deb ta'kidlab o'tdi.

**O'zbekiston Respublikasida moliya, pul kredit tizimi, davlat byudjeti, soliq va bank tizimi**

Bozor iqtisodiyoti asosida rivojlangan mamlakat tajribasi shuni ko'rsatadiki, faqatgina iqtisodiy jihatdan erkin fuqorogina haqiqiy mulk egasi bo'lib, u o'z mulkidan samarali foydalanishi va shu orqali mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir etishi mumkin.

O'zbekistonda o'tkazilayotgan iqtisodiyot islohatlarning asosiy vazifasi davlat mulkini hususiy lashtirish orqali monopoliyaga chek qo'yish; ko'p ukladli iqtisodiyotni barpo etish, mulkni haqiqiy egasiga topshirish, mulkning barcha shakllari rivojlanishiga bir hil shart sharoit yaratib berishdan iborat. Bu vazifani bajarish birinchi navbatda, mulk huquqini amalga oshirish

mehanzimning huquqiy asosini yaratish ayniqsa, uning muhim elementi bo'lgan har kimning o'z mulkiga erkin egalik qilish tamoyilini mustahkamlash edi.

**Konstitusiiyaning XXV bobi "Moliya va kredit" masalalariga bag'ishlangan.**

**122-modda.** O'zbekiston Respublikasi o'z moliya va pul-kredit tizimiga ega.

O'zbekistonning Davlat byudjeti Respublika byudjetidan, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetidan va mahalliy byudjetlardan iborat.

**123-modda.** O'zbekiston Respublikasi hududida yagona soliq tizimi amal qiladi. Soliqlar joriy qilishga faqat O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi haqli.

**124-modda.** O'zbekiston Respublikasining bank tizimini respublika Markaziy banki boshqaradi.

Bu vazifalarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "**Mulkchilik to'g'risida**"gi, "**Tadbirkorlik to'g'risida**"gi, "**Hususiylashtirish to'g'risida**"gi konunlarni qabul qiladi.

SHahs o'zining mulkiy huquqlarini amalga oshirishda atrof-tabiiy muhitga va kishilar sog'ligiga zarar etkazmasligi kerak.

Davlat mulkdorning qo'lidagi mulkni o'zgalar tomonidan chegaralanishi taqiqlaydi.

Bank omonatining sir tutilishi iqtisodiy huquqlar sirasiga kiradi. Bank tomonidan omonot sirlarini saqlashga oid munosabatlar O'zbekiston Respublikasining "**Bank va bank faoliyati to'g'risida**"gi qonuni bilan tartibga solinadi.

**2. Fuqarolik jamiyatining konstitusiiyaviy asoslari. Jamoat birlashmalari tushunchasi, tashkil etilish tamoyillari va tizimi.**

Konstitusiiyaning **XIII bobi 56-moddasi** «Jamoat birlashmalari» faoliyatining asosiy prinsiplariga bag'ishlangan. Jamoat birlashmalarining asosiy holati O'zbekiston Respublikasining 1999 yil 14 aprelda qabul qilingan «Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida»gi qonuniga binoan belgilanadi. Ushbu qonunga muvofiq nodavlat notijorat tashkilotlari – jismoniy va yuridik shahslar tomonidan ixtiyoriy asosda tashkil etilgan daromad (foyda) olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromatlarni o'z a'zosi o'rtasida taqsimlaydigan o'zini-o'zi boshqarish tashkilotidir.

Nodavlat va notijorat tashkilotlari jamoat birlashmasi: ijtimoiy fond, muassasa shaklida, shuningdek, qonunlarda nazarda tutilgan boshqa shakllarda tashkil etilishi mumkin. (11-moddaga qaralsin).

O'zbekistonda qonunga binoan siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, kasaba uyushmalari, hotin-kizlar, yoshlar va bolalar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar va boshqalar jamoat birlashmalari deb e'tirof etilgan.

Jamoat birlashmalari birlashma sifatida ro'yhatga olinishi shart.

1991 yil 15 fevralda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida»gi qonunda va 1993 yil 21 martda O'zbekiston Respublikasi hududida harakat qiluvchi jamoat birlashmalari ustavlarini ro'yhatga olish to'g'risidagi arizalarini ko'rib chiqish qoidalarida O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalarini ro'yhatdan o'tkazish belgilangan.

Jamoat birlashmasi kamida o'n nafar fukaroning tashabbusi bilan tuziladi. Bu tashabbuskorlar konferenssiya yoki umumiy yig'ilish chaqirib, unda Nizom qabul qilinadi va rahbar idoralari tuziladi.

Jamoat birlashmalari o'z a'zolarini ixtiyoriyligi, teng huquqliligi, o'zini o'zi boshqarish, qonuniylik va oshkoralik tamoyillari asosida tuziladi va faoliyat ko'rsatadi. Jamoat birlashmalari o'zlarining ustav faoliyatiga hamda tashkiliy huquqiy maqomiga ko'ra 3ta turga bo'linadi.

1. Halqaro miqyosdagi jamoat birlashmalari.
2. Respublika miqyosdagi jamoat birlashmalari.
3. Mahalliy miqyosdagi jamoat birlashmalari.

Halqaro jamoat birlashmalari deyilganda o'z ustaviga va O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston hududida hamda bitta yoki undan ko'proq chet el davlat hududida faoliyat olib borishi mumkin bo'lgan jamoat birlashmalari tushuniladi. CHet elda

tuzilgan va faoliyat ko'rsatayotgan halqaro jamoat birlashmasining O'zbekiston Respublikasi hududidagi vakolathona yoki filiali ham halqaro jamoat birlashmasi hisoblanadi.

Respublika jamoat birlashmalariga o'z ustavida belgilangan maqsad va vazifalarni butun O'zbekiston Respublikasi hududida amalga oshiradigan jamoat birlashmalari kiradi.

Mahalliy davlat jamoat birlashmalari deyilganda ustavlarida belgilangan maqsad va vazifalarni butun viloyat hududida, Toshkent shahrida esa shahar hududida amalga oshiradigan jamoat birlashmalari deyiladi.

Tuman (shahar) hududida faoliyat ko'rsatadigan jamoat birlashmalari tuman, shahar jamoat birlashmalari deyiladi. Zaruriyat bo'lgan hollarda viloyatlararo, tumanlararo jamoat tashkilotlari tuzilishi mumkin.

Halqaro, Respublika hamda viloyatlararo maqomdagi jamoat birlashmalarining ustavi O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan ro'yhatdan o'tkaziladi.

Mahalliy miqyosda faoliyatini amalga oshiradigan jamoat birlashmalarini ustavlari esa tegishli ravishda Toshkent shahar yoki viloyatlar Adliya boshqarmalari tomonidan ro'yhatdan o'tkaziladi.

Jamoat birlashmalarining Ustavlari ro'yhatdan o'tkazilgan kundan boshlab, o'z faoliyatlarini amalga oshirish vakolatiga ega bo'ladilar hamda yuridik shahs deb e'tirof etiladilar.

Jamoat birlashmalari qonunda belgilangan hollarda va tartibda:

- davlat hokimiyati va boshqaruv idoralarini tuzishda qatnashadi.
- Davlat hokimiyati boshqaruv idoralarini qarorlarini tayyorlashda ishtirok etadi.
- Davlat va jamoat idoralari o'z a'zolari (qatnashchilari) nomidan ishtirokchilik

yuritadi va ularning qonuniy manfaatlarini himoya qiladi.

Konstitusiiyaning 62-moddasida belgilangan normadan kelib chiqib, jamoat birlashmalari faoliyatini tugatish, uning yuqori organi qarori bilan yoki sud tartibida amalga oshiriladi.

Jamoat birlashmalari tomonidan amaldagi qonun hujjatlari buzilgan, shuningdek, ustav maqsadlariga zid harakatlar sodir etilgan taqdirda Prokuratura yoki Adliya organlari tomonidan ularning rahbar organlariga taqdimnoma kiritiladi. Agar bu haraktlar belgilangan muddatda bartaraf etilmasa, Prokuratura yoki Adliya organlarining taqdimnomasi asosida tegishli sud qarori bilan tugatiladi.

Jamoat birlashmasining faoliyati u O'zbekiston Respublikasi Konstitusiiya va Qonun hujjatlarini buzgan taqdirda sud tomonidan to'htatilib quyilishi mumkin.

**Kasaba uyushmalari** ham jamoat birlashmalari tarkibiga kirib, ularning huquqiy holati O'zbekiston Respublikasining 1992 yil 2 iyulda qabul qilingan «Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to'g'irisida»gi qonun bilan tartibga solinadi.

Ushbu qonun talabiga ko'ra «Kasaba uyushmasi ko'ngilli jamoat tashkiloti bo'lib, ham ishlab chiqarish, ham noishlab chiqarish sohasidagi faoliyat turiga qarab, o'z a'zolarini mehnat, ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini, manfaatlarini himoya qilish uchun mushtarak manfaat bilan bog'langan mehnatkashlarni birlashtiradi».

Konstitusiiyaning 59-moddasiga ko'ra Kasaba uyushmalari ijtimoiy-ktisodiy huquqlarini va manfaatlarini ifoda etadilar va himoya qiladilar. Kasaba tashkilotlariga a'zo bo'lish ixtiyoriy deb belgilangan.

Fuqarolarning mehnat va dam olish huquqlari, sog'likni saqlash, uy joy va turmush darajalarini yaxshilash hamda himoya qilish sohasidagi O'zbekiston Kasaba Uyushmalari Federasiyasi Kengashi va uning tarkibidagi turli tarmoq kasaba uyushmalari ahamiyati alohidadir.

Kasaba uyushmalarning qonunlarni bajarish faoliyatini nazorat etish Prokuratura organlari tomonidan amalga oshiriladi. O'z ustavlarida ko'rsatilgan maqsad va vazifalarning bajarilishi esa Adliya organlari tomonidan nazorat kilinadi.

**Siyosiy partiyalar** Konstitusiiyaning **60-moddasiga** asosan turli tabaqa va guruhlarining siyosiy irodasini ifodalaydilar va o'zlarini demokratik yo'l bilan saylab qo'yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar, deb belgilangan.

Konstitutsion normaga asosan jamiyatdagi tub ma'nodagi ko'p partiyaviylikni shakllantirish uchun 1996 yil 26 dekabrda «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi qonun qabul qilindi. Mazkur qonunning 1-moddasiga ko'ra «Siyosiy partiya – qarashlari, qiziqishlari va maqsadlari mushtarakligi asosida tuzilgan, jamiyat muayyan qismining davlat hokimiyatini shakllantirishdan iborat, siyosiy irodasini ro'yobga chiqarishga intiluvchi hamda o'z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining ko'ngilli birlashmasidir».

Siyosiy partiyalar to'g'risidagi bu qonunda siyosiy partiyalarni tuzish va ulani faoliyat ko'rsatish prinsiplari, ular faoliyatining kafolatlari, ularni tuzish tartibi, nizomi, ro'yhatga olish, faoliyatini to'htatish tartibi, ularni huquqlari, vakillik organidagi partiya funksiyalari, guruhlarining maqsadi, vazifalari to'liq ko'rsatib berilgan.

Siyosiy partiyalarning davlat organlari va mansabdor shahslarning faoliyatiga aralashuviga yo'l qo'yilmaydi.

Siyosiy partiyalar tashkilotlarining tadbirlari asosan ular a'zolarining ishdan tashqari vaqtida va ana shu partiyalar mablag'i hisobidan amalga oshiriladi.

Siyosiy partiyaning tuzish uchun kamida **8ta hududiy sub'ekt (viloyat)**da shu jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahrida yashayotgan hamda partiya birlashish istagida bo'lgan kamida **20 ming fuqaroning** imzosi bo'lishi talab etiladi.

Siyosiy partiyalar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro'yhatga olinadi.

Agar siyosiy partiyaning Ustavi, maqsadlari, vazifalari va faoliyat uslubi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, ushbu qonunda hamda boshqa qonun hujjatlariga zid bo'lsa yoki oldinroq huddi shunday nomdagi siyosiy partiya yoki jamoatchilik harakati ro'yhatga olingan bo'lsa, bu partiya ro'yhatga olinmaydi.

Siyosiy partiyalar quyidagi huquqarga egadirlar:

- O'zbekiston Respublikasida faoliyati to'g'risidagi ahborotni erkin tarqatish.
- O'zbekiston Respublikasida g'oyalari, maqsadlari va qarorlarini targ'ib qilish.
- Saylab qo'yiladigan davlat organlaridagi o'z vakillari orqali tegishli qarorlarini tayyorlashda ishtirok etish.

- Qonunda belgilab qo'yilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Davlat hokimiyati organlari saylovlarida ishtirok etish.

- Partiya faoliyati bilan bog'liq yig'ilishda, konferensiyalar va boshqa tadbirlarni o'tkazish.

- Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ommaviy ahborot vositalaridan foydalanish.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisidagi siyosiy partiyalar fraksiyalari siyosiy partiyalar tomonidan ko'rsatilgan deputatlarning ta'sis yig'ilishida o'z partiyasining uyushqoqlik bilan o'tkazish uchun tuziladi. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi siyosiy partiyalarning faoliyati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga qonun hujjatlariga va o'z Ustavlariga muvofiqligini nazorat qiladi. O'zbekiston Respublikasida bugunga qadar keng ijtimoiy guruhlarning manfaatlarini ifodalash va himoya qilishga qodir bo'lgan 4ta partiyalar faoliyat ko'rsatib kelmoqdalar.

1. O'zbekiston Halk demokratik partiyasi. (2014 yil noyabrga - 392 ming a'zosi, 10150 ta boshlang'ich partiya tashkiloti bor).

2. O'zbekiston Adolat sotsial demokratik partiyasi. (2014 yil noyabrga - 392 ming a'zosi, 243 ming boshlang'ich partiya tashkiloti bor).

3. O'zbekiston milliy tiklanish demokratik partiyasi. (2014 yil noyabrga - 185 ming a'zosi, 5250 ta boshlang'ich partiya tashkiloti bor).

4. Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston liberal demokratik partiyasi. (2014 yil noyabrga – 243 ming a'zosi, 9282 ta boshlang'ich partiya tashkiloti bor).

O'zbekistonda tashkil topgan ushbu siyosiy partiyalar ijtimoiy taraqqiyot, voqealar rivojlanishi jarayonida vujudga kelgan ijtimoiy siyosiy tashkilotdir.

O'zbekistonda dinning jamiyatda tutgan o'rni, uning Konstitutsiya maqomi bilan belgilangan O'zbekiston Konstitutsiyasiga muvofiq barcha fuqarolar millatidan, irqidan, e'tiqodidan qat'iy nazar vijdon erkinligi kafolatlangan.

**3. O'zbekiston Respublikasining milliy-davlat va ma'muriy - hududiy tuzilishi, uning konstitutsiyaviy asoslari. Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyaviy maqomi.**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasiga muvofiq u suveren demokratik respublika bo'lib, mustaqil davlat hisoblanadi. "Mustaqilik" esa Prezidentimiz I.A.Karimov iborasi bilan aytganda, avvalom bor "huquq" demakdir. Chunki davlatimizning hozirgi ma'muriy-hududiy chegarasida birinchi bor O'zbekiston halqi o'z moddiy va ma'naviy boyliklaridan o'z hohishicha, ya'ni o'zining Konstitutsiyasi va uning asosida qabul qilingan qonun hujjatlariga muvofiq ravishda jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish imkoniyati – "huquqi" yuzaga keldi. Endilikda, biz va bizning halqimiz hom ashyo etkazib beradigan chekka o'lkada emas, balki mustaqil ravishda o'z huquqimizni amalda tatbiq qila oladigan milliy suveren davlatda yashayotganimizni alohida takidlash joizdir.

O'zbekiston Respublikasi "...O'zbekiston halqining munosib turmushini, huquqlarini va erkinliklarini kafolatlash, milliy qadriyatlarimiz va madaniyatimiz qayta tiklanishi, insonning ma'naviy-ahloqiy barkamolligini ta'minlash..."<sup>20</sup> ga qaratilgandir.

Mustaqil milliy davlatchiligimiz, avvalambor dahlsiz er kengliklariga ega bo'lishimiz, so'ngra, davlat tili sifatida – o'zbek tilini qabul qilishimiz, Prezidentlik institutini ta'sis etishimiz, ma'muriy-hududiy qismlarni o'z tarihimizga suyangan holda – viloyat va tuman deb atashimiz hamda ularda hokimlik lavozimini o'rnatishimiz, halqaro hamjamiyat tomonidan suveren davlat sifatida tan olinishimiz va albatta, o'z Konstitutsiyamizga ega bo'lishimizdadir.

O'zbekiston milliy davlatining shakllanishi ohir-oqibatda ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, istiqloq va taraqqiyot yo'lidagi "o'zbek modeli"ni ishlab chiqishga imkon berdi. Ushbu model mustaqil O'zbekistonimizning uzoq davrga mo'ljallangan ichki va tashqi rivojlanish strategiyasini yaratishga asos bo'ldi. Uning mazmuni va mohiyati Prezidentimiz I.A.Karimov asarlari, risolalari, maqolalari va nutqlarida o'z aksini topgan. Bu yo'l O'zbekistonning o'ziga hosligi va manfaatlariga, uning tabiiy va ijtimoiy sharoitlariga, o'zbek halqining azaliy an'anasiga, demografik va etnografik holatiga mos tushadi. Mazkur milliy davlat tuzilishi va uning rivojlanish asoslari Prezidentimiz asarlarida chuqur yoritib berilgan va O'zbekistonning o'z ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy yo'lining besh asosiy tamoyillarida aks ettirilgandir.

**Har bir mustaqil davlatning umumiy e'tirof etilgan asosiy belgilaridan biri – o'z chegarasi doirasidagi yagona ma'muriy hududiga ega bo'lishidir.**

<sup>20</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т.1. – Т.: Ўзбекистон, 1996 – 123-бет.

1991 yil 31 avgustda bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XII chaqiriq, navbatdan tashqari 6–sessiyasida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi konstitusiyaviy qonunining 4 va 17-moddalariga binoan Respublikamiz davlat chegarasi va hududi dahlsiz va bo'linmasdir. Uning halqi o'z hohish-irodasini erkin bildirmasdan turib, davlat chegarasi va hududining o'zgartirilishi mumkin emas. O'zbekiston tarkibida bo'lgan Qoraqalpog'iston Respublikasining hududiy butunligi va mustaqilligi e'tirof etiladi. Ushbu huquqiy holat Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomiga va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining 1991 yil 21 dekabrda imzolangan halqaro shartnomasiga to'la ravishda mos tushadi.

Halqaro huquq me'yorlariga ko'ra har bir davlatning hududi – davlat chegarasi doirasidagi er kengliklaridan iboratdir. Er kengliklariga esa ushbu hududlarning quruqlik qismi, suv akvatoriyasi, er osti boyliklari va atmosfera havosi kiradi. Mazkur tabiiy ob'ektlar har bir davlatda yashovchi insonlar uchun moddiy baza hisoblanadi. SHuning uchun ham har bir davlat, jumladan, O'zbekiston Respublikasining hududi uning siyosiy-ijtimoiy hayotida muhim o'rin egallaydi va mustaqilligining real ifodasi deb qaraladi.

**Davlat tuzilishi shakli** – davlat hokimiyatining ma'muriy-hududiy tashkil etilishi, davlat bilan uni tashkil etuvchi qismlar va ushbu qismlar hamda markaziy va mahalliy organlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar harakteridir<sup>21</sup>. Demak, davlat tuzilishida davlatning ma'muriy-hududiy tashkil etilishi eng birlamchi ko'rsatkich va asosiy elementlaridan biridir.

**Davlatning ma'muriy-hududiy tuzilishi** – har bir davlatni hududiy tashkillashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy tarkibiy qismi bo'lib, u davlat qurilishining umumiy masalalarini to'laqonli amalga oshirish uchun tashkiliy jihatdan ajratilgan davlat hududining qismlaridir.

Davlatning ma'muriy jihatdan ajratilgan ma'muriy-hududiy tuzilishi davlat bilan uning tarkibiy qismlari o'rtasida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni hamda ushbu qismlarning har birini huquqiy holatiga doir masalalarni qamrab oladi. SHuning uchun ham rivojlanishning qanday bosqichida turmasin yoki davlat tuzilishining qanday shakllaridan iborat bo'lmasin har bir suveren davlatning er kengliklarini ma'muriy-hududiy jihatdan ma'lum bir qismlarga ajratib olish juda katta siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy hamda huquqiy ahamiyat kasb etadi.

Har bir davlatning maydoni, aholisining soni, milliy-etnik tarkibi, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishi kabi omillarga ko'ra uning er kengliklari ma'lum bir qismlarga ajratiladi. Bunday ma'muriy-hududiy qismlarga ajratish aksariyat hollarda davlatning markazdan turib ijtimoiy munosabatlarni samarali tartibga solish imkoni bo'lmagan tarzda amalga oshiriladi. Ajratilgan qismlar mehanik tarzda emas, balki biron bir maqsadni ko'zlab va ma'lum bir prinsiplarga asoslangan holda bo'linadi. SHuning uchun ham Konstitusiyamizning 4-bo'lim XVI bobi O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy "bo'linishi" emas, balki "tuzilishi" deb nomlandi.

Davlatning ma'muriy-hududiy bo'linishi davlat boshqaruvini osonlashtirish uchun, uning er kengliklarini siyosiy nuqtai nazardan ma'lum bir qismlarga ajratib olish deb tushunish mumkin. Ma'muriy-hududiy tuzilish esa davlatning er kengliklarini huquqiy davlat sub'ektlari, ya'ni mustaqil ijtimoiy-siyosiy qismlar tariqasida tashkillashtirilishidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov davlat qurilishi va uning tuzilishi asoslariga bag'ishlangan bir qator asarlarida, hususan "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" degan kitobida bizda davlat tuzilishi er kengliklarini viloyat, tuman va shaharlarga bo'linishi sun'iy ravishda, o'z-o'zidan kelib chiqqan "tehnika" jarayon bo'lmay, balki respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi asosiy strategik maqsadni amalga oshiruvchi tayanch qismlariga ajratilishi ekanligiga alohida urg'u bergan.<sup>22</sup> SHuning uchun ham yurtboshimiz davlat tuzilishi va boshqaruvida markazdan quyi bo'linmalarga tomon harakat yo'nalishi, ya'ni: **birinchisi** – markaziy boshqaruv organlari vakolatlarining anchagina qismini mahalliy hokimiyatlarga; **ikkinchisi** – mahalliy boshqaruv organlaridan qator vakolatlarni fuqarolarning joylardagi jamoat birlashmalariga va o'zini-o'zi boshqaruv organlariga berish kerakligini bir necha bor ta'kidlaydi.

<sup>21</sup>Давлат ва ҳуқуқ назарияси / Ҳ.Б.Бобоев ва Ҳ.Т.Одилқориевлар умумий таҳрири остида-Т.: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 2000. 141-бет.

<sup>22</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда. –Т.:Ўзбекистон, 1999, 117-бет

Konstitusiyaviy huquq nuqtai nazaridan qaraganda kelajakda ma'muriy-hududiy tuzilmalarda, yuqorida sanab o'tilgan vazifalarni amalga oshirish uchun qonun kuchiga ega bo'lgan huquqiy-me'yoriy hujjatlarni qabul qilish va albatta, ularni amalga oshirishning ta'sirchan mehanizmini yaratish talab qilinadi. Binobarin, ma'muriy-hududiy tuzilmalarda konstitusiyaviy tamoyillarga asoslangan huquqiy boshqaruv funksiyalarini tadbiiq qilish uchun ular etarli moliyaviy resurslarga ega bo'lishlari kerak. Buning uchun esa ularning moliyaviy jamg'armalarini shakllantiruvchi huquqiy manbalarini muntazam kengaytirib borishimiz zarurdir. Mahalliy hokimiyat organlari va fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarish idoralari Soliq kodeksi va unga asosan ishlab chiqilgan yoki ishlab chiqilayotgan normativ hujjatlarda barcha mahalliy soliqlardan tushadigan pul mablag'larining ma'lum bir qisminigina emas, balki umumdavlat soliqlarining ham anchagina qismini mahalliy byudjetlarga yo'naltirilishi kerak bo'ladi. Natijada, davlat byudjeti barcha daromadlarining 60 foizdan ko'proq qismini ma'muriy-hududiy tuzilmalarning byudjetiga tushishini ta'minlash davlat siyosatida ham ko'zda tutilgan

Qoraqalpog'iston Respublikasining viloyat, tuman, shahar, qishloq va ovullarida amalga oshiriladigan huquq doirasidagi vakolatlarni kengaytirilishi aholining kasbiy va ijtimoiy tarkibi manfaatlarini yanada chuqurroq ifodalash va atroflicha himoya qilishda nodavlat va jamoat tuzilmalarining mavqelarini oshirishga qaratilishi nazarda tutilgan.

O'zbekiston Konstitusiyasi viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasidan iborat (Konstitusiiyaning 68-moddasi).

Har bir davlatning ma'muriy-hududiy tuzilishini ilmiy asosda tashkil qilmaslik uning havfsizligiga, barqarorligiga va albatta, taraqqiyotiga o'z salbiy ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. SHuning uchun ham Prezidentimiz I.A.Karimov 1999-2000 yillarda bo'lib o'tgan viloyatlar va Qoraqalpog'iston Respublikasi saylovchilari bilan uchrashuvlarida ma'muriy-hududiy tuzilishni to'g'ri tashkil etish, joylardagi vakillik va ijroiya hokimiyati organlarining huquqiy vakollatlarini oshirish Konstitusiyamizda belgilangan imperativ shartlarni amaliy tadbiiq qilishga olib kelishini bir necha bor uqtirib o'tganlar. Konstitusiyamiz me'yorlariga asoslangan holda O'zbekiston Respublikasi er kengligini ma'muriy-hududiy qismlarga bo'linishi aholini davlat bilan yaqinlashuvida, fuqarolarni davlat va jamiyat qurilishidagi faolligini oshirishda, bozor iqtisodiyotini rivojlantirishda, aholining milliy-etnik huquqlarini tenglashtirishda va ularning hohish-irodalarini inobatga olishda hizmat qildi.

O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilish tizimi hokimiyat va boshqaruv organlarining huquqiy holatiga, ularning huquq va majburiyatlarini ifoda etilishiga ko'ra tashkil etilgandir. Unda har bir ma'muriy-hududiy birlik ho'jalik yurgazishning o'ziga hos tomonlari, aholisining milliy va etnik tarkibi, soni, madaniyati, azaliy urf-odatlar va an'analari, ishlab chiqarish salohiyati va ijtimoiy qudratiga qarab ham ajratilgandir **(1- jadval)**.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining **68-moddasiga** binoan O'zbekiston Respublikasi viloyatlar, tumanlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasidan iborat. Respublika Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi tomonidan chop etilgan "O'zbekiston Respublikasi aholisi – 2000" nomli statistik to'plamga muvofiq 2000 yil 1 yanvarga kelib respublikamiz 1826 ta ma'muriy-hududiy qismlardan iborat. Ulardan 12 tasi viloyat va Qoraqalpog'iston Respublikasi, 182 tasi qishloq va shahar tumanlari, 55 tasi respublika va viloyat bo'ysunuvidagi shaharlar, 120 tasi shaharchalar hamda 1456 tasi qishloq va ovullar fuqarolar yig'inidan iborat bo'lgan.

**Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 30 sentyabr "SHahar va tuman hokimliklari apparati tuzilishini takomillashtirish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq 26 ta viloyat bo'ysunuvidagi shaharlar tuman bo'ysunuviga o'tkazildi va ularning soni 28 taga tushib qoldi. Tuman bo'ysunuvidagi shaharlarda shahar hokimligi lavozimlari qisqartirilib, ular tuman hokimligi qoshida faoliyat yurgazadigan bo'ldilar.**

Viloyat bo'ysunuvidagi shaharlarning huquqiy maqomidagi ushbu o'zgartirishlar davlat siyosatidan kelib chiqqan holda, mahalliy hokimiyatlarning ko'pgina vakolatlarini fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish idoralariga, hususan mahallalarga topshirish oqibatida yuz berdi.

O'zbekiston Respublikasida ma'muriy-hududiy tuzilish, toponomik ob'ektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish masalalarini hal etish tartibi to'g'risidagi qonunning 10-moddasiga ko'ra "... viloyat bo'ysunuvidagi shaharlar turkumiga, qoida tariqasida, kamida 30 ming aholisi bo'lgan, muhim ma'muriy ahamiyat kasb etadigan, istiqbolli iqtisodiy va madaniy markazlar deb hisoblangan shaharlar kiritilishi mumkin". SHunisi e'tiborliki, qonunda shaharlarning huquqiy maqomini ko'tarish haqida huquqiy me'yorlar mavjud, ammo ularning maqomini tushirish haqida hech qanday me'yorlar berilmagan.

YUqorida qayd etilgan Qonunning IV bobiga muvofiq "*aholi punktlarini ma'lum bir turkumdan ikkinchi bir turkumga o'tkazish tegishli viloyat hokimlarining iltimosiga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taklifiga muvofiq Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi*". Ushbu holat haqidagi qarorlar, albatta, *O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Ahborotnomasida e'lon qilinishi shart*" (30-modda).

Davlatning ma'muriy-hududiy tuzilishi davlat qurilishining umumiy masalalarini to'laqonli amalga oshirish nuqtai nazaridan hududiy tashkillashtirish ekan, ularda davlat boshqaruvi markaziy davlat organlari → mahalliy hokimiyatlar → o'zini o'zi boshqarish organlari orqali amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyaning 68-moddasiga muvofiq ravishda ma'muriy-hududiy tuzilishga qishloq va ovullarning soni emas, ulardagi balki o'zini-o'zi boshqaruvchi qishloq va ovullarning fuqarolar yig'ini sonining keltirilishi to'g'ri bo'ladi. CHunki 1999 yil 14 aprelda qabul qilingan yangi tahrirdagi "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi qonunning 5-moddasiga binoan ma'muriy-hududiy boshqarish vakolati qishloq va ovullarga emas, balki ulardagi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining hududiy birliklariga topshirilgandir.

O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy qismlarini, ularning huquqiy maqomiga ko'ra 3 toifaga ajratib guruhlashtirish mumkin (1-rasm):

1. *YUqori toifadagi qismlar* – Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri;

2. *O'rta toifadagi qismlar* – qishloq va shahar tumanlari, viloyat bo'ysunuvidagi shaharlar;

3. *Quyi toifadagi qismlar* – tuman bo'ysunuvidagi shaharlar, shaharchalar, qishloq va ovullarning fuqarolar yig'ini.

*YUqori toifadagi qismlar.* Davlat qurilishi shakliga ko'ra O'zbekiston Respublikasi unitar davlatdir. SHuning uchun ham o'ziga hos alohida huquqiy maqomga ega bo'lgan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri darajasidagi maqomga tenglashtirilgandir. Davlatning ma'muriy-hududiy qismlari ijtimoiy hayotning hamma jabhalarini o'z ichiga oladi. Milliy-etnik, ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati va siyosiy ahamiyatiga ko'ra yuqori toifadagi qismlar bir-biriga yaqin turadi.

*Viloyatlar* eng yirik ma'muriy-hududiy qismlardan bo'lib, O'zbekistonda ularning soni 12 ta. "Viloyat" atamasi "oblast'" so'zining sinonimi bo'lib, oblastdan ko'ra ma'muriy-hududiy tuzilishning aynan ma'nosini beradi. CHunki "oblast'" nafaqat ma'muriy birlikka nisbatan, balki tabiiy, iqtisodiy, harbiy birliklarga nisbatan ham qo'llaniladi. "Viloyat" esa ma'lum bir hududga nisbatan qo'llanilib, milliy qadriyatlarimizni hamda tarihimizni to'liq aks ettiruvchi atamadir. Mamlakatimiz viloyatlari ishlab chiqarish kuchlarining ahvoli, ularning joylanish harakteri, transport va aloqa kommunikasiyalarining rivojlanishi, joylardagi boshqaruvning tashkiliy tuzilishini aks ettiradi.

O'rta va quyi toifadagi ma'muriy – hududiy qismlar viloyatlar tarkibiga kirib, muhim tashkiliy vazifalarni bajaradi. Ular davlat vakillik organlari va boshqaruv idoralari bilan aloqa bog'lovchi yagona tizim hisoblanadi va mahalliy hokimiyatlarga rahbarlik qilishning hamda ularni vatanimiz manfaatlaridan kelib chiqqan holda birlashtirishni amalga oshiradi.

*Toshkent shahri.* Aholisining soni 2,3 million kishidan iborat bo'lib, unda 100 dan ziyod millat va elatlar yashaydi. Iqtisodiy salohiyati (mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining 16%, sanoat mahsulotining 20%), fan va madaniyat o'chog'i (6 ta universitet va 23 ta institut), markaziy davlat boshqaruv idoralarining deyarli barchasi joylashganligi uchun ham poytaht shahar huquqiy maqomiga ko'ra viloyat darajasidadir. Uning tarkibida 11 ta shahar tumani va 445 ta o'zini o'zi boshqaradigan fuqarolar yig'ini – mahallalar mavjud.

*Qoraqalpog'iston Respublikasi* – O'zbekiston Respublikasi tarkibiga kiruvchi suveren respublika. U ham o'zining ijtimoiy – iqtisodiy salohiyati va milliy tarkibiga ko'ra yuqori toifadagi huquqiy maqomga ega. Ushbu huquqiy maqom Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitusiyasi bilan belgilangan. Maydoni 164,9 ming kv. km. aholisi 1,5 million kishi. U 15 qishloq tumani, 12 shahar, 16 shaharcha va 120 ovullarni birlashtiruvchi fuqarolarning o'zini o'zi boshqaruvchi ma'muriy – hududiy qismlarga bo'lingan. Poytahti – Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'ysunuvidagi Nukus shahridir.

*O'rta toifadagi qismlardagi ma'muriy-hududiy birliklarning boshqaruvida ham mahalliy hokimiyatlar o'z tuzilmasiga ega bo'lib,* ularning tarkibida o'zini o'zi boshqaruv idoralari faoliyat yurgizadilar. 2001 yil 1 martga kelib O'zbekistonda 164 qishloq va 19 ta shahar tumanlari mavjud bo'lgan.

*Tuman* – temuriylar davrida qo'llanilgan turkiy ibora bo'lib, 10 ming va undan ortiq askar etkazib berish imkoniyatiga ega bo'lgan ma'muriy-hududiy qismlar tushiniladi. Tumanlar joylardagi ijtimoiy, iqtisodiy, ho'jalik va madaniy masalalarni hal qilishga bevosita rahbarlik qiladigan bo'g'inlardir. Mamlakatimizda ma'muriy-hududiy o'zgarishlar avvalom bor qishloq tumanlari chegarasining o'zgarishi bilan amalga oshiriladi.

*Viloyatlar bo'ysinuvidagi shaharlar.* Umuman shaharlar aholi manzilgohlari bo'lib, u boshqa ma'muriy – hududiy bo'linmalarga nisbatan yahlitligi, sanoat va hizmat ko'rsatish sohasining agrar sohaga nisbatan ustun turishi bilan ajralib turadi. Qonun bo'yicha 30 ming kishidan ko'p aholisi bo'lgan bunday ijtimoiy-iqtisodiy shaharlar o'z huquqiy maqomiga ko'ra ikki guruhga ajratiladi: 1) viloyat markazlari hisoblangan shaharlar; 2) viloyat bo'ysinuvidagi shaharlar. Ulardagi boshqaruv idoralarining tuzilishi va tarkibi bir-biridan farq qiladi.

*Quyidagi qismlarga o'z mahalliy hokimiyatlariga ega bo'lmagan va asosan, mahalliy o'zini o'zi boshqaruv idoralari orqali ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan ma'muriy-hududiy bo'linmalar kiradi.*

*Tuman bo'ysinuvidagi shaharlarga sanoat korhonalari, kommunal ho'jalik, uy-joy jamg'armasi, ijtimoiy va madaniy muassasalari, savdo va maishiy hizmat ko'rsatish korhonalari mavjud bo'lgan, aholisi 7 ming kishidan kam bo'lmagan va ularning aksariyati noqishloq ho'jaligi tarmoqlarida band bo'lgan aholi punktlari kiradi.* Ushbu huquqiy maqomga ega bo'lish uchun aholi punkti ma'muriy ahamiyat kasb etishi va istiqbolli yo'nalishlari ham bo'lishi talab etiladi. Ularning soni 2001 yilga kelib 91 taga etgan.

*SHaharchalar.* Aholisining soni 2 000 kishidan kam bo'lmagan sanoat korhonalari, qurilishlar, temir yo'l stansiyalari va boshqa muhim ob'ektlar yaqinida joylashgan aholi punktlari kiradi. Ularning soni birmuncha kamayib Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 30 sentyabrdagi 459-sonli qaroriga muvofiq 113 tadan 108 taga tushib qolgan.

*Qishloq va ovullarning shaharchalardan farqi ularda yashovchi aholi sonining eng kam miqdori belgilanmaganligi va mehnatga qobiliyatli kishilarning aksariyat qismi qishloq ho'jaligi bilan band bo'lganligidadir.* Qoraqalpog'iston Respublikasi va Navoiy viloyati aholi punktlarining aksariyati "ovul" deb nomlansa, qolgan viloyatlarda "qishloq" deb yuritiladi. O'zbekistonda 11,8 mingdan ortiq qishloq va ovullar 1451 o'zini o'zi boshqaruvi fuqarolar yig'inlariga birlashtirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 69-moddasiga binoan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahrining chegaralarini o'zgartirish, shuningdek viloyatlar, shaharlar, tumanlar tashkil qilish va ularni tugatish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining roziligi bilan amalga oshiriladi.

**Qoraqalpog'iston Respublikasi - O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi suveren davlat**

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining XVII bobi "Qoraqalpog'iston Respublikasi" deb nomlangan. Mazkur bob 6 moddadan iborat bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 70-moddasiga ko'ra, "Suveren Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi tarkibiga kiradi va Qoraqalpog'iston Respublikasining suvereniteti O'zbekiston Respublikasi tomonidan muhofaza etiladi" deyiladi. Asosiy qonunning 70-moddasi 1992 yil 9 yanvarda Qoraqalpog'iston Respublikasi tashkil topganligini va 1993 yil 9 aprelda qabul qilingan Asosiy Qonuni bilan uning O'zbekiston Respublikasi tarkibida suverenligini tasdiqlaydi. Suveren Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilingan kun halq bayrami deb e'lon qilindi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitusiyasining I bobi "Davlat suvereniteti" deb nomlanib, uning 1-moddasida Qoraqalpog'iston - O'zbekiston Respublikasi tarkibiga kiruvchi suveren demokratik respublikadir, deb belgilangan.

**O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 71-moddasida, Qoraqalpog'iston Respublikasining o'z Konstitusiyasiga ega bo'lishligi, uning O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga zid bo'lmasligi ko'rsatilgan. SHuni ta'kidlash joizki Sobiq Ittifoq davrida Avtonom Respublikalarning Konstitusiyalari ular qaysi Respublikalar tarkibiga kiritilgan bo'lsa o'sha davlat hokimiyatining oliy organlari tomonidan tasdiqlanishi shart edi. O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritib bu adolatsizlikka chek qo'ydi. Qoraqalpog'iston suveren Respublikasi bilan mustaqil O'zbekiston Respublikasining bir-butun yahlitligi mustahkamlangan.**

Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitusiyasining 70-moddasining 15-bandida "O'zbekiston Respublikasining Oliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hujjatlarining O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyaga muvofiqligi haqida O'zbekiston Konstitusiyaviy sudiga taklif kiritish" huquqi belgilangan. 81-moddasida esa Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi raisining vakolatlari jumlasiga, "O'zbekiston Respublikasi qonunlarini va Oliy Majlisning boshqa qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va boshqa hujjatlarini turmushga tatbiq etishni tashkil qiladi" deyilgan.

Ushbu konstitusiyaviy normalardan hulosa qilib aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va qonunlariga zid kelsa, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va qonunlari amalda bo'ladi. Qoraqalpog'iston Respublikasida O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitusiyalari va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi. O'zbekiston fuqarolari uchun majburiy bo'lgan qonunlar uning tarkibiga kiruvchi Qoraqalpog'iston hududida ham majburiydir.

Qoraqalpog'iston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishini uning o'zi ko'rib chiqadi, davlat hokimiyati organlari va boshqaruv tizimini belgilaydi. O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatiga mos holda o'z siyosatini yurgizadi. Qoraqalpog'iston Respublikasining hududi bo'linmas va dahlsizdir.

Qoraqalpog'istonda davlat tili - qoraqalpoq va o'zbek tillardir. Ayni vaqtda Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida iste'qomat qiluvchi barcha millat va ellatlarning tillari, urf-odatlar va an'analari hurmat qilinishi ta'minlanadi ularning rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratib beriladi va suveren Respublikaning davlat ramzlari hurmat qilinadi, va davlatning halq irodasini ifoda etishi, halq manfaatlariga hizmat qilishi, davlat organlari hamda mansabdor shahslarning jamiyat va fuqarolar oldida javobgar ekanligi qayd etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 74-moddasi g'oyat muhim siyosiy mazmun kasb etadi. Unda O'zbekiston tarkibidagi Qoraqalpog'istonning chinakam suverenligini tasdiqlovchi qoida mustahkamlangan: "Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi tarkibidan Qoraqalpog'iston Respublikasi halqining umumiy referendumini asosida ajralib chiqish huquqiga ega". Bu konstitusiyaviy norma Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitusiyasining 9-moddasida: "Jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari halq muhokamasiga taqdim etiladi, umumiy ovozga, ya'ni referendumga qo'yiladi. Referendum o'tkazish tartibi qonun bilan belgilanadi" deb mustahkamlangan.

O'zbekiston Respublikasi referendumini davlat hayoti va ijtimoiy hayotning eng muhim masalalari bo'yicha, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining qonunlarini va o'zga qarorlarini qabul qilish, ularni o'zgartirish, jamoatchilik fikrini aniqlash maqsadida umumhalq ovoz berishi bo'lib, halq hokimiyatini amalga oshirish vositasidir" deb belgilangan. Referendum o'tkazish tashabbusi huquqiga ega bo'lgan sub'ektlarning tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasi nomidan uning davlat hokimiyatining Oliy organi - Jo'qorg'i Kengesi chiqishi mumkin. Qoraqalpog'iston Respublikasining Jo'qorg'i Kengesi O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi bilan kelishilgan holatda referendum o'tkazishni tayinlash to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin. Qoraqalpog'iston Respublikasining hududiy o'zgartirish soliqlar, byudjet, afv etish (amnistiya), jamoat tartibini saqlash, aholining sihat-salomatligini va havfsizligini ta'minlash, favqulodda va shoshilinch chora-tadbirlar ko'rish, O'zbekiston Respublikasi tuzgan halqaro shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlarning bajarilishi masalalari, mansabdor shahslarni tayinlash va ozod etish bilan bog'liq masalalar referendumga qo'yilishi mumkin emas. Referendum o'tkazish tartibi hududiy vakillik organlarini saylovlarni o'tkazish talablariga muvofiq ravishda fuqarolarning umumiy, teng va demokratik huquqiy prinsiplari asosida yashirin ovoz berish yo'li orqali amalga oshiriladi. Fuqarolarning o'z hohish-irodalarini izhor etishlarini nazorat etishga yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 75-moddasida va Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitusiyasining 1-moddasining 2-bandida mustahkamlangan bo'lib, unda jumladan shunday deyiladi: O'zbekiston Respublikasi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasining o'zaro munosabatlari O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi doirasida va ular o'rtasida tuzilgan shartnomalar va bitimlar orqali" tartibga solinadi. SHuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasining davlat huquqi O'zbekiston Respublikasi tomonidan kafolatlanishi har ikkala suveren davlatlarni Konstitusiyalarida belgilangan.

Hozirgi kunda dolzarb bo'lib turgan masalalardan biri- O'zbekiston bilan Qoraqalpog'iston Respublikalari o'rtasidagi turli sohalarida ayniqsa iqtisodiy masalalarda o'zaro munosabatlarni keng tarmoqli rivojlantirishga erishishdir.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayoni halq ho'jaligining to'la-qonli ishlashini ta'minlash uchun muayyan iqtisodiy poydevor qurishni va uni mustahkamlashni talab qiladi. Bu esa hususiyashtirishni jadallashtirish va mulkchilikning barcha shakllarini amalga tadbiq qilish imkoniyatlarini yaratish majburiyatini qo'yadi. Buning uchun birinchi navbatda huquqiy asoslarni mustahkamlash zarur bo'ladi. Talab darajasida bo'lmagan normativ hujjatlarni bozor munosabatlari ehtiyojlaridan kelib chiqib, unga moslashtirish yoki yangilash, davlat qurilishiga oid qonunlar yaratish joiz, ya'ni, Qoraqalpog'iston o'z huquqiy bazasini mustahkamlashi va rivojlantirishi muhim masaladir. Bunda milliy va horijiy tajriba muhim ahamiyat kasb etadi. YOsh suveren respublika oldida turgan eng murakkab muammolardan biri, yuqorida aytganimizdek, mulkchilik munosabatlarini har taraflama takomillashtirishdir. Ayniqsa, mulkdorning mulkka egalik qilishi, undan foydalanishi, daromad olishi, mulkni tassarruf qilishi bilan bog'liq barcha huquqlarini qonuniy mustahkamlash asosiy tadbirlardandir.

O'zbek halqi bilan qoraqalpoq halqi azaldan do'st, birodar, qon-qarindosh va muruvvatlidir. Ularning ma'naviyat birligi va ho'jalik yuritish usul va shakllarining yakdilligi, har ikki halq o'rtasida qardoshlik rishtalarini yanada mustahkamladi va bu holat o'zining konstitusiyaviy ifodasini topdi. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi 21-moddasining 3-bandida Qoraqalpog'iston Respublikasining fuqarosi ayni vaqtda O'zbekiston Respublikasining

fuqarosi hisoblanadi, 68-moddasida esa Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasining ma'muriy, hududiy birliklari qatoriga kiritilishi, bu ikki halq deb hisoblangan bir millat ekanligini mustahkamlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida aniq belgilab qo'yilgan: "Qoraqalpog'iston suveren Respublika." - O'zbekiston Respublikasi o'z tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'lgan unitar davlatdir. SHu bilan birga yana ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasining tuzilishida federalizmga hos belgilar mavjud bo'lib, ular Qoraqalpog'iston Respublikasi suverenitetga ega ekanligida ko'rinadi.

Ularga quyidagilar kiradi:

a) O'zbekiston Respublikasi tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasining o'z hududi va aholisiga ega bo'lgan alohida davlat huquqiy tizim sifatida konstitusiyaviy mustahkamlanishi;

b) O'zbekiston qonunchilik tizimida Qoraqalpog'iston Respublikasining qonunchilik aktlarining mustaqil tizimi, shu jumladan alohida normativ akt bo'lgan Qoraqalpog'iston Konstitusiyasining mavjudligi;

v) Qoraqalpog'iston mustaqil faoliyat ko'rsatadigan davlatning huquqiy institutlari tuzilmasi; Juqorg'i Kenges, ministrlar soveti, Oliy sud, Konstitusiyaviy nazorat qo'mitasi, Ho'jalik sudi va boshqalarning ish olib borishi;

g) Qoraqalpog'iston Respublikasi chegaralari va hududi dahlsizligi;

d) Qoraqalpog'iston Respublikasi o'zining ma'muriy-hududiy qurilishi masalalarini mustaqil hal qilish huquqi, mahalliy soliqlar va yig'implar miqdori belgilashi, respublika byudjetini mustaqil qabul qilish huquqi;

e) Qoraqalpog'istonning O'zbekiston Respublikasi tarkibidan referendum asosida chiqib ketish huquqi;

j) O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasining o'zaro munosabatlarini shartnoma va bitimlar yordamida tartibga solib turish;

z) Qoraqalpog'iston Respublikasining o'z davlat ramzlari; bayroq, madhiya, gerbiga ega ekanligi;

Ohirgi ikki suverenlik belgisi odatda mustaqil davlatlarga hosdir.

Qoraqalpog'iston Respublikasi suvereniteti O'zbekiston Respublikasi tomonidan ta'minlanadi degan holat O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikalari Konstitusiyalarining moddalariga binoan izohlanishi lozim. Fuqarolarning huquq va erkinliklariga O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va qonunlariga rioya etilishining kafili O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hisoblanadi.

Qoraqalpog'iston suverenitetini O'zbekiston Respublikasi tomonidan himoya qilish omillari quyidagilarni tashkil etadi:

1) Qoraqalpog'iston Respublikasining mustaqil huquq va vakolatlarini O'zbekiston Konstitusiyasida qayd etilishi;

2) O'zbekiston Davlat hokimiyatining oliy organlari: Oliy Majlisda, Vazirlar Mahkamasida, Konstitusiyaviy, Oliy va Oliy ho'jalik sudlarida Qoraqalpog'iston vakilligining mavjudligi;

3) hududiy ustivorlik tamoyili, unga binoan Qoraqalpog'iston hududiy tuzilishining roziligisiz o'zgartirilishi mumkin emasligi;

4) Qoraqalpog'istonning O'zbekiston tarkibidan chiqish masalasi bo'yicha referendum o'tkazish huquqi;

5) qoraqalpoq tiliga davlat tili maqomining berilganligi;

6) Qoraqalpog'iston Respublikasining boshqa davlatlar bilan tashqi, iqtisodiy, madaniy, ilmiy va boshqa aloqalar o'rnatish huquqi.

SHunday qilib, yuqorida keltirilgan konstitusiyaviy normalar Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasining tarkibiga o'z hohishi bilan kiruvchi va muhofaza qilinuvchi suveren davlat ekanligi mustahkamlangan.

**Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitusiyasi va davlat tuzilishi**

Konstitusiiyaning mavjudligi davlat suverenitetining eng muhim belgilaridan biridir. Ayrim mualliflar Konstitusiiyani mutlaq asoslagan holda davlat ramzlari qatoriga kiritadilar. Qoraqalpog'iston Respublikasida davlat hokimiyati manbai halq bo'lganligi sababli Konstitusiiya qoraqalpoq halqi davlatchiligining qonuniy ekanligini tasdiqlaydi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitusiiyasi davlat tuzilishi, davlat hokimiyati tizimi va davlat, jamiyat va shahsning o'zaro munosabatlari asoslarining bosh tamoyillarini aniqlab beradi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitusiiyasi O'zbekiston tarkibiga kiruvchi respublikaning Asosiy Qonuni bo'lganligi sababli O'zbekiston Konstitusiiyasining tamoyillariga to'liq mos keladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitusiiyasining ahamiyati quyidagilarda o'z aksini topadi:

- davlat shaklining, yuridik hususiyati va O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi o'rni hamda o'zaro munosabatlarining huquqiy asosi;

- suverenitetning yuridik kafolati;

- mustaqil, to'la huquqli davlatligi;

- davlat va ma'muriy - hududiy tuzilish hususiyatlarini hisobga olinishi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi Konstitusiiyasining ustivorligini tan oladi. Bu birinchi navbatda Qoraqalpog'iston Konstitusiiyasi va qonunlarini tamoyil va moddalarini mos kelishi kerakligini anglatadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitusiiyasi, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiiyasiga mos kelishi O'zbekiston va Qoraqalpog'iston o'rtasidagi davlat-huquqiy munosabatlari bilan chambarchas bog'liq. O'zbekiston Respublikasi qonunlari Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida ham amal qilishi majburiydir. Huquqiy davlatning asosiy belgilaridan biri-davlat yagona huquqiy siyosat va qonun qo'llash bilan har ikkala respublikada ham yagona qonunlarga tayanishni talab qiladi. Huquqning barcha tarmoqlari o'zagida O'zbekiston qonunlari mujassamlashtirilgan bo'lib, Qoraqalpog'iston hududida ham amal qilishi mustahkamlangan.

Qoraqalpog'iston Respublikasida davlat hokimiyati halq manfaatlarini ko'zlab, Konstitusiiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlariga binoan vakolat berilgan idoralari tomonidagina amalga oshiriladi. Konstitusiiyada nazarda tutilmagan tartibda davlat hokimiyati vakolatlarini o'zlashtirish, hokimiyat idoralari faoliyatini to'htatib qo'yish yoki tugatish, hokimiyatning yangi tarkiblarini tuzish Konstitusiiyaga hilof hisoblanadi va qonunga binoan javobgarlikka tortishga asos bo'ladi.

Qoraqalpog'iston halqini, millatidan qat'i nazar, Qoraqalpog'iston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi. Qoraqalpog'iston halqi nomidan faqat u saylagan Oliy hokimiyat organi Jo'qorg'i Kengesi ish olib boradi. Uning davlat hokimiyati tizimi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linish tamoyillariga asoslanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitusiiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi. Davlat, uning organlari, mansabdor shahslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitusiiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar.

Qoraqalpog'iston Respublikasining halqaro, ilmiy, madaniy va tashqi iqtisodiy aloqalari O'zbekiston Respublikasining va Qoraqalpog'iston Respublikasining qonunlariga muvofiq amalga oshiriladi.

O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikalarining barcha fuqarolari bir hil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shahsi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar qonun oldida tengdirlar.

Fuqarolarning Konstitusiiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari dahlsizdir. Ulardan sud qarorisiz mahrum etishga va ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas.

Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunlarda belgilagan tartibda ro'yhatdan o'tkazilgan kasaba uyushmalar, ommaviy harakat, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, hotin-qizlar, fahriylar, yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar va fuqarolarning jamoat birlashmalari sifatida e'tirof etiladi.

Davlat jamoat birlashmalarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlaydi. Ularga ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratib beradi. Qoraqalpog'iston Respublikasi tumanlardan, shaharlardan, shaharchalardan, ovullardan iborat.

Tuman va shaharlarni tashkil qilish va ularni tugatish shuningdek, ularning chegaralarini o'zgartirish Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan amalga oshiriladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi. Qoraqalpog'iston Respublikasining Jo'qorg'i Kengesi hududiy saylov okruglari bo'yicha ko'p partiyaviylik asosida besh yil muddatda saylanadigan 75 nafar deputatdan iboratdir. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining mutloq vakolatlari uning Konstitusiyasi 70-moddasida ifoda etilgan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitusiyaviy nazoratni Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitusiyaviy nazorat qo'mitasi amalga oshiradi.

Konstitusiyaviy nazorat qo'mitasi Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan siyosat va huquq sohasidagi mutahassislar orasidan Konstitusiyaviy nazorat qo'mitasining raisi, uning o'rinbosari va qo'mitaning a'zolari tarkibida saylanadi. Konstitusiyaviy nazorat qo'mitasiga saylangan sud'yalarning vakolat muddati 5 yildir.

Konstitusiyaviy nazorat qo'mitasiga saylangan shahslar o'z vazifalarini bajarishda dahilsizdirlar va faqat Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitusiyasiga bo'syunadilar. Uni tashkil etish va ish tartibini belgilash Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitusiyaviy nazorat qo'mitasi to'g'risidagi qonuni bilan belgilangan.

Qoraqalpog'iston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyat organlari tumanlar va shaharlarda hokimlar boshchilik qiladigan halq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo'lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab o'z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etadilar.

Qoraqalpog'iston Respublikasining fuqarolari vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar. Har bir saylovchi bir ovozga ega. Mahalliy hokimiyatning vakillik organlari yashirin ovoz berish yo'li bilan umumiy teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida o'tkaziladi, 18 yoshga to'lgan har bir fuqaro saylash huquqiga ega bo'ladi.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek, ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotganlar saylovlarda qatnashmaydilar.

**Mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoriga quyidagilar kiradi:**

- qonuniylik, huquqiy-tartibotni va fuqarolarning havfsizligini ta'minlash;
- hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish;
- mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlarni, yig'implarni belgilash, byudjetdan tashqari jamg'armalarni hosil qilish;
- fuqarolik kommunal ho'jalikka rahbarlik qilish, atrof muhitni muhofaza qilish;
- fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta'minlash;
- normativ hujjatlarni qabul qilish, Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitusiyasiga va qonunlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

Halq deputatlari Kengashlari va hokimlarining vakolat muddati – **5 yil**, vakillik va ijroiya hokimiyatini tegishliligiga qarab, tuman va shahar hokimlari boshqaradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining sud tizimi besh yil muddatga saylanadigan Qoraqalpog'iston Respublikasining Oliy Sudi, Ho'jalik sudi, shu muddatga tayinlanadigan tuman, shahar sudlaridan iborat. Ular O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi qonuniga muvofiq o'z faoliyatini olib boradilar. Ushbu qonunda jumladan, "Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha, fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo sudlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi ho'jalik sudi faoliyat ko'rsatadi" deb belgilangan. Ular faoliyatining tashkil etilishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlari jumlasiga kirib unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti roziligi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesinde, Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi

raisi va a'zolari, shuningdek, tuman, shahar sudlarining sud'yalari, lavozimlariga nomzodlarni tavsiya qiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi jinoiy, fuqaroviy va ma'muriy sud ishlarini yuritish borasida, sud hokimiyatining oliy organi hisoblanadi. Tuman, shahar sudlari sudlov faoliyati ustidan nazorat olib boradi.

#### **4. Saylov huquqi, saylov tamoyillari va tizimi. Qonun chiqaruvchi hokimiyat tushunchasi va uni tashkil qilish tartibi.**

**O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining eng muhim siyosiy huquqlaridan biri davlat vakillik organlariga saylash va saylanish huquqidir (Konstitusiiyaning 117-moddasi). Fuqarolar ushbu huquq orqali davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali davlatning eng muhim siyosiy masalalarini muhokama qilish va hal etishda faol ishtirok etadilar (Konstitusiiyaning 32-moddasi).**

Saylov tushunchasi vakillik organi ovoz berish yo'li bilan tashkil toptirish tartibidir. Vakillik organlarini saylash jarayonida vujudga keladigan munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar saylov huquqi deb ataladi. Saylov huquqi O'zbekiston Respublikasining konstitusiyaviy huquqining muhim institutidir.

Saylov huquqi tushunchasining yana bir ma'nosi ham bor. Bu tushuncha fuqaroning saylovdagi ishtiroki, vakillik organlariga saylash va saylanish kabi sub'ektiv huquqini ta'riflab berish uchun ishlatiladi.

Bu borada aktiv saylov huquqi bilan passiv saylov huquqini bir-biridan farq qilish kerak. Aktiv saylov huquqi fuqaroning saylash, vakillik organlarini saylashda bevosita qatnashish huquqini bildiradi. Passiv saylov huquqi –saylanish huquqidir. Professor A.Saidov ta'kidlashicha "Saylov huquqi" tushunchasi va iborasi ikki ma'noda ishlatiladi deb izohlaydi. *Birinchisi*, bu saylov huquqi saylov qo'yiladigan davlat organlarini shakllantirishni tartibga soluvchi huquqiy me'yorlar tizimidir. Saylov huquqining manbalari Konstitusiiya, davlatning oliy va mahalliy vakillik organlariga saylovlar haqidagi qonunlardir. *Ikkinchisi*, bu saylov huquqi fuqarolarning saylab qo'yiladigan organlarini tuzishda qatnashish, ya'ni unga o'zlarining saylanish (passiv saylov huquqi) va ularning tarkibini saylash (faol saylov huquqi) huquqlaridir."<sup>23</sup>

Davlat organlari o'zining tuzilish tartibi jihatidan turli hususiyatlarga egadir. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasiga muvofiq davlatning ba'zi organlari saylanadi, boshqalari tuziladi. Davlat hokimiyati organlariga o'tkaziladigan saylovlar demokratik asosda o'tkaziladi. O'zbekistonda ildiz otib borayotgan demokratiya jahonda tan olingan demokratik an'analarni o'zida mujassamlashtiradi. Bu demokratiya hech qanday milliy, irqiy va boshqa cheklashlarni bilmaydi. SHu bilan birga, davlat organlarini saylash va tuzish tartibi ularning har qaysisining o'ziga hos hususiyatlariga muvofiq ravishda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi davlat vakillik organlariga saylovlar O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi, "Halq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi va "O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi to'g'risida"gi qonunlar tashkil qilinadi va o'tkaziladi.

Davlatdagi eng muhim masalalarning fuqarolar hohish-irodasi bilan hal etilishi demokratiyaning yaqqol namoyon bo'lishidir. Davlat hokimiyatini shakllantirishda saylovlar va demokratik tamoyillar muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda eng muhim masalalarning asosan referendum yo'li bilan hal etilishi bevosita demokratiya namunasidir. SHuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, O'zbekistonda barcha davlat

<sup>23</sup> Саидов А.Х. Қиёсий конституцияшунослик. Т., 1993, 52-бет.

organlarini demokratik asoslarda tuzish tartibi va chinakam halqchilligi bilan ham ajralib turadi. Halqchillik shu narsada o'z ifodasini topadiki, butun davlat apparatining negizini tashkil etgan davlat organlari uning halq deputatlari bevosita saylovchilar tomonidan umumiy saylov yo'li bilan saylanadilar.

O'zbekistonda saylovlar ochiqligi, oshkoraligi saylov tizimining eng muhim tamoyillaridan bo'lib hisoblanadi.

Vakillik organlarining umumiy saylov yo'li bilan tashkil etilishi alohida va ko'p qirrali ahamiyatga ega. Umumhalq saylovlar davlat hokimiyatini amalga oshirishda fuqarolar ishtirokining eng muhim shakllaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining XXIII bobida fuqarolarning saylov huquqi kafolatlanishi alohida mustahkamlangan. Konstitusiyaning 117-moddasida shunday deyiladi: "O'zbekiston Respublikasining fuqarolari vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar. Har bir saylovchi bir ovozga ega. O'z hohish-irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlanadi.

O'zbekiston Respublikasida Prezident saylovi, hokimiyatning vakillik organlari saylovi umumiy, teng, to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi. O'zbekiston Respublikasining 18 yoshga to'lgan fuqarolari saylash huquqiga egadirlar.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotganlar saylanishi mumkin emas va saylovda qatnashmaydilar. Boshqa har qanday hollarda fuqarolarning saylov huquqlarini to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita cheklashga yo'l qo'yilmaydi.

Saylov o'tkazish tartibi qonun bilan belgilanadi."

Saylov tizimi tushunchasi va asosiy prinsiplari. Saylovlar fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishga faol jalb qilishning eng muhim shakllaridan biridir. O'zbekistonda saylov tizimi va saylov huquqi chinakam demokratik prinsiplarga asoslangan bo'lib, prinsiplar O'zbekiston fuqarolarining davlat suverenitetini to'liq amalga oshirishni ta'minlaydi.

Davlatda vakillik organlarini shakllantirish yuzasidan mavjud bo'lgan va fuqarolarni saylovga jalb etish, saylovni tashkil qilish va deputatning saylovchilar bilan o'zaro munosabatlarini belgilaydigan tartibi saylash tizimi deyiladi.

Saylov tizimi tushunchasi – davlatning demokratik yoki demokratik emasligini ko'rsatuvchi asosiy omildir. Professor A.Saidov "Saylov tizimi tushunchasi" bu fuqarolik jamiyatida davlatning vakillik organlarini saylash yo'li bilan yuzaga keluvchi davlat jamoat munosabatlari tizimidir.<sup>24</sup> deb fikr bildiradi.

Saylov tizimining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

Birinchisi: umumiy saylov huquqi prinsipi. Bu prinsip shundan iboratki, O'zbekistonning 18 yoshga to'lgan barcha fuqarolari saylash huquqiga egadirlar, aqldan ozganligi qonunda belgilangan tartibda aniqlangan fuqarolar bundan mustasnodir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga o'ttiz besh yoshdan kichik bo'lmagan, davlat tilini yahshi biladigan, bevosita saylovgacha kamida o'n yil O'zbekiston hududida muqim yashagan O'zbekiston fuqarosi saylanishi mumkin.

O'zbekistonning 25 yoshga to'lgan fuqarosi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga saylanishi mumkin.

<sup>24</sup> Саидов А.Х. Қиёсий конституцияшунослик. Т., 1993, 52-бет.

Halq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga deputatlar saylovi umumiydir. Saylov kunigacha 21 yoshga to'lgan O'zbekiston fuqarolari saylanish huquqiga egadirlar.

Saylovda qatnashish uchun yosh sienzidan boshqa cheklovchi sienzlarning yo'qligi saylov huquqining chinakam va real umumiyligini ko'rsatadi. Bu huquq demokratiyaning eng muhim prinsiplariga - halq suverenitetiga, O'zbekiston fuqarolarining huquqiy jihatdan tengligiga asoslanadi. Aqldan ozganligi qonunda belgilangan tartibda aniqlangan shahslarning mustasno qilinganligi tamomila tabiiy va qonuniyatli bir holdir. Buning boisi shuki, bunday shahslar o'z hatti-harakatlari to'g'risida o'zlariga hisob berolmaydilar va saylovda qatnashish huquqidan ongli ravishda foydalana olmaydilar. O'zbekistonda saylovda qatnashish uchun yosh darajasi oqilona kamaytirilib, 18 yosh qilib belgilangan.

2004 yilning 26 dekabrda mamlakatimizda ilk bor O'zbekiston Respublikasining ikki palatali parlamenti – Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga saylovlar bo'lib o'tdi. Mazkur saylovlarda yuqoridagi partiyalar O'zlarining deputatlikka qo'ygan nomzodlari uchun kurash olib boradilar.

Umumiy saylov huquqi O'zbekistonning barcha fuqarolariga nisbatan joriy etiladi. Fuqaroligi bo'lmagan shahslar va O'zbekiston hududida yashovchi ajnabiylar saylovda qatnashish va vakillik organlariga saylanish huquqiga ega emas. Umumiy saylov huquqi O'zbekiston Respublikasining horijiy davlatlardagi vakolathonalarida, kasalhonalarda, tug'ruqhonalarda, sanatoriylarda va boshqa shifohonalarda, kemalarda, yirik temir yo'l stansiyalarida, aeroportlarda va shu singarilarda saylov uchastkalarini tashkil etish yo'li bilan ham ta'minlanadi. Tegishli organlar saylov uchastkalarini tuzish va ovoz beriladigan joylarni belgilash vaqtida saylovchilar uchun eng ko'p qulaylik vujudga keltirish zarurligini ko'zda tutadi.

Saylov dam olish kuni o'tkaziladi. Halq deputatlariga saylov bilan bog'liq harajatlar davlat hisobidan bo'lib, bu qoida saylov to'g'risidagi qonunlarda mustahkamlab berilgan. Saylov o'tkazish uchun eng yahshi jamoat binosi ajratib beriladi. Fuqarolarning o'z saylov huquqini amalga oshirishiga hech narsa halaqit bera olmaydi.

Qonunda fuqarolarning saylov huquqlarini buzganlikda aybdor shahslarni javobgarlikka tortilishi nazarda tutilgan. Umumiy saylov huquqining keng kafolatlanganligi fuqarolarning ovoz berishda deyarli yoppasiga ishtirok etishlarini ta'minlaydi.

**Ikkinchisi: teng saylov prinsipi.** Saylov tizimining demokratik mohiyati saylovning umumiy bo'lishida, ya'ni barcha fuqarolarning saylovda ishtirok etishidagina emas, shuningdek saylovning teng bo'lishida hamdir. Umumiy va teng saylov prinsiplari o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, bir-birini to'ldiradi. Umumiy saylov bo'lmasa, teng saylov ham bo'lishi mumkin emas. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasining 117-moddasida hamda "Oliy Majlisga saylov to'g'risida"gi qonunida "Har bir fuqaro – saylovchi bir ovozga ega. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy va mulkiy mavqei, irqi va milliy mansubligi, jinsi, ma'lumoti, tili, dinga munosabati, mashg'ulotining turi va hususiyatidan qat'i nazar teng saylov huquqiga egadirlar", deb belgilangan.

Saylov huquqining tengligi, saylovchi faqat bitta saylovchilar ro'yhatiga kiritilishi va ovoz berishi bilan ta'minlanadi.

**Uchinchisi: to'g'ridan-to'g'ri saylov prinsipi.** O'zbekiston Respublikasida saylov umumiy va teng bo'libgina qolmay, shu bilan birga to'g'ridan-to'g'ri hamdir, ya'ni vakillik organlarga deputatlar to'g'ridan-to'g'ri saylanadi, halq deputatlarining barcha vakillik organlarga fuqarolar bevosita saylaydilar. To'g'ridan-to'g'ri saylov to'g'ridan-

to'g'ri bo'lmagan saylovdan shu bilan farq qiladiki, birinchi holda deputat saylovchilar tomonidan bevosita hohish-irodalarini erkin ifoda etishlari yo'li bilan saylanadi.

To'g'ridan-to'g'ri saylovlarning joriy etilishi saylovchilarning deputat bilan bevosita aloqasini kuchaytiradi. To'g'ridan-to'g'ri saylov ko'p bosqichli saylovdan shu bilan farq qiladiki, bunda saylovchilar o'z deputatini yaqin biladilar, undan hisob berib turishini talab qila oladilar.

To'rtinchisi: yashirin ovoz berish prinsipi. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 117-moddasida O'zbekiston Respublikasida Prezident saylovi, hokimiyatning vakillik organlariga saylovlar yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi.

Saylovchilarning saylovlarda yashirin ovoz berishlari demokratiyani amalga oshirish shakllaridan biridir. Zero, bunday ovoz berishda huquqlar o'z hohish-istaklarini erkin ifoda etish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Konstitusiyada saylov huquqining prinsiplarining mustahkamlanishi O'zbekiston Respublikasida saylovchilar uchun barcha imkoniyatlarning yaratilganligi, ularning saylovlarda qatnashish huquqlari hech qanday siyozlar bilan cheklanmaganligi va fuqarolarning davlatni idora etishda aktivligi oshganligining yaqqol namunasidir.

Saylovlar va ularni o'tkazish tartibi. Davlat hokimiyati organlarini shakllantirish tartibi jamiyat a'zolarining diqqat e'tiborida, bo'lib hozirgi kunda ham har doimgidan ko'ra ham ko'proq e'tiborni o'ziga jalb etmoqda.

Jamiyat hayotidagi o'zgarishlar va jamiyat munosabatlaridagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy aloqalar rivoji, har bir shahsning ijtimoiy ongiga ta'sir etib, uning siyosiy-huquqiy ongini shakllanishiga olib kelmoqda. SHunday jarayonlardan biri, albatta saylovga bo'lgan munosabatlarda ko'rinadi.

Demokratik jarayonlarning izchil rivoji o'zbek halqining asriy orzularini yuzaga chiqishiga omil bo'lib kelmoqda.

"Sovetlar davri"dagi sohta saylovlar mazmunini chuqur anglagan halqimiz, o'z taqdirini o'zi belgilash imkoniga ega bo'lganidan so'ng, haqiqiy halq hokimiyatchiligi tamoyilini o'z hayotlarida ko'rish maqsadida, davlat hokimiyatining manbai faqat o'zi ekanligiga ishonch bilan qarab, bugungi siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etmoqda.

Saylov instituti konstitusiyaviy huquqning asosiy instituti bo'lib, bevosita va bilvosita demokratiya shakllaridan biri hisoblanadi.

Halq o'z hokimiyatini o'zi shakllantirar ekan, bu orqali o'z kelajak taqdirini ham shu hokimiyatga ishonib topshirdi. Hokimiyat ushbu ishonch va orzu-umidlarni ro'yobga chiqishiga mas'uldir.

SHuning uchun ham saylov jarayonlarini huquqiy tartibga solish saylovlarni o'tkazishdan ko'zlangan maqsadga erishishda muhim vositadir.

O'zbekiston Konstitusiyasida belgilangan saylov o'tkazish tamoyillarni yanada hayotga keng va chuqur tadbir etish uchun ham ushbu moddada aks etgan qoida juda ham muhimdir.

**"O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi, Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qori Kengisiga, viloyatlar, tumanlar, shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlariga saylov tegishincha ularning konstitusiyaviy vakolat muddati tugaydigan yilda – dekabr oy uchinchi o'n kunligining birinchi yakshanbasida o'tkaziladi.**

Umuman olganda, saylov o'tkazish muddatlarini aniq belgilash demokratik jarayonlarni uzluksizligini ta'minlaydi, halqimizning siyosiy huquqiy qarashlarini yanada kengaytiradi, pirovardida saylovlar natijasiga bog'liq orzu istaklarimizni ro'yobga chiqishida amaliy yordam beradi. SHuningdek, "Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida"gi Konstitusiyaviy Qonunning 6-moddasida hamda "Oliy Majlis saylovi to'g'risida"gi qonunida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining yuqori palatasi Senatning tashkil etilish prinsiplari mustahkamlangan:

"Senat hududiy vakillik palatasi bo'lib, Senat a'zolaridan (senatorlardan) tarkib topadi.

Senat a'zolari Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda – olti kishidan saylanadilar. Senatga saylov Qoraqalpog'iston Respublikasi Juqorg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo'shma majlislarida mazkur deputatlar saylanganidan so'ng bir oy ichida ular orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi.

Senatning o'n olti nafar a'zosi fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan va alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

Saylov kuni yigirma besh yoshga to'lgan hamda kamida besh yil O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashagan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi Senat a'zosi bo'lishi mumkin.

**Senatning vakolat muddati – besh yil."**

Oliy Majlis Senatining tashkil etilishi Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlarning har biridan vakil qilib yuboriladigan a'zolaridan iborat holda tuziladi. Har bir ma'muriy-hududiy birlik, tenglik tamoyili asosida o'zlarining olti nafardan iborat vakillarini Senat a'zoligiga taqdim etadi.

Demak, viloyatlar, Toshkent shahri va Qoraqalpog'iston Respublikasining har biridan **oltitadan** saylab olingan jami – **84 nafar** kishi saylov asosida Oliy Majlisning yuqori palatasi - **Senat a'zosi** hisoblanadi.

Senat tarkibini shakllantirishda tayinlash prinsipi asosida ham o'n olti nafar kishini Senat tarkibiga kiritish belgilangan.

Senat tarkibiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadigan ushbu nomzodlikka talablar shundan iboratki, nomzodlar mamlakat ahamiyati darajasidagi amaliy tajribaga ega bo'lgan, elu-yurtning hurmati, e'tibori va ishonchini qozongan, ijtimoiy hayotning barcha sohalaridan bohabar shahslar bo'lishi lozim. SHunday shahslar ichidan tanlab olinib, davlat boshlig'i tomonidan tayinlangan Senat a'zolari Senat faoliyatida katta xizmat ko'rsatishi tabiiy hol. SHu bilan birga ushbu tarkibdan o'rin olgan shahslar ma'muriy-hududiy birliklar vakillarining hudud manfaatlari borasidagi tortishuv hamda bahslar echimini topishida amaliy yordam beradi. Binobarin elning nufuzli vakillari bo'lmish ushbu tarkibdagi shahslar, davlat boshlig'i singari, halq va davlat manfaatlarining mushtarakligini ta'minlash, mamlakat taqdiri, kelajagi masalalarida ham ulkan mas'uliyatni his etadilar.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylovni o'tkazuvchi saylov okruglari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Juqorg'i Kengesi raisining, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlarining taqdimnomasiga binoan Markaziy saylov komissiyasi tomonidan tuziladi. Saylov okruglarining chegaralari Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining ma'muriy-hududiy tuzilishini inobatga olgan holda belgilanadi. Saylov okruglari, qoida bo'yicha, O'zbekiston Respublikasining butun hududida saylovchilar soni teng holda tuziladi.

**Markaziy saylov komissiyasining qarori asosida saylov okruglarining ro'yhatini ularning chegaralari va saylovchilar sonini ko'rsatilgan holda saylov tayinlanganidan keyin kechi bilan o'n besh kun ichida e'lon qiladi. Saylov okrugi – saylov o'tkazish uchun Konstitusiiya va saylov to'g'risidagi qonunlar asosida belgilab qo'yilgan hududiy saylov birligidir.**

Deputat qaysi okrugdan saylangan bo'lsa, u shu okrug aholisining vakili deb hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risidagi qonunga asosan, Oliy Majlisga saylov o'tkazish uchun bir yuz o'tiz beshta saylov okrugi tuziladi.

O'zbekiston Respublikasi mahalliy halq deputatlar kengashlariga saylov to'g'risidagi qonunga asosan halq deputatlar viloyat va Toshkent shahar kengashlariga deputatlar saylashda - 60-tadan saylov okruglari tuziladi. Halq deputatlari tuman va shahar kengashlariga deputatlar saylashda - 30 tadan saylov okrugi tuziladi.

Har bir saylov okrugidan bitta deputat saylanadi. O'zbekiston Respublikasida saylovlarni tashkil qilish hududiy prinsipi asoslanadi, shuning uchun saylovlar saylov okruglari orqali amalga oshiriladi.

Saylov to'g'risidagi qonunlarga asosan saylov uchastkalari shahar, tuman hokimlarining taqdimnomasiga asosan okrug saylov komissiyalari tomonidan tuziladi.

Saylov uchastkalari saylov tayinlangandan keyin o'ttiz kundan kechikmay tuziladi. Saylov uchastkalari kamida 20 nafar va ko'pi bilan 3000 nafar saylovchilardan iborat tuziladi. O'zbekiston Respublikasida saylovni tashkiliy ravishda o'tkazish uchun quyidagicha saylov komissiyalari tashkil etildi:

1. Markaziy saylov komissiyasi;
2. Okrug saylov komissiyasi;
3. Uchastka saylov komissiyasi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylovlarini, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Referendumini tashkil etish va o'tkazish uchun tuziladi hamda u o'z faoliyatini doimiy asosda amalga oshiradi.

Markaziy saylov komissiyasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga, Saylov to'g'risidagi qonunlarga, referendum to'g'risidagi qonunga va boshqa qonunlarga amal qilib ish olib boradi. Markaziy saylov komissiyasi Oliy Majlis palatalari tomonidan o'n besh nafar a'zodan iborat tarkibda tuziladi. Markaziy saylov komissiyasining a'zolari Qoraqolpog'iston Respublikasi Juqorg'i Kengesi, halq deputatlari, viloyatlar va Toshkent shahar kengashlarining tavsiyasi bo'yicha Oliy majlis palatalari tomonidan tasdiqlanadilar. Markaziy saylov komissiyasining raisi komissiya a'zolari orasidan Prezidentning taqdimnomasi bilan komissiya majlisida saylanadi. Raisning o'rinbosari va komissiya kotibi komissiya a'zolari orasidan komissiya majlisida saylanadilar. Markaziy saylov komissiyasi respublika hududida saylov to'g'risidagi qonunning ijro etilishini nazorat qiladi va uning hamma joyida bir hilda qo'llanishini ta'minlaydi.

Okrug saylov komissiyasi saylov e'lon qilingandan keyin Markaziy saylov komissiyasi tomonidan yigirma kundan kechikmay rais, rais o'rinbosari, kotib va yana kamida 6 nafar a'zodan iborat tarkibda tuziladi. Uchastka saylov komissiyasini okrug saylov komissiyasi tuzadi. Uchastka saylov komissiyasi saylov tayinlangandan keyin ellik kundan kechikmay 5-19 nafar a'zodan, shu jumladan rais, rais o'rinbosari va kotibdan iborat tarkibda tuziladi. O'zbekiston Respublikasining horijiy davlatlardagi vakolathonalari hududida uchastka saylov komissiyasi raisning vazifalarini idora rahbari amalga oshiradi.

Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlar ko'rsatish huquqiga siyosiy partiyalar va fuqarolar ko'rsatish huquqiga egalar. Siyosiy partiya, saylov kampaniyasi boshlaganligi e'lon qilingan kundan kamida olti oy oldin O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro'yhatga olingan, saylovda ishtirok etishini qo'llab-quvvatlovchi kamida ellik ming saylovchining imzosini to'plagan taqdiridagina deputatlikka nomzodlar ko'rsatishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasiga nomzodlar ko'rsatish siyosiy partiyalar tomonidan saylovga oltmish besh kun qolganida boshlanadi va qirq besh kun qolganida tugaydi. Deputatlikka nomzod tanlash tartibi siyosiy partiyalarning o'zlari hal qilgani holda, har bir okrugdan bitta deputat, ya'ni **135 deputat** (135tasi siyosiy partiyalardan, 15tasi – Ekologiya harakatidan saylanadi) ko'rsatishga vakolatlidir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlar ko'rsatish uchun saylash huquqiga ega ega bo'lgan har bir fuqaro yoki fuqarolar guruhi deputatlikka nomzod ko'rsatish uchun tegishli saylov okrugining kamida **uch yuz nafar saylovchisidan iborat saylovchilar tashabbuskor guruhini tuzishi mumkin**. Deputatlikka nomzod ko'rsatgan saylovchilar tashabbuskor guruhi okrug saylovchilari umumiy sonining kamida

sakkiz foizi miqdorida nomzodni qo'llab – quvvatlovchi imzoni to'plashi (imzolayotgan fuqarolar miqdori har bir mahalla, qishloq yoki ovul bo'yicha mutanosib ravishda taqsimlangan bo'lishi shart) kerak.

O'zbekiston Respublikasi Halq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlarining deputatligiga nomzodlar ko'rsatish, siyosiy partiyalar, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari tomonidan saylovga oltmish besh kun qolganida boshlanadi va qirq besh kun qolganida tugallanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlar Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ro'yhatga olingan kundan boshlanib, Markaziy saylov komissiyasi tomonidan belgilanadigan tartibda ommaviy ahborot vositalaridan foydalanishda teng huquq va sharoitlar yaratib berilib, deputatlikka nomzod besh nafarga qadar ishonchli vakilga ega bo'lishi, nomzod ro'yhatga olinganidan keyin o'z ishonchli vakillarini o'zi belgilashi, deputatlikka nomzod qilib ro'yhatga olingan shahs saylovchilar bilan uchrashuvlar o'tkazishi, saylovoldi yig'ilishlarida so'zga chiqish huquqiga egadirlar. Televidenie ko'rsatuvlari va radio eshittirishlarida qatnashish vaqtida, o'rtacha oylik ish haqi saylov o'tkazish uchun ajratiladigan mablag'lar hisobidan saqlangan holda, ishlab chiqarish yoki hizmat vazifalarini bajarishdan ozod bo'lish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod 15 nafarga qadar ishonchli vakillarga ega bo'lishga haqlidirlar. Ishonchli vakillar nomzodga saylov kampaniyasini o'tkazishda yordam beradilar, uni O'zbekiston Respublikasining Prezidenti etib saylash uchun targ'ibot olib borib, davlat va jamoat tashkilotlari, saylov komissiyalari bilan bo'ladigan munosabatlarda nomzodning manfaatini himoya qiladilar.

Halq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi deputatligiga nomzod uch nafarga qadar ishonchli vakilga ega bo'lishi mumkin.

Ta'kidlash joizki, ikki palatali parlament tizimida faqat Qonunchilik palatasigina siyosiylikka ega bo'lgani bois, deputatlar birlashmalari-fraksiya va deputatlar guruhlarini aynan mazkur palatada tuziladi.

“ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi to'g'risida”gi qonunning 23-moddasiga ko'ra, Qonunchilik palatasi deputatlari siyosiy, professional va boshqa asosda fraksiyalar va deputatlar guruhlarini shaklida deputatlar birlashmalarini tuzishi mumkin.

Demak, mamlakatimiz parlamenti faoliyati bilan bog'liq qonun hujjatlariga muvofiq, deputatlar birlashmalarining ikki shakli-fraksiyalari mavjud.

Bu palataga saylangan deputat siyosiy jarayonda faol ishtirok etib, professional nuqtai-nazardan mana shu qonun chiqaruvchilik, qonun yaratuvchilik va qonun ijod qilish ishigi mukammal etarli tayyorgarlikka ega bo'lgan shahslar bo'lishi lozim.

**Ovoz berish.** Ovoz berish saylov jarayonining eng muhim bosqichi bo'lib aynan shu bosqichda halqning hohish irodasi amalga oshadi. Odatda ovoz berish tadbiri saylov qonunchiligida batafsil bayon etiladi.

**Saylov natijalarini aniqlash.** Berilgan ovozlarni hisoblash avval saylov uchastkalarida saylov tugashi bilan darhol boshlanadi. Dastlab har bir saylov okrugida berilgan barcha ovozlar hisoblanadi, so'ngra byulletenlar orasidan haqiqiy emas deb topilganlari chiqarib tashlanadi. Odatda qonunchilik bilan qanday saylov byulletenlari haqiqiy emas deb topilishi mumkinligi belgilangan bo'ladi, shubhali holatlar uchastka saylov organining mahsus bayonnomasi orqali hal qilinadi.

Saylov uchastkasida hisoblab chiqilgan ovozlar yuqori turuvchi saylov organiga yuboriladi. Saylov natijalari saylov okrugi miqiyosida, tegishli holatlarda hududiy va markaziy organlar miqiyosida e'lon qilinadi. Turli mamlakatlarda bir hil ovoz berish jarayoni bo'lib, unda teng miqdorda saylovchilar qatnashgan bo'lsa ham saylov natijalari qo'llaniladigan saylov tizimiga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin.

Takroriy shuningdek, navbatdan tashqari va alohida bir okruglarda saylov o'tkazilganda saylov jarayonining bir muncha soddalashtirilgan tartibi qo'llanilishi mumkin.

Respublikamizda saylov natijalari quyidagi tartibda aniqlanadi, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga deputatlar saylovining natijalarini aniqlash uchastka saylov komissiyalari tomonidan taqdim etilgan bayonnomalar asosida aniqlanadi. Okrug saylov komissiyasi; okrug bo'yicha saylovchilar umumiy sonini; saylov byulletenlari va varaqlari olgan saylovchilarning sonini; ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning sonini; har bir deputatlikka nomzodni yoqlab va unga qarshi berilgan ovozlar sonini; haqiqiy emas deb topilgan saylov byulletenlari varaqlari soni aniqlanadi va Markaziy saylov komissiyasiga belgilangan tartibda taqdim etiladi. O'z navbatida Markaziy saylov komissiyasi okrug saylov komissiyalaridan olingan bayonnomalar asosida okrug saylov komissiyasi singari hisoblash jarayonini amalga oshirgandan so'ng, ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilar yarmidan ko'pining ovozini olgan deputatlikka nomzod deputat etib saylangan hisoblanadi. Agar saylovda saylovchilar ro'yhatiga kiritilgan saylovchilarning o'ttiz uch foizidan kami ishtirok etgan bo'lsa, saylov o'tmagan hisoblanadi. Huddi mana shunday saylov natijalarini aniqlash qoidasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga saylov o'tkazishda hamda halq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga o'tkaziladigan saylovlarda ham amalga oshiriladi.

**Takroriy ovoz berish.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va halq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlari deputatligiga saylash uchun ikki nafardan ortiq nomzod qo'yilgan bo'lsa va nomzodlardan hech biri talab qilingan miqdordagi ovozni olmagan bo'lsa saylovchilarning ovozini eng ko'p olgan ikki nomzod ishtirokida takroriy ovoz berish o'tkaziladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga saylovlarda Markaziy saylov komissiyasi, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va halq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlari deputatligiga saylovlarda okrug komissiyasi tegishincha viloyat, tuman, shahar saylov komissiyasi mazkur qaror haqida okrug saylovchilarini habardor qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga takroriy saylovlar asosiy saylov o'tkazilgan kundan boshlab **bir oy ichida**, lekin kamida **o'n besh kun keyin** o'tkaziladi, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va halq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashlari deputatligiga takroriy saylovlar asosiy saylov kundan keyin **ikki hafta ichida** o'tkaziladi.

Takroriy ovoz berish chog'ida ovoz berishda qatnashgan saylovchilarning ovozini boshqa nomzodga nisbatan ko'p olgan Respublika Prezidentligiga, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va halq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlari deputatligiga nomzod, takroriy ovoz berishda ro'yhatga kiritilgan saylovchilarning yarmidan ko'pi qatnashgan va bu nomzodni yoqlab berilgan ovozlar unga qarshi berilgan ovozlardan ortiq bo'lgan taqdirdagina saylangan hisoblanadi.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov deputatlikka nomzodlarga qo'yiladigan talablar haqida to'htab, quyidagilarni ta'kidlaydi:** "Deputat bo'lishni istagan odam, avvalo, halol-pokligi, ma'naviy etukligi, teran bilimi, qobiliyati, el-yurt manfaatini shahsiy manfaatidan ustun qo'yish kabi hususiyatlari bilangina saylovchilarning ishonchiga sazovor bo'lishi mumkin".<sup>25</sup>

**Siyosiy partiyalar faqat o'z partiyasi a'zolarigina emas, balki partiyasizlarni ham deputatlikka nomzod etib ko'rsatishlari mumkin. Quyidagilar Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod etib ro'yhatga olinmaydilar:**

**1.Qasddan sodir etilgan jinoyat uchun ilgari sudlangan fuqarolar.**

**2.Saylov tayinlangan kunga qadar besh yil mobaynida O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashamagan fuqarolar.**

**3.O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy hizmatchilari, Milliy havfsizlik hizmati, Ichki ishlar vazirligi va boshqa harbiylashtirilgan bo'linmalarning hodimlari.**

**4.Diniy tashkilotlar va birlashmalarning professional hizmatchilari.**

**5.Hukumat a'zolari, sud'byalar, bosh prokuror va prokuratura organlarining mansabdor shahslari, vazirliklar, idoralar rahbarlari va ularning o'rinbosarlari, hokimiyat**

<sup>25</sup> Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. Т.8. Т: Ўзбекистон, 2000. 63-бет.

ijroiya organlarining mansabdor shahslari (viloyatlar, tumanlar va shaharlarning hokimlaridan tashqari) deputat etib saylangudek bo'lsalar, egallab turgan lavozimlaridan bo'shsh to'g'risida ariza berganlari taqdiridagina Oliy Majlis deputatligiga nomzod etib ro'yhatga olinadilar.

Deputatlikka nomzodlarni ro'yhatga olish saylovga o'ttiz besh kun qolganda to'htatiladi. Deputatlikka nomzodlar Markaziy saylov komissiyasi ro'yhatga olganidan keyin besh kun ichida deputatlikka nomzod to'g'risidagi ma'lumot okrug saylov komissiyasi tomonidan mahalliy matbuotda e'lon qilinadi. Deputatlikka nomzodlar ko'rsatish, nomzodni keng muhokama qilish saylov oldi muhim bosqichi hisoblanadi. Deputatlikka nomzodlar Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ro'yhatga olingan kundan boshlab saylov oldi tashviqotlar boshlanadi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod beshtagacha ishonchli vakilga ega bo'lishi mumkin. Mahalliy vakillik organlariga deputatlikka nomzodlar uchtagacha ishonchli vakilga ega bo'lishi mumkin. Ishonchli vakillar nomzod deputat etib saylanishi uchun tashviqot ishlari olib boradilar. Ishonchli vakillarni deputatlikka nomzodlarning o'zi tanlaydi va ularni ro'yhatga olish uchun tegishli okrug saylov komissiyasiga taqdim qiladi.

O'zbekiston Respublikasida hokimiyat vakillik organlariga saylovchilar ro'yhatini uchastka saylov komissiyalari tuzadilar va uni har bir uchastkada tegishli uchastka saylov komissiyasining raisi va kotibi imzolaydi.

Saylovchi faqat bitta saylovchilar ro'yhatiga kiritilishi mumkin. Uchastka saylov komissiyasi saylovchilar ro'yhatlarini tuzish ishiga jamoatchilik vakillarini jalb qilish asosida ish olib boradilar.

Saylov kunigacha yoki saylov o'tkazilayotgan kunda 18 yoshga to'lgan barcha fuqarolar saylovchilar ro'yhatiga kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasining horijiy davlatlardagi vakolathonalari huzurida, sanatoriylar, kasalxonalarda, invalidlar uylarida, dam olish uylarida va boshqa davolash muassasalarida tuzilgan saylov uchastkalari bo'yicha saylovchilarning ro'yhatlari mazkur muassasalar rahbarlarining taqdim etilgan ma'lumotlari asosida tuziladi.

Harbiy qismlarda saylovchilar ro'yhatlari harbiy qismlarning komandirlari taqdim etgan ma'lumotlar asosida tuziladi.

Saylovchilar ro'yhatida har bir saylovchining familiyasi, ismi, otasining ismi tug'ilgan yili va turar joyi ko'rsatiladi. Saylovchilar ro'yhati saylovga 15 kun qolganda saylov uchastka hududida hamma tanishishi uchun taqdim qilinadi. Saylovchilar ro'yhatidan tushib qoldirilgan saylovchilar uchastka saylov komissiyasiga arz qilishi mumkin. Uchastka saylov komissiyasi yigirma to'rt soat ichida uni ko'rib chiqib saylovchilar ro'yhatiga kiritadi. Uchastka saylov komissiyalari ro'yhatlar bilan tanishiladigan joyni va vaqtni saylovchilarga habar qiladi. Agar saylov komissiyasi noto'g'ri qaror qabul qilsa, bu holda saylovchi saylov komissiyasi qarori ustidan qonunda ko'rsatilgan tartibda sudga shikoyat qilishi mumkin.

Saylov byulletenlari saylovga kamida uch kun qolganda etkazib beriladi. Saylov byulletenlari uchastka saylov komissiyalariga qat'iy hisob bilan beriladi. Saylov byulletenlari davlat tilida, shuningdek okrug saylov komissiyasining qaroriga binoan saylov okrugi aholisining ko'pchiligi muomala qiladigan tillarda nashr etiladi.

Saylov to'g'risidagi qonunlarga binoan saylov kuni ovoz berish ertalab soat 6.00 dan kechqurun 20.00 gacha o'tkaziladi. Ovoz berish odatda mahsus ajratilgan binoda o'tkaziladi. SHuning uchun ovoz beradigan joylarni jihozlab qo'yiladi, saylov byulletenlari beriladigan joy belgilanadi va saylov qutilari o'rnatiladi.

Saylov qutilari shunday o'rnatiladiki, ovoz beruvchilar uning oldiga borish uchun yashirin ovoz beradigan kabina yoki honalar orqali o'tadilar. Ovoz berish kabinalari yoki honalarining nechta bo'lishi saylov uchastkalaridagi saylovchilarning soniga qarab belgilanadi. Saylovchi ovoz berish binosiga kelgach, uchastka saylov komissiyasining a'zosiga o'z shahsini tasdiqlovchi hujjatni ko'rsatadi hamda saylovchilar ro'yhatiga imzo qo'yadi. SHundan keyin unga saylov byulleteni beriladi. Agarda saylovchi bir sababga ko'ra saylovchilar ro'yhatiga familiyasi kirmay qolgan bo'lsa uning shahsi, fuqaroligi va turar joyini tasdiqlovchi hujjatga asosan saylovchilar ro'yhati ilovasiga kiritiladi. Ovoz berish vaqtida saylovchi qarshi ovoz berayotgan nomzodlarning saylov byulletenidagi familiyalarini o'chiradi.

Saylov kuni ovoz berish binosi uchastka saylov komissiyasi a'zolarining kamida uchdan ikki qismi hozir bo'lgandagina ochiladi. Uchastka saylov komissiyasi saylov kundan oldin saylov kunini o'tkazish uchun tashkiliy vazifalarni ko'rib chiqadi va har bir saylov komissiyasi a'zosi qanday ishlarni bajarishi kerak, ariza va shikoyatlarni qabul qilish tartibi, tegishli ma'lumotlarni kim tayyorlaydi kabi vazifalar oldindan belgilab olinadi va javobgar a'zolar aniqlanadi. Uchastka saylov komissiyasining raisi soat 20.00 da ovoz berish tamom bo'lganligini e'lon qiladi. Ovoz berish tugagach, saylov qutilarini ochishdan oldin uchastka saylov komissiyasining a'zolari ishtirokida saylov varaqalari solingan yopiq konvertlar qutilarga tashlanadi, foydalanilmagan barcha saylov byulletenlari uchastka saylov komissiyasi tomonidan sanab chiqiladi va bekor qilinadi. Uchastka saylov komissiyasi shu uchastkada ovozga qo'yilgan barcha saylov uchastkasi bo'yicha saylov natijalarini alohida-alohida bayonomasiga yozadi. Okrug saylov komissiyasi uchastka saylov komissiyalari yuborgan saylov bayonotiga asosan okrug bo'yicha berilgan ovozlarni hisoblab chiqadi. Deputatlikka nomzod okrugdagi barcha saylovchilar ovozlarning yarmidan ko'prog'ini olgan taqdirdagina saylangan deb hisoblanadi.

Okrug saylov komissiyasi hokimiyat vakillik organi deputati qilib saylanganlik to'g'risidagi guvohnoma beradi. Markaziy saylov komissiyasi okrug saylov komissiyalaridan olingan bayonlar asosida va saylov to'g'risidagi qonunlar asosida quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

1. Respublika bo'yicha saylovchilarning umumiy sonini;
2. Saylov byulletenlari va varaqalari olgan saylovchilarning sonini;
3. Ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning sonini;
4. Har bir deputatlikka nomzodni yoqlab va unga qarshi berilgan ovozlarning sonini;
5. Deputatlikka nomzodlar ko'rsatilgan har bir siyosiy partiyani yoqlab berilgan ovozlarning umumiy sonini;
6. Haqiqiy emas deb topilgan saylov byulletenlari va varaqalari sonini aniqlaydi.

Ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning yarmidan ko'pining ovozini olgan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod saylangan deb hisoblanadi. Agar saylovchilarning ro'yhatiga kiritilgan saylovchilarning yarmidan kami saylovda ishtirok etgan bo'lsa, saylov o'tmagan deb hisoblanadi.

Agar saylov okrugi bo'yicha ikkitadan ortiq nomzod ovozga qo'yilgan bo'lsa va ulardan birontasi ham ko'pchilik ovozni ololmasa, ya'ni deputat bo'lib saylanmay qolsa, okrug saylov komissiya eng ko'p ovoz olgan ikki nafar nomzodni okrugda takroriy ovozga qo'yishni o'tkazish to'g'risida qaror qabul qiladi. Bu qaror Markaziy saylov komissiyasiga yuboriladi. Markaziy saylov komissiyasining qarori asosida ikki hafta ichida takroriy ovoz berish o'tkaziladi.

Saylov okrugi halq deputatligiga ko'pi bilan ikkita nomzod ovozga qo'yilgan bo'lsa va ulardan birontasi ham belgilangan miqdorda ovoz ololmay saylanmagan bo'lsa yoki saylov okrugi bo'yicha ovoz berishga umumiy saylovchilarning yarmidan ozi qatnashganligi

**uchun shu okrugda saylov bo'lmagan deb hisoblansa yohud saylov haqiqiy emas deb topilsa, Markaziy saylov komissiyasi tegishli okrug saylov komissiyasiga shu okrugda takroriy saylov o'tkazishni topshiradi.**

O'zbekiston Respublikasi hokimiyat vakillik organiga saylangan ayrim deputatlarning vakolatlarini haqiqiy emas deb topilgan taqdirda, saylovchilar tomonidan deputat chaqirib olinganda va boshqa sabablarga ko'ra deputatlik vakolatlari muddatidan oldin to'htatilgan hollarda tegishli saylov okruglarida yangi saylov o'tkaziladi. Halq deputati o'rni bo'shab qolganda uning o'rniga saylov Markaziy saylov komissiyasi tomonidan saylov kunidan kamida bir oy oldin belgilanadi va saylov to'g'risida qonunlar talablari asosida saylov o'tkaziladi. Okrug saylov komissiyasi bo'shab qolgan deputatlar o'rniga saylov o'tkazishda okrug saylov komissiyalari saylov kuniga yigirma besh kun qolganida tuziladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va halq deputatlari mahalliy Kengashlarining vakolat muddati bir hil - besh yil bo'lganligi uchun deputatlik o'rni vakillik organining vakolat muddati tugashiga olti oydan kam vaqt qolganda bo'shab qolsa, yangi deputat saylovi o'tkazilmaydi. Okrug saylov komissiyalari saylov bo'lib o'tgandan keyin deputat bo'lib saylangan deputat to'g'risida Markaziy saylov komissiyasiga bayonot beradi. Markaziy saylov komissiyasi bayonotni olgandan keyin saylangan deputatlarni ro'yhatga oladi, bu haqda deputatni habardor qiladi va Markaziy saylov komissiyasi o'n kun ichida saylangan deputatlar to'g'risida e'lon qiladi. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi davrida ikki marotaba vakillik organlariga saylovlar o'tkazildi, har qanday davlat o'z erkini, huquqini qo'lga kiritar ekan, unda davlat hokimiyatini amalga oshirilishi vaqt o'tgan sari rivojlanib takomillashib boradi hamda yangi islohotlarga talab va ehtiyojlar ortadi.

5. Oliy Majlis –qonun chiqaruvchi oliy hokimiyat organi. Oliy Majlisda qonunlar qabul qilish tartibi.

**O'zbekiston mustaqillik yillari davomida umuminsoniy qadriyatlar va boy milliy an'analar bilan yo'g'rilgan o'ziga hos rivojlanish yo'lini aniqlab oldi. SHu asosda davlat-huquqiy amaliyotda jahon parlamentarizmining boy tajribasidan unumli foydalanilib, respublika konstitusiyaviy tuzumida halq hokimiyatchiligi, hokimiyatlarning bo'linishi prinsiplariga mos davlat organlari tizimini shakllantirildi.**

**Insoniyat huquqiy tafakkurining mahsuli hisoblangan hamda jamiyatning umummilliy vakillik muassasasi sifatida dunyoga kelgan parlament uzoq yillar davomidagi tarihg ega va uning ildizlari XII-XIII asrlardagi ingliz parlamenti va ispan korteslariga borib taqaladi. Parlament so'zining lug'aviy ma'nosi fransiuz tilidan olingan bo'lib, "gapirmoq" ma'nosini anglatadi. Parlamentarizm katta taraqqiyot bosqichini bosib o'tdi va uning chinakam tarihi burjua inqiloblari davridan boshlanadi.**

**Endilikda aksariyat mamlakatlarning parlament institutiga ega ekanligini ta'kidlab o'tmoq joiz. Hozir er kurrasidagi 200 ga yaqin davlatning qariyb 177 tasida oliy qonun chiqaruvchi vakillik organi-parlamentlar bor.**

Hozirgi zamon parlamentlari o'zlarining tuzilishi, vakolatlarining hajmi, ijtimoiy tarkibi, o'z mamlakatlari siyosiy tizimida tutgan o'rni, saylanish tartibi mavqei bilan bir-birlaridan ajralib turadilar. Ular hatto nomlanishi, deputatlarining soni bilan ham farq qiladilar, masalan: AQSHda 535 deputatdan iborat Kongress, Hitoy Halq Respublikasidagi Umumhitoy Halq vakillari majlisida 2979 a'zo, Rossiyada 626 deputatdan iborat Federal Majlis, Misrda 454 deputatli Halq Assambleyasi, Isroilda 120 a'zodan iborat Knesset, Islandiyada 63 a'zodan iborat Al'tningni misol qilib ko'rsatish mumkin. Jahon parlamentlarining ko'pchiligi bir palatali tuzilishga ega. Er kurrasidagi 65 ta davlatda esa, ikki palatali oliy vakillik organlari mavjud. Odatda, ikki palatali parlamentning palatalaridan biri ko'pincha "quyi palata" deb yuritilib, u halqning yagona irodasini ifodalaydi. (AQSHda - Vakillar palatasi, Fransiyada - Millat Majlisi), boshqasi esa "yuqori palata" deb atalib, u davlatning tarkibiy qism (hudud)larining manfaatlarini ifodalaydi. Parlamentlarning bunday tuzilishi muqim demokratik an'analar hamda federativ

davlat tuzilishiga ega bo'lgan mamlakatlarga hosdir. Masalan, shu kabi parlamentlar AQSH, GFR, Braziliya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Yaponiya va boshqalarda faoliyat yurgizmoqdalar.

Jamiyat manfaatlarining ifodachisi bo'lmish parlamentlar, aholining turli ijtimoiy qatlamlari guruhlarining vakillaridan tashkil topadilar. Ko'rinib turibdiki, dunyodagi parlamentlar rang-barang, ammo ular o'z mamlakatlarida muhim ijtimoiy vazifa-qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradilar.

O'zbekiston Konstitusiyasining 10-moddasida, davlat hokimiyatining birdan-bir manbai – halq nomidan faqat u saylagan Respublika Oliy Majlisi va Prezidenti ish olib borishligi qayd etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 11-moddasida aytilganidek, davlat hokimiyatining tizimi-qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linish prinsipiiga asoslanadi. Unga ko'ra, davlat funksiyalari qonun chiqaruvchi organ-Oliy Majlis, davlat va ijroiya hokimiyati rahbari–O'zbekiston Respublikasining Prezidenti va sud hokimiyati o'rtasida taqsimlanadi. O'zbekiston Oliy Majlisi esa davlatning boshqa idoralari bilan hamkorlik qilish bilan birga, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

Hokimiyatlar taqsimlanishi nazariyasida qonun chiqaruvchi hokimiyat alohida o'rin tutadi. Konstitusiyamizda kuchli qonun chiqaruvchi hokimiyatni tashkil etishga alohida e'tibor berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 76-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan - Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati vakolat muddati - besh yil.

Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning X sessiyasi (2002 yil 12 dekabr) «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida» va «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida»gi Konstitusiyaviy Qonunlarning qabul qilinishi bilan ikki palatali parlament shakllantirishning asosiy huquqiy asoslarini yaratish jarayoni muhim ahamiyat kasb etdi.

"O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi Konstitusiyaviy Qonunga binoan "Qonunchilik palatasi" O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining quyi palatasidir. Qonunchilik palatasi saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida saylanadigan bir yuz yigirma deputatdan iborat. Qonunchilik palatasining ishi palata barcha deputatlarining professional, doimiy faoliyat ko'rsatishiga asoslanadi»<sup>26</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati hududiy vakillik palatasi bo'lib, Senat a'zolaridan (senatorlardan) iborat.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a'zolari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'korg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo'shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda - olti kishidan saylanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining **o'n olti nafar** a'zosi fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan hamda alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

Konstitusiyaya parlament deputatlarining hududiy saylov okruglari bo'yicha ko'p partiyalilik asosida saylanishini muhim konstitusiyaviy prinsip sifatida mustahkamlaydi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi saylovini o'tkazuvchi saylov okruglari O'zbekistonning butun hududida saylovchilar soniga qarab teng holda tuziladi.

<sup>26</sup> Ўзбекистон Республикасининг «Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Қонунчилик палатаси тўғрисида» Конституциявий Қонуни.- Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси . 2002. декабр № 12 215 модда

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 77-moddasida Saylov kuni **yigirma besh yoshga to'lgan** hamda kamida **besh yil O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashayotgan** O'zbekiston Respublikasi fuqarosi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a'zosi bo'lishi mumkin. Deputatlikka nomzodlarga qo'yiladigan talablar qonun bilan belgilanadi.

Ayni bir shahs bir paytning o'zida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati va Senati a'zosi bo'lishi mumkin emas, deb ko'rsatilgan.

**Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylanish huquqiga saylov kuniga 25 yoshga**

**to'lgan fuqarolar ega bo'lishi mumkin. YOsh sienzining bunday belgilanishi shu bilan**

**izohlanadiki, deputat ozmi-ko'pmi ma'lum hayot tajribasiga ega bo'lishi, o'zini davlat va**

**jamoat faoliyatida ko'rsata olishi lozim. Bu masala bir qancha horijiy mamlakatlarning**

**Konstitusiyalari va qonunchiligida ham deyarlik shunday hal etilgan. AQSH**

**Konstitusiyasida 25 yoshga to'lmagan shahs Kongressning Vakillar palatasining a'zosi**

**bo'lishi mumkin emas. YAponiya parlamentining vakillar palatasiga 25 yoshga to'lmagan,**

**maslahatchilar palatasiga esa 30 yoshga to'lgan fuqarolar passiv saylov huquqidan**

**foydalana olishlari mumkin. SHuni ham aytish joizki, jahon tajribasida passiv saylov**

**huquqining bundan ham yuqori sienzlari ma'lum.**

*2009 yil dekabr va 2010 yil yanvar oyida saynlangan deputalardan Qonunchilik palatasining birinchi majlisida siyosiy partiyalar – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi (53 a'zo), O'zbekiston Halq demokratik partiyasi (32 a'zo), O'zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi (31 a'zo), O'zbekiston «Adolat» sossial-demokratik partiyasi (18 a'zo) fraksiiyalari va O'zbekiston Ekologik harakatidan saylangan deputatlar guruhi (15 a'zo) ro'yhatga olindi.*

Bu o'zgarishlar eng avvalo Qonunchilik palatasining doimiy, professional asosida ish olib borishidir. Bu palataga a'zo bo'lish uchun asosiy da'vogarlar sifatida siyosiy partiyalar va saylovchilarning tashabbus guruhlari maydoniga chiqadi», - deb ko'rsatadi I.A.Karimov.

Bu palataga saylangan deputat siyosiy jarayonda faol ishtirok etib, professional nuqtai nazardan qonun yaratuvchilik va qonun ijod qilish ishida mukammal etarli tayyorgarlikka ega bo'lgan shahslar bo'lishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining yuqori palatasi Senat esa territorial sub'ektlar - Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlarning har biridan 6 tadan, hamda Prezidentning o'zi tomonidan tayinlanadigan o'n olti nafar el-yurt obro'-e'tiborini qozongan, ko'zga ko'ringan kishilardan tarkib topadi.

Prezident I.A.Karimovning Oliy Majlisning sessiyadagi ma'ruzasida, «yuqori palata a'zolari joylardagi vaziyatdan yahshi habardor, ...ularni saylangan Kengashlar bilan uzviy aloqa bog'lib turuvchi», ko'proq minatdorlar manfaatlarini ifoda etadigan va himoya qiladigan deputatlardan iborat bo'ladi. «Senat qo'yi palata bilan birgalikda bevosita qonun yaratish ishi bilan shug'ullanmasligi lozim», balki unga saylangan har bir Senator Qonunchilik palatasi ishlab chiqqan va taqdim etgan qonunlarni ma'qullashi yoki rad qilish orqali, ham o'z mintaqasi manfaatlarini hisobga olgan holda, hamda butun mamlakatimiz - O'zbekiston taraqqiyoti manfaatlarini hisobga olgan holda qonunlarni yaratishda ishtirok etadi» deb ko'rsatib o'tgandilar.

O'zbekiston Parlamentidagi Qonunchilik palatasi va Senat o'rtasidagi oqilona muvozanat ana shunday konstitusiyaviy-huquqiy nazariy, hamda huquq amaliyoti asosiga tayanadi. Bu esa bozor iqtisodiyotiga o'tish, erkinlashtirilgan «Ochiq demokratik jamiyat» qurishning birinchi konstitusiyaviy huquqiy asosi va kafolati bo'lib hizmat qiladi.

Mamlakatda parlamentarizmning qaror topishi va rivojlanishida mustaqil O'zbekiston milliy davlatchiligi taraqqiyotida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning roli benihoya katta. Oliy Majlis tashkil qilingan birinchi kunlardan oq YUrtboshimiz yangi tipdagi parlamentni tuzishga shahsan alohida e'tibor berdi, oliy qonun chiqaruvchi organ mustaqil O'zbekistonning yangi davlatchiligi tarkibida munosib o'rin egallashi to'g'risida muntazam g'amho'rlik qildi. Oliy Majlis umume'tirof etilgan, to'g'ri ma'noda qonun chiqaruvchi organ – parlament bo'lib qolishiga va maqomi jihatidan hokimiyatning boshqa tarmoqlari bilan tenglashib, zarur konstitusiyaviy-huquqiy muvozanatni ta'minlashiga aynan Prezidentimiz bevosita ko'maklashdi<sup>27</sup>.

Konstitusiiya va «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi to'g'risida»gi qonunida Qonunchilik palatasining vakolatlari ikki turga ajratiladi. Bular O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi hamda Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlaridir.

Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisining X sessiyasida (2002 yil 12 dekabr) «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida» va «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida»gi Konstitusiyaviy qonunlarning qabul qilinishi bilan ikki palatali parlament shakllantirishning huquqiy asoslari yaratildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 78-moddasi va mazkur Konstitusiyaviy qonunning 8-moddasiga binoan, Qonunchilik palatasining Senat bilan birgalikdagi vakolatlari quyidagicha belgilandi:

- 1) O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasini qabul qilish, unga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish;
- 2) O'zbekiston Respublikasining konstitusiyaviy qonunlarini, qonunlarini qabul qilish, ularga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish;
- 3) O'zbekiston Respublikasining referendumini o'tkazish to'g'risida va uni o'tkazish sanasini tayinlash haqida qaror qabul qilish;
- 4) O'zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilash hamda davlat strategik dasturlarini qabul qilish;
- 5) O'zbekiston Respublikasi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hamda sud hokimiyati organlarining tizimini va vakolatlarini belgilash;
- 6) O'zbekiston Respublikasi tarkibiga yangi davlat tuzilmalarini qabul qilish va ularning O'zbekiston Respublikasi tarkibidan chiqishi haqidagi qarorlarni tasdiqlash;
- 7) boj, valyuta va kredit ishlarini qonun yo'li bilan tartibga solish;
- 8) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetini qabul qilish va uning ijrosini nazorat etish;
- 9) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni joriy qilish;
- 10) O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi masalalarini qonun yo'li bilan tartibga solish, chegaralarini o'zgartirish;
- 11) tumanlar, shaharlar, viloyatlarni tashkil etish, tugatish, ularning nomini hamda chegaralarini o'zgartirish;
- 12) davlat mukofotlari va unvonlarini ta'sis etish;
- 13) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vazirliklar, davlat qo'mitalari va davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzish hamda tugatish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash;
- 14) O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasini tuzish;
- 15) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini ko'rib chiqish va tasdiqlash;

<sup>27</sup> Қаранг: Олий Мажлис раиси Э.Х.Халиловнинг иккинчи чақирик Олий Мажлисининг еттинчи сессиясида Ўзбекистон Республикаси референдумини ўтказиш тўғрисидаги нутқи //Халқ сўзи. – 2001. – 11 декабрь.

16) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili va uning o'rinbosarini saylash;

17) O'zbekiston Respublikasi hisob palatasining hisobotini ko'rib chiqish;

18) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasiga hujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug'ilganda urush holati e'lon qilish to'g'risidagi farmonini tasdiqlash;

19) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining umumiy yoki qisman safarbarlik e'lon qilish, favqulodda holat joriy etish, uning amal qilishini uzaytirish yoki tugatish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash;

20) halqaro shartnomalarni ratifikasiya va denonsasiya qilish;

21) ushbu Konstitusiyada nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

Palatalarning birgalikdagi vakolatlariga kiradigan masalalar, qoida tariqasida, avval O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasida, so'ngra Senatida ko'rib chiqiladi.

SHuningdek, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 79-moddasi va "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi Konstitusiyaviy qonunning 9-moddasiga binoan, Qonunchilik palatasi mutlaq vakolatlariga:

1) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeri va uning o'rinbosarlarini, qo'mitalarning raislari va ularning o'rinbosarlarini saylash;

2) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatini dahlsizlik huquqidan mahrum etish to'g'risidagi masalalarni hal etish;

3) o'z faoliyatini tashkil etish va palataning ichki tartib qoidalari bilan bog'liq masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish;

4) siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot sohasidagi u yoki bu masalalar yuzasidan, shuningdek davlat ichki va tashqi siyosati masalalari yuzasidan qarorlar qabul qilish kiradi.

Qonunchilik palatasining mutlaq va Senat bilan birgalikdagi vakolatlarini amalga oshirish tartibi, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining reglamenti to'g'risida"gi va "O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasining Reglamenti to'g'risida"gi qonunlarining alohida normalarida mustahkamlangan. Masalan, O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasini qabul qilish, unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Reglamenti to'g'risida"gi qonunning 18-moddasida, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatning Reglamenti to'g'risida"gi qonunning 14-moddasiga ko'ra tartibga solinadi

Qonunchilik palatasi O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qonun loyihasini tegishli taklif kiritilganidan keyin olti oy ichida uning keng muhokamasini inobatga olgan holda ko'rib chiqishi mumkin.

Agar Qonunchilik palatasi O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qonun loyihasini qabul qilmasa, uni ko'rib chiqish bir yildan keyin qayta boshlanishi mumkin", deb belgilangan. Huddi shu tartibda Asosiy qonunning 78-moddasidagi keyingi bandlarining amaldagi ifodasi Oliy Majlis palatalarining Reglamenti to'g'risidagi qonunlarida mustahkamlangan.

O'zbekiston Respublikasining referendumini o'tkazish to'g'risida va uni o'tkazish sanasini tayinlash haqida qaror qabul qilish vakolati va uni amalga oshirish tartibi Qonunchilik palatasi Reglamenti to'g'risidagi qonunning 27-moddasida mustahkamlangan. Unga ko'ra Qonunchilik palatasi O'zbekiston Respublikasining referendumini o'tkazish kerakligi to'g'risidagi materiallarni va mas'ul qo'mitaning hulosasini ko'rib chiqib, quyidagi qarorlardan birini qabul qilishi mumkin:

1) referendum tayinlash va uni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida;

2) referendumni o'tkazish to'g'risidagi tashabbusni rad etish haqida;

3) referendum o'tkazmasdan turib, referendum o'tkazish to'g'risidagi tashabbusda taklif qilingan qonunni yoki boshqa qarorni qabul qilish haqida.

Qonunchilik palatasining O'zbekiston Respublikasining referendumini masalasi yuzasidan qarori mazkur qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch kun ichida Senatga, shuningdek referendum o'tkazish tashabbuskorlariga yuboriladi.

Agar Qonunchilik palatasi O'zbekiston Respublikasining referendumini o'tkazish to'g'risidagi tashabbusni rad etish haqida qaror qabul qilsa, ayni shu mazmun yoki ma'nodagi ta'rif bilan referendum o'tkazish to'g'risidagi masala kamida bir yildan keyin Qonunchilik palatasiga ko'rib chiqish uchun takroran kiritilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Palatalarning O'zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilash hamda davlat strategik dasturlarini qabul qilish tartibi ularning reglamentlari to'g'risidagi qonunlarda to'g'ridan-to'g'ri belgilanmagan. Lekin bu masalalarni "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti to'g'risida"gi qonunning 19-moddasiga muvofiq amalga oshirilishi mumkin. Chunki Qonunchilik palatasi qonunlar qabul qilinishi talab etilmaydigan masalalar yuzasidan qarorlar qabul qiladi.

Respublika ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilash hamda davlat strategik dasturlarini qabul qilish to'g'risidagi qaror loyihasi Qonunchilik palatasiga kiritilayotganda unga qisqacha tushuntirish hati va boshqa zarur materiallar ilova qilinadi.

Qonunchilik palatasi Spikeri Qonunchilik palatasi qarorining loyihasini dastlabki tarzda ko'rib chiqish uchun mas'ul qo'mita va muddat belgilaydi.

Qonunchilik palatasi Kengashi mas'ul qo'mita vakilining ahborotini eshitib, qaror loyihasini Qonunchilik palatasi majlisining kun tartibiga kiritish to'g'risida qaror qabul qiladi va ma'ruzachini belgilaydi.

Qonunchilik palatasi majlisida mas'ul qo'mita vakilining ahboroti eshitaladi va muhokama natijalari yuzasidan deputatlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan Qonunchilik palatasi qarori qabul qilinadi.

Agar ovoz berish yakunlariga ko'ra qaror loyihasini qabul qilish to'g'risidagi taklif zarur miqdorda ovoz to'plamagan bo'lsa, taklif rad etilgan hisoblanadi.

Qabul qilingan qaror mazkur qaror qabul qilingan kundan e'tiboran besh kun ichida, agarda ba'zi masalalar uchun Qonunda boshqacha qoida belgilangan bo'lmasa, Senatga yuboriladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 79-moddasida Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari quyidagicha belgilandi:

1) Qonunchilik palatasining Spikeri va uning o'rinbosarlarini, qo'mitalarning raislari va ularning o'rinbosarlarini saylash;

2) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining taqdimiga binoan Qonunchilik palatasi deputatini dahlsizlik huquqidan mahrum etish to'g'risidagi masalalarni hal etish;

3) reglamentni hamda o'z faoliyatini tashkil etish va palataning ichki tartib qoidalari bilan bog'liq masalalar yuzasidan boshqa qarorlarni qabul qilish;

4) siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot sohasidagi u yoki bu masalalar yuzasidan, shuningdek davlat ichki va tashqi siyosati masalalari yuzasidan Qonunchilik palatasining qarorlarini qabul qilish kiradi.

Spiker va uning o'rinbosarlarini, qo'mitalarning raislari va ularning o'rinbosarlarini Qonunchilik palatasining mutlaq o'zi saylashi uning mustaqil hokimiyati organi sifatidagi faoliyatining kafolatlaridan biridir. O'zbekistonda Qonunchilik palatasi Spikeri va uning o'rinbosarlarini saylashning o'ziga hos tartibi ishlab chiqildi. Markaziy saylov komissiyasi raisining boshchiligidagi saylangan deputatlardan shakllantiriladigan Oqsoqollar Kengashi palata Spikeri va uning o'rinbosarlarini saylovini ob'ektiv o'tkazilishini ta'minlaydi.

«O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida (78,80-moddalar) va «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining

Konstitusiyaviy Qonunida (8, 9-moddalar) Senatning asosiy vazifalari mutlaq vakolatlarida va Qonunchilik palatasi bilan birgalikdagi tasarrufiga kiruvchi vakolatlarida aks ettirilgan.

Avvalo, shuni ta'kidlash kerakki, mutlaq vakolatlar jumlasiga, birinchidan, Senatning ichki ishini tashkil etish (masalan, Raisni, uning o'rinbosarlarini, qo'mitalarning raislari va ularning o'rinbosarlarini saylash; palata faoliyatini tashkil etish va ichki tartib qoidalari) masalalari kiritilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining takdimiga binoan: O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyaviy sudini, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudini, O'zbekiston Respublikasi Oliy ho'jalik sudini saylash haqida bormoqda. Ana shu vakolatlar jumlasiga shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va uning o'rinbosarlarini tayinlash hamda ularni lavozimlaridan ozod etish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlashni ham kiritish kerak bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan Senat O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining raisini va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining raisini tayinlaydi va lavozimidan ozod qiladi.

O'zbekiston Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Milliy havfsizlik hizmati raisini tayinlash va uni lavozimidan ozod etish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlashni, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakillarini tayinlash hamda ularni lavozimidan ozod etishni kiritish mumkin. SHu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan amnistiya to'g'risidagi hujjatlarni qabul qilish Senatga berilgan yangi parlament vakolati hisoblanadi.

Sud va ijro etuvchi hokimiyat organlarining oliy mansabdor shahslarini saylash, tayinlash va lavozimidan ozod etish masalalari bo'yicha vakolatlarning o'ziga hosligi shundaki, ular vakillik hokimiyatini amalga oshirish nuqtai nazaridan ham, ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshirishda qatnashish jihatidan ham siyosiy hususiyatga ega. Prezidentning taqdimiga binoan saylaydigan va hal qiladigan yoki Prezidentning kadrlarga oid qarorlarini mustahkamlaydigan organ huquqida ishtirok etar ekan, Senat shu asnoda mazkur qarorlar bo'yicha Prezident bilan ma'suliyatni bo'lashishadi va, ayniqsa, Senat o'zi saylash va tayinlashda bevosita ishtirok etadigan mansabdor shahslarga nisbatan nazorat qilishga oid vazifalar amalga oshirilishiga ko'maklashadi. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining raisi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining raisiga taalluqli bo'lib, ular Konstitusiyaga muvofiq Senat oldida hisobot beradilar.

**Mazkur holat «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida»gi Konstitusiyaviy Qonunning hududiy belgiga ko'ra hamda siyosiy va boshqa asosda guruhlar tuzilishini istisno etadigan norma bilan mustahkamlanadi. Qonunlarning loyihalarida va quyi palataning boshqa qarorlarida o'z aksini topadigan partiyaviy va boshqa guruhlarning siyosiy manfaatlari ularning mintaqaviy va umumdavlat manfaatlariga muvofiqligi jihatidan saralashdan o'tkaziladi. Umumdavlat manfaatlarini va hududlarning manfaatlarini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik va vakillik ishida aks ettirish bilan bog'liq boshqa vazifalarni Senat Qonunchilik palatasi bilan hamkorlikda bajaradi.**

Palatalarning birgalikdagi tasarrufiga kiritilgan vakolatlar, aslini olganda, parlamentning qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiruvchi yagona oliy davlat vakillik organi sifatidagi asosiy vazifasini aks ettiradi. Bular ikkala palataning tegishli tartib-taomillar asosida o'zaro muvofiqlashtirilib kelishilgan qarori talab qilinadigan masalalardir. Mazkur tartib-taomillar (palatalarni shakllantirishning turli usullari bilan bir qatorda) ikki palatali tizimga nisbatan uyushtiruvchi elementlar hisoblanadi va bu tizim ularsiz o'zining bajaradigan mazmunini yo'qotadi. Mazkur tartib-taomillar yordamida birgalikdagi tasarrufdagi quyidagi masalalar hal etilib, ularni to'rt guruhga bo'lish kerak bo'ladi: 1) qonunchilikka oid; 2) vakillikka oid; 3) nazoratga oid; 4) ma'muriy-hududiy tuzilishga oid. Bunday bo'lish shartlidir va u tegishli vakolatlarni ancha qulay - tartibli tasavvur etish uchun xizmat qiladi. **Birinchi guruhni**

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasini qabul qilish, unga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish; O'zbekiston Respublikasining konstitusiyaviy qonunlarini qabul qilish, ularga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish; halqaro shartnomalarni ratifikatsiya va denonsatsiya qilish tashkil etadi. Ohirgi vakolat nazorat qilish hususiyatiga ham ega. Yana shuni ta'kidlash kerakki, palatalarning birgalikdagi tasarrufidagi sohalar bo'yicha bir qator qarorlari qonun vositasida amalga oshiriladi. Shu sababli vakolatlarning qolgan toifalari ularning amalga oshirilishi maqsadlari asosida farqlanadi. Jumladan, **ikkinchi guruhni** vakillik vazifalari bilan bog'liq va ijtimoiy-iqtisodiy yoki siyosiy ahamiyatga molik vakolatlar tashkil etadi. Chunki gap O'zbekiston Respublikasining referendumini o'tkazish to'g'risida va uni o'tkazish sanasini tayinlash haqida qaror qabul qilish; O'zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilash hamda davlat strategik dasturlarini qabul qilish to'g'risida bormoqda. Bu shuningdek: O'zbekiston Respublikasi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hamda sud hokimiyati organlarining tizimini va vakolatlarini belgilash; boj, valyuta va kredit ishlarini qonun yo'li bilan tartibga solish; soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni joriy qilish; davlat mukofotlari va unvonlarini ta'sis etish; O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasini tuzish hamdir.

**Vakolatlarning uchinchi guruhi** parlamentning vakillik vazifalari jumlasiga kiritilishi va Prezidentning siyosiy qarorlari qabul qilinishida ishtirokchi sifatida ta'riflanishi mumkin. Mazkur vakolatlar jumlasiga: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetini qabul qilish va uning ijrosini nazorat etish; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili va uning o'rinbosarini saylash; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vazirliklar, davlat qo'mitalari va davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzish hamda tugatish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini ko'rib chiqish va tasdiqlash; O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining hisobotini ko'rib chiqish; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasiga hujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug'ilganda urush holati e'lon qilish to'g'risidagi farmonini tasdiqlash; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining umumiy yoki qisman safarbarlik e'lon qilish, favqulodda holat joriy etish, uning amal qilishini uzaytirish yoki tugatish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlashni kiritish kerak bo'ladi.

**Nihoyat, vakolatlarning to'rtinchi guruhi**, bular: O'zbekiston Respublikasi tarkibiga yangi davlat tuzilmalarini qabul qilish va ularning O'zbekiston Respublikasi tarkibidan chiqishi haqidagi qarorlarni tasdiqlash; O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi masalalarini qonun yo'li bilan tartibga solish, chegaralarini o'zgartirish; tumanlar, shaharlar, viloyatlarni tashkil etish, tugatish, ularning nomini hamda chegaralarini o'zgartirishdir.

Palatalarning birgalikdagi vakolatlariga kiradigan masalalar asosan avval O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasida, so'ngra Senatida ko'rib chiqilishi kerak. Mazkur qoida Senatning Qonunchilik palatasi qarorlarini tasdiqlash yo'lini tiyib turish, muvozanatni saqlash, shu tariqa, butun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi faoliyatining samaradorligini oshirishga davat etilgan organ sifatidagi mavqeini mustahkamlaydi. Muvofiq ravishda yuqori palataning faoliyati pirovard natijada hokimiyat bo'linishi tizimida qonunchilik hokimiyatining rolini kuchaytirishga va aholining siyosiy faolligini oshirishga ko'maklashmog'i lozim. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining o'n birinchi sessiyasidagi ma'ruzasida ta'kidlaganidek, «Bugungi kunda hokimiyat tuzilmalarini tashkil etish va muvozanatni saqlashning yangi, yanada mukammal demokratik tizimini shakllantirish bo'yicha ko'rilayotgan choralar, Konstitusiyamizga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar jamiyat siyosiy hayotini faollashtirish, fuqarolarimizda ijtimoiy va siyosiy jihatdan o'zligini anglash tuyg'usining kuchayishi uchun jiddiy omil bo'lmog'i kerak».<sup>28</sup>

<sup>28</sup> Каримов И.А. Биз танлаган йўл - демократик тараккиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. -Т. 11. - Т.: Ўзбекистон, 2003. - 224-бет.

Demak, yuqori palatani tashkil etish g'oyasiga, avvalo, butun parlament faoliyati samaradorligini oshirishning, birinchi navbatda, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish manfaatlariga javob beradigan maqsadi asos qilib olingan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati alohida-alohida majlis o'tkazadilar.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlislari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qasamyod qilganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining, ichki va tashqi siyosatining eng muhim masalalari yuzasidan nutq so'zlaganda, chet davlatlarning rahbarlari nutq so'zlaganda o'tkaziladi. Palatalarning kelishuviga binoan qo'shma majlislar boshqa masalalar yuzasidan ham o'tkazilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati o'z vakolatlariga kiritilgan masalalar yuzasidan qarorlar qabul qiladi.

Qonun chiqarish funksiyalarini amalga oshirish parlament, parlament palatalarining asosiy vazifasi hisoblanadi. Hokimiyatni taqsimlash prinsipi shuni nazarda tutadiki, jamiyat barcha ijtimoiy tabaqalarining manfaatlarini, butun millat manfaatlarini to'liq ifoda etuvchi parlamentlar boshqa davlat organlari tomonidan chiqariladigan boshqa huquqiy hujjatlarga nisbatan kattaroq yuridik kuchga ega bo'lgan normativ huquqiy hujjatlarni qabul qilishlari lozim. Aynan parlamentlar tomonidan qabul qilinuvchi qonunlar boshqa barcha davlat organlari uchun zarur huquqiy negizni vujudga keltiradi, mazkur organlarning o'zaro hamda fuqarolar va ularning birlashmalari bilan munosabatlarini belgilab beradi. Hullas, qonunlar davlat va jamiyat hayotida juda muhim rol o'ynaydi. SHuning uchun ham qonun chiqarish jarayonini, uning sub'ektlari maqomini, qonun chiqarish jarayonining bosqichlarini huquqiy tartibga solish muhim ahamiyatga ega.

Rasmiy nuqtai nazardan qonun chiqarish jarayoni tashkiliy-huquqiy tadbirlar (tartib-qoidalar)ning murakkab tizimi bo'lib, ularning natijasi o'laroq qonun yaratiladi<sup>29</sup>. Mazkur tartib-qoidalar majmui qonun chiqarish jarayonining bosqichlarini tashkil etadi.

Qonun chiqarish jarayoni bosqichlarining ahamiyati shundaki, mazkur bosqichlarning har birining mazmunini tashkil etuvchi, huquq normalari bilan tartibga solingan barcha tadbirlarini amalga oshirishgina yuqorida zikr etilgan jarayonning navbatdagi bosqichiga o'tish imkonini beradi. Qonun chiqarish jarayonining bosqichlariga olim P.A. Rustamov tomonidan berilgan ta'rifga umuman olganda qo'shilish mumkin: «Mazkur jarayon bosqichlari - qonun loyihalarini tayyorlash, kiritish, muhokama qilish, qabul qilish va qonunlarni e'lon qilish bo'yicha yuridik ahamiyatga ega bo'lgan va tartib-qoidalarga asosan rasmiylashtirilgan tadbirlar majmui». To'g'ri, mazkur ta'rif qonun chiqarish jarayonining bosqichlariga qonun loyahasini tayyorlash bosqichini ham kiritadi. YUqorida qayd etib o'tilganidek, bu qarash bahsli bo'lib, u «qonun chiqarish jarayoni» tushunchasining keng talqinidan kelib chiqadi. Qonun loyahasini parlamentga kiritish mazkur jarayonning dastlabki bosqichidir.

Qonun ijodkorligi faoliyatining asoslarini belgilaydigan muhim qoidalar, avvalambor, konstitusiyalarda, mahsus qonunlarda mustahkamlanadi, qonun chiqarish jarayonining bosqichlari parlament va uning palatalari reglamentlarida mufassalroq tartibga solinadi.

**Qonunchilik tashabbusi** huquqini ro'yobga chiqarish qonun chiqarish jarayonining birinchi bosqichi deb e'tirof etiladi.

Avvalambor, qonunchilik tashabbusi huquqi deganda nima tushunilishini aniqlab olish kerak. YUridik adabiyotlarda mazkur masala yuzasidan yakdillik mavjud emas.

**Birinchi**dan, yuqorida qayd etib o'tilganidek, ayrim mualliflar qonun loyahasini ishlab chiqish bosqichini qonun chiqarish jarayonining birinchi bosqichi deb ajratishni taklif qiladilar, boshqa mualliflar esa qonun qabul qilish ehtiyojini aniqlash, qonun chiqarish jarayonini prognoz qilish to'g'risida so'z yuritadilar<sup>30</sup>. Ammo shuni nazarda tutish kerakki, bu erda ikki tushuncha:

<sup>29</sup> Бу хакда каранг: Законодательный процесс. Понятие. Институты. Стадии. Научно-практическое пособие / Отв. ред. Р.Ф. Васильев. – М., 2000.

<sup>30</sup> Каранг: Законодательный процесс, с. 179.

qat'iy yuridik ahamiyatga ega bo'lgan «qonun chiqarish jarayoni» tushunchasi hamda umumijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan «qonun ijodkorligi» tushunchasi aralashtirib yuborilyapti. Qonun qabul qilish ehtiyojini aniqlash, prognoz qilish qonun chiqarish jarayonining bosqichlariga emas, balki qonun ijodkorligi sohasiga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi (2003 yilgi) Reglamentining 66-moddasida mazkur masala quyidagicha hal qilinadi: qonunchilik tashabbusi huquqi yangi qonunlar loyihalarini, amaldagi qonunlarga o'zgartishlar kiritish to'g'risidagi qonunlar loyihalarini, yangi qonunlarni qabul qilish yoki amaldagi qonunlarga o'zgartishlar kiritish to'g'risidagi takliflarni (qonun chiqarish to'g'risidagi takliflarni) kiritish shaklida amalga oshiriladi<sup>31</sup>.

O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasida ham qonunchilik tashabbusi huquqi sub'ektlarining ancha keng doirasi belgilangan. Konstitusiyaning 83-moddasiga muvofiq, qonunchilik tashabbusi huquqiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, o'z davlat hokimiyatining oliy vakillik organi orqali Qoraqalpog'iston Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyaviy sudi, Oliy sudi, Oliy ho'jalik sudi, Bosh prokurori ega.

Qonun bilan tasdiqlangan Qonunchilik palatasining Reglamentining 13-moddasiga muvofiq, palataga kelib tushgan qonun loyihasini palata Spikeri qonun loyihasini dastlabki tarzda ko'rib chiqadigan mas'ul qo'mitaga topshiradi. Mazkur qo'mita qonun loyihasini ko'rib chiqishga qabul qilish mumkinligi yoki uni qonunchilik tashabbusi huquqi sub'ektiga qaytarish zarurligi to'g'risida palata Kengashiga belgilangan muddatda hulosa taqdim etadi. Palata Kengashi mas'ul qo'mitaning hulosasi asosida qonun loyihasini palata ko'rib chiqishi uchun qabul qilish yoki u belgilangan talablarga nomuvofiq bo'lsa, uni qonunchilik tashabbusi huquqi sub'ektiga qaytarish to'g'risida qaror qabul qiladi. Aniqlangan kamchiliklar bartaraf etilgandan keyin qonun loyihasi palata ko'rib chiqishi uchun yangitdan kiritilishi mumkin. Agar tegishli masala bo'yicha qonun loyihasi palata tomonidan birinchi o'qishda qabul qilingan bo'lsa, ayni shu masala bo'yicha boshqa qonun loyihasi palata ko'rib chiqishi uchun qabul qilinmaydi. Qonun loyihasi ko'rib chiqish uchun qabul qilinganda palata Kengashi qonun loyihasini palata majlisida ko'rib chiqishga tayyorlash muddatini belgilaydi. Ko'rib chiqish uchun qabul qilingan qonun loyihasi tegishli materiallar bilan palata qo'mitalariga yuboriladi. Qonunchilik palatasining Reglamentiga «Qonun loyihasini dastlabki tarzda muhokama qilish» deb nomlangan mahsus modda kiritilgan bo'lib, unda qonun loyihasini mas'ul qo'mita tomonidan dastlabki tarzda muhokama qilish va uni palatada birinchi o'qishda ko'rib chiqishga tayyorlash tartibi belgilab qo'yilgan. Qonun loyihasini qo'mitada muhokama qilish ochiq, qonun loyihasini kiritgan qonunchilik tashabbusi huquqi sub'ektning vakili taklif etilgan holda o'tkaziladi. Agar palata Kengashi tomonidan boshqa muddat belgilangan bo'lmasa, mas'ul qo'mita qonun loyihasi olingan kundan e'tiboran ikki oy ichida uni o'z hulosasini hamda palata Kengashining qonun loyihasini birinchi o'qishda ko'rib chiqish uchun palata kiritish to'g'risidagi qarorining loyihasini ilova qilib, palata Kengashi ko'rib chiqishi uchun taqdim etadi.

Hulosa qilib aytish mumkinki, bir qator davlatlar (Rossiya, O'zbekiston va boshqalar)da qonunlarni ko'rib chiqish va qabul qilish parlament tajribasi qonunchilik tashabbusi bosqichidan keyin **qonun loyihasini dastlabki tarzda ko'rib chiqish bosqichini** ajratish imkonini beradi. Mazkur bosqich asosan kiritilgan qonun loyihasi yuzasidan bildirilgan taklif-mulohazalar va takliflarni palataning bosh (mas'ul) qo'mitasi tomonidan umumlashtirish hamda qonun loyihasi haqida hulosa tayyorlashni nazarda tutadi. Mazkur bosqich qonun loyihasining keyingi taqdiri uchun muhim ahamiyatga ega: salbiy hulosa chiqarilgan taqdirda qonun loyihasi palatada qo'llab-quvvatlanishi ehtimoli juda kam.

**Qonun loyihasini parlament (uning palatasi)da ko'rib chiqish va muhokama qilish hamda uni takomiliga etkazish** qonun chiqarish jarayonining navbatdagi bosqichidir. Mazkur

<sup>31</sup> Шундай қилиб, қонун лойиҳасини ишлаб чиқиш босқичлари қонун чиқариш жараёни доирасидан четда қолади. Қонунчилик ташаббуси ҳуқуқининг мазмунини ёритишга нисбатан мазкур ёндошувга қўшилиш лозим.

bosqich parlament, uning palatalari majlislarida qonun loyihasi ustida ishlashni (odatda bu ish qonun loyihasini o'qish deb ataladi), shuningdek qonun loyihasi ustida parlament qo'mitalari va komissiyalarida ish olib borishni o'z ichiga oladi.

Qonun loyihalari plenar majlislarda, qoida tariqasida, bir nechta (ikki, uch, to'rt) o'qishda ko'rib chiqiladi. Har bir o'qishning o'z maqsadi va o'z vazifalari bo'ladi.

***Qabul qilingan qonun loyihasini parlamentning ikkinchi palatasida ko'rib chiqish*** ikki palatali parlamentlardagi qonun chiqarish jarayonining navbatdagi bosqichidir. Zero, bir palatali parlamentda qonunni qabul qilish ohirgi marta ovozga qo'yish orqali amalga oshiriladi (u birinchi o'qishdan keyin ham, ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi o'qishdan keyin ham o'tkazilishi mumkin). Ikki palatali parlamentda esa qonun loyihasi ayni bir tahrirda ikkala palata tomonidan qabul qilingan holdagina qonunga aylanadi (ammo ba'zan palatalardan biri qayta ovozga qo'yish orqali boshqa palata tomonidan qabul qilingan qonun loyihasini ma'qullamagan ikkinchi palataning «veto»sini engishi ham mumkin).

Palatalar qonun chiqarish faoliyati sohasida teng huquqlarga ega bo'lgan va ular o'rtasida qonunni qabul qilish yuzasidan kelishmovchiliklar chiqqan hollarda murosaga keltirish tartib-qoidalari qo'llanadi.

Konstitusiiyaning 84-moddasiga muvofiq: a) qonun Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, Senat tomonidan ma'qullanishi lozim; b) Senat tomonidan rad etilgan qonun Qonunchilik palatasiga qaytariladi va agar qonunni qayta ko'rib chiqishda palata deputatlar umumiy sonining uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan qonunni yana ma'qullasa, qonun parlament tomonidan qabul qilingan hisob-lanadi hamda imzolanishi va e'lon qilinishi uchun O'zbekiston Res-publikasi Prezidentiga palata tomonidan yuboriladi; v) Senat tomonidan rad etilgan qonun yuzasidan palatalar yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni bartaraf etish uchun tenglik asosida kelishuv komissiyasini tuzishi mumkin. Palatalar kelishuv komissiyasi takliflarini qabul qilganda qonun odatdagi tartibda ko'rib chiqilishi kerak. Konstitusiyaga o'zgartishlar kiritish, konstitusiyaviy qonunni qabul qilish parlamentning har bir palatasidagi umumiy ovozlar sonining uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozini talab etadi. Odatdagi qonunlar oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi.

Oliy Majlis palatalarining qonunlar bilan tasdiqlangan reglamentlari, Konstitusiiya, konstitusiyaviy qonunlarning qoidalariga muvofiq, Qonunchilik palatasi qabul qilgan qonun loyihasining Senatda o'tishini, yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni bartaraf etish uchun tuziladigan kelishuv komissiyasi ishining tartib-qoidalarini (qonun Senat tomonidan rad etilgan holda), shuningdek qonunni palatalar tomonidan qayta ko'rib chiqish tartibini va boshqa masalalarni tartibga soladi.

Senatga kelib tushgan qonun ro'yhatga olinadi va Senat Raisi tomonidan qonunni ko'rib chiqadigan hamda uning yuzasidan hulosasi tayyorlaydigan qo'mitaga topshiriladi. Senatning majlisida qonunni ko'rib chiqish ma'ruzachining mas'ul qo'mita hulosasini o'qib eshittirishidan boshlanadi. SHundan so'ng qonun muhkamasi tartibida senatorlar so'zga chiqishlari mumkin. Qonun Senat tomonidan belgilangan ko'pchilik ovoz bilan ma'qullansa, imzolanishi va e'lon qilinishi uchun belgilangan tartibda respublika Prezidentiga yuboriladi. Rad etilgan qonun yuzasidan palatalar yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni bartaraf etish uchun kelishuv komissiyasi tuzishi mumkin.

Mazkur komissiya tenglik asosida tuziladi. Kelishuv komissiyasining har bir palatadan saylangan a'zolari o'z tarkibidan ko'pchilik ovoz bilan komissiya hamraislarini saylaydilar. Kelishuv komissiyasi qonunning yagona matnini ishlab chiqish maqsadida Senatning har bir e'tirozini alohida-alohida ko'rib chiqadi. Kelishuv komissiyasi o'z ishining natijalari yuzasidan kelishmovchiliklarni bartaraf etish bo'yicha takliflarni o'z ichiga olgan hulosasi qabul qiladi. Hulosaga qonunga doir o'zgartishlar va qo'shimchalar loyihasining matni ilova qilinadi. Hulosasi Senat va Qonunchilik palatasiga topshiriladi. Senat kelishuv komissiyasining takliflarini qabul qilgan taqdirda qonun Qonunchilik palatasi tomonidan odatdagi tartibda qayta ko'rib chiqilishi kerak. Qonunni Qonunchilik palatasida qayta ko'rib chiqishda kelishuv komissiyasining bayonnomasida mavjud bo'lgan takiflarga muhokama qilinadi. Kelishuv komissiyasining

loaqal bitta taklifi rad etilgan taqdirda Qonunchilik palatasi, Senat kelishuv komissiyasiga yangi takliflarni taqdim etish uchun palata tomonidan ma'qullangan tuzatishlarni ino-batga olgan holda ishni davom ettirishni taklif qilishi mumkin. Agar Senat qonunni kelishuv komissiyasining tahririda ma'qullamasa, u rad etilgan qonun sifatida Qonunchilik palatasiga qaytarilishi kerak. Senat tomonidan rad etilgan, shuningdek respublika Prezidenti tomonidan e'tirozlar bilan qaytarilgan qonunni Qonunchilik palatasi tomonidan qayta ko'rib chiqish tartibi belgilangan. Mazkur tartibga muvofiq, mas'ul qo'mita rad etilgan qonun yuzasidan hulosa beradi. Mas'ul qo'mitaning hulosasini olganidan so'ng palata qonunni qayta ko'rib chiqish masalasini o'z majlisining kun tartibiga kiritadi. Agar Qonunchilik palatasi Senat tomonidan rad etilgan qonunni palata deputatlari umumiy sonining uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan yana ma'qullasa, qonun Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan hisoblanadi va Prezidentga imzolash va e'lon qilish uchun yuboriladi.

**Qonunni imzolash va e'lon qilish** - qonun chiqarish jarayonining ohirgi bosqichi. Mohiyat e'tibori bilan, mazkur bosqich ikki yoki uch bosqichni o'z ichiga oladi. Mazkur bosqichni tavsiflovchi yuqorida zikr etilgan tadbirlar parlamentdan tashqarida amalga oshiriladi. Faqat Buyuk Britaniyada hamda parlament tushunchasiga nafaqat uning palatalari, balki davlat boshlig'i ham kiradigan mamlakatlarda qonunni imzolash va e'lon qilish bosqichi parlament doirasida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti taqdim etilgan qonunni imzolamaslik va unga o'z e'tirozlarini ilova etib, uni takroran muhokama qilish va ovozga qo'yish uchun parlamentga qaytarish huquqiga ega. Prezident vetosi nisbiy hususiyatga ega va parlament tomonidan bekor qilinishi mumkin. Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi to'g'risidagi Konstitusiyaviy qonunga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qaytarilgan qonun palatada qayta ko'rib chiqilib, quyidagi qarorlardan biri qabul qilinadi: 1) qonunni Prezidentning mulohazalarini va takliflarini inobatga olgan holda qabul qilish; 2) qonunni bundan buyon ko'rib chiqmaslik; 3) qonunni avvalgi qabul qilingan tahririda ma'qullash. Agar qonun avvalgi qabul qilingan tahririda palata deputatlari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan ma'qullansa, Senatga ma'qullash uchun yuboriladi. Senat (senatorlar umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan) qonunni ma'qullash yoki rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi. Agar qonun Senat tomonidan ma'qullansa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan o'n to'rt kun ichida imzolanishi va e'lon qilinishi kerak. O'zbekiston Respublikasi (o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritilgan) Konstitusiyasining 84-moddasiga muvofiq, qonunlarning e'lon qilinishi ular qo'llanilishining majburiy shartidir. Mazkur qoidalar Oliy Majlis palatalarining qonunlar bilan tasdiqlangan reglamentlarida ham o'z aksini topgan.

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yhati**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, Toshkent "O'zbekiston". 2014 yil.
2. Karimov I.A. "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish ustuvor maqsadimizdir"/Prezident I.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi // T.: "O'zbekiston". 2010 B-14.
3. Karimov I. A. [«Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsiepsiyasi»](#) mavzuida 2010 yil 12 noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlis ma'ruza.
4. Karimov I.A. ona yurtimiz bahtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida hizmat qilish – eng oliy saodatdir. –T. O'zbekiston. 2015.
5. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -T.: O'zbekiston, 2011.
6. O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risidagi 1991 yil 31 avgustdagi konstitusiyaviy qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik asoslari: Hrestomatiya.- T.: Adolat, 2000.
- 6.O'zbekiston Respublikasining kodekslari. T., "Adolat", 2010 yil.

7. Mustaqillik deklarasiyasi. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik asoslari: \_Hrestomatiya.-T.: Adolat, 2000.
8. Boboev H.B.O'zbekistonning Konstitusiyasini o'rganish kursi. –T.: O'zbekiston, 2002.
9. Rahmonqulov H. Fuqarolik: huquqlar, erkinliklar, burchlar. -T. : O'zbekiston 1991.
10. Saidov A.H. Saylov huquqi. -T.: Adolat, 1994
11. Saidov A.H, Juzjoniy A. SHarq va inson huquqlari. -T.: Ijtimoiy fikr, 1998.
12. Saidov A.H., Sultonov S.A. O'zbekiston Konstitusiyasi va inson huquqlari.-T.: 1999.
13. Saidov A.H. Mustaqillik qomusi. –T.:O'zbekiston, 1993.
14. Tojihonov U., H.Odilqoriev, A.Saidov. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyaviy huquqi. –T, 2001.
15. Husainov O. Inson huquqlari. - T.: Adolat, 1997.

**9-mavzu: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitusiyaviy huquqiy maqomi.  
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining konstitusiyaviy-huquqiy maqomi.  
Mahalliy davlat hokimiyati va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining  
konstitusiyaviy-huquqiy asoslari.**

**Ma'ruza – 2 soat**

**Reja**

1. O'zbekiston Respublikasida Prezidentlik boshqaruv shaklini joriy etilishi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitusiyaviy, huquqiy maqomi va uning vakolatlari.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va uning vakolatlari.
3. O'zbekistonda mahalliy hokimiyat organlari, ularning vakolat va vazifalari.
4. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tushunchasi va uning faoliyati.

**1. O'zbekiston Respublikasida Prezidentlik boshqaruv shaklini joriy etilishi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitusiyaviy, huquqiy maqomi va uning vakolatlari.**

**Prezidentlik boshqaruv tushunchasi.** O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston Respublikasida davlat boshligidir.

Prezidentning davlat markaziy organlari tizimida tutgan o'rni davlat boshqaruvining shakliga bog'liq. Agar mamlakatda davlat boshqaruvining parlamentar respublika turi o'rnatilsa, bu holda Prezident faqat davlat boshligi vazifasini bajaradi va u ijroiya hokimiyatiga rahbarlik kila olmaydi. SHuning uchun ham boshqaruvning parlamentar respublika shartida prezident davlat organlari tizimida markaziy o'rnini egallaydi.

Boshqaruvning Prezidentlik respublikasi shaklidagi davlatlarda esa respublika Prezidenti davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i hisoblanadi. U davlat organlari tizimida markaziy o'rinni egallaydi.

Boshqaruvning Prezidentlik respublika shakli hozirgi kunda yirik rivojlangan mamlakatlarda AKSH, Fransiya, Lotin Amerikasidagi aksariyat davlatlarda va shuningdek, rivojlanayotgan respublika shaklidagi mamlakatlarning qariyb barchasida o'rnatilgan.

Mustaqil Respublika davlat boshlig'isiz yashay olmaydi, chunki prezidentlik instituti mustaqillikning asosiy belgilaridan biridir. SHuning uchun barcha horijiy mamlakatlar Konsitusiyalarida Prezident lavozimi bo'sh kolgan vaqtda uning o'rnini to'ldirish masalasi qonunda mustahkamlangan, turli davlatlarda bu masala turlicha hal etiladi. CHunonchi visie-prezident lavozimi mavjud davlatlarda bo'sh qolgan prezident lavozimini keyingi navbatdagi saylovlargacha visie-prezident egallaydi. Navbatdan tashqari saylovlar o'tkazilishi, Italiya va Fransiya respublikalarida bu lavozimni egallovchi shahs etib Parlament Oliy palatasi Raisi, Avstriya va Finlandiyada esa hukumat boshlig'i bo'lishi mustahkamlangan. Agar prezident lavozimi bo'sh bo'lsa, bu muddatda prezident saylash uchun umumhalq Prezident saylovi o'tkaziladi.

**O'zbekistonda prezidentlik boshqaruvi.** Konstitusiyaga muvofik, O'zbekiston Prezidenti davlat boshlig'idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta'minlaydi (**90-modda**). Respublika Prezidenti oliy hokimiyat

va boshqaruv orgnalarining bahamjihat ishlashini ta'minlaydi; vazirliklar, davlat qo'mitalari hamda davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzadi va tugatadi, shu masalaga doir farmonlarni keyinchalik O'z.R Oliy Majlisining palatalari tasdig'iga kiritadi. Hukumat va uning a'zolari Prezident oldida hisob beradilar. Respublika Prezidenti davlat va millatning mushtarak birligi ramzidir. Mazkur sifatda Prezident O'zbekiston Respublikasining suvereniteti, havfsizligi va hududiy yahlitligini muhofaza etish, fuqarolarning huquq va erkinliklariga, konstitusiiya va qonunlariga rioya etilishining kafilidir. U davlat qonun chikaruvchi va ijroiya organlarining bahamjihat ishlashini ta'minlaydi. Respublika Prezidenti davlat va ijroiya hokimiyatlarining boshlig'i sifatida Respublika konstitusiiya va qonunlariga asoslanib hamda ularni ijro etish yuzasidan respublikaning butun hududida majburiy kuchga ega bo'lgan farmonlar, qarorlar va farmoyishlar chiqaradi. Prezident Konstitusiiyaga binoan o'z vazifasini bajarib turgan davrda boshqa haq to'lanadigan lavozimini egallashi yoki vakillik, qonun chikaruvchi organlarning deputati bo'lishi mumkin emas. Bunday holat respublika Prezidentining ijro etuvchi hokimiyatni boshqarishidan va hokimiyat bulinishi prinsiipiga asosan, qonun chikaruvchi hokimiyatdan mustaqil bo'lishi kerakligidan kelib chiqadi. SHuning uchun ham respublika Prezidenti bevosita saylovchilar tomonidan saylanadi va uning dahlsizligi qonun bilan mustahkamlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti quyidagi faoliyatni amalga oshiradi:

U O'zbekiston Respublikasida davlat boshlig'idir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga o'ttiz besh yoshdan kichik bo'lmagan, davlat tilini yahshi biladigan, bevosita saylovgacha kamida 10 yil O'zbekiston hududida muqim yashagan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi saylanishi mumkin. Prezidentning vakolat muddati 7 yil (2002 yil 27 yanvarda Respublikamizda o'tkazilgan umumhalq referendumini o'tkazilgandan so'ng o'zgartirish kiritildi). Bir shahs surunkasiga ikki muddatdan ortiq O'zbekiston Respublikasining Prezidenti bo'lishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tomonidan umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan etti yil muddatga saylanadi. Prezidentni saylash tartibi O'zbekiston Respublikasining qonuni bilan belgilanadi.

Prezident o'z vazifasini bajarib turgan bir davrda boshqa haq to'lanadigan lavozimni egallashi, vakillik organini deputati bo'lishi, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin emas.

Prezidentning shahsi dahlsizdir va qonun bilan muhofaza etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentini vakolatlari mustahkamlangan:

- \* fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiiyasi va qonunlarga rioya etilishining kafilidir;
- \* O'zbekiston Respublikasining suvereniteti, havfsizligi va hududiy yahlitligini muhofaza etish, milliy davlat tuzilishi masalalariga doir qarorlarni amalga oshirish yuzasidan zarur chora tadbirlar ko'radi;
- \* mamlakat ichkarisida va halqaro munosabatlarida O'zbekiston nomidan ish ko'radi;
- \* muzokaralar olib boradi hamda O'zbekiston Respublikasining shartnoma va bitimlarini imzolaydi, respublika tomonidan tuzilgan shartnomalarga, bitimlarga va uning qabul qilingan majburiyatlarga rioya qilishni ta'minlaydi;
- \* o'z huzurida akkreditasiyadan o'tgan diplomatik hamda boshqa vakillarning ishonch va chaqiruv yorliqlarini qabul qiladi;
- \* O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakillarni tayinlash uchun nomzodlarni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining senatiga takdim etadi;
- \* O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari ko'rib chiqish va tasdiqlashi uchun O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodining takdim etadi va lavozimidan ozod etadi;

- \* O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining takdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi a'zolarini tasdiqlaydi va lavozimlardan ozod qiladi;
- \* O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va uning o'rinbosarlarini tayinlaydi va ularni lavozimidan ozod qiladi;
- \* O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va uning o'rinbosarlarini tayinlaydi va ularni lavozimidan ozod qiladi, keyinchalik bu masalalarni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tasdig'iga kiritadi;
- \* O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga Konstitusiiyaviy sud raisi va sud'yalari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining raisi, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining raisi lavozimlariga nomzodlarni takdim etadi;
- \* viloyat, tumanlararo, tuman, shahar, harbiy, ho'jalik sudlarining sud'yalarini tayinlaydi va lavozimlaridan ozod etadi;
- \* viloyatlar hokimlarini hamda Toshkent shahar hokimini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi, keyinchalik bu masalalarni tegishli halq deputatlari Kengashlarning tasdig'iga kiritadi. Konstitusiiyani, qonunlarni buzgan, yoki o'z sha'ni qadr qiymatiga dog' tushiradigan hatti harakatlar sodir etgan tuman shahar hokimlarini Prezident o'z qarori bilan lavozimidan ozod etishga haqli;
- \* respublika davlat boshqaruv organlarining, shuningdek hokimlarning qabul kilgan hujjatlarni to'htatadi, bekor qiladi;
- \* O'zbekiston Respublikasining qonunlarini imzolaydi va e'lon qiladi. Qonunga o'z e'tirozlarini ilova etib, uni takroran muhokama qilish va ovozga qo'yish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qaytarishga haqli;
- \* O'zbekiston Respublikasiga hujum qilinganda yoki tajovuzdan bir birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug'ilganda urush holati e'lon qiladi va qabul qilingan qarorini uch kun ichida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining tasdig'iga kiritadi;
- \* favqulotda vaziyatlar (real tashqi havf, ommaviy tartibsizliklar, yirik halokat, tabiiy ofat, epidemiyalar) yuz bergan taqdirda fuqarolarning havfsizligini ta'minlashni ko'zlab, O'zbekiston Respublikasining butun hududida yoki uning ayrim joylarida favqulotda holat joriy etadi va qabul qilingan qarorni uch kun ichida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tasdig'iga kiritadi. Favqulotda holat joriy etish shartlari va tartibi qonun bilan belgilanadi;
- \* O'zbekiston Respublikasi Kurolli Kuchlarining Oliy Bosh qo'mondoni hisoblanadi. Kurolli Kuchlarning oliy qo'mondonlarini tayinlaydi va vazifasidan ozod qiladi, oliy harbiy unvonlar beradi;
- \* O'zbekiston Respublikasining ordenlari, medallari va yorlig'i bilan mukofatlaydi, O'zbekiston Respublikasining malakaviy va fahriy unvonlarini beradi;
- \* O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga va siyosiy boshpana berishiga oid masalalarni hal etadi;
- \* amnistiya to'g'risidagi hujjatlarni qabul qilish haqidagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga takdimnoma kiritadi va O'zbekiston Respublikasining sudlari tomonidan hukm qilingan shahslarni avf etadi;
- \* O'zbekiston Respublikasi Milliy havfsizlik xizmatini tuzadi. Milliy havfsizlik xizmati raisini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi, keyinchalik shu masalalarga doir farmonlarni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tasdig'iga kiritadi;
- \* ushbu Konstitusiiya va O'zbekiston Respublikasining qonunlarida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Prezident o'z vakolatlarini bajarishni davlat idoralariga yoki mansabdor shahslarga topshirishga haqli emas.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Konstitusiyaga va qonunlarga asoslanib hamda ularni ijro etish yuzasidan Respublikaning butun hududida majburiy kuchga ega bo'lgan farmonlar, qonunlar va farmoyishlar chiqaradi.

Qonunchilik palatasi yoki Senat tarkibida ularning normal faoliyatiga tahdid soluvchi hal qilib bo'lmaydigan ihtiloflar yuz berganda yohud ular bir necha marta O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasiga zid qarorlar qabul kilgan taqdirda, shuningdek Qonunchilik palatasi bilan Senat o'rtasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining normal faoliyatiga tahdid soluvchi hal qilib bo'lmaydigan ihtiloflar yuz berganda O'zbekiston Respublikasining Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyaviy sudi bilan bamaslahat qabul qilgan qarorlari asosida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi, Senat tarqatib yuborilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi, Senat tarqatib yuborilgan taqdirda yangi saylov uch oy mobaynida o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senat favqulotda holat joriy etilgan davrda tarqatib yuborilishi mumkin emas.

Prezident O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi yig'ilishida quyidagi kasamyodni qabul kilgan paytdan boshlab o'z lavozimiga kirishgan hisoblanadi:

«O'zbekiston halqiga sadoqat bilan hizmat qilishga, Respublikaning Konstitusiyasi va qonunlariga kat'iy rioya etishga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga kafolat berishga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti zimmasiga yuklatilgan vazifalarni vijdonan bajarishga tantanali qasamyod qilaman».

## **2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va uning vakolatlari.**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatini amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, uning o'rinbosarlari, vazirlar, davlat qo'mitalarining raislaridan iborat. Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumating boshligi Vazirlar Mahkamasi tarkibida o'z lavozimi bo'yicha kiradi.

Vazirlar Mahkamasining tarkibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan shakllantiriladi. O'zbekiston Respublikasi Bosh Vaziri nomzodi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining takdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tomonidan ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi. Vazirlar Mahkamasining a'zolari O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri takdimiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

Vazirlar Mahkamasi iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy Majlis qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlar va farmoyishlar ijrosini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etadi va unga rahbarlik qiladi, uning samarali ishlashi uchun shahsan javobgar bo'ladi, Vazirlar Mahkamasining majlislariga raislik qiladi, uning qarorlarini imzolaydi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining topshirig'iga binoan halqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi nomidan ish ko'radi, O'zbekiston Respublikasi qonunlarida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlarida nazarda tutilgan boshqa vazifalarni bajaradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ushbu Konstitusiiyaning 89-moddasi va 93-moddasiga asoslangan holda Vazirlar Mahkamasi majlislarida raislik qilishga, Vazirlar Mahkamasi vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilishga, shuningdek Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlarini, O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri farmoyishlarini bekor qilishga haqli.

Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oldida javobgardir.

## **3. O'zbekistonda mahalliy hokimiyat organlari, ularning vakolat va vazifalari.**

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi va demokratik huquqiy davlat barpo etish jarayonidagi eng muhim vazifalardan biri davlat hokimiyatining vakillik va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarini yangi sharoitlarga mos keladigan tizimini yaratish edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "YAngi uyni qurmay turib, eskisini buzmay" degan ko'rsatmalarga amal qilib, vakillik organlarining viloyat, tuman va shahar bo'g'inlari saqlanib qolindi.

Hozirgi davrda joylarda mahalliy davlat hokimiyatining ikki organi tashkil etiladi: vakillik organi va ijroiya organi, ya'ni joylarda o'z faoliyatini yakkaboshlik asosida olib boruvchi hokimlik institutlari.

Konstitusiyaga muvofiq viloyatlarda, tumanlarda, shaharlarda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari tashkil qilinadi, tumanlarga buysunadigan shaharlarda va shahar tarkibiga kiruvchi tumanlarda davlat hokimiyati vakillik organlari tashkil qilinmaydi.

Respublikamizda bozor munosabatlari chuqurlashib, huquqiy demokratik institutlari rivojlangan sari, mahalliy ijro hokimiyati organlari faoliyati ham takomillashib bormoqda. Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini tashkil etishda hokimiyatning taqsimlanish prinsipi asos qilib olganligi mahalliy ijro va vakilliy organlari o'rtasidagi huquqiy munosabatlarning Konstitusiyaviy holati aniqlanadi. Hokimiyatning vakillik va ijroiya organlari joylarda ularga berilgan vakolat doirasida mustaqil faoliyat yuritadi. Ular o'zaro munosabatlarda hamkorlik asosida o'z faoliyatlarini tashkil etadilar. Mahalliy halq deputatlari Kengashlariga hokimlarning rahbarligi uning Kengash oldidagi mas'uliyatini oshiradi.

Hokimlar halq deputatlari Kengashlari sessiyasiga tayyorgarlik ishlariga rahbarlik qiladi, sessiyani chaqiradi, sessiya haqida deputatlarini va aholini habardor qiladi, sessiya ishiga rahbarlik qiladi, hamda sessiyada qabul qilingan qarorlarni imzolaydi. Hokimlik lavozimi 1992 yil qabul qilingan "Mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to'g'risida"gi qonun asosida tasis etildi.

Hokimlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan miqdorda birinchi o'rinbosar va o'rinbosarlarga ega bo'ladi. SHuningdek, hokim apparati kotibiyatdan, boshqarmalar, bo'limlar va boshqa bo'linmalaridan iborat bo'lib, ularning tashkil etilish tartibi va faoliyat yuritishi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan tegishli Nizomlar asosida belgilanadi.

Halq deputatlari kengashlari va hokimlarning vakolat muddati, Asosiy Qonunimizning 101-moddasiga asosan besh yil hisoblanadi. Hokimlarning o'zlarining amaliy faoliyatlarida O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, yuqori turuvchi idoralarning qarorlari va farmoyishlari, tegishli halq deputatlari kengashlari qarorlarini amalga oshirish ishini ta'minlaydilar.

Hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim muammolarini muhokama qilish uchun hokim huzurida Maslahat Kengashi tuziladi, uning tarkibiga Hokimning birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlari, kotibiyat boshlig'i kiradi.

Hokimning qaroriga muvofiq Maslahat Kengashi tarkibiga halq deputatlari va boshqa tashkilotlardan bo'lgan vakillar ham kirishi mumkin. Maslahat Kengashi majlislari zarurat bo'lib kolganda hokim tomonidan chaqirtiriladi va uning rahbarligida o'tkaziladi. Majlis kun tartibini hokim tasdiqlaydi, Kengash majlislarida muhokama qilinadigan masalalarni ko'rib chiqish uchun tuman va shahar hokimlari, halq deputatlari Kengashining doimiy komissiyalarining raislari, bo'limlar, bosh boshqarmalar rahbarlari, jamoatchilik va ho'jalik tashkilotlarining, ommaviy ahborot vositalarining vakillari qatnashadi. Majlislarni tayyorlash va o'tkazish hokim tomonidan uning vakolatini hamma muddatiga tasdiqlanadigan reglamentga muvofiq amalga oshiriladi. Majlisning borishi haqida bayonnoma yozib boriladi.

Muhokama qilingan masalar bo'yicha hokim tomonidan qaror yoki farmoyishlar qabul qilinadi va imzolanadi. O'zbekiston Respublikasi mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimi 1996 yil 30 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida ma'muriy-hududiy monopolik ob'ektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish masalalarini hal etish tartibi to'g'risida"gi qonunda O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy bo'laklari Qoraqalpog'iston

Respublikasi viloyat, tuman, shahar, shahardagi tuman, kishlok, ovul va shahar qo'rg'onidan iboratdir,-deyilgan.

O'zbekiston Respublikasining halq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlari faoliyatining tashkil etilishi O'zbekiston fuqarolari tomonidan umumiy, teng, to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish orqali oshkoralik yo'li bilan amalga oshiriladi.

Halq deputatlari Kengashlariga deputatlar saylovi, 1994 yil 5 mayda qabul qilingan "Halq deputatlari viloyat, tuman (shahar) deputatlari saylovi to'g'risida"gi qonun bilan amalga oshiriladi, halq deputatlari Kengashlariga deputatlarni saylash huquqi 18 yosh, saylanish huquqi esa 21 yoshdan deb belgilangan. Saylovlar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan ularning vakolat muddatidan ularning vakolat muddatining tugashiga kamida 3 oy qolganida tayinlanadi.

Halq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashlariga deputatlar saylashda 60tadan ko'p bo'lmagan, halq deputatlari tuman va shahar Kengashlariga deputatlar saylashda 30 tadan ko'p bo'lmagan hududiy saylov okruglari tuziladi. Saylov komissiyalari tuziladi, saylov kunidan 3 oy oldin deputatlikka nomzod ko'rsatish boshlanadi. Viloyat va Toshkent shahar Kengashlari deputatligiga nomzodlarni siyosiy partiyalar halq deputatlari tuman va shahar Kengashlari hamda fuqarolarning tashabbuskor guruhlarini ko'rsatadi.

Halq deputatlari tuman va shahar Kengashlari deputatligiga nomzodlar ko'rsatish huquqiga siyosiy partiyalar, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari va fuqarolarning tashabbuskori guruhlarini egadirlar. Siyosiy partiyalar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan qonunda belgilangan tartibda saylov kunidan kamida 6 oy oldin ro'yhatdan o'tgan bo'lishi lozim. Saylov o'tgandan so'ng saylangan halq deputatlari Kengashlarining birinchi sessiyasi kechi bilan uch haftalik muddat ichida chiqartiriladi va u eng keksa deputatlardan biri tomonidan ochiladi, rais saylanguncha sessiyani olib boradi. Sessiyada Mandat komissiyasi tuziladi, so'ng doimiy komissiya a'zolari belgilab olinadi. Doimiy komissiya o'z faoliyatini "O'zbekiston Respublikasining Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonun va komissiya faoliyati haqida nizom asosida yuritadi. Bundan tashkari hokimliklar huzurida hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga qarab komissiyalar tizimi turli hil bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyaning 100-moddasida: mahalliy hokimiyat organlari konstitusiyaviy vazifalari belgilangan. Ular quyidagilar:

- qonuniylikni, huquqiy-tartibotni va fuqarolarning havfsizligini ta'minlash;
- hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish;
- mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig'imlarni belgilash, byudjetdan tashqari jamg'armalarni hosil qilish;
- mahalliy kommunal ho'jalikka rahbarlik qilish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish;
- fuqarolar holati aktlarini qayd etishni ta'minlash;
- normativ hujjatlarni qabul qilish hamda O'zbekiston Respublikasi qonunlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshirish;

Mahalliy hokimiyat organlari o'z hududida fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta'minlaydi, fuqarolik holati aktlarini qayd kiluvchi organlarning faoliyatiga rahbarlik qiladi. Agar tuman va kichik shaharlarda bu ishlarni bevosita mahalliy hokimiyat organlari amalga oshirsalar, viloyatlarda va Toshkent shaharlarida bu vazifa shu joyda adliya organlari orqali yo'lga qo'yiladi.

Mahalliy davlat hokimiyati o'z vakolatlariga taaluqli turli masalalarni tegishli hududda ijro qilinishi majburiy bo'lgan hujjatlar qabul qilish bilan hal qilar qabul qilish bilan hal qiladilar. Ularning qabul kilayotgan qarorlarining samaradorligi ularning sinchikovlik bilan tayyorlashga va qonunchilikda ko'rsatilgan ma'lum talablarning bajarilishiga ko'p jihatdan bog'liq.

Birinchiidan, halq deputatlari Kengashi va hokimining har bir qarori aniq ma'lumotlarga asoslangan bo'lishi lozim.

Ikkinchiidan: Kengash yoki hokim qabul qiladigan har bir qaror keng ma'noda tejamkor bo'lishi shart.

Uchinchidan, qaror qonuniy bo'lishi kerak, ya'ni u tegishli organ tomonidan vakolati doirasida qabul qilinganligini bildiradi va u yoki bu masalani qonun yo'l qo'ygan vositalar bilan hal qilinishi ko'zda tutadi.

Qaror va boshqa hujjatlar ishlab chiqilishi va tayyorlanishida aniq maqsadning ifodalanishini ta'minlab beradi.

### **Mahalliy vakillik organlari va ijroiya hokimiyat organlari munosabatlarining huquqiy tartibga solinishi**

Hokimlarning ijro va vakillik organlari tizimiga boshchilik qilishi joylarda davlat hokimiyatining amalga oshirilishida ma'sul shahsni belgilaydi.

Konstitusiiyaning 102-moddasiga ko'ra: viloyat hokimlari va Toshkent shahar hokimi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi va vazifasidan ozod etiladi, tegishli viloyat va Toshkent shahar halq deputatlari sessiyasida tasdiqlanadi. Bu holat viloyat hokimlari va Toshkent shahar hokimi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli hududidagi vakili ekanligini bildiradi. Hokimlarning bu tartibda shakllanishi markaziy va mahalliy hokimiyat o'rtasida ichki bir bog'lanishni yuzaga keltiradi va ularning mustahkamligini ta'minlaydi.

Viloyat tarkibidagi tuman va viloyatga bo'ysunuvchi shaharlar hokimlari viloyat hokimi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi, tegishli hudud halq deputatlari Kengashi sessiyasi tomonidan tasdiqlanadilar

Shahar tarkibiga kiruvchi tumanlar va tumanga bo'ysunuvchi shaharlar hokimlari shahar hokimi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi hamda halq deputatlari shahar kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi qonunda halq deputatlari Kengashi va hokimning faoliyatida qonuniylikning kafolatlari belgilangan. Ushbu qonunning 26-moddasiga muvofiq halq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining qarorlari Konstitusiiya va qonunlarga, Respublika Prezidentining farmonlari qarorlari va farmoyishlariga zid bo'lmasligi kerak. Aks holda ular O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan bekor qilinadi.

Qonunchilikda davlat organlari va mansabdor shahslar tomonidan fuqarolarning ariza va hatlarning ko'rib chiqilishining ma'lum tartibi belgilangan. O'zbekiston Respublikasida «Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida»gi qonunga binoan, hokimlar ariza va hatlar bo'yicha qilingan ishlarining hisobini olib boradi va hokimlarning zimmasiga ularni to'g'ri va o'z vaqtida ko'rib chiqilishini nazorat qilish yuklatilgan.

Hokimlarning vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

- \* mamlakatimizda va horijiy mamlakatlarda viloyat, tuman va shaharning rasmiy vakili sifatida ishlarni amalga oshirish;
- \* boshqa hududlar bilan shartnoma va bitimlar tuzish;
- \* O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonun va boshqa huquqiy hujjatlarini, Vazirlar Mahkamasi va o'z hududidagi halq deputatlari Kengashi qarorlarining bajarilishi ta'minlash;
- \* investisiya, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish dasturlarini, valyuta jamg'armasi loyihalarining bajarilishini, madaniy-tarihiy yodgorliklarni asrashni, tabiiy va komunal ho'jaligi resurslaridan kengroq foydalanishi, atrof-muhit himoyasini, inson huquqlari va shahs erkinligini, fuqarolar sog'ligini himoyalashni va o'z hududidagi boshqa vazifalarni hal qilishni ta'minlash;
- \* tegishli hududda amaldagi qonun va qarorlarga zid bo'lgan barcha harakatlar korhona, tashkilot va jamiyatlar, birlashma, assosiasiiya, shuningdek, quyi organlar tomonidan qabul qilingan hujjatlarni bekor qilish;
- \* tegishli hududda o'z vakolati doirasidan kelib chiqib, barcha yuridik va jismoniy shahslar bajarishi shart bo'lgan qarorlar qabul qilish;
- \* ma'muriy hududni ijtimoiy - iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish, ularni tegishli halq deputatlari Kengashi tasdig'iga taqdim etish;

- \* mahalliy byudjet kirim va chiqimlari ko'rsatkichlariga aniqlik kiritish, shuningdek byudjetning bajarilishi haqida hisobot tayyorlab Kengash sessiyasi tasdig'iga taqdim etish;
- \* o'z muovinarini, tizim bo'limlari rahbarlarini tayinlash va lavozimidan ozod qilish, o'z devoni tizimini tuzib, ularga rahbarlar tayinlash.

#### **4. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tushunchasi va uning faoliyati.**

Prezident I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining bir yilligidagi yig'ilishda «posyolka va ovullar, mahallalar o'zini-o'zi boshqarish asosida ish yuritadi»,- deb ta'kidlagan edi.

«Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi qonun yangi tahrirda 1999 yil 14 aprelda qabul qilindi. Ushbu qonunga ko'ra o'zini-o'zi boshqarish organlarini ikki bosqichda: oldin yangi qishloq, shahar va ovullar tuzib, undan keyin shahardagi mahallalarda oldingi mahalla qo'mitalari o'rnida tuzilishi belgilandi.

O'zini-o'zi boshqarish organlarining saylash tartibi, faoliyatini tashkil etish hamda vakolat doirasi qonun va o'zini-o'zi boshqarish organlari saylov to'g'risidagi Oliy Majlis qarori bilan belgilanadi.

O'zini-o'zi boshqarish har qanday demokratik tuzumning asosini tashkil etadi. O'zini-o'zi boshqarish organlari amaliy ish olib borishi uchun yig'in raisi (oqsoqol)ni va uning maslahatchilarini saylaydi. Bu saylov har 2,5 yilda bo'ladi.

Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari fuqarolarga jamoat va davlat boshqaruv ishlarida qatnashish huquqini yo'lga qo'yishda yordam beradi, o'z hududida ijtimoiy va ho'jalik masalalarni echadi, ommaviy va madaniy tadbirlar uyushtiradi, davlat hokimiyat organlari ishlarida va O'zbekiston Respublikasi qarorlariga amal qilishda, Prezident Farmonlari Respublika hukumati, halq deputatlari Kengashi va hokimiyatlar qarorlarini bajarishda fuqarolarni birlashtiradi.

Hozirgi kunda aholiga mahalla orqali ijtimoiy yordam ko'rsatish mehanizmi muvoffaqiyatli ishlab turibdi. Bu holat aholining mahallaga bo'lgan e'tiborini yanada oshirdi. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyatiga yaqindan ko'maklashuvchi «Mahalla» hayriya jamg'armasi faoliyat ko'rsatmokda. O'zbekiston Respublikasi viloyatlar shahar, tumanlar miqyosida tashkil etiladigan fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish ishlari bo'yicha oqsoqollar Kengashi muvofiqlashtirish vazifasini bajaradi.

1999 yil noyabr oyida Respublika Oqsoqollar Kengashi tuzildi va tarkibi belgilandi. O'zbekiston «oqsoqollar Kengashi» va Respublika «Mahalla» jamg'armasi fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyatini yanada to'g'ri yo'lga qo'yishda moddiy va ma'rifiy jihatdan ko'maklashmokda.

O'zini o'zi boshqarish organlari moliyaviy resurslari halq deputatlari tuman va shahar Kengashlari tomonidan ajratiladigan byudjet mablag'laridan, fuqarolar va mehnat jamoalarining ixtiyoriy hayr-ehsonlaridan, hayriya jamg'armalari va mahalliy hokimiyat tomonidan ajratib beriladigan mablag'lardan tashkil topadi.

O'zini-o'zi boshqarish organlarining moliyaviy mablag'lari bankdagi mustaqil hisob raqamlarida saqlanadi, ular tomonidan mustaqil tasarruf etiladi va olib qo'yilishi mumkin emas.

Qonunga muvofiq o'zini-o'zi boshqarish organlarining moliyaviy qarorlari, shuningdek rais (oqsoqol)ning hatti-harakatlari ustidan sud tartibida shikoyat qilinishi mumkin.

«Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylov to'g'risida» 609-II – sonli O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish qonuni 2013 yil 22 aprelda qabul qilindi va uning (yangi tahriri) matni e'lon qilindi.

#### **Nazorat savollari**

1. Prezidentlik boshqaruv deganda nimani tushunasiz?
2. O'zbekistonda birinchi Prezidentlik boshqaruvi kachon vujudga kelgan?
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlarini aytib bering.

4. Vazirlar Mahkamasi qanday davlat organi?
5. Vazirlar Mahkamasi faoliyatini aytib bering.
6. Halq deputatlari viloyat, shahar, tuman Kengashlari faoliyati qanday tashkil etiladi?
7. Takroriy savol va takroriy ovoz berish qanday tartibda amalga oshiriladi.
8. O'zini-o'zi boshqarish organlari qanday vakolatlarga ega?
9. Hokimlar qanday tartibda o'z lavozimiga tayinlanadi va qancha muddatga?
10. O'zini o'zi boshqarish organlarining jamiyatda tutgan o'rnini va ahamiyati qanday?

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yhati**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, Toshkent "O'zbekiston". 2014 yil.
2. Karimov I.A. "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish ustuvor maqsadimizdir"/Prezident I.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi // T.: "O'zbekiston". 2010 B-14.
3. Karimov I. A. [«Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsiepsiyasi»](#) mavzuida 2010 yil 12 noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlis ma'ruza.
4. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -T.: O'zbekiston, 2011.
5. Karimov I.A. Ona yurtimiz bahtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. –T. O'zbekiston. 2015.
6. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -T.: O'zbekiston, 2011.
7. O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risidagi 1991 yil 31 avgustdagi konstitusiyaviy qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik asoslari: Hrestomatiya.- T.: Adolat, 2000.
8. O'zbekiston Respublikasining kodekslari. T., "Adolat", 2010 yil.
9. Saidov A.H- Mustaqillik qomusi. –T.: O'zbekiston, 1993.
10. Saidov A.H. Qiyosiy konstitusiyashunoslik. -T.: 1995

### **9-mavzu: O'zbekiston Respublikasida Sud hokimiyatining tashkil etilishi va funksiyalarining umumiy tavsifi. O'zbekiston Respublikasi Prokuraturasi.**

**Ma'ruza -2 soat**

#### **Reja**

1. O'zbekistonda sud hokimiyatining tashkil etilishi va vazifalari.
2. Sud hokimiyat organlarining konstitusiyaviy-huquqiy tamoyillari.
3. O'zbekiston Respublikasida prokuratura organlari tushunchasi va tizimi.
4. O'zbekiston Respublikasida prokuratura organlarining vakolatlari va faoliyati.

#### **1. O'zbekistonda sud hokimiyatining tashkil etilishi va vazifalari.**

Sud hokimiyati kishilik jamiyatida davlatning bunyodga kelishi bilan uzviy bog'liq. u ijtimoiy kelishmovchiliklar, nizolar, tajovuzlarga barham berish va adolat o'rnatish uchun xizmat qiladigan hokimiyat tariqasida vujudga kelgan. Jamiyatni boshqarish uchun davlatning yuzaga kelishi va unda sud faoliyatiga bo'lgan ehtiyoj ham adolat g'oyalarining mahsulidir. Davlatning qachon va qaysi hududda birinchi marta bunyodga kelgani hozircha aniq ma'lumotlar yo'qligidek, sud tizimi ham dastlab qachon va qayerda shakllanganligi noma'lum. Jamiyatni boshqarishga oid barcha zarur ishlarni dastlabki davrlarda jamoaga sardor, sarkarda bo'lgan, katta obro'-e'tiborli, tajribali shahslar bevosita o'zlari bajarganlar. Keyinroq esa jamiyat a'zolarining o'rtasida yuz beradigan nizo va to'qnashuvlarni bartaraf etish, haklilarni himoyalash, nohaklarga ta'siriy choralar ko'rish vazifalarini alohida lozimligi hakamlar zimmasiga yuklangan.

Davlat boshqaruvining turli sohalari ixtisoslasha borgan sari sud tizimi va huquqni muhofaza qiluvchi mahsus idoralar faoliyat ko'rsata boshlagan. Ular qanchalik odilona va hozirjavoblik bilan ishlasalar, jamiyat a'zolarining ichki tinch-totuvligi, hamjihatligi shunchalik mustahkam bo'ladi.

Kishilik jamiyati har jihatdan adolatga intiladi. Jumladan, davlat hokimiyatining o'zi ham, u chiqargan qonun-qoidalar, o'rnatilgan tartiblar ham odilona bo'lmog'i shart. Qonunlar ijrosi va jamiyatdagi nohush hollarga, nifoqlarga barham berish ham adolatga suyangan bo'lishi lozim.

Ana shu borada sohibqiron bobokalonlarimiz Amir Temurning "Kuch adolatdadir" degan da'vati bejiz emas. Mamlakatimizda, umuman, sharqda adolatparvarlikka, huquqshunoslikka alohida e'tibor berilgan. Aynan yurtimizda musulmon huquqi-fikh eng yuqori darajada qadrlanib kelingan. Imom Buhoriy, At-Termiziy, Burhoniddin Marg'iloniy kabi o'nlab olamshumul fikshunos allomalar bilan fahrlanishga haqlimiz.

Barcha rivojlangan mamlakatlarda adolatning muntazam salohiyatini ta'minlash uchun sud tizimi mavjud. Hozir amalda bo'lgan **140dan ziyod davlatlarning konstitusiyalarida sud tizimi va uning faoliyatiga alohida urin berilgan.** O'zbekiston Respublikasining 1992 yilga Konstitusiyasida ham **106-116-moddalar mahsus bobga ajratilib, sud tizimining asoslariga bagishlangan.**

O'zbekistonda demokratik jarayonlarni chuqurlashtirishda sud hokimiyatining shakllantirish muhim ahamiyatga ega. "Sud islohatini chuqurlashtirish, hokimiyatning uchinchi, mustaqil va qaram bo'lmagan tarmog'i sifatida butun odil sudlov tizimini demokratlashtirish - huquqiy davlatni mustahkamlashning yana bir muhim yo'nalishidir. Sud jazolovchi organdan oddiy odamlarning huquqlari va manfaatlarini himoya qiluvchi organga aylanib, haqiqatdan ham mustaqil bo'lib kolishi mumkin", -deb uqdiradi I.A.Karimov.

O'zbekiston Konstitusiyasida sud hokimiyati mustaqilligining mustahkamlashi odil sudlovni amalga oshirishda keng imkoniyatlar ochdi. Konstitusiyaning 11-moddasiga binoan hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro va sud hokimiyatlariga to'la javob beradi.

**Sud hokimiyati Konstitusiya va halq tomonidan sudga berilgan jinoyat, fuqarolik va ma'muriy hamda ho'jalik ishlari bo'yicha huquq va adolat, qonun ustivorligi tamoyiliga amal qilish, topshirilgan ish uchun javobgarlik asosida odil sudlovni amalga oshirish imkonini beruvchi vakolatlar majmuidir.**

Demak, sud ishlari konstitusiyaviy, fuqarolik, jinoiy, ma'muriy va ho'jalik turlariga bo'linadi. Konstitusiyaviy sud ishlari "O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyaviy sud to'g'risida"gi **qonun** asosida, fuqarolik sud ishlari **fuqarolik-prosiessual kodeksi** va jinoiy sud ishlari **jinoyat-prosiessual kodeksi**, ma'muriy sud ishlari esa **ma'muriy javobgarlik kodeksi** asosida olib boriladi. Bundan tashkari, ho'jalik sud ishlari "O'zbekiston ho'jalik-prosiessual kodeksi" asosida yuritiladi.

O'zbekiston Respublikasining sud tizimi Konstitusiyaning 107-moddasi va 2000 yil 16 dekabrda yangi tahrirda qabul qilingan "Sudlar to'g'risida"gi qonunning 1-moddasida belgilangan. Unga binoan O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyaviy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy ho'jalik sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha oliy sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyat va Toshkent shahar sudlari, fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlari, jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlari, harbiy sudlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi ho'jalik sudi viloyat va Toshkent shahar ho'jalik sudlari faoliyat ko'rsatadilar. O'zbekiston Respublikasida ishlarning toifalariga karab sudlarning ixtisoslashuvi amalga oshirilishi mumkin. Favqulodda sudlar tuzishga yo'l qo'yilmaydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyaviy sudini tashkil etish va uning faoliyat tartibi alohida qonun bilan belgilanadi.

Sud tizimining faoliyatiga bog'liq yana bir kancha muhim qoidalar ham konstitusiyamizdan o'rin olgan. Ular jumlasidan hech kimning sud qarorisiz o'z huquq va erkinliklaridan mahrum etilishiga yo'l qo'yilmasligi (19 modda), mulkiy huquqlarining sud orqali himoyalaniishi (33-modda), jamoat birlashmalarini tarqatib yuborish, ular faoliyatini

taqiqlab yoki cheklab qo'yish faqat sud qarori asosida amalga oshirilishi (62-modda) kabilar alohida tahsinga loyiq. Ular sud hokimiyati jazolovchi organ emas, huquqni himoya kiluvchi ekanligini yaqqol ko'rsatadi.

Sud tizimining tashkil etilishi va faoliyatiga oid barcha muhim masalalar 1995 yil 30 avgustda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyaviy sudi to'g'risida»gi qonunda, 2000 yil 16 dekabrda yangi tahrirda qabul qilingan «Sudlar to'g'risida»gi qonunda, shuningdek, fuqarolik, ho'jalik va jinoyat-prosiessual kodekslarda batafsil bayon etilgan.

«Sudlar to'g'risida»gi qonunda sudning vazifalari ham aniq belgilab qo'yilgan. Bunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida sud O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi va boshqa qonunlarida, inson huquqlari to'g'risidagi halqaro hujjatlarda e'lon qilingan fuqarolarning huquq va erkinliklarini, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarni sud yo'li bilan himoya qilishga da'vat etilgan. Sudning faoliyati qonun ustivorligi, ijtimoiy adolatni, fuqarolar tinch-totuvligini ta'minlashga qaratilgan.

**Odil sudlovning Konstitusiyaviy tamoyillari.** Odil sudlovning konstitusiyaviy tamoyillari - bu umumiy, rahbariy, boshlang'ich qoidalar bo'lib, davlat faoliyatining ushbu sohaga hos asosiy hususiyatlarini yoritib beradi.

O'zbekiston Respublikasi odil sudloviga oid Konstitusiyaviy tamoyillarni belgilashda boshqa mamlakatlarning, shuningdek halqaro huquqiy ijobiy tajribalarni hisobga oladi.

Hususan odil sudlovni amalga oshirish va uni faoliyatini tashkil etishda «Inson huquqlari Umumjahon Deklarasiiyasi», «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Halqaro Pakt» kabi halqaro hujjatlarda o'rnatilgan insonparvarlik tamoyillariga asoslangan.

«Sudlar to'g'risida»gi yangi tahrirdagi qonunga muvofik, O'zbekistonda odil sudlovning quyidagi tamoyillari o'rnatilgan:

Odil sudlovning faqat sud tomonidan amalga oshirilishi;

Sud hokimiyatining majburiyligi;

Sud hujjatlarini majburiyligi;

Qonun va sud oldida tenglik;

Sud ishlarini yuritishning oshkoraligi;

Sud ishlarining yuritishning o'zbek, qorakalpoq yoki muayyan joydagi ko'pchilik aholi so'zlashadigan tilda olib borilishi;

Himoya va malakali yuridik yordam olish huquqining ta'minlanganligi.

**1.** Qonunga binoan, O'zbekiston Respublikasida odil sudlov faqat sud tomonidan amalga oshiriladi. Sudlarni tashkil etish va faoliyat ko'rsatish tartibi qonun bilan belgilanadi. Favqulotda sudlar tuzishga yo'l qo'yilmaydi. Qonunga binoan tashkil etilgan sudlardan tashqari hech kim yoki hech qanday organ sud hokimiyatini amalga oshirish mumkin emas.

**2.** Sud hokimiyatining mustaqilligi eng muhim konstitusiyaviy tamoyillardan biri bo'lib, Asosiy qonunda quyidagicha ifodalangan:

**106-modda. O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chikaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi.**

Sud mustaqilligining mazmuni sudlov ishlarini yuritishda shunday imkoniyatlarga ega bo'lishi bilan belgilanadiki, bunda sud faoliyatiga tashqaridan taziyoq o'tkazmasligi, birovlarining aralashmasligi, qonunga muvofiq adolatli, asosli qarorga kelishi ta'minlanishi zarur.

**3.** «Sudlar to'g'risida» yangi tahrirdagi qonunga binoan sud hujjatlari barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, mansabdor shahslar, fuqarolar uchun majburiydir hamda O'zbekiston Respublikasining butun hududida ijro etilishi shart (5-modda).

**4.** Sud oldida barchaning tengligi tushunchasi qonun oldida barcha shahslarning tengligi tushunchasiga mohiyatan mos keladi. Sud oldida barchaning tengligi, barcha shahslarga sud jarayonida javobgar yoki boshqa ishtirokchi sifatida qatnashishidan qa'tiy nazar, teng prosiesual huquq va tegishli majburiyatlarga ega ekanligida namoyon bo'ladi.

5. Sud ishlarini yuritishning oshkoraligi tamoyili Konstitusiyada quyidagicha mustahkamlangan:

**113-modda. Hamma sudlarda ishlar ochiq ko'riladi. Ishlarni yopiq majlisda tinglashga qonunda belgilangan hollardagina yo'l qo'yiladi.**

Ushbu tamoyilning mohiyati shundan iboratki, barcha fuqarolar u yoki bu sud ishlarini yuritish prosessida ishtirokchi bo'lmasada, sud ishlarining oshkora ko'rilishi tufayli sud muhokamasida qatnashishlari mumkin.

6. Sud ishlarini yuritishning qaysi tilda olib borilishi masalasining konstitusiyaviy tarzda hal etilishi va buni odil sudlovni amalga oshirishdagi muhim tamoyillardan biri sifatida o'rnatilishi demokratik -huquqiy davlatga hos hususiyatdir.

**15-modda. O'zbekiston Respublikasida sud ishlarini yuritish o'zbek tilida, qorakalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko'pchilik aholi so'zlashadigan tilda olib boriladi. Sud ishlari olib borilayotgan tilni bilmaydigan sudda qatnashuvchi shahslarning tarjimon orqali ish materiallari bilan to'la tanishish va sud ishlarida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so'zlash huquqi ta'minlanadi.**

Sud ishlari olib borilayotgan tilni bilmaydigan sud ishtirokchilariga tarjimon hizmatidan foydalanish imkoniyati kafolatlangan. Tarjimonga ham, o'z navbatida, ishni aniq hamda to'liq bajarish majburiyati yuklatiladi.

7. Odil sudni amalga oshirilishida himoya va malaka yuridik yordam olish huquqining ta'minlanishi muhim konstitusiyaviy tamoyillardan biridir. Sudga konstitusiyada belgilangan va kafolatlangan huquq va erkinliklar qatori, qonun (qonun osti hujjatlari) yoki shartnomada ko'rsatilgan huquq va erkinliklar, shuningdek manfaatlar bo'yicha ham murojaat qilinishi mumkin.

**26-modda. Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shahsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora qilib chiqilib, uning aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi. Sudda ayblanayotgan shahsga o'zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta'minlab beriladi.**

Aybsizlik prezumpsiyasi inson huquqlari sohasidagi e'tiborli halqaro hujjatlar: «Inson huquqlari Umumjahon Deklarasiyasi» (11-modda), «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida»gi Halqaro Pakt (14-modda), «Inson huquqlari va asosiy erkinliklarni himoya qilish to'g'risida»gi Evropa konvensiyasi normalarida o'z ifodasini topgan.

Aybsizlik prezumpsiyasi sudbaya, tergovchi va prokurorlarning shahsiy fikrini emas, balki shahsning ob'ektiv huquqiy holatini o'zida ifodalaydi. Surishtiruvchi organlar shahsni ayblanuvchi deb topishi, ya'ni uni ma'lum jinoyat sodir etganlikda aybdor, deb hisoblanishi mumkin, ammo bu holatda ham uning aybini isbotlash lozim.

Ayblanuvchi unga nisbatan sud tomonidan qonuniy kuchga ega bo'lgan ayblov hukmi chiqarilmaguncha qadar aybsiz deb hisoblanadi.

Ayblanuvchiga nisbatan sudning hukmi qonuniy kuchga kirguniga qadar, hattoki u ushlab turilgan bo'lsa ham, uning mehnat, oila va boshqa huquq hamda erkinliklari amalda cheklanmaydi.

Ayblanuvchi yoki gumondorning jinoyat sodir etishda aybini isbotlovchi asoslar etarli bo'lsa, qonunda ko'rsatilgan tartibda uning ba'zi bir huquq va erkinliklarini cheklash mumkinligi mustahkamlanadi.

**Himoyalani shu huquqi surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud zimmasiga, gumon qiluvchiga, ayblanuvchiga va sudlanuvchiga unga berilgan huquqlarni tushuntirib berish hamda u o'ziga qo'yilgan ayblovdan himoyalani uchun qonunda nazarda tutilgan barcha vosita va usullardan foydalanishda haqiqiy imkoniyat yaratib berishni yuklaydi.**

Sud hokimiyatining obro'si ham, mustaqilligi ham ularning qonunchilikka qanchalik mohirona yondosha olishidan kelib chiqadi.

Qonun oldida barchaning tengligini ta'minlash qonunchilikda mustahkamlab qo'yilgan qoidalar barcha shahslarga birdek qo'llashni talab etadi.

**18-modda. O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir hil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tikodi, shahsi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar.**

**Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo'yilgan hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart.**

## **2. Sud hokimiyat organlarining konstitusiyaviy-huquqiy tamoyillari.**

Sud'yalarning huquqiy holati, ularning huquq va majburiyatlari, saylanish tartibi, tayinlanishi va lavozimini egallash, ular mustaqilligining kafolatlari, shuningdek ularning moddiy va ijtimoiy ta'minoti Konstitusiya va 2001 yil 13 fevralda e'lon qilingan yangi tahrirdagi «Sud'byalar to'g'risida»gi qonun normalarida belgilab qo'yilgan. Qonunning 63-moddasiga muvofiq, oliy sud va Oliy ho'jalik sudlarining sud'yalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining takdimnomasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan saylanadi.

Viloyat sudlari, Toshkent shahar sudlari, tumanlararo, tuman, (shahar) sudlari sud'yalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sud'yalarni tanlash va lavozimlariga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasining taqdimnomasiga ko'ra, ho'jalik sudlarining sud'yalari esa, O'zbekiston Respublikasi Oliy ho'jalik sudi raisining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

Harbiy sudlar sud'yalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sud'yalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

Sud'yalar **besh yil** muddatga saylanadi va tayinlanadi.

Ilk bor sud'yalik lavozimiga saylangan yoki tayinlangan shahs qonunning 64-moddasida belgilangan tartibda qasamyod qiladi.

Sud'ya sud'yalarning tegishli malaka hay'atining roziligisiz ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin emas. Sud'yalar vakolati, qonunda belgilanishicha, vakolat muddati tugagunga qadar tugatilmaydi. Sud'ya vakolatini muddatidan ilgari tugatishga faqat qonuniy asoslar mavjud bo'lgan quydagi yo'llardagina yo'l qo'yiladi: sud'yaning qasamyodini buzgan taqdirda; yozma ariza bergan taqdirda; sud'yalarning tegishli malaka hay'ati tomonidan ogohlantirish qilinganidan yoki vakolatlari to'htatilgandan keyin u sud'ya lavozimiga zid faoliyat bilan shug'ullanishini davom ettiravergan taqdirda; sud qarori bilan muomalaga layoqatsiz deb topilgan taqdirda; sog'ligi holatiga yoki boshqa o'zlari sabablarga ko'ra uzok vaqt mobaynida sud'yalik vazifasini bajarishga qodir bo'lmay qolgan taqdirda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyaviy sudi, Oliy sudi, Oliy ho'jalik sudi va ularning faoliyati.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyaviy sudi konstitusiyaviy nazorat bo'yicha sud organi hisoblanib, qonun chikaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning hujjatlari Konstitusiyaga qanchalik mosligiga doir ishlarni ko'radi.

Konstitusiyaviy sudning faoliyati yil 1995 yil 30 avgustdan qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyaviy sudi to'g'risida»gi qonun bilan tartibga solinadi.

Konstitusiyaviy sud O'zbekiston Respublikasi Prezidentining takdimiga binoan Oliy Majlis tomonidan sud Raisi, Rais o'rinbosari va Qoraqalpog'iston Respublikasidan saylanadigan sud'yani qo'shgan holda **Konstitusiyaviy sudning besh a'zosidan** iborat tarkibida saylanadi.

Sud'ya Konstitusiyaviy sud tarkibidan chiqib ketgan taqdirida Oliy Majlis ushbu modda belgilangan tartibda boshqa shahsni saylaydi.

Konstitusiyaning **107- moddasiga** muvofiq Konstitusiyaviy sud **besh yil** muddatga saylandi. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyaviy sudi sud'yasini almashtirib bo'lmaydi va uning vakolatlari qonunda belgilangan tartib hamda asoslardan o'zga tarzda to'htalishi yoki to'htalib turishi mumkin emas.

Qonun tomonidan konstitusiyaviy sud sud'yaligiga nomzodlar uchun yuqori talablar o'rnatilgan.

«O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyaviy sudi to'g'risida»gi qonunining 12-moddasida siyosat va huquq sohasi mutahasislari bo'lgan, yuksak ma'naviy fazilatli va zarur malakali O'zbekiston Respublikasi fuqarosi Konstitusiyaviy sud sud'yasi etib saylanishi mumkinligi ko'rsatilgan. Konstitusiyaning 97-moddasiga ko'ra, vakolati tugashi munosabati bilan is'tefoga chiqqan Prezident umrbod Konstitusiyaviy sud a'zosi lavozimini egallaydi.

Konstitusiyaviy sudning sud'yasi etib saylangan shahs qonunda belgilangan tartibda qasamyod qiladi.

Konstitusiyaviy sud sud'ylariga sud'yalik lavozimiga zid faoliyat bilan shug'ullanishi man etilgan, hususan deputatlik mandatiga ega bo'lish. Siyosiy partiyalarga va harakatlarga a'zo bo'lish, haq to'lanadigan boshqa lavozimini egallashi mumkin emas, shuningdek, sudda, ho'jalik sudida yoki boshqa organlarda qonuniy vakil bo'lib, shahslarning manfaatiga yoki majburiyatidan qutulishiga ta'sir o'tkazuvchi homiylik qilishiga yo'l ko'yilmaydi.

Konstitusiyaviy sudga tegishli masalalar zaruriyatiga qarab o'tkaziladigan sud majlislarida ko'rib chiqiladi.

Konstitusiyaviy sud sud'yasiga nisbatan jinoiy ish faqat O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan qo'zg'atilishi mumkin.

Konstitusiyamizning 109-moddasi ham «O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyaviy sud to'g'risida»gi qonunining 1-moddasiga binoan Konstitusiyaviy sud quyidagi vakolatlarga ega:

- qonunlarning va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis qabul kilgan boshqa hujjatlarning, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlarining, hukumat qarorlarining, davlat hokimiyati mahalliy organlari qarorlarining, O'zbekiston Respublikasi davlatlararo shartnomalarining va boshqa majburiyatlarning O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga mosligini aniklaydi;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitusiyasi O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasiga, Qoraqalpog'iston Respublikasining qonunlari O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofikligi to'g'risida hulosa berdi;
- O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi va qonunlari bilan berilgan vakolat doirasida boshqa ishlari ham kurib chikadi;
- Konstitusiyaviy sudning qarorlari matbuotda e'lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi va ular ustidan shikoyat qilish mumkin emas.

#### **O'zbekiston Respublikasining Oliy sudi va uning huquqiy maqomi**

Konstitusiyaning 110-moddasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi fuqarolik, jinoiy va ma'muriy sudlov ishlarini yurgizish borasida sud hokimiyatining oliy organi hisoblanadi.

Oliy sud faoliyatini tashkil qilish va tartibga solish O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 14 dekabrda qabul qilingan «Sudlar to'g'risida»gi (yangi tahriridagi) qonuni bilan tartibga solindi.

Oliy sud, qoidaga ko'ra, quyi sudlarning ma'lum ishlari bo'yicha yo'l ko'yilgan hato va kamchiliklarni tuzatish maqsadida ular tomonidan qabul qilingan qarorlarning qonuniyligi va kanchalik asosli ekanligini tekshirish yo'li bilan ularning faoliyatini nazorat qiladi.

Oliy sud, sud amaliyotini umumlashtirish asosida, sud ishlarini ko'rib chiqishda yuzaga keladigan qonunchilikni qo'llash masalasidagi muammolar bo'yicha tushuntirishlar beradi.

Oliy sud sudlov ishlarini birinchi instanssiya, appelasiiya, kassasiiya hamda nazorat tartibida ham ko'rib chiqish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi eng yuqori sudlov instanssiyasi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sud'ylari va Qoraqalpog'iston Respublikasi oliy sudlarining raislari iborat tarkibda ish olib borishadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi plenum a'zolarining kamida uchdan ikki qismi hozir bo'lgan taqdirda vakolatli hisoblanadi.

Oliy sud plenumining asosiy vazifalaridan biri sudlov amaliyotini umumlashtirish materiallarini ko'rib chiqish va qonun hujjatlarini qo'llash masalalari bo'yicha tushuntirishlar olib borish.

Oliy sud faoliyatini tashkil qilish va unga rahbarlik qilish avvalo, Oliy sud raisi zimmasiga yuklatilgan. Bu vazifalardan tashqari, umumiy yurisdiksiyali sudlarning barcha hukm va boshqa qarorlariga qonunda belgilangan tartibda protest berish hamda ular ijrosini to'htatib qo'yish huquqiga ega.

#### **Oliy sud raisi:**

- \* sud ishlarini nazorat tartibida tekshirish uchun talab qilib oladi;
- \* sud tomonidan chiqarilgan hal qiluvchi qarorlari ijrosini qonunda nazarda tutilgan tartibda nazorat qiladi;
- \* O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi plenumi va Rayosatini chaqiradi;
- \* O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyaviy sudiga takdimnomalar kiritadi;
- \* O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sud'yalarning intizomiy javobgarligi haqida ish qo'zg'atadi;
- \* Rais o'rinbosarlari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi;
- \* O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining shtat jadvalini tasdiqlaydi;
- \* Buyruq va farmoyishlar chiqaradi;
- \* O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi hodimlari bilan mehnat shartnomalarini tuzadi va bekor qiladi;
- \* Fuqarolarni shahsan qabul qiladi hamda ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqish ishlarini tashkil etadi;
- \* Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

#### **O'zbekiston Respublikasi Oliy ho'jalik sudi**

Iqtisodiy sohalarda, turli mulk shakllariga ega tashkilotlar, idoralar, korhonalarni boshqarish jarayonida, shuningdek tadbirkorlar orasida vujudga keladigan munosabatlarda yuzaga chiqqan bahslarni hal qilish respublikamizdagi ho'jalik sudlari tizimi tomonidan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi ho'jalik sud tizimi O'zbekiston Respublikasining Oliy ho'jalik sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi ho'jalik sudi, viloyatlar hamda Toshkent shahar sudlari tashkil qiladi.

Ho'jalik sudlarining asosiy vazifalari: tashkilotlar va fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlarni himoya qilish, qonunchilikni to'g'ri va bir hilda qo'llash; iqtisodiy munosabatlarda qonuniylikni mustahkamlash va qonunchilikning huquqiy vositalardan foydalanish uchun sharoit yaratishdan iborat.

Ho'jalik sudi faoliyatining asosiy tamoyillari: qonuniylik, ho'jalik sud'yalarning mustaqilligi, sud va qonun oldida hammani tengligi; tomonlarning teng huquqliligi, ish yuritishda oshkoralik, sud muhokamasi yuritishda oshkoralik, sud muhokamasini bevosita va uzviy amalga oshirish hisoblanadi.

«Sud to'g'risida»gi (yangi tahrirdagi) qonunning 43-moddasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy ho'jalik sudi ho'jalik ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organidir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ho'jalik sudi Qoraqalpog'iston Respublikasi ho'jalik sudining, viloyatlar va Toshkent shahar ho'jalik sudlarining sudlov faoliyati ustidan nazorat olib borish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasi oliy ho'jalik sudi ishlarini birinchi instansiya sudi sifatida, kasasiya tartibida va nazorat tartibida ko'radi.

Oliy ho'jalik sudi respublika boshqaruv organlari, mahalliy vakillik organlari va ijro hokimiyati organlari orasida o'zaro iqtisodiy bitimlardan kelib chiquvchi nizolarni, shuningdek, normativ harakterdagi oliy hokimiyat organlarining aktlarini (qisman yoki tamoman) Konstitusiyaga va qonunlarga muvofiqligini aniqlash bo'yicha ishlarni birinchi instansiya sudi sifatida ko'rib chikadi.

Oliy ho'jalik sudi respublika ho'jalik sudlarining qonuniy kuchga kirgan sudlov aktlarini hamda shunday aktlarni yangi ochilgan holatlar bo'yicha nazorat tartibida qayta ko'rib chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ho'jalik sudining plenumi respublika ho'jaliklari faoliyatidagi asosiy masalalarni hal qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ho'jalik sudi rayosatining tarkibini O'zbekiston Respublikasi oliy ho'jalik sudi plenumi belgilaydi. O'zbekiston Respublikasi Oliy ho'jalik sudi sud'yalari hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy ho'jalik sudi raisi, uning birinchi urinbosari va urinbosarlari O'zbekiston respublikasi Oliy ho'jalik sudi rayosatining tarkibiga lavozim bo'yicha kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ho'jalik sudining sudlov hay'atlari: ishlarni birinchi instanssiya va kassasiya tartibida ko'radi, sud amaliyotining o'rganadi va umumlashtiradi, qonun hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi, sud statistikasini tahlil qiladi, qonunga muvofik boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Oliy ho'jalik sudi sudlov hay'atlaridan tegishli hay'at tarkibiga kiruvchi sud'yalar orasida sud tarkiblari tashkil qilinadi. Sud tarkiblari tashkil qilinadi. Sud tarkiblarini Oliy ho'jalik sudi raisi shakllantiradi.

### **3. O'zbekiston Respublikasida prokuratura organlari tushunchasi va tizimi.**

Mustaqillik kunlariga qadar, prokuratura organlarida ishlash uchun tanlanadigan nomzodlar kommunistik partiya va sovet hokimiyati organlari tomonidan tayinlandi. Ularning esa o'z faoliyatlari davomida, shu hokimiyat organlari oldida hisobot berib turishlari qonunlarda ifodalandi. Buning oqibatida prokuratura organlari o'z faoliyatlarini olib borish ishlarida mazkur tashkilotlarga qaram qilib qo'ydi. Bunday holatlar prokuratura organlarini mahalliy hokimiyat organlari tomonidan ularning ichki ishlariga bemalol aralashish imkoniyatiga sharoit yaratib berdi.

1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan, O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi prokuror nazoratining Konstitusiyaviy tamoyillarini belgilab berdi. Prokuror nazoratining Konstitusiyaviy tamoyillari Asosiy qonunning XXIV-bobida o'z ifodasini topdi. Bunga asosan, O'zbekiston Respublikasida prokuratura organlari 119-moddada aks ettirilganidek, tashkil etildi. Endi davlatning yagona markazlashtirilgan tizimiga O'zbekiston Respublikasining **Bosh prokurori** boshchilik qiladi. Bu tomoyillar 1992 yil 9 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan qabul qilingan edi. YAngi tahriddagi qonunda ham o'z aksini topdi, ya'ni «O'zbekiston Respublikasi Prokuraturasi to'g'risida»gi qonunida yanada rivojlantirildi. Prokuror nazoratining yagona markazlashtirilgan tizimining konstitusiyaviy tamoyillariga, har bir prokuror, prokuratura organlari, yagona davlat boshqaruvi tizimining vakili sifatida faqat konstitusiyaya va qonunlar asosida faoliyat yuritishi tushuniladi. SHuningdek unga ko'ra, prokurorlar (tuman, viloyat, shahar, respublika) **qonun buzilishini aniqlash va uni bartaraf qilishda bir hil vakolatlardan**, (ba'zi bir istisnolardan tashqari) foydalanadilar.

O'zbekiston Respublikasida Prokuratura organlarining tashkiliy-huquqiy asosi Konstitusiyaning 118-moddasida o'z ifodasini topgan; «O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir hilda bajarilishi ustidan nazoratni O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar amalga oshiradi», -deb belgilangan. Markazlashtirish tamoyili, prokuror nazoratini amalga oshirayotgan quyi turuvchi prokurorlarni, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga bo'ysunishlari tushuniladi. **Markazlashganlik tamoyili** prokuratura organlari tizimini tashkil qilish bilan ham bog'liqdir. ("Prokuratura to'g'risida"gi qonunning 5-moddasi.)

Bu tamoyilga ko'ra, yuqori turuvchi prokurorning buyrug'i va ko'rsatmalarini bajarish, quyi turuvchi prokurorlar uchun majburiy hisoblanadi. Markazlashganlik tamoyili O'zbekiston Respublikasi hududida yagona qonunchilikni joriy qilish, qonun buzilishi hollariga darhol barham berish, qonunlarning aniq va bir hilda bajarilishi ustidan nazoratni tezkorlik bilan amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Prokuratura faoliyatining mustaqilligini ta'minlashda Asosiy qonunning 120-moddasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu moddaga binoan, «O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari, o'z vakolatlarni har qanday davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shahslardan mustaqil holda, faqat qonunga bo'ysinib amalga oshiradilar», deb ko'rsatilgan. Bu tamoyil prokuratura organlarining o'z faoliyatlarini davlat nomidan amalga oshirishlarida, mahalliy idoralar tomonidan qonun buzilish hollarini aniqlash va

ularni bartaraf qilish choralarini ko'rishlarida kafolat bo'lib hizmat qiladi. Bu esa prokuratura organlarining mustaqilligini ta'minlaydi.

Prokurorlarning faoliyatlariga har qanday yo'llar bilan mahalliy idoralar mansabdor shahslarining aralashuviga yo'l qo'yilishi bu tamoyilning qo'pol ravishda buzilishiga olib keladi va bu qonunga hilof bo'lib, uni sodir qilgan shahs javobgarlikka tortiladi.

**Bu tamoyil** prokurorlarni o'z faoliyatlarini amalga oshirishlarida holisona bo'lishlarini ta'minlashga qaratilgandir. **Holislik tamoyiliga** ko'ra, prokuratura idoralariga ishga qabul qilingan shahs, unga qadar biron bir partiya a'zosi bo'lsa, a'ziligini to'htatib turishi talab qilinadi, ishlab turgan prokurorlarning esa siyosiy partiyalarga yoki birlashmalarga a'zo bo'lib kirishlari man etiladi, agar bunday holat aniqlansa, o'z lavozimlaridan ozod etiladi.

«Bu esa prokurorlarning o'z faoliyatlarini amalga oshirishda biror bir shahs, idora yoki bir guruh shahslarning manfaatlarini ko'zlab, harakat qilishlariga barham beradi, barcha mansabdor shahslar va fuqarolar tomonidan qonunlarning bir hilda bajarilishi ustidan nazorat olib borish orqali Respublikaning butun hududida qonun ustivorligini ta'minlash uchun shart-sharoit yaratdi.

Prokuror nazoratining konstitusiyaviy tamoyillari bir-biri bilan o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, prokuror nazorati davlat faoliyatining mustaqil shakli ekanligini ifodalovchi asosiy holatlarni ochib beradi. Uning amaliy ahamiyati ham shundadir.»


O'zbekiston Respublikasining Prokuratura idoralari faoliyatini tashkil etish, Konstitusiyaga va boshqa amalda bo'lgan qonunlar, prokuratura to'g'risidagi qonun bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va uning o'rinbosarlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimiga tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi va bu masala Oliy Majlis Senati tomonidan tasdiqlanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Prokurori O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori bilan kelishilgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy vakillik organi Juqorg'i Kenges tomonidan tayinlanadi. Viloyatlarning prokurorlari tuman va shahar prokurorlari O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan tayinlanadi.

O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikalarining Bosh prokurorlari va boshqa hamma prokurorlar **5 yil muddatga** tayinlanadi.

### **O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining tizimi**



O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida qonunchilik tashabbusi huquqiga egadir.

SHuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Plenumi va Oliy ho'jalik sudining Plenumi majlislarida, uning o'rinbosari esa O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosatining majlislarida ishtirok etadilar.

O'zbekiston Respublikasida amaldagi qonunlar asosida prokuratura organlarining faoliyati takomillashtirildi, kuchli ijroiya hokimiyatning nazorat funksiyasi davr talabi darajasida yaratildi. Prokuratura organlarining endigi va kelajakdagi vazifalari, mustaqil O'zbekistonimizda huquqiy davlatni barpo etish, eng avvalo, inson va fuqarolarning Konstitusiyaviy huquq va erkinliklarini qonuniy himoya qilishni ta'minlash va davlat nomidan kafolatlashga qaratilgandir.

#### **4. O'zbekiston Respublikasida prokuratura organlarining vakolatlari va faoliyati.**

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga binoan (**XXIV-bob**) Prokuratura – O'zbekiston Respublikasi hududida O'zbekiston Respublikasi nomidan qonunlarning aniq va bir hilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi organlarning yagona markazlashtirilgan tizimi hisoblanadi.

**O'zbekiston Respublikasida prokuratura organlarini tashkil etish, prokurorlarning vakolatlari va faoliyat ko'rsatish tartibi O'zbekiston Konstitusiyasi (XXIV bob), 2001 yil 29 avgustdagi "Prokuratura to'g'risida"gi qonun (yangi tahriri), jinoyat kodeksi, jinoyat-prosiessual kodeksi va boshqa qonunlar bilan belgilanadi.**

Prokurorlik faoliyatining maqsadi qonun ustivorligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash, inson va fuqarolarning huquqlari hamda erkinliklarini, shuningdek qonun bilan qo'riqlanadigan jamiyat va davlat manfaatlarini muhofaza qilishdan iboratdir. SHunga muvofiq, "Prokuratura to'g'risida"gi qonunning (yangi tahriri) 1-moddasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir hilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Prokuratura qonunlarni aniq va bir hilda ijro etilishini nazorat qilish orqali O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-prosiessual qonun hujjatlarida belgilangan doirada jinoyiy ta'qibni amalga oshiradi va jinoyatchilikka qarshi kurashda huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatini muvofiqlashtiradi.

Qonunda prokuratura organlari faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biri, ya'ni prosiessual qonunchilikka muvofiq, prokurorning sudlarda ishlarni ko'rishda ishtirok etishi hamda qonunlarga zid bo'lgan sudlarning hukmlari, ajrimlari, qarorlari ustidan protest keltirishi alohida ta'kidlab o'tilgan.

Respublika prokuraturasi huquq ijodkorligi sohasida faol ishtirok etadi. Prokuratura to'g'risidagi qonunning 13-moddasiga binoan Bosh Prokuror O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida qonunchilik tashabbusi huquqiga ega.

Prokuratura zimmasiga qonunda nazarda tutilmagan vazifalarni yuklash mumkin emas.

#### **Prokuratura organlari faoliyatini amalga oshirish prinsiplari va tizimi**

Prokuratura o'z faoliyatini tegishli prinsiplarga asoslanib amalga oshiradi. Ular faoliyatining asosiy prinsiplari birlik, markazlashganlik, qonuniylik, mustaqillik va oshkoralikdir. ("Prokuratura to'g'risida" yangi tahrirdagi qonunning 5-moddasi).

Prokuratura organlarining birligi va markazlashtirilganligi quyi pog'onadagi prokurorlarning yuqori pog'onadagi prokurorlarga bo'ysunishi tartibida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori boshchiligidagi yagona markazlashtirilgan tizimni tashkil etishlari tushuniladi. Mazkur tamoyil barcha bo'g'inlardagi prokurorlarning oldida turgan maqsad va vazifalarning birligini hamda qonunlarning ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish shakli va uslublarining umumiyligini, qonun buzilishi aniqlangan dalillariga nisbatan prokurorning ta'sir ko'rsatish vositalari, shuningdek qonunbuzarliklarning oldini olish choralari ko'rishning yagonaligini anglatadi. **YAgonalik prinsipi** yuqori pog'onadagi prokurorlar zimmasidagi o'z vakolatlarini quyi turuvchi prokurorlarga berish yoki quyi prokurorlarning vakolatlarini o'z zimmasiga olish huquqini beradi.

Prokuraturaning **mustaqilligi** prinsipi prokuratura idoralarining nazoratni va o'z vakolatlarini davlat faoliyati hamda boshqaruv idoralaridan, mansabdor shahslardan, jamoat

birlashmalaridan mustaqil ravishda O'zbekiston Respublikasi hududida amal qilib turgan qonunlarga, halqaro va davlatlararo shartnomalarga (bitimlarga) qat'iy rioya etib, faqat O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga bo'ysungan holda amalga oshirilishini bildiradi. Qonun prokurorlik nazoratini amalga oshirishda aralashuvga yo'l qo'yilmasligini mustahkamlaydi. Prokurorning g'ayriqonuniy qaror qabul qilishiga erishish maqsadida unga qanday shaklda bo'lmasin biron-bir ta'sir ko'rsatish yoki faoliyatini amalga oshirishga to'sqinlik qilish, uning dahlsizligiga tajovuz qilish, shuningdek prokuror yoki tergovchining ruhsatisiz tekshirishlar va dastlabki tergov ma'lumotlarini oshkor etish, prokurorning talablarini bajarmaslik belgilangan tartibda javobgarlikka tortishga sabab bo'ladi (Qonunning 5-moddasi. 6-qismi). O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori faqat O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Oliy Majlis Senati oldida hisobdordir. (Qonunning 14-moddasi.)

**Prokuratura idoralari siyosiy partiyaviylikdan holi qilingan bo'lib, ularda siyosiy partiyalar va harakatlarning tashkiliy tuzilmalarini tuzishga yo'l qo'yilmaydi.**

Prokuratura faoliyatidagi oshkoralik prokuraturaning huquqni muhofaza qiluvchi boshqa idoralar kabi o'z vazifalarini jamoatchilik va fuqarolardan ajralmagan holda amalga oshirishini bildiradi. Prokuratura organlari qonuniylik hamda jinoyatchilikning ahvoli, asosiy yo'nalishlari to'g'risida, boshqaruv idoralari tomonidan qonunlarga rioya etilishini ta'minlash, davlat va jamoat tartibini saqlash, fuqarolarning huquqlarini muhofaza qilish borasidagi vazifalar qanday bajariyotganligini tegishligiga qarab, O'zbekiston Respublikasi Prezidentini, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini, Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat hokimiyatining oliy idoralari, O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumatlarini, halq deputatlarini mahalliy Kengashlari va mahalliy ijro hokimiyatlarini habardor qiladilar. Qonunga ko'ra, prokuratura organlari, fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish to'g'risidagi, shuningdek davlat siri hamda qonun bilan muhofaza qilinadigan boshqa sirni saqlash haqidagi qonun talablariga zid kelmaydigan darajada oshkora ish ko'radilar.

Shuningdek, Konstitusiyada belgilangan **qonuniylik prinsipi**ni ham alohida qayd qilish kerakki, unga muvofiq prokuratura idoralari o'z vazifalarini bajarishda Konstitusiyaga, Prokuratura to'g'risida"gi qonun va O'zbekiston Respublikasi hududida amalda bo'lgan boshqa qonun hujjatlari, halqaro shartnomalar (bitimlar)ga rioya etgan holda ish ko'radilar.

O'z vazifalari va maqsadlarini amalga oshirish uchun prokurorlar, hususan, O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurori, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, tegishli ravishda O'zbekiston Respublikasi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi barcha davlat hokimiyati va boshqaruvi idoralari, majlislarida belgilangan tartibda qatnashish huquqiga egadirlar, viloyatlar, Toshkent shahri, shaharlar va tumanlarning prokurorlari, ularga tenglashtirilgan prokurorlar belgilangan tartibda **tegishli va quyi darajadagi hokimiyat va boshqaruv organlarining majlislarida ishtirok etishga haqlidirlar.**

**Prokuratura idoralari** fuqarolarning ariza va shikoyatlarini, davlat, jamoat hamda boshqa tashkilotlarning murojaatlarini qarab chiqadilar va basharti, hal etishning boshqa tartibi belgilanmagan bo'lsa, fuqarolar hamda tashkilotlarning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish chora-tadbirlarini ko'radilar.

Prokurorning shikoyat va ariza bo'yicha qabul qilgan qarori ustidan yuqori pog'onadagi prokurorga shikoyat qilish mumkin. Bunda qarori yoki harakati ustidan arz qilingan mansabdor shahsga yohud idoraga shikoyatni qayta yuborish taqiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi prokuratura idoralari tizimi O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokuraturasi, viloyatlar, Toshkent shahri, shaharlar va tumanlar, tumanlararo va boshqa hududiy prokuraturalardan iboratdir. O'zbekiston Respublikasi prokuratura idoralari tizimiga, shuningdek transport, harbiy, tabiat muhofazasi prokuraturalari va boshqa ihtisoslashtirilgan prokuraturalar ham kiradi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan viloyatlar va tumanlar prokuraturalariga tenglashtirilgan boshqa prokuraturalar, tuman prokuraturalariga ega bo'lgan shaharlarda esa tuman prokuraturalariga bo'ysunadigan shahar prokuraturalari tuzilishi mumkin. O'zbekiston

Respublikasi Bosh prokurori tomonidan tuziladigan transport, tabiatni muhofaza qilish prokuraturalari, boshqa ixtisoslashtirilgan prokuraturalar, viloyatlar, tumanlar prokuraturalari vakolati bilan tashkil etiladi hamda faoliyat ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi harbiy prokuraturasini tashkil etish va uning ish tartibi "Prokuratura to'g'risida"gi qonun, boshqa qonun hujjatlari hamda O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori tomonidan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy prokuratura to'g'risida"gi Nizomi bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi prokuraturasining yagona tizimiga kirmaydigan prokuratura organlarini O'zbekiston Respublikasi hududida tashkil etilishiga va faoliyat yuritishiga yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va "Prokuratura to'g'risida"gi qonun (12-modda)ga binoan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 5 yil muddatga tayinlanadi (lavozimidan ozod etiladi), so'ngra O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati tasdig'idan o'tadi va ular Oliy Majlis Senati hamda Prezident oldida hisobdordir. Bosh prokuror yo'qligida yoki uning o'z vazifalarini bajarishning imkoni bo'lmasa, uning vazifalarini birinchi o'rinbosari bajaradi, u ham bo'lmaganda yoki vazifalarini bajarish imkoni bo'lmaganda Bosh prokuror o'rinbosarlaridan biri tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori O'zbekiston Respublikasi Prezidentini qonuniylik, huquq-tartibotning ahvoli to'g'risida muntazam habardor etib turadi va besh yilda kamida bir marotaba O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi Senatiga o'z faoliyati haqida hisobot taqdim etadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Prokurori O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori bilan kelishilgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi Davlat hokimiyatining oliy organi tomonidan 5 yil muddatga tayinlanadi va ular oldida hisobdordir.

Viloyat prokurorlari va Toshkent shahri prokurori hamda ularga tenglashtirilgan prokurorlar O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan **5 yil muddatga** tayinlanadilar, unga va yuqori pog'onadagi prokurorlarga bo'ysunadilar va ularning oldida hisobdordirlar.

O'zbekiston Respublikasi prokuraturasiga O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurori boshchilik qiladi. U O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadigan va ozod etiladigan, keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati tasdig'idan o'tadigan birinchi o'rinbosariga, o'rinbosarlariga ega. O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurori o'z o'rinbosarlari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi.

Respublika Prokuraturasida O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurori, uning birinchi o'rinbosari, o'rinbosarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, O'zbekiston Respublikasi harbiy prokurori prokuratura idoralarining boshqa rahbar hodimlaridan iborat tarkibda hay'at tuziladi. Hay'atning shahsiy tarkibini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tasdiqlaydi. O'zbekiston Respublikasi Prokuraturasida bosh boshqarmalar, boshqarmalar va bo'linmalar tuzilib, ularda katta prokurorlar va prokurorlar faoliyat ko'rsatadi. Mazkur boshqarmalar va bo'limlar rahbarlari Bosh prokuror tomonidan tayinlanadi va ozod etiladi.

### **Prokuror nazorati**

**Prokuror nazorati deganda, davlat nomidan amalga oshiriladigan mahsus vakolatli mansabdor shahslar-prokurorlarning huquq buzilishlarini o'z vaqtida aniqlash va ularni bartaraf etish choralarini ko'rish, aybdorlarni javobgarlikka tortish orqali qonunni bir hilda qo'llanilishi va aniq ijro etilishini ta'minlash faoliyati tushuniladi.** Prokuror nazorati prokuratura faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. "Prokuratura to'g'risida"gi qonunga ko'ra, bu yo'nalishlar prokurorlik nazoratining to'qqizta sohasiga bo'linadi:(Qonunning 4-moddasi.)

1. Qonunlarga rioya etilish ustidan umumiy nazorat;
2. Jinoyatchilikka qarshi kurash idoralarining qonunlarni ijro etishlari ustidan nazorati;
3. Sudlarda ishlarning ko'rib chiqilishida prokurorning ishtiroki (sudlarda ishlarni ko'rishda prokurorning vakolatlari-3-bo'lim);

4. Ushlanganlarni saqlab turish, dastlabki qamoq, sud tayinlagan jazo va boshqa jinoyi-huquqiy ta'sir choralarini o'tash joylarida qonunlarning bajarilishi ustidan nazorat.

**Umumiy nazorat predmetiga quyidagilar kiradi:** barcha vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralari, davlat nazorat idoralari, hokimlar, muassasalar, korxonalar, tashkilotlar, birlashmalar harbiy qismlar, harbiy idoralar, vazirliklar va idoralarning harbiy bo'linmalari, jamoat tashkilotlari, mansabdor shahslar qonunlarni bajarganligi, shuningdek, ular chiqarayotgan hujjatlar O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va qonunlariga muvofiqligi, shahsning dahlsizligi to'g'risidagi, fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, shahsiy huquq va erkinliklari to'g'risidagi, ularning sha'ni va qadr-qimmatini muhofaza qilish (basharti ushbu huquqlarni muhofaza etishning o'zga tartibi ko'zda tutilmagan bo'lsa) to'g'risidagi qonunlarga rioya etilishi, iqtisodiy munosabatlarga atrof-muhitni muhofaza qilish va tashqi iqtisodiy faoliyatga doir qonunlarga rioya etilish, fuqarolarning qonunlarga rioya etishlari, nazoratni amalga oshirayotganda prokuratura organlari boshqa davlat organlarining o'rnini bosmaydi.

Prokuror ta'sir ko'rsatishni, aralashuvini talab qiladigan qonun buzilish hollari haqida arizalar yoki boshqa ma'lumotlar tushganda, shuningdek etarli asoslar bo'lganda ham o'z tashabbusi bilan qonunlar ijrosini tekshiruvlari o'tkaziladi.

Bunda prokuror hizmat guvohnomasini ko'rsatib, tekshirilayotgan organlarning hududi va binolariga hech qanday moneliksiz kirish, rahbar va boshqa mansabdor shahslardan zarur hujjat va materillarni talab qilish, qonunlar buzilganligiga doir tushuntirishlar olish uchun mansabdor shahslar va fuqarolarni chaqirtirish huquqiga ega.(Qonunning 22-moddasi.)

39-modda:"Qonunda belgilangan asoslarga ko'ra **prokuror jinoyi ishlar, intizomiy ishlar yoki ma'muriy huquqbuzarliklarga doir ishlarni qo'zg'atadi**", ko'rib chiqishi uchun materiallarni jamoatchilik muhokamasiga topshiradi: davlat idoralari, jamoat birlashmalari va mansabdor shahslarga qonunbuzarlik hollarini, shuningdek qonun buzilishining sabablari va bunga yo'l ochib bergan shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida taqdimnoma kiritadi; fuqarolar, jamiyat va davlatning huquqlari hamda qonun bilan muhofaza etiladigan manfaatlarini himoya qilish to'g'risida sudlar yoki ho'jalik sudlariga ariza bilan murojaat etadi;(Qonunning 41-moddasi.)

SHuningdek, qonunda nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradilar (Prokuratura to'g'risida"gi qonuning 24-moddasi).

**Prokuror qonuniga zid bo'lgan normativ hujjatga nisbatan ana shu hujjatni chiqargan idoraga yoki yuqori turuvchi idoraga protest keltirishga haqlidir. Protest qarab chiqilishi shart qarab chiqish natijalari to'g'risida ma'lum qilinadi. (Qonunning 38-moddasi.)**

Prokuror mansabdor shahs yoki fuqaro tomonidan qonunning buzilish mazmunidan kelib chiqqan holda jinoyi ish ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi yoki intizomiy huquqbuzarlikka doir ish qo'zg'atish to'g'risida asosli qaror chiqaradi, shuningdek, qonunda nazarda tutilgan hollarda ham prokuror qaror chiqaradi.(Qonunning 39-moddasi.)

Prokuror ta'sir chorasining boshqa shakli bu qonun buzilishini bartaraf qilish yuzasidan **taqdimnomadir**. U prokuror tomonidan qonun buzilishini bartaraf etish vakolatiga ega bo'lgan davlat idorasiga, jamoat tashkilotiga yoki mansabdor shahslarga kiritiladi va darhol ko'rib chiqilishi lozim. Qonun buzilishini, unga ko'maklashgan shart-sharoitlarni bartaraf etish yuzasidan taqdimnoma kiritilgan kundan zudlik bilan chora ko'rish lozim. Natijalar tegishli tarzda yozma shaklda prokurorga 1 oy ichida ma'lum qilinishi shart.

Jinoyatlar to'g'risidagi arizalar va ma'lumotlarni qarab chiqish hamda hal etish va tekshiruvlar o'tkazishning qonunlarda belgilangan prosiesual tartibi, jinoyatchilikka qarshi kurash organlari tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarning qonuniyligi, shuningdek, jamoatchilikka qarshi kurashga qaratilgan boshqa qonunlarga og'ishmay amal qilish-jinoyatchilikka qarshi kurash idoralarining qonunlarni ijro etishlari ustidan nazoratni amalga

o'shiring bo'yicha prokuror vakolatlari "Prokuratura to'g'risida"gi qonunning 27-28-moddasida hamda jinoyat-prosiessual qonunchiligi va boshqa me'yoriy hujjatlarda belgilangan.

Prokurorning Jinoiy-prosiessual qonunlarda nazarda tutilgan tartibga muvofiq surishtiruv va dastlabki tergov organlariga tergov olib borishiga qadar tekshiruvlar o'tkazish, qo'zg'atilgan va tergov qilinayotgan jinoiy ishlar bilan bog'liq ko'rsatmalari ana shu organlar uchun majburiy hisoblanadi.

Prokuratura organlari jinoiy ta'qibni amalga oshirish chog'ida jinoyat prosiessual qonunida ularga tegishli bo'lgan vakolatlar doirasida jinoyat ishlari yuzasidan tergov o'tkazadilar. Prokuror har qanday jinoyatni tergov qilishni o'z yurituviga olishga yoki unga bo'ssunuvchi prokuror yohud tergovchiga berish huquqiga ega.

1. Sudlarda ishlarni ko'rib chiqilishidagi prokurorning vakolatlari "Prokuratura to'g'risida"gi yangi tahrirdagi qonunning IV bo'limi hamda prosiessual qonunchilikda kengroq belgilab berilgan. Prokuror sudda jinoiy ta'qibni amalga oshirish chog'ida, davlat ayblovchisi sifatida ishtirok etadi.

**Prokuror davlat ayblovini qo'llab-quvvatlar ekan, dalil-isbotlar o'rganishida ishtirok etadi, jinoyat uchun qonun qo'llanilishiga, sudlanuvchiga berilishi lozim bo'lgan jazo turi va miqdoriga doir o'z fikrini sudga bayon etadi. Bunda prokuror qonun talablariga va ish yuzasidan to'plangan materiallarni holis baholash to'g'risidagi rahbariy ko'rsatmalarga amal qiladi.**

*O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori Oliy sudning Plenumi va Oliy ho'jalik sudining Plenumi majlislarida, uning o'rinbosarlari esa, Oliy sud rayosatining majlislarida ishtirok etadilar.*

Prokuror o'z vakolatlari doirasida sudning noqonuniy va assosiz hal qiluv qarori, hukmi, ajrimi yoki qarori ustidan yuqori turuvchi prokurorga kassasiyon yohud hususiy protest keltiradi. Prokuror, shuningdek, unga berilgan vakolatlar asosida hukmlari, hal qiluv qarorlari, ajrimlari va qarorlari qonuniy kuchga kirgan har qanday ishni sudan talab qilib olish huquqiga egadir. Prokuror sud tomonidan chiqarilgan hukmlar, hal qiluv qarorlari, ajrimlari va qarorlarining noqonuniyligi va assosiz ekanligini aniqlagach, nazorat tartibida protest keltiradi yoki yuqori pog'onadagi prokurorga taqdimnoma bilan murojaat etib, protest kiritishni so'raydi.

2. Prokuror nazoratining bu sohada predmetini saqlab turish joylari va jinoiy jazoni hamda jinoiy-huquqiy ta'sir choralari ta'minlaydigan idora va muassasalarda shahslarni ushlab turish tartibi va sharoitlari haqidagi qonunlarga rioya etilganligi: ushlanganlar, qamoqqa olinganlar, hukm etilganlar, shuningdek huquqiy ta'sir etishning boshqa choralari qo'llanilgan shahslarning qonunda belgilangan huquqlari va burchlariga rioya etilishi ta'minlanayotganligi; jinoyat ijroya qonunchiligi qo'llaydigan idoralar, muassasalar va mansabdor shahslarning faoliyatida qonuniylikka rioya etilayotganligi tashkil qiladi.

Prokuror nazoratini amalga oshirish chog'ida ushlanganlarni saqlab turish, qamoq, intizomiy qismga jo'natish, ozodlikdan mahrum etish joylarida, majburiy davolash va tarbiyalash mahsus muassasalariga istalgan vaqtda moneliksiz kirish va binoning hamma joylari bilan tanishishga; shahslarni saqlab turishga, dastlabki qamoq joylarida saqlashga, shuningdek jinoiy jazoni va boshqa jinoiy-huquqiy ta'sir etish choralari qo'llashga asos bo'lgan hujjatlar bilan tanishishga; ushlanganlarni saqlash joylarida, intizomiy qismga jo'natish tarzidagi jazoni ijro etish muassasalarida, ozodlikdan mahrum qilish joylarida, majburiy davolash va tarbiyalash muassasalarida g'ayriqonuniy ravishda saqlab turilgan yoki qonunga hilof tarzda ushlangan, dastlabki qamoqda saqlanayotgan, shuningdek majburiy ravishda davolanayotgan yoki tarbiyalanayotgan shahslarni darhol ozod etishga; basharti qamoqda saqlanayotgan hamda ozodlikdan mahrum etish joylarida jazoni o'tayotgan shahslarga nisbatan qo'llanilgan intizomiy choralar qonunga muvofiq kelmasa, bu qarorlarni bekor qilish, o'z qarori bilan yuqorida ko'rsatilgan shahslarni intizomiy bo'limlardan darhol ozod qilishga, shuningdek qonunda belgilangan boshqa vakolatlarni amalga oshirish huquqiga ega.

Prokuror, shuningdek ushlanganlar, qamoqqa olinganlar, hukm qilingan va boshqa jinoiy-huquqiy ta'sir etish choralari jalb qilingan shahslarning huquqlari, ariza va shikoyati bilan

jazoni ijro etish muassasasi, boshqa davlat organlari, jamoat birlashmalari, mansabdor shahslarga murojaat qilish huquqi to'g'risidagi qonun talablariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Ushlangan, qamoqqa olingan va boshqa jazo chorasi qo'llangan shahslarni, shuningdek boshqa jinoiy-huquqiy ta'sir etish choralari qo'llanilgan shahslarning qonunda belgilangan tartibi va sharoitlari ijrosiga doir prokurorning talab va qarorlarini bajarishi majburiydir.

### **Prokurorning huquqiy maqomi**

O'zbekiston Respublikasining oliy yuridik ma'lumoti bor va zarur kasb-malakasiga ega hamda ahloqiy fazilatlariga ega bo'lgan fuqarolari **prokuror** bo'lishi mumkin. Prokuratura organlarida lavozimga birinchi marta tayinlangan shahslar qasamyod qiladilar, qasamyod matni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan tasdiqlanadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri, tuman, shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar lavozimiga yoshi **25 dan kam** bo'lmagan shahslar tayinlanadi. Prokuror O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori belgilaydigan tartibda attestasiyadan o'tadilar. Prokuror va tergovchilarga egallab turgan lavozimi va ish stajiga muvofiq darajali unvonlar beriladi.

Prokurorlar va tergovchilar pullik yuridik xizmat ko'rsatishga, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga yoki daromad beradigan boshqa faoliyat bilan shug'ullanishga haqli emas, ilmiy, pedagogik va ijodiy faoliyat bundan mustasnodir. Faoliyati qonuniyligi prokuror nazorati ostida bo'lgan saylov yo'li bilan tashkil etiladigan idoralarga prokurorning o'zi saylanishi mumkin emas.

***Prokurorlar va tergovchilar davlatning alohida himoyasida bo'lib, xizmat dahlsizligiga egadirlar.*** Prokuror va tergovchiga nisbatan jinoyat ishini qo'zg'atish va tergov qilish yuqori turuvchi prokuror bilan kelishilgan holda, faqat prokuratura organlarining mutlaq vakolatlari doirasida amalga oshiriladi. Yuqori turuvchi prokuror prokuratura hodimlariga nisbatan ma'muriy huquqbuzarlik va nojo'ya hatti-harakat uchun intizomiy javobgarlik choralari qo'llashga doir masalani hal qiladi.

Prokuror-tergov hodimlari O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan ro'yhati belgilanadigan o'q otar qurolini olib yurish huquqiga egadirlar.

Qonun shuningdek, prokuratura organlari hodimlarining moddiy va ijtimoiy ta'minotini ham belgilab bergan (jamoat transportlaridan bepul foydalanish, belgilangan normalar bo'yicha bepul kiyim-kechak bilan ta'minlanish va boshqalar).

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yhati**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, Toshkent "O'zbekiston". 2014 yil.
2. Karimov I.A. "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish ustuvor maqsadimizdir"/Prezident I.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi // T.: "O'zbekiston". 2010 B-14.
3. Karimov I. A. [«Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsiepsiyasi»](#) mavzuida 2010 yil 12 noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlis ma'ruza.
4. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -T.: O'zbekiston, 2011.
5. Karimov I.A. Ona yurtimiz bahtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. –T. O'zbekiston. 2015.
6. O'zbekiston Respublikasining kodekslari. T., "Adolat", 2010 yil.
7. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga sharhlar. -T.: "O'zbekiston", 2010.- 496
8. O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni. (yangi tahrirda) 2001 y.
8. O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonuni. –T.:Adolat, 2002.
9. O'zbekiston Respublikasining «YArashuv institutlarini tashkil etish to'g'risida»gi Qonuni // Halq so'zi, 2001, 30 avgust.

10. O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish io'g'risidagi Qonuni. // Halq so'zi. 2015 yil 10 avgust.
11. O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish io'g'risidagi Qonuni. // Halq so'zi. 2015 yil 20 avgust.

***Rustamov Ilxomiddin Abduqodirovich***